



FIDOYI VA JONKUYAR PEDAGOGLAR JURNALI

# *Ustozlar uchun*

## 2-TO'PLAM

39

Dekabr 2022

### USHBU SONDA

**84-bet**

**BOSHLANGICH SINFLARDA O`QISH  
SAVODXONLIGI BO`YICHA PISA  
DASTURINI QO`LLASH SAMARADORLIGI**

---

**116-bet**

**Tarix darslarida axborot  
texnologiyalari va zamonaviy usullarni  
qo`llashning samarasi**

---

**203-bet**

**INTERFAOL METODLARDAN  
ONA TILI VA ADABIYOT  
DARSLARIDA FOYDALANISH  
YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

---

## **Qonun ustivorligi-taraqqiyot asosi**

### **Sadriiddinov Suxrob Rustamjonovich**

#### **Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent**

Konstitutsiyamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta'minlashning muhim asosidir. Uning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini keng targ'ib etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongu shuurida Vatanga sadoqat, qonunlarimizga hurmat tuyg'usini mustahkamlash maqsadida o'tkazilayotgan uchrashuv, davra suhbat, ochiq muloqot va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar yuksak samaralar bermoqda. Haqiqiy demokratik, fuqarolik jamiyatida adolatli eng muhimi insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qiladigan insonparvar qonunlar hukmron bo'lmog'i darkor. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, inson erki, ozodligi o'z qo'lida bo'ldi. Bundan tashqari inson huquqlari borasida Ombudsman, inson xuquqlari bo'yicha milliy markaz, amaldagi qonun hujjatlari monitoring institutlarining tashkil etilganligi milliy qonunchiligimiz tajribamizni rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim qadamdir. Yurtimizning go'zalligi, beg'ubor osmoni ko'zlarni quvontiradi. O'zbekiston ham boshqa rivojlangan mamlakatlar qatori ildam qadam tashlab bormoqda va lol qoldirmoqda. Davlatimiz qonuni va ramzlarini o'z tarixi sahifalarida mustahkamlab qo'yildi. Ulardan ehg asosiy qonun-inson hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingach, o'n yildan so'ng, ya'ni 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendum natijalariga ko'ra unga turli o'zgaririshlar kiritilgan. Bundan tashqari, 2003-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra Konstitutsiyamizning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga, 2007 yil 11 apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar, 2008 yil 25 dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi birinchi qismiga o'zgartish, 2011-yil 18 aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyasining 78, 80, 93,

96 va 98-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi, 2014-yil 16 aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar, 2017 yil bir nechta moddalarga o‘zgartirish kiritilishi, 2018-yil 15 oktyabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirilganligi va 2019 yilda bir nechta moddalarga ko‘plab tuzatish va qo‘shimchalar kiritilganligi bu zamon o‘zgarishlari va insonlarni extiyojidan kelib chiqib konunlarni moslashtirishga xizmat qiladi. Faxr va g‘urur bilan aytish mumkinki, yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar bevosita qonun ustivorligi tamoyilligiga asoslangan. Jamiyatda tenglik va adolatga yo‘l ochildi. Qonun xalq hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatni boshqarish, davlat va fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish vositasidir. Demak, huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, qalqoni ham, ko‘zi ham qonundir. Yoshlarning huquqiy ongini o‘stirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va ularni qonunga hurmat-e‘tibor ruhida kamol toptirish orqali bunday yuksak, ezgu maqsadlarga erishish mumkin. Mamlamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish sari dadil harakatlarni qonun chiqaruvchi organ (parlament) faoliyatini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan islohatlar timsolida ko‘rish mumkin. Qonunchilik palatasi(quyi palata) va senat (yuqori palata)dan iborat yangi tizim bunyodga keldi. Kezi kelganda shuni aytish joizki, qonunlarni tayyorlashda ko‘p asrlik milliy huquqiy meros va qadriyatlarimizga tayangan holda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari barobarida rivojlangan demokratik davlatlarning huquqiy tajribalarini atroflicha o‘rganib, hisobga olingan. Hayotda farovonlik, erkinlik kabi tushunchalar bor. Qabul qilingan qonunlarning eng oily maqsadi ham jamiyatda ham turmush farovonligini, fuqarolarning erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlarni tayyorlash jarayonida chet el tajribalarini o‘rgangan holda haqiqiy

sharqona o'zbekona yaratuvchanlik yo'li shakllanganligini faxr bilan gapirsak arziydi. Qomusimizning mukammalligi va qonunlarning ustunligini ta'minlash, ijtimoiy turmushni tartibga solish, jamiyatdagi barcha jabhalaridagi faoliyatlarini ulug' maqsadlar sari yo'naltirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Mustaqillik adolat hukmronligi qonunga barcha birdek teng itoat etishni ta'minlashga erishish degani. Aynan istiqlol davrida qonunchilik va qonun ijodkorligining milliy huquqiy mexanizmlari yaratildi. Aholining dunyo qarashi huquqiy va siyosiy bilim darajasini, ongini oshirish ma'naviy-axloqiy barkamollikka doimiy intilish har bir fuqaroning o'zini o'zi boshqarishi va nazaorat qilish ijtimoiy adolat tamoyillarining hamma vaqt hayotiyiligini ta'minlash va idrok etish zarur. Mamlakatdagi boshqa qonunlar poydevori bo'lgani sababli Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiyada bayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatliki, hech bir odam ularsiz yashay olmaydi, negaki inson har kuni duch keladigan muammolr hal etilishi ham ko'pincha mamlakat Asosiy qonuniga kiritilgan qoidalar va moddalarga bog'liqdir. Konstitutsiya – mamlakatimiz Asosiy qonuni bo'ylab ajoyib sayohatga chiqish, bu uning qonun qoidalarini bilishdir. U garchi hajman anchayin chog'roq hujjat bo'lsa-da, unga shunchalik ko'p bilim va donishmandlik jo etilganki, mazmuni butun boshli olam bilan qiyoslagulikdir. Konstitutsiya lotin tilidan tarjima qilnganda “qoidalar” yoki “nizom” degan ma'noni anglatadi. Butun boshqaruv tizimida qonun roli va vazifasini kengaytirish, unga bo'ysinib yashashni aholi turmush tarziga aylantirish demokratik davlatning sifat ko'rinishini, fuqarolik jamiyatining beqiyos afzalligidir. Bobokolonimiz Amir Temur ta'kidlaganlaridek “Qonun hukmron joyda erkinlik bo'ladi”. Insonlar belgilangan tatib-qoidalarga amal qilsa, ularning ishlari adolatli hal etiladi, jamiyatda erkinlik va sog'lom huquqiy muhit shakllanadi. Asosiy qonunimiz konstitutsiyada belgilanishicha, har bir shaxs erkn ijod qilish huquqiga egadir. Ijodkor shaxslarni qo'llab-quvvatlash,

ularning iste'dodini yanada takomillashtirish va kamol toptirish uchun har bir viloyat, tuman va shaharlarda yoshlar markazlari va Bolalar ijodiyot uylari tashkil etilgan. Konstitutsiyaning 42-moddasida ham: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi", -deb mustahkamlab qo'yilgan. Ana shu imkoniyatlardan unumli foydalangan har bir shaxs katta-katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Bosh qomusimizda hozirgi zamon konstitutsiyalaridagi umuminsoniy qadriyatlar va xalqaro huquqning eng muhim me'yorlari mujassamlashgan. Unda, ayniqsa, insonni, uning huquq va erkinliklarini oily qadriyat sifatida e'tirof etilgani e'tiborga loyiqdir. Bizning o'zbekona milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizdan kelib chiqqan holda, Konstitutsiyaning alohida XIV bobi oila masalalariga bag'ishlangandir. Darhaqiqat, hayotning abadiyligi, avlodlar davomiyligi va barkamolligini ta'minlaydigan, milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazadigan muhim tarbiya maskani, bu shubhasiz oiladir. Bosh qomusimizning "Oila" bobi 64-moddasida quyidagi so'zlar yozilgan: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar". Mamlakatimizda dunyoga kelgan har bir farzand, toki o'sib-ulg'ayguncha, albatta, ota-ona bag'rida o'sib kamolga yetishi lozim. Konstitutsiyamizning hayotbaxsh va insonparvarligi shundaki, ne-ne orzuniyatlar bilan farzand tarbiyalayotgan insonlarning yaxshi yashashi, ishlashini kafolatlash bilan birgalikda, ularning zimmasidagi eng asosiy vazifa – farzandlarining haq-huquqlari davlat muhofazasida ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Jamiyatning asosiy bo'lagi bo'lgan oilani saqlash, farzandlar kamolatini ta'minlash shu jamiyatda yashayotgan har bir fuqaroning insoniylik va fuqarolik burchidir.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA TAFAKKURNING O'SISHIDA AFSONA VA RIVOYATLARNING O'RNI**

**Rahimberdiyeva Fazilat Ismoilovna**

**Samarqand shahar 42-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarda fanga oid tayanch kompetensiya elementlari shakllantirish jihatlari aytib o'tilgan. Tanlangan metodni qo'llash orqali o'quvchilarning tarixga, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'quvchilar ijodiy, erkin o'z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar, bu bilan ularning mustaqil fikri, dunyo qarashi o'sadi, darsdagi qiziqishlari, topqirliklari, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib borishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rivoyat, innovatsion metod, boshlang'ich ta'lim, to'rt pog'onali, Ibn Sino.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish bugungi jamiyatda maktab oldiga qo'ygan muhim talablardan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyati va faolligini o'stirishdek muhim vazifadarsdafaollikprinsipini muvaffaqiyatli qo'llash darajasi bilan chambarchas bog'langan. Pedagog olimlar fikriga ko'ra faollik tamoyili quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

- Ishning maqsad va vazifalarini aniq bilish, tushunish va tushuntirish;
- Bilish jarayonining analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va qiyoslash kabi ko'rinish va shakllarni qo'llab o'qitish;
- Har bir so'z, gap, tushunchani to'liq ochib bera olish;
- Jamo bo'lib, guruh bo'lib, bir-birini o'qitishga erishish;

-Ta'lim samarali bo'ladi, qachonki siz ishlatilishiga oid misollar ko'proq keltirsangiz;

-Har bir narsadan asosiysini topishga o'rgating;

-Har bir shaxsning individual xususiyatlarini biling, shunga mos o'qiting, muomalada bo'ling;

-O'ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgating.

-Yordamchi narsalar ko'chirish, aytib turish, nusxa olishga o'rgatmang

-Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko'proq qo'llang.

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarini afsona va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Afsona va rivoyatlar bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan poklik tuyg'ulariga orzuga bo'ladigan hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at predmetlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi kerak.

Afsona va rivoyatlar qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarni shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllanishga xizmat qiladi. Ayniqsa, darsda o'quvchilarni faolligini oshiradigan ruhiyatlarini shakllantiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr tabiatidan kelib chiqib rollarga bo'lib o'qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qish darslarida afsona va rivoyatlarni o'rganishdan maqsad tarbiyaviy vazifaning hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyatlar, mehnat o'tmish o'zbek xalq qahramonlari bilan ham o'zaro

bog'liq bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fikri, xarakteri, tasavvur va tushunchasi, idrok etish qobiliyati, irodasi, qiziqishi faolligi kabi ruhiy holatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Shunga ko'ra afsona va rivoyatlar o'quvchilarni ruhiyatini o'stirishga xizmat qiladi Vatan haqidagi tasavvurlarini boyitib boradi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300, 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so'z o'rgatiladi va bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatilib boriladi. O'quvchilarni so'z boyligini oshirishda, uning ruhiyatini shakllanishida afsona va rivoyatlarning samarasi kuchli bo'ladi. O'quvchilar bilimni rivojlantirish va uning nufuzini oshirishda pedagogik, metodik va psixoplogik tamoyillarga amal qilib, har bir o'qituvchi o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi va tizimli ravishda bolalar ona tili o'qitishning eng maqul uslublarini qo'llash orqali ko'zda tutgan maqsadiga erishishi aniq. O'qituvchi bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish, nutqida tasviriy vositalarni ishlatishga o'rgatishni taminlash kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy talablardan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fiklashga o'rgatishdir. DTSdan kelib chiqib "Shiroq" afsonasini o'quvchilarga o'rgatishda aqliy hujum metodidan foydalanib, savol, javoblar o'tkazamiz bu esa o'quvchilarning ruhiyatini takomillashishida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ta'limdagi movafaqqiyatni belgilaydi.

Dunyo ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lak, yangi islohatlar davrida ta'lim tajribalariga tayanib ish tutmoq yaxshi natijalarga olib keladi.



Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amirika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyutiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Turli ta'lim ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang'ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog'i zarur. Yaponiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari afsona va rivoyatlarni ham o'zlashtirmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o'rni beqiyosdir. Masalan, "Shiroq" afsonasida Vatanparvarlik, jasurlik, insoniylik olg'a suriladi. Bu asosda bolalar ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o'rgatishda har xil ilg'or vositalar asosida dars jarayonini olib borsak maqsadga erishamiz.

Rivoyatlar har bir sinf kesimida o'rganiladi. 3-sinf o'qish darsligida yettita rivoyat kiritilgan bo'lib, shu rivoyatlarimizdan biri "Ibn Sinoning shogirdlari " rivoyatini quyidagi, "To'rt pog'onali" metod orqali dars jarayonini olib boramiz.

"To'rt pog'onali" metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

"Tushuntirish" bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga avval oddiy rivoyatni o'qib, tushuntirib beradi. "Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish" bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko'rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi, o'quvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan

o'qituvchi o'z fikrini bildirib, xatolarini to'g'rilab turadi.

"Mashq qilish" bosqichida ta'lim oluvchilarning hatti-harakati o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. O'quvchilar ish amallarini mukammal o'zlashtirganlaridan so'ng, uni mustaqil bajaradilar.

"To'rt pog'onali" metodning asosiy belgisi o'quvchilarning harakatlari O'qituvchi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

"To'rt pog'onali" metodning afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Ibn Sinoning shogirdlari bular quyidagilar:

- Tozalik
- Parhez
- Badantarbiya
- Bemor kayfiyati

Natijaviyligi:

- Ziyraklik oshadi;
- Mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi;
- Qiyosiy o'rganish rivojlanadi.
- So'z ajratish malakasi rivojlanadi.

Bunday interfaol darslarni tashkil etish o'quvchilardan darsda faol ishtirok etishni, manbalardan foydalanib, mustaqil yakka holda guruhda jamoa bo'lib bilim olishni mavzu yuzasidan o'z mustaqil fikrini bildirishni talab etadi. Ilg'or pedagogik texnologiya usullari asosida tashkil etiladigan darslar muntazam o'tkazilib borilsa o'quvchida mustaqil bilim olish, olingan

bilimlarni tahlil qilib, erkin fikr bildirish tajribasi boshlang'ich sinflardanoq shakllanib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, N.M. Tojiboyeva Pedagogik jaaryonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. - Toshkent : "Sano -standart", 2012.
2. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi seminar trening mteriallari.-T., 2002.
3. Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar Respublika ilmiy- amaliy konfrensiya materiallari Toshkent -2014.
- 4.Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.
- 5.Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.
- 6.G'ulomova X., Yo'ldosheva sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013.

**Современные технологии в развитии креативных способностей детей  
дошкольного возраста**

**Абдужалилова Мадинахон Мухиддин кизи**

**Магистрант Чирчикского государственного педагогического  
университета**

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема компонентов творческого потенциала и эффективного развития творческих способностей человека. Поднимается вопрос об оптимальных сроках начала развития творческих способностей детей. Рассматриваются условия, необходимые для успешного развития творческих способностей.

**Ключевые слова:** Творчество, творческие способности, развитие творческих способностей, творческая личность,

Дошкольный возраст является периодом интенсивного развития творческих возможностей. Яркость чувств и воображения ребенка, непосредственность восприятия им окружающего мира, активное познание мира создают предпосылки для формирования в этот период творческой деятельности. Творить - означает созидать, создавать новое, то, что не существовало прежде. Развитие творческих способностей детей дошкольного возраста предполагает новое решение, новое видение, новый подход, то есть готовность к отказу от привычных схем и стереотипов поведения, восприятия, мышления. Творчество - это привнесение в мир чего-то нового. Мы поддерживаем точку зрения Артемьевой А.А. на то, что творчески мыслящие люди отличаются способностью переделывать, переопределять среду с тем, чтобы она соответствовала их интеллектуальным нуждам и потребностям. По определению, адаптивность творческих людей в меняющихся условиях выше просто потому, что они сами создают условия, чтобы наиболее успешно и полно реализовать свой потенциал. Творческие способности представляют собой сплав многих качеств. И вопрос о

компонентах творческого потенциала человека остается до сих пор открытым, хотя в настоящий момент существует несколько гипотез, касающихся этой проблемы. Многие психологи связывают способности к творческой деятельности, прежде всего с особенностями мышления. Важно постоянно стимулировать ребенка к творчеству проявлять сочувствие к его неудачам, терпеливо относиться даже к странным идеям несвойственным в реальной жизни. Нужно исключить из обихода замечания и осуждения. Кроме того, для развития воображения и творческих способностей существуют специальные игры, в которые можно играть с детьми в свободное от занятий время. Интересные развивающие игры разработаны Б.Н. Никитиным такие, как: сложи узор, сложи квадрат, дроби, кубики для всех. Педагогическая практика доказывает, что при подборе соответствующих методов обучения, дошкольники, не теряя своеобразия творчества, создают произведения более высокого уровня, чем их необученные само выражающиеся сверстники. Дошкольный возраст имеет богатейшие возможности для развития творческих способностей. К сожалению, эти возможности с течением времени необратимо утрачиваются, поэтому необходимо, как можно эффективнее использовать их в дошкольном детстве. В отечественной и зарубежной психолого-педагогической науке признается уникальность и особая значимость дошкольного детства как самоценного периода жизни человека. Действительно, все начинается с детства, когда ребенок активно входит в мир человеческой культуры, приобщается к ее ценностям. В этот период ребенок приобретает базовый социокультурный опыт, начинает формироваться его личность, проявляться индивидуальность. Это обуславливает повышенный интерес к дошкольному образованию как эффективному средству воспитания и развития дошкольников. Термин «педагогические технологии» получил довольно широкое распространение в контексте современного российского

дошкольного образования, что находит отражение в многочисленных публикациях; тем не менее, представляется, что его наполнение нуждается в специальных комментариях. Не ставя задачу полного раскрытия всех интерпретаций данного термина, отметим, что он наполняется разным содержанием: инструментарий; целенаправленное использование объектов, событий и отношений в воспитательном процессе; система инновационных методов, способов и средств обучения, воспитания и развития личности ребенка в современных социокультурных условиях и др. За многозначностью определений не ясна сущность технологии как новой категории дошкольной педагогики, ее качественное отличие от методики воспитания и обучения дошкольников; складывается впечатление простой подмены понятий. Вместе с тем сущностное своеобразие педагогической технологии кроется в том, что это компонент педагогической системы, созданной в образовательной организации; способ проектирования и конструирования образовательного процесса, позволяющий реализовать цели дошкольного образования, целевые ориентиры ФГОС. Технология выстраивается как система взаимосвязанной деятельности всех участников образовательного процесса; имеет этапы; в ее структуру входит педагогическая диагностика. Важным компонентом технологии является четкое описание необходимой предметно-развивающей среды. Современные технологии дошкольного образования рассматриваются как перспективное направление повышения качества воспитания и развития детей дошкольного возраста. Над их созданием, внедрением в практику работают как целые научные коллективы, так и педагоги-практики, поэтому поле данных технологий весьма мозаично. Несомненным достоинством является направленность на решение актуальных задач сохранения и укрепления детского здоровья, воспитания основ здорового образа жизни («здоровьесберегающие технологии»); ориентация на вызовы, характерные для поликультурного общества (безопасное поведение; адаптация ребенка из

семьи мигрантов в детском саду; формирование основ культуры потребления и др.). Следует отметить технологии социально-культурной деятельности и развития творческих способностей детей. Особый интерес представляют технологии организации целостного образовательного процесса на основе метода проектов. Данные технологии учитывают специфику дошкольного образования, отсутствие жесткой предметности, предлагая интегрированное содержание, соответствующее субкультуре современных дошкольников, своеобразию познавательных интересов девочек и мальчиков. Взаимодействие педагога с детьми ориентировано на постановку ребенка в позицию субъекта детской деятельности, развитие самостоятельности, инициативы, любознательности, произвольности поведения, коммуникативных и интеллектуальных способностей. Все шире в практике детского сада используются современные информационные технологии: мультфильмы, детские развивающие компьютерные игры, мультимедийные презентации и пр. При всех плюсах их использования для обогащения социокультурного опыта детей за счет расширения виртуального образовательного пространства, нельзя забывать о важности накопления ребенком разнообразного сенсорного опыта традиционным путем познания мира. Доминирование компьютерных игр таит опасность деформации опыта социального взаимодействия со взрослыми и сверстниками.

Таким образом, успешное развитие творческих способностей возможно лишь при создании определенных условий, благоприятствующих их формированию. Однако, создание благоприятных условий недостаточно для воспитания ребенка с высокоразвитыми творческими способностями. Необходима целенаправленная работа по развитию творческого потенциала детей.

Список литературы:

1. Коновалов С. В., Козырева О. А. Возможности педагогического моделирования в решении задач научного исследования // Вестник ТГПУ. 2015. № 12 (165). С.129-135.
2. Козырева О. А. Технология системно-педагогического моделирования в условиях непрерывного профессионального образования // Современные наукоемкие технологии. 2016. № 3-2. С. 355-359.
3. Козырева О.А. Культура самостоятельной работы личности в конструктах педагогической методологии // Интернетнаука. 2016. № 5. С.478-488.
4. Казакова С. Л., Козырева О. А. Особенности организации, направления и принципы воспитания детей (кадетов) в условиях детского дома // Вестник педагогических инноваций. 2010. №3 (23). С. 32-45.



## **Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy tarbiyalash omillari**

**Talipova Iroda Botir qizi**

### **Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti**

Annotatsiya. Maktabgacha pedagogika yosh avlodni barkamol shaxs etib voyaga yetkazishda ma'naviy - axloqiy tarbiyani muhim omil deb hisoblaydi. Ushbu ishda maktabgachayoshdagi bolalarni ma'naviy - axloqiy tarbiyalash zaruriyati, hamdayning o'ziga xos xususiyatlari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviy-axloqiy tarbiya, axloqiy ong, axloqiy xulq atvor, ma'naviy - axloqiy rivojlanish, axloqiy his-tuyg'u, tasavvur, madaniy xulq-atvor.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori[1] bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dastur»ning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib otgan yigilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim

tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi -faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish berish belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim bolalarga ma'naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo'lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim. Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi. Ma'naviy- axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Axloq ijtimoiy ong shakllanishidan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga. jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. ahloqkishining ichki olami, e'tiqodi,

fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob-shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi. Maktabgacha pedagogika yosh avlodni ma'naviy - axloqiy rivojlanishida tarbiya va tarbiyani muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanashida eng muhim boshqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarbiya-tarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab ma'naviy- axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy- axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatleri barham toptirish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy tarbiya metodleri - bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik

bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalarni yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish. Kamtarlik, to'g'rilik, halolik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oliyjanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday xolatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish kerakligini, o'z-o'zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi. Soddilik va rostgo'ylikni tarbiyalash yolg'onchilik va vijdotsizlik paydo bo'lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog'liqdir. Ba'zi bolalar o'zlari to'qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko'rgandek qilib ko'rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan «Ertak» to'qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalardagi harakterning ijobiy na'munalarini, ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

**XULOSA:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy

mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta'lim- tarbiya to'g'risida"gi Qonun,-T.;O'zbekiston. 2020 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat".2013
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.T.; O'qituvchi, 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta'lim pedagogika.T.; Ilm ziyo. 2006.
5. Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.
6. М.Усмонова. Педагогик жараён лойихаси - машфулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошлаетич таълим ва жисмоний маданият йуналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халкаро илмий конференция. Тошкент. 25 май, 2017 йил

## **BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI**

**26-sonli maktab matematika fani oqituvchisi**

**Matyoqubova Nodira**

**26-sonli maktab matematika fani oqituvchisi**

**Yangiboyeva Iroda**

**Annontatsiya;** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'qitishning zamonaviy metodlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar;** *Dars, ta'lim, sinf, metod, zamonaviy, bilim, o'quvchi, metod, samara.*

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi vazifalari mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallasuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda. "2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning aniq mexanizmlari belgilab berilganligi to'g'risida fikrlarini bildirib, ushbu strategiya'ning nafaqat xalqimiz, balki dunyo jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etgan muhim hujjatga aylanganligini alohida ta'kidlab o'tamiz. Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozoridagi holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o'qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini talab qilmoqda. Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bilimimizni, ishimizni samarali va amaliyotga joriy

etishda natijaviylikka e'tiborni qaratamiz. Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq.

Jamiyatimiz oldida vujudga kelayotgan muammolarni hal etishga faol kirisha oladigan, sharoitni yaxshi tushunadigan, keng qamrovli fikrlaydigan, hayotda uchraydigan kundalik va kasbiy muammolarni tushunadigan, tahlil qila oladigan, taqqoslay oladigan, amaliy hal eta oladigan insonlarga bo'lgan talab qo'yilmoqda. Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak. Hamma bunday sifatlarni matematika ta'limida kompetensiyaviy yondoshuvdan foydalanish asosida erishish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetensiyaviy yondoshuv ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta'limning yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi. Ta'limga kompetensiyaviy yondoshuv eskirib qolgan "bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish" konseptsiyasiga qarshi o'laroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. SHunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi. Ma'lumki, matematik savodxonlik barcha fanlarni, ayniqsa aniq fanlarni o'zlashtirishda muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda

matematika fanining ahamiyati beqiyosdir. Matematika – fan va texnika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, fan, madaniyat va kundalik hayotimizda alohida o'rin tutadi. Shuning uchun o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatida keng ko'lamdagi matematika bilan shug'ullanishlar bo'lishi kerak. Bunda: – matematikaga xos go'zallik va jozibadorlikdan foydalanib har bir o'quvchiga mos ravishda rivojlantiruvchi mantiqiy faoliyat bilan shug'ullanish; – jadval, diagramma, grafik ko'rinishda berilgan axborotlarni o'qiy olish, jadvallar tuzish, diagrammalar yasash, grafiklar chizish; – ommaviy axborot vositalarida berilayotgan diagramma, grafik ko'rinishdagi real sonli ma'lumotlarni tahlil etish ko'nikmalarini hosil qilish kerak bo'ladi. Fanlararo bog'lanishda amaldagi til bilan bog'lanish uchun spetsifik vosita bo'lgan matematika tilini o'qitish tamoyili ahamiyatga ega bo'ladi. Matematik savodxonlik va bu tildan unumli foydalana olish (gapning aniq mazmunini, gaplar orasidagi mantiqiy bog'lanishni bilish) fikrlashning aniqligi va tartiblilikini ko'rsatadi. O'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi harakati natijasida nimaga erishilganiga emas, balki bu natijaga qaysi yo'l bilan erishilganiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Bunda: - umumfan yo'nalishi darajasidagi o'qitish – matematik standartning o'rta maktab kursidagi bilimlarini egallash; - matematik yo'nalishda – matematikani tabiiy fanlar bilan uyg'unlashgan holda ixtisoslashgan kengaytirilgan fan yo'nalishi bo'yicha o'qitish. Bu fanni o'rganish insonning ilmga bo'lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o'qitilishiga ta'sir ko'rsatadi va ta'limda asosiy vazifani o'taydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda namoyon bo'ladigan matematik tushunchalarni yaxshi o'zlashtirish, matematik fikr yuritishga tayyor bo'lish, masala va muammolarni yecha olish, matematik tilda bemalol ish yurita olish ko'rinishidagi samarali natijalarni ta'lim usulini o'zgartiribgina erishish mumkin. Bunda izlanuvchanlik asosiy o'rin tutadi. Masalan, muammoli o'qitishda o'quvchilar nazariy va amaliy ko'rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli



vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo'yish va ularning yechilishiga yordam berish o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirib, bu fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijada o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganishadi va o'zlarining ijodiy imkoniyatlari va aniq fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi. O'qitishning zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga o'tilishi ta'lim jarayoniga qor ko'chkisi kabi ta'sir ko'rsatadi va misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keladi. Bunda yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisiining vazifasiga aylanadi. Bilimli, yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlargina jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz izlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi va ularni ta'lim jarayonida qo'llashi ta'lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish esa ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Matematika o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari quyidagi to'rt qismdan iborat: – matematik tushunchalar to'plamini bilish; – matematik mulohaza yurita olish; – matematik masala va muammolarni yechish; – matematik tilni egallash. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o'qituvchiga mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi. Bu esa matematika fanini o'qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. O'qitishga qo'yilgan maqsad va rejalashtirilgan natijalarni, asosan, didaktik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi, o'quv jarayonini va o'quv faoliyatini uyushtirish usullarini mulohaza qilib tanlanganligini ta'minlaydi. Matematikadan boshlang'ich ta'lim - tarbiyaviy vazifalari nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal

etishi mumkin. Bu o'zicha ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani va matematika fani xususiyatini o'z ichiga metodologik o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) oldi. Biroq, birgina nazariy bilimlarning o'zi, har qanday boshqa faoliyatga tayyorlanishdagi kabi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng yaroqli usullarini tiklash va qo'llanishini bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarurdir. Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish, ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat uchun xususiy, amaliy, o'quvchilar mustaqil ish natijasida xususan, seminar, amaliy va laboratoriya ishlarida matematikani o'qitish metodikasida bajariladigan ishlar orqali egallanadi. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o'zida o'qitish amaliyotida foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda ular bir qiymatli yechimga ega emas. Darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining o'qituvchi tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Boshlang'ich ta'lim metodikasi bu xususiyatni hisobga olmaydi. O'yinda o'qitish vositasi sifatida mutlaqo foydalanilmaydi. Mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli ulardan kam foydalaniladi, shu bilan birga boshqacha yo'l bilan o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi. Bolalarni 6-7 yoshdan o'qitishning mazmuni va usullarida muammolar yuzaga keladi. Sanoqni o'rganish, qo'shish va ko'paytirishni birinchi bosqichda o'rgatish (yigirma ichida) boshlang'ich ta'limning markaziy vazifasi bo'lib kelgan va shundoq bo'lib qoladi. Biroq, bu vazifa yagona bo'lib qolmasdan, balki u bolalarni

matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi bo'lib qoladi va ushbu ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi: pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash va matematika yo'li - ya'ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo natural son va geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash. Bolalarni matematikani o'rganishga tayyorlashda ishni nimadan boshlash yangicha yechimni taqozo etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" - Toshkent.: O'qituvchi, 2004.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. - T.: "Ilm-Ziyo", 2005.
3. Bikbayeva N.U. va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" - Toshkent.: O'qituvchi, 2007.

# **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**Xorazm viloyati Shovot tumani**

**31-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi**

**Nurmetova Dinora Baxtiyor qizi**

## **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada muallif tomonidan kreativ qobiliyatni shakllantirish muammosi, uning nazariy asoslari va mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik salohiyatini rivojlantirish metodlari va mazkur jarayon bilan bog'liq kasbiy pedagogik xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'z va tushunchalar:*** boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kreativlik, ijodiy qobiliyat, kreativ salohiyat, ijodiy yo'nalganlik.

## **KIRISH**

Dunyo ta'lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta'lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo'nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o'qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, "... bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu

bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim"[1], - degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi.

Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida "Sharqona qarashlarimizda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu esa bugungi kun o'qituvchisidan katta mas'uliyatni talab qiladi"[2], - deb ta'kidladilar.

Demak, bugungi kun o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Shuningdek, umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari umumiy va maxsus kompetentsiyalarga ega bo'lishi hamda o'z faoliyatida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishi lozim.

**Asosiy qism.** Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezing muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh) dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan kasbiy kompetentsiyalar va ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik", "kreativ yondashuv" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"[6, 74 b.] sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"[7, 110 b.].

Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir [5].

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi"[3, 86 b.].

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga

yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi.

Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, shaxs o'zida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin? Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir" [3, 4 b.].

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. *Har tomonlama fikrlash* o'qituvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda *bir tomonlama fikrlash* esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi.

Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi tadqiqot mavzusi dolzarbligining yana bir ko'rinishi hisoblanadi. Vaholanki, bu muammo bugungi kunga qadar ko'plab G'arb mamlakatlarida turlicha tahlil etilgan va o'rganilgan. Masalan, N.N. Nechayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o'rgangan bo'lsalar, Agababyan A. R., Arutyunyan N. D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Pattilar kreativlikning ma'naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan [3,4,5,6,7].

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'i sifatida shakllanib boshlagan "Innovatsion pedagogika" da ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz. R.A. Mavlonova o'zining "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlarini hamda kasbiy va shaxsiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida maxsus ilmiy tadqiqot ob'yekti sifatida tadqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi.

Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining ijodiy faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va



hodisalardan xabardor bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, o'qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olim R.A. Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni e'tirof etish mumkin:

1. Kreativlik shaxsni innovatorlikka (yangilik yaratish) undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.
2. Kreativ salohiyat o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki, o'qituvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, u hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.
3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga egaligi, optimal yechimlarni topa olishi bilan bog'liqdir.


Mualliflik yondashuvi asosida kreativ salohiyat tushunchasining mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: Kreativ salohiyat – bu shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishida va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Kreativlik salohiyati bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas aloqador. O'qituvchilar tomonidan kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlik salohiyati an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:


- Tafakkurning tezkorligi;
- Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- Tashabbuskorlik;
- Noaniqlikka toqat qilish;
- Zakovatli bo'lish;
- Muammolarni hal etishga nisbatan noodatiy yondashuv.

**Maqolaning ilmiy mohiyati.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy muvaffaqiyatga erishish shaxsdagi ijodkorlik qobiliyatining qay darajada rivojlanganligi bilan uzviy aloqadordir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishga doir faoliyatli yondashuv omili mazkur jarayonda quyidagi ish metodlaridan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatdi. (1-rasmga qarang)



Shuning bilan birga, o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayoni ularda quyidagi muhim kasbiy pedagogik sifatlarning namoyon bo'lishiga shartsharoit yaratib beradi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Kreativ salohiyatni rivojlantirish bilan bog'liq kasbiy pedagogik xususiyatlar

### Tarkibiy komponentlar

#### Amaliy-faoliyatli yondashuv (o'zida

ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir **Refleksiv-baholash** (bunda shaxsiy ijodiy harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, tahlilfaoliyat qilish mohiyatini va o'z-o'zini anglash baholash, o'z-o'zini ko'zga

texnik, texnologik) faoliyat usullarini

ifodalaydi).

tashlanadi)

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish kasbiy pedagogik faoliyatda zarur bo'ladigan quyidagi omillarga e'tibor qaratishni taqozo etadi:

- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- o'qituvchi va hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir mutaxassisning o'qituvchi sifatida o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

O'qituvchining kreativlik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'zo'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ salohiyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ salohiyat bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq.

### XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Bugungi o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg'ulot turlaridan voz kechib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi kerak. O'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil - kreativlik sanaladi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning kasbiy faoliyatini ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha harakat qilishni talab qiladi:

- 1) O'qituvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyish etishi va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- 2) O'quvchilar tomonidan o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishiga rag'batlantiruvchi strategiyani joriy etish;
- 3) Innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammolarning yechimi) ni topishda ijodiy yondashuvning ustivorligini ta'minlash;
- 4) Belgilangan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni to'laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Xullas, har bir o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyish eta olishi, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirib borishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

O'qituvchi kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va “Men” kontsepsiya” laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati bu avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan umumiy xulosani shakllantiradi.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 260
4. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., 2007. С. 598–599.
5. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. - 2009. - №12. - С. 29-34. 6. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с.
7. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. - 300 с.

## Fizika

### Andijon Mashinasozlik instituti akademik litsey fizika fani o'qituvchisi Parpiyeva Oysanam Sultonbekovna.

**Fizika** (grekcha: φυσικός — „tabiiy“, φύσις (*physis*) — „tabiat“) tabiiy borliq haqidagi fan bo'lib,

tabiatning eng keng tarqalgan qonunlari, modda, uning tuzilishi, harakati va o'zgarish qoidalarini

o'rganadi. Fizika bu aniq fandir. U quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Klassik mexanika
2. Elektrodinamika va klassik maydon nazariyasi
3. Kvant mexanikasi
4. Statistlik fizika va Termodinamika
5. Optika va Spektroskopiya
6. Molekulyar fizika
7. Atom fizikasi
8. Kvant maydonlar nazariyasi
9. Gravitatsiya va Kosmologiya
10. Kalibrlangan maydonlar va Supersimmetriya.

Fizika fani eksperimental va nazariy fizikaga bo'linadi. Eksperimental fizika tajribalar asosida yangi ma'lumotlar oladi va qabul qilingan qonunlarni tekshiradi.

Nazariy fizika tabiat qonunlarini ta'riflaydi, o'rganiladigan hodisalarni tushuntiradi va yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan aytib beradi. O'rganilayotgan ob'yektlar va materiallarning harakat shakllariga qarab, fizika fani bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, atom va molekulalar fizikasi, gaz va suyuqliklar fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, plazma fizikasi bo'limlaridan tashkil topgan. O'rganilayotgan jarayonlarga va materiyaning harakat shakllariga qarab, fizika moddiy nuqta va qattiq jism mexanikasi, termodinamika va statistik fizika, elektrodinamika, kvant mexanika, maydon kvant nazariyasini o'z ichiga oladi. Fizikaning tarixiy rivojlanishi. Fizika tarixini 3 davrga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) qad. zamondan XVII asrgacha bo'lgan davr;

2) XVII asrdan XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi fizika fani, odatda, klassik fizika nomi

bilan yuritiladi;

3) XIX asr oxiridan hozirgi paytgacha bo‘lgan davr. Hozirgi zamon fizikasi (yoki eng yangi fizika) shu davrga mansub.

Turli hodisalarni va ularning sababini o‘rganish qad. zamon olimlarining bizgacha yetib kelgan asarlarida aks etgan. Miloddan avvalgi VI asrdan to milodiy II asrgacha bo‘lgan davrda moddalarning atomlardan tashkil topganligi haqidagi tushunchalar va g‘oyalar yaratildi (Demokrit, Epikur, Lukretsiy), dunyoning geosentrik tizimi ishlab chiqildi (Ptolemey), elektr va magnit hodisalari kuzatildi (Fales), statika (Pifagor) va gidrostatikaning rivojlanishiga asos solindi (Arximed), yorug‘lik nurining to‘g‘ri chizikli tarqalishi va qaytish qonunlari ochildi, miloddan avvalgi IV-asrda Aristotel o‘tmish avlodlar va zamondoshlarining ishlariga yakun yasadi. Aristotelning ijodi yutuqlar bilan birga kamchiliklardan ham holi emas. U tajribalarning mohiyatini tan oldi, ammo uni bilimlarning ishonchli belgisi ekanini inkor etib, asosiy e‘tiborni farosat bilan anglashda, deb bildi. Aristotel ijodining bu tomonlari cherkov namoyandalariga qo‘l kelib, uzoq, davrlar fan taraqqiyotiga to‘sqinlik ko‘rsatdilar. IX-XVI asrlarda ilmiy izlanishlar markazi Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga siljidi. Bu davrga kelib, fan rivojiga, jumladan, fizikaning rivojiga O‘rta Osiyo olimlari ulkan hissa qo‘shdilar. Fizika, matematika, astronomiya va tabiatshunoslikka oid masalalar Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Termiziy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Ali Qushchi va boshqa O‘rta Osiyolik olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Bu olimlarning fizikaga oid ilmiy ishlari, mexanika, geometriya, osmon mexanikasi, optika va turli tabiat hodisalarini o‘rganish bilan bog‘liqdir. Xorazmiy o‘rta asrlarda, nazariy va amaliy tabiatshunoslik hali bo‘lmagan davrda, dunyoviy fanlar, ilg‘or ijtimoiy-falsafiy fikrlar ijodkori bo‘lib chiqdi. U Sharqning dastlabki akademiyasi „Bayt ul Hikma“ („Donolar uyi“)ning shakllanishida faol ishtirok etgan. Bu yerda uning rahbarligida

arablar va boshqa xalqlar vakillari bilan bir qatorda Ahmad al-Fargʻoniy, Axmad Abdulabbos Marvaziy kabi Oʻrta Osiyolik olimlar tadqiqotlarolib borganlar. „Algoritm“ soʻzi „Xorazmiy“ soʻzining lotincha transkripsiyasi boʻlib, bu soʻzni algebra masalalarini yechishda birinchi marta qoʻllagan edi. Ahmad al-Fargʻoniyning „Osmon jismlari harakati“ kitobi IX asrda bitilgan boʻlib, XII asrda lotin tiliga, XIII asrda Yevropaning boshqa tillariga tarjima qilinib keng tarqalgan edi. Ahmad al-Fargʻoniy asarlari Yevropada Uygʻonish davri ilmiy tadqiqotchilarining asosini tashkil etgan asarlardan boʻldi. U yorugʻlikning sinishi va qaytishini aniqlagan. Fargʻoniy stereografik proyeksiya nazariyasining asoschisi sifatida fazo jismlari harakatining tekisliklardagi proyeksiyalari nisbatlari asosida baʼzi bir kattaliklarni oʻlchash mumkinligini isbotladi. Bu fikr bugun ham astrofizika fanida oʻz qiymatini yoʻqotmagan. Beruniy Yerning oʻz oʻqi atrofida aylanishini oʻzi yasagan asboblar yordamida isbotladi va Yer radiusi 6490 km ga yaqin ekanligini aniqladi. U dunyoning moddiyligi, harakatning turlari, atomning boʻlinishi, atomdan keyingi zarralarning oʻzaro taʼsir kuchlari, solishtirma ogʻirlikni aniqlash usullari, jism inersiyasi, boʻshliq, atmosfera bosimi, suyuqliklar gidrostatikasi, qor, yomgʻir va doʻlning paydo boʻlish sabablari, energiya aylanishi, jismlarning elektrlanishi, dengiz hamda ummon suvlarining koʻtarilishi va pasayish sabablari, yorugʻlikning korpuskulyar hamda toʻlqin xossasi, tovush va yorugʻlik tezligi, yorugʻlikning qaytishi hamda sinishining sabablari, dispersiya hodisasi, Yer va boshqa sayyoralarning Quyosh atrofidagi harakatlari ellips shakliga yaqinligi, fazoviy jismlarning vaznsizligi toʻgʻrisida fikrlar yuritdi. Abu Nasr al-Forobiyning tovush tezligi, tovushning toʻlqin tabiati, tovush chastotasi, tovush toʻlqinining uzunligi haqidagi fikrlari va ularga asoslanib yaratilgan musiqa notasi hamda optikaga oid koʻpgina ishlari fizika fanining rivojlanishiga qoʻshilgan katta hissa boʻldi. Ibn Sino harakatning nisbiyligi, inersiya, kuch, massa va tezlanish orasidagi bogʻlanish, aylanma harakat, markazga intilma kuch, chizikli tezlik, boʻshliq va atmosfera bosimi, konveksiya, issiqlikning tabiati, issiqlik



uzatilishining turlari, yashin va yashinning turlari, momaqaldiraq hodisasi, tovush va yorug‘lik tezligi, yorug‘lik dispersiyasi, linza, atom tuzilishi va boshqa mavzularga tegishli mulohazalarining aksariyati hozirgi zamon tushunchalariga juda moye keladi.

Hakim Termiziy dunyoviy fanlarning ungacha bo‘lgan yutuqlarini qomusiy olim sifatida o‘rgandi, jumladan, tabiat hodisalari va jarayonlarini tahlil etuvchi „Solnoma“, „Haftanoma“ kabi asarlari ma’lum. Mirzo Ulug‘bek XV asrda jahonda yagona rasadxona qurdi. Uning „Ziji Ko‘ragoniy“ asarida astronomiyaning nazariy asoslari yoritdi va 1018 ta yulduzning joylashish koordinatalarini juda katta aniqlikda berdi. Uning qiymatlari hozirgi qiymatlarga juda yaqin. Fizik hodisalarni tushuntirishda O‘rta Osiyolik olimlarning mulohazalari qadimgi an‘analar ta’sirida rivojlangan bo‘lsada, ular matematik usullarni keng joriy etib, tajribalardan foydalanib, fanga katta hissa qo‘shdilar. Klassik fizikaning rivojlanishi. XVII asrga kelib G. Galiley mexanik harakatni tajriba yo‘li bilan o‘rganib, harakatni matematik formulalar asosida ifodalash zarurligini aniqladi va bu fizika fanining keskin rivojiga turtki bo‘ldi. U jismlarning o‘zaro ta’siri natijasida tezlik o‘zgarib, tezlanish hosil bo‘lishini, ta’sir bo‘lmaganda harakat holatining o‘zgarmasligi, ya’ni tezlanishning nolga tengligini yoki tezlikning o‘zgarmasdan saqlanishini qayd etib, Aristotelning shu masalaga qarashli fikrini, ya’ni ta’sir natijasida tezlik hosil bo‘lishini inkor etadi. Keyinchalik Galiley aniqlagan qonun inersiya qonuni yoki Nyutonning mexanikaga oid birinchi qonuni degan nom oldi. 1600-yilda U. Gilbert elektr va magnit hodisalarni o‘rganish bilan shuhrat qozondi hamda Yer tirik magnit ekanligini isbotladi. U kompas magnit milining burilishini Yerning katta magnitga o‘xshashi orqali tushuntirdi, magnetizm va elektrning o‘zaro bog‘lanishini tekshirdi. Galiley mexanikadagi nisbiylik prinsipini ochdi va erkin tushayotgan jism tezlanishi uning tezligi va massasiga bog‘liq emasligini isbotladi. E. Torrichelli yuqoridagi prinsipdan foydalanib, atmosfera bosimining mavjudligini aniqladi va birinchi barometrni yaratdi. R. Boyl va E. Mariott

gazlarning elastikligini aniqladilar hamda gazlar uchun birinchi qonun - Boyle-Mariott qonunini yaratdilar. Gollandiyalik astronom va matematik V. Snellius (Snell) bilan R. Dekart yorug'lik nurining sinish qonunini ochdilar. XVII asr Fizikasining eng katta yutuqlaridan biri klassik mexanikaning yaratilishi bo'ldi. I. Nyuton 1687-yilda Galiley va o'z zamondoshlarining g'oyalarini umumlashtirib, klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab berdi. Nyuton tomonidan jismlar holati tushunchasining kiritilishi barcha fizik royalar uchun muhim bo'ldi, jismlar tizimining holatini mexanikada ularning koordinatalari va impulslari orqali to'la aniqlash imkoniyati yaratildi. Agar jismning boshlang'ich vaqtdagi holati hamda harakat davomida unga ta'sir etuvchi kuchlarning tabiati ma'lum bo'lsa, Nyuton qonunlariga asoslangan holda shu jismning harakat tenglamasini tuzish mumkin. Bu harakat tenglamasidan foydalanib, ushbu jismning istalgan vaqtdagi fazodagi o'rni, tezlik, tezlanish va fizik kattaliklarni aniqlash mumkin bo'ldi. Nyuton sayyoralar harakatlarini tushuntiruvchi Kepler qonunlari asosida butun olam tortishish qonunini ochdi va bu qonun orqali Oy, sayyoralar va kometalar harakatini isbotlab berdi. X. Poygens va G. Leybnis harakat miqdorining saqlanish qonunini ta'rifladilar. XVII asrning 2-yarmida fizik optika asoslari yaratila boshlandi, teleskop va boshqa optik qurilmalar yaratildi. Fizik A. Grimaldi yorug'lik difraksiyasini, I. Nyuton esa yorug'lik dispersiyasiik tadqiq qildi. 1676-yilda daniyalik astronom O. Ryomer yorug'lik tezligini o'lchadi. Shu davrdan yorug'likning korpuskulyar va to'lqin nazariyalari yuzaga keldi hamda rivoj topa boshladi. I. Nyuton yorug'likni korpuskula (zarra)lar harakati orqali tushuntirsa, X. Gyuygens uni faraz qilinuvchi muhit — efirda tarqaladigan to'lqinlar yordamida tushuntirdi. Shunday qilib, XVII asrda klassik mexanika mustahkam o'rin egalladi, akustika, optika, elektr va magnetizm, issiqlik hodisalarini o'rganish sohalarida katta izlanishlar boshlandi. XVIII asrga kelib tajriba va mat.dan keng foydalangan klassik mexanika va osmon mexanikasi yanada tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yer va Osmon hodisalarini mexanika qonunlari orqali tushuntirish asosiy maqsad

hamda bosh ta'limot hisoblanar edi. Hatto, o'rganilayotgan fizik hodisanimexanika qonunlari orqali tushuntirish mumkin bo'lmasa, tanlangan tushuntirish yo'li to'liq emas yoki noto'g'ri deb yuritilar edi.

XVIII asrda zarralar va qattiq jismlar mexanikasi bilan birga gaz hamda suyuqliklar mexanikasi rivojlandi. D. Bernulli, L. Eyler, J. Lagranj va boshqalar ideal suyuqlik gidrodinamikasiga asos soldilar. Fransuz olimi Sh. Dyufe elektrning ikki turi mavjudligini aniqladi hamda ularning o'zaro tortilish va itarilishini ko'rsatdi. Amerikalik olim B. Franklin elektr zaryadining saqlanish qonunini aniqladi. T. Kavendish va undan mustasno Sh. Kulon qo'zg'almas elektr zaryadining o'zaro ta'sir kuchini tajribada aniqladilar hamda matematik ifodasini topib, asosiy qonun - Kulon qonunini ochdilar. Rus fiziklari G. Rixman, M.V. Lomonosov va amerikalik olim B. Franklin atmosferada hosil bo'ladigan elektr, yashinning tabiatini tushuntirib berdilar. A. Galvani, A. Volta va keyinchalik rus fizigi hamda elektrotexnigi V. Petrovning kuzatishlari va tadqiqotlari elektrodinamikaning vujudga kelishi hamda tez sur'atlar bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Optika sohasida P. Buger va I. Lambert ishlari tufayli fotometriyaga asos solindi. Infraqizil (ingliz optigi V. Gershel va ingliz kimyogari U. Vollston) va ultrabinafsha (ingliz kimyogari I. Ritter) nurlar mavjudligi aniqlandi. Issiqlik hodisalari, issiqlik miqdori, issiqlik sig'imi, issiqlik o'tkazuvchanlik va h.k.ni o'rganishda ham qator izlanishlar olib borildi. M. Lomonosov, R. Boyl, R. Guk, Bernullilar issiqlikning molekulyar-kinetik nazariyasiga asos soldilar. XIX asr boshida T. Yung va O. Frenellarning to'lqin nazariyasi asosida yorug'lik difraksiyasi va yorug'lik interferensiyasi yaratildi. Yorug'likni ko'ndalang to'lqin sifatida elastik muhitda tarqaladi deb, Frenel singan va qaytgan yorug'lik to'lqinlarining intensivligini belgilovchi miqdoriy qonunni aniqladi. Fransuz fizigi E. Malyus yorug'likning qutblanishi hodisasini kashf etdi, yorug'lik spektriga va difraksiyasiga tegishli izlanishlar olib bordi. Yorug'likning tabiati haqidagi korpuskulyar va to'lqin nazariyalari orasidagi deyarli ikki asr davom etgan kurash

to'liq nazariyasi foydasiga hal bo'ldi. Italiyalik olimlar A. Galvani va A. Voltalarning elektr tokini kashf etishlari hamda dunyoda birinchi marta 1800-yilda galvanik elementning yasaliishi fizika fanining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1820-yilda daniyalik fizik X. Ersted tokli o'tkazgichning kompas mili bilan o'zarota'sirda bo'lishini elektr va magnit hodisalar orasida bog'lanish borligi bilan tushuntirdi. Shu yillarda A. Amper zaryadlangan zarralarning tartibli harakati tufayli paydo bo'luvchi elektr toki

bilan barcha magnit hodisalari bog'liq ekanligi to'g'risida xulosaga keldi va tajriba asosida tokli o'tkazgichlar orasidagi vujudga keluvchi o'zaro ta'sir kuchini ifodalovchi qonunni ixtiro qildi (Amper qonuni). 1831-yilda M. Faradey elektromagnit induksiya hodisasini ochdi va elektromagnit maydon tushunchasi haqidagi ta'limotni yaratdi. Metallarning elektr o'tkazuvchanligini o'rganish Om qonunining (1826), moddalarning issiqlik xususiyatlarini o'rganish — issiqlik sig'imi qonunining yaratilishiga olib keldi. Tabiatning barcha hodisalarini bir butun qilib bog'lovchi energiyaning saqlanish va aylanish qonunining ochilishi tabiatshunoslikda, jumladan, fizikaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

XIX asr o'rtalariga kelib tajriba orqali issiqlik miqdori bilan bajarilgan ish miqdorining o'zaro qiyosiy tengligi isbotlandi va shu asosda issiqlik energiyaning maxsus turi ekanligi aniqlandi. Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni issiqlik hodisalari nazariyasining asosiy qonuni bo'lib, u termodinamikaning *birinchi bosh qonuni* deb ataladi. Bu qonunni Yu.R. Mayer ta'riflagan, nemis fizigi G. Gelmgols aniqroq shaklga keltirgan (1874). Termodinamikaning rivojlanishida S. Karno, R. Klauzius, U. Tomson, E. Klapeyron va D.I. Mendeleyevlarning xizmatlari katta bo'ldi. S. Karno issiqlikning mexanik harakatga aylanishini aniqladi, R. Klauzius, U. Tomson issiqlik nazariyasining asosiy qonuni - termodinamikaning *ikkinchi bosh qonunini* ta'rifladilar, R. Boyl, E. Mariott, J. Gey - Lyussak, B. Klapeyron ideal gazning holat tenglamasini aniqladilar. D.I. Mendeleyev uni barcha gazlar uchun umumlashtirdi va h.k. Termodinamika bilan birga issiqlikning molekulyar-

kinetik nazariyasi rivojlanib bordi. A. Eynshteyn, polyak fizigi M. Smoluxovskiy va fransuz fizigi J. Perrenlar Broun harakati atom hamda molekularning issiqlik harakati ekanligini isbotlab, molekulyar-kinetik nazariya asoslari bo'lgan Broun harakatining miqdoriy nazariyasini yaratdilar. Bu esa, o'z navbatida, statistik mexanikaning to'la tan olinishiga olib keldi. J.K. Maksvell kiritgan ehtimollik xarakteriga ega bo'lgan statistik tushunchalar asosida gazlardagi molekular tezligi, erkin yugurish uzunligi, vaqt birligi ichidagi to'qnashuvlar soni va boshqa kattaliklarning o'rtacha qiymatlarini topishga yo'l ochildi, uning molekularning o'rtacha kinetik energiyasiga bog'liqligi ko'rsatildi. Materiyaning kinetik nazariyasi taraqqiy etishi L. Bolsman tomonidan statistik mexanika - Bolsman statistikasi yaratilishiga olib keldi. XIX asrning 2-yarmida J.K. Maksvell elektromagnit hodisalarning elektromagnit maydon tushunchasiga asoslangan yangi nazariyasini va uni ifodalovchi tegishli tenglamalar tizimini yaratdi. U tabiatda elektromagnit to'lqinlarning mavjudligini, ularning aniq, xususiyatlari — bosimi, difraksiyasi, interferensiyasi, tarqalish tezligi, qutblanishi va h.k. borligini aniqladi. Maksvell nazariyasining eng muhim natijasi elektromagnit to'lqinlarning tarqalish tezligi yorug'lik tezligiga teng bo'lgan qiymatga ega ekanligi to'g'risidagi xulosa hisoblandi. Maksvell nazariyasidan yorug'likning elektromagnit xususiyatiga ega ekanligi kelib chiqdi. G. Gersning elektromagnit to'lqinlarni aniqlash bo'yicha olib borgan tajribalari buni tasdiqladi. 1899-yil P. Lebedev yorug'likning bosimini tajriba orqali aniqladi. 1895-yilda A.S. Popov Maksvell nazariyasidan foydalanib simsiz aloqani yaratdi. Yuqoridagi va boshqa tajribalar Maksvellning elektromagnit nazariyasi to'g'riligiga yakun yasadi. Shunday qilib, XIX asr fizikasi 2 bo'limdan — jismlar fizikasi va maydon fizikasidan iborat bo'ldi.

Jismlar fizikasi asosida molekulyar-kinetik nazariya qabul qilingan bo'lsa, maydon fizikasida elektromagnit maydon nazariyasi asosiy rol o'ynadi.

Klassik fizika modda, vaqt, fazo, massa, energiya va h.k. haqidagi maxsus tasavvurlar, tushunchalar, qonunlar, prinsiplardan tashkil topgan. U klassik mexanika, klassik statistika, klassik termodinamika, klassik elektrodinamika va boshqa boʻlimlarga boʻlinadi. Klassik mexanikada harakat qonunlari — Nyuton qonunlaridan iborat. Moddiy nuqta, mutlaq qattiq jism, tutash muxitlar tushunchalari muhim rol oʻynaydi. Bularga moye tarzda moddiy nuqta mexanikasi, mutlaq qattiq jism mexanikasi, tutash muhit mexanikasi mavjud. Koʻp amaliy hollarda qoniqarli natijalar beradigan klassik fizika katta tezliklar va mikroobyektlar bilan bogʻliq hodisalarni toʻgʻri tushuntirishga ojizlik qildi. Shunday hodisalar qatoriga qattiq jismlarning issiqlik sigʻimi, atom tizimlarining tuzilishi va ulardagi oʻzgarishlar xarakteri, elementar zarralarning oʻzaro taʼsiri hamda bir-biriga aylanishi, mikrotizimlardagi energetik holatlarning uzlukli oʻzgarishi, massaning tezlikka bogʻliqligi va boshqa masalalar kiradi. Fizikaning yangi taraqqiyoti yuqoridagiga oʻxshash hodisalarni ham toʻgʻri tushuntirib bera oladigan yangi, noklassik tasavvurlarga olib keldi. Bunday tasavvurlarga asoslangan yangi fizika maydon kvant nazariyasi va nisbiylik nazariyasidan iborat. Fizikaning klassik va noklassik fizikaga ajratilishi shartlidir. Galiley-Nyuton mexanikasi, Faradey-Maksvell elektrodinamikasi, Bolsman-Gibbs statistikasini, odatda, klassik fizikaga, maydon kvant nazariyasi va nisbiylik nazariyasini hozirgi zamon fizikasiga kiritishadi. Tarixiy jihatdan bu haqiqatan ham shunday. Ammo klassik fizika bilan hozirgi zamon fizikasini bir-biriga qarshi qoʻyish asossizdir. Yangi texnika, kosmosni egallash kabi sohalarda klassik fizikadan keng foydalanib muhim yutuqlarga erishilmoqda. Maksvell tomonidan elektromagnit hodisalarni oʻrganish jarayonlari uning "Klassik elektrodinamika"si yaratishi bilan yakunlandi. 1897-yilda J. Tomsonning elektron zarrasining ochishi bilan fizika rivojida yangi davr boshlandi.

Hozirgi zamon fizikasi. XIX asr oxirida aniqlangan qator yangiliklar (elektronning ochilishi, elektron massasining tezlik oʻzgarishi bilan oʻzgarishi, harakatlanuvchi

tizimlarda elektromagnit hodisalarining ro‘y berishidagi qonuniyatlar va boshqalar) Nyutonning fazo va vaqt mutlaqligiga to‘g‘risidagi tasavvurlarini tanqidiy tekshirib chiqish kerakligini ko‘rsatdi. J. Puankare, X.A. Lorens kabi olimlar bu sohada tadqiqotlar olib borishdi. 1900-yilda M. Plank nur chiqarayotgan tizim — ossillyatorning nurlanish energiyasi uzluksiz qiymatlarga ega degan klassik fikrni rad etib, bu energiya faqat uzlukli qiymatlar (kvantlar)dangina iborat degan butunlay yangi farazni ilgari surdi. Shunga asoslanib nazariya bilan tajriba natijalarini taqqoslanganda ularning mos kelishini aniqladi. Plank gipotezasini A. Eynshteyn rivojlantirib, yorug‘lik nurlanganda ham, tarqalganda ham kvantlar — maxsus zarralardan tashkil topadi degan fikrga keldi. Bu zarralar fotonlar deb ataldi. Foton iborasini 1905-yilda A. Eynshteyn fotoeffekt nazariyasini talqin etishda qo‘llagan, bu ibora fizika fanida 1929-yildagina paydo bo‘ldi. Shunday qilib, fotonlar nazariyasiga muvofiq yorug‘lik to‘lqin (interferensiya, difraksiya) va zarra (korpuskulyar) xususiyatga ega. 1905-yilda A. Eynshteyn Plank gipotezasini rivojlantirib, maxsus nisbiylik nazariyasini yaratdi. 1911-yilda E. Rezerfordning alfa zarralarning jismlarda sochilishini tekshirish tajribasi atomlar yadrosining mavjudligini isbotladi va u atomlarning planetar modelini yaratdi. 1913-yilda N. Bor nurlanishning kvant xarakteri asosida atomlardagi elektronlar ma’lum barqaror holatlargagina ega bo‘lib, bu holatlarda energiya nurlanishi sodir bo‘lmaydi, degan postulatni yaratdi. Nurlanish elektronlarning bir barqaror holatdan ikkinchi barqaror holatga "sakrab o‘tishi"da, ya’ni diskret ravishda ro‘y beradi. Bu postulat o‘sha yili J. Frank va G. Gers o‘tkazgan tajribalarda tasdiqlandi. Bor postulati atomning planetar modeli kvant xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. A. Eynshteyn butun olam tortishishi (gravitatsiya) masalasi bilan shug‘ullanib, 1916-yilda fazo, vaqt va tortishishning yangi nazariyasi — Umumiy nisbiylik nazariyasi(UNN)ni yaratdi. Ilgaridan ma’lum va kuzatilgan, ammo to‘g‘ri hamda mukammal ilmiy tushuntirilmasdan kelayotgan qator hodisa va faktlar nisbiylik nazariyasi tufayli har tomonlama oydinlashdi. Bu nazariya o‘ziga qadar fanga ma’lum bo‘lmagan

ko'plab yangi hodisalar qonunlarning borligini oldindan aytib berdi, eng yangi fan uchun g'oyat zarur bo'lgan natija va xulosalarga erishildi (massaning tezlik o'zgarishi bilan o'zgarishi, massa bilan energiyaning o'zaro bog'lanishi, yorug'lik nurlarining kosmosdagi jismlarning yaqin atrofidan chetlanib og'ishi va boshqalar). M. Laue kristallarda atomlarning tartibli joylashishini rentgen nurlari difraksiyasi yordamida birinchi bo'lib tushuntirib berdi. Rus fizigi G.V. Vulf va ingliz fizigi U.L. Bregg kristallarda atomlarning joylashishini, ular oralig'idagi masofalarni aniqlab, rentgen strukturalari taxliliga asos soldilar. P. Debai, M. Bornlar kristall panjaralari garmonik tebranib turadigan ossilyatorlar yig'indisidan iborat, deb tushuntirdilar. XX asrning 20-yillariga kelib, kvant mexanikaga to'la asos solindi, mikrozaralar harakatining norelyativistik nazariyasi to'la isbotlandi. Buning asosini Plank - Eynshteyn - Borlarning kvantlashuv va L. Broylning materiyaning korpuskulyar-to'lqin xususiyati to'g'risidagi (1924) g'oyalari tashkil etdi. 1927-yilda tajribalarda kuzatilgan elektron difraksiyasi bu fikrni tasdiqladi. 1926-yilda avstriyalik fizik E. Shryodinger atomlarning uzlukli energiyaga ega ekanligini ifodalovchi kvant mexanikaning asosiy tenglamasini yaratdi. Kvant mexanika bilan bir qatorda kvant statistika ham rivojlanib bordi. U ko'p mikrozaralardan tashkil topgan tizimlarning xossalarini kvant mexanika qonunlari yordamida o'rganadi. 1924- yilda hindistonlik fizik Sh. Boze kvant statistikasi qonuniyatlarini fotonlarga (spinlari 1 ga teng) tatbiq etib, muvozanatli nurlanish spektrida energiyaning taqsimlanishi uchun Plank formulasini, Eynshteyn esa ideal gaz uchun energiyaning taqsimlanish formulasini keltirib chiqardi. 1925- yilda amerikalik fiziklar J. Ulenbek va S. Gausmit elektronning xususiy harakat miqdori momentini aniqladilar. Shu yili V. Pauli bir xil kvant holatda faqat bittagina elektron bo'la olishini ko'rsatdi (Pauli prinsipi), shu asosda Mendeleyev davriy sistemasiga nazariy asos berildi. 1926-yilda E. Fermi va P. Dirak Pauli prinsipiga bo'ysunadigan, spinlari 1/2 ga teng bo'lgan, bir xildagi zarralar tizimi uchun Fermi-Dirak statistikasini kashf qildilar. 1928-yilda Ya.



Frenkel va V. Geyzenberg ferromagnetizm asosida kvantli almashinishdagi o‘zaro ta’sirlar hal qiluvchi ekanligini ko‘rsatdilar. 1932-1933-yillarda fransuz fizigi L. Neyel va Ya. Landaular antiferromagnetizm mavjud ekanligini oldindan bashorat qildilar. X. Kamerling Onnes tomonidan simob, qalay va ba’zi elementlarning o‘ta o‘tkazuvchanligining hamda Kapitsa tomonidan geliy II ning, o‘ta oquvchanligi ochilishi kvant statistikasida yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishiga olib keldi. 1950-yilga kelib L. Landau va V. Ginzburg o‘ta o‘tkazuvchanlikning batafsil nazariyasini ishlab chiqdilar. 1916-yilda [Albert Eynshteyn](#) yaratgan majburiy nurlanishning kvant nazariyasi asosida 50-yillarga kelib yangi kvant elektronikasi rivoj topdi. N. Basov va A. Proxorov (ulardan mustaqil tarzda amerikalik olim U. Tauns) yaratgan mazerda elektromagnit to‘lqinlarni hosil qilish va kuchaytirishni amalga oshirdilar. Bu 60-yillarda yorug‘likning kvant generatori - lazerning yaratilishiga olib keldi. XX asrning 2-choragida atom yadrolari tizimi sirlarini va mavjud bo‘layotgan jarayonlarni o‘rganish bilan elementar zarralar fizikasining yaratilishi fizikada inqilobiy o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. A.E. Bekkerel P. Kyuri va M. Sklodovskaya Kyuri bilan hamkorlikda radioaktiv nurlanishni, keyinchalik E. Rezerford bu nurlanishning o‘z-o‘zidan parchalanishi nurlanish bilan birgalikda hosil bo‘lishini ochdilar. 1932-yilda J. Chedvik neytron zarrani ochdi. Rus olimi D.D. Ivanenko va V. Geyzenberglar atom yadrosining proton va neytrondan iborat ekanligini aniqladilar. 1934-yilda I. Jolio va Kyurilar sun‘iy radioaktivlik hodisasini ochdilar. Tezlatkichlarning yaratilishi zaryadlangan zarralar ta’sirida yadro reaksiyalari hosil qilish imkonini yaratdi. Yadro bo‘linishlari hodisasining ochilishi muhim natija bo‘ldi. 1939-1945-yillarda birinchi marta zanjir reaksiyasi yordamida yadro energiyasi ajralib chiqishiga erishildi. Bu energiyadan tinch maqsadda foydalanish 1954-yildan amalga oshdi. 1952-yilda termoyadro sintezi (termoyadro portlashi) amalga oshirildi. Atom yadrosi fizikasi rivoji bilan bir vaqtda elementar zarralar fizikasi ham rivojlandi. Birinchi muhim yutuqlar kosmik nurlarni tadqiq qilish bilan bog‘liqdir. Myuonlar,

mezonlar, K mezonlar, giperonlar kabi zarralar topildi. Yuqori energiyali zaryadli zarralar tezlatkichlari yaratilishi bilan elementar zarralar, ularning xususiyatlari va o‘zaro ta’sirlari rejali tadqiq qilina boshladi. Tajribalarda ikki xil neytrinolar va boshqa ko‘plab elementar zarralar ochildi. Fizika tekshiradigan hodisalarni miqdoriy tahlil qilishda matematikadan keng foydalanadi. Hodisalarning o‘tishi va ularning tabiatidagi murakkablikka qarab qo‘llaniladigan mat. usullari ham murakkablashadi. Hozirgi davrda elementar matematika, differensial, integral hisoblar, analitik geometriya, oddiy differensial tenglamalar bilangina cheklanib qolish mumkin emas. Masalan, maydon nazariyasida tenzorlar, operatorlar kabi tushunchalardan keng foydalaniladi. Fizikaning rivojlanishi hamma vaqt boshqa tabiiy fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Fizikaning rivojlanishi boshqa tabiiy fanlarning rivojlanishiga va ko‘pgina hollarda yangi fanlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Masalan, fiziklar tomonidan mikroskopning ixtiro etilishi kimyo, biologiya, zoologiya fanlarining keng ko‘lamda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Teleskopning yaratilishi, spektral analiz qonunlarining kashf etilishi astronomiya fanining rivojlanishini jadallashtirdi. Elektromagnit induksiya hodisasining kashf etilishi va radioning ixtiro etilishi elektronika va radiotexnika fanlarining vujudga kelishiga olib keldi. Juda ko‘p sohalari borki, ularni fizika boshqa fanlar bilan birgalikda o‘rganadi. Shu tariqa kimyoviy fizika, biofizika, astrofizika, geofizika va boshqa fanlar vujudga kelgan. Fizikada yaratilgan kashfiyotlar texnikaning turli sohalari rivojlanishiga, provardida sanoat va xalq xo‘jaligining jadal rivojlanishiga olib kelgan. Kundalik hayotda ishlatilayotgan elektr yoritkich asboblari, radiopriyomniklar, televizorlar, zavod va fabrikalardagi turli xil stanoklar, zamonaviy elektron hisoblash mashinalari, samolyotlar va boshqalar fizikadagi yaratilgan kashfiyotlarning natijasidir. O‘z navbatida, texnika fanlarining erishgan yutuqlari fizikaning yanada rivojlanishiga sababchi bo‘lgan. Texnikaning, umuman xalq xo‘jaligining rivojlanib borishida uzluksiz ravishsa vujudga keluvchi fizik muammolarni hal etib borishga to‘g‘ri keldi. Bu esa texnika

fanlarining hamma vaqt fizika bilan xamkorlikda ish olib borishini taqozo etadi. O'zbekistonda yadro fizikasi, fizik elektronika, qattiq jismlar fizikasi, yuqori energiyali va kosmik nurlar fizikasi, yarimo'tkazgichlar fizikasi, akustooptika, akustoelektronika, lazerlar fizikasi, geliophysika, geliotexnika va boshqa fizika sohalarida muhim yutuqlarga erishildi. Hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti, Fizika-texnika instituti, S.A. Azimov nomidagi "Fizika-Quyosh" IICHB, U. O. Orifov nomidagi Elektronika instituti kabi o'nlab ilmiy muassasalar, Toshkent milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent texnika universiteti va respublikadagi qariyb barcha oliy o'quv yurtlarida ham fizika fanining turli muammolariga oid ishlar olib borilmoqda.

**Adabiyotlar:**

1. Kudryavsev P.S, Kratkiy kurs istorii fiziki, Moskva, 1974
2. M.N. Rahmatov, Vatanimiz fiziklari, Toshkent, 1983
3. M. Ahadova, O'rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doyr ishlari, Toshkent, 1983
4. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya, Toshkent, 2000.

**KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI LARINING TALIM MUAMMOLARI****Abdullaeva Nafisa Nazirovna****Nafisa0202@mail.ru****Andijon davlat tibbiyot instituti litsey akademigi**

Annatatsiya

Ush makolada avtomatlashtirilgan o'kuv tizimlarini qo'llashning bazi bir muammolari yoritib berilgan. Makolada automatized o'kuv tizimlarini qo'llashdagi yutuq va bazi bir kelib chiqadigan muammolar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar va iboralar: Didaktik samara, elektron ko'rinish, o'kuv dasturlari, avtomatlashtirilgan o'kuv zharayoni, dasturum o'qish, samarali qayta aloqa.

Annotation

This clause is devoted to problems automated Systems of training. In clause the organization is considered(examined) Lessons at application of the automated textbooks, And also advantage and lacks automated Systems of training

Key words: Didactic effect, electronic kind, educatPional programs automated educational processes, program training, effective feedback

Kompyuterlarni t'alim sohasiga korxonadaghi bazi bir notugri yondoshishlar bu masalaga salbiy qarashlarni barpo qildi. Bulardan biri "Hamma narsani texnika hal qiladi" goyasidir. Juda xam ko'plab tanqidni makolalar paydo bo'ldi. Komputerga mo'ljallangan o'quv dasturlari 90% dan ortiqrog'i "konikarsiz" degan baho oldi. The computer orqali o'qitish jarayonini butunlay kalta tashkil qilish haqidagi fikrlar payo bo'ldi. Jumladan, Brusentsov N.P. ning "Microcomputers" (Moscow, "Nauka" nashriyoti) kitobida quyida aytiladi mavjud: "Avvalo inson qay degan narsa bilim va unga kompyuter qandai kilib yordam kursatma olishini aniqlash zarur bo'ladi".

**IQTISODID JIHATDAN TA'LIM Samaradorligini Mistroine Usullaridan Biri bo'lgan o'quv guruhlarini juda ham mayda bhlarga borish mumkin bogmagni**

bosyeni pyli hlda k ortha k ortga yulabin. Bunday holda o'qituvchi biror bir o'quvchi bilan individual holda ish olib borishga yordam ko'payadi. Boshqa o'qishlar bilan esa bu vaqtda kompyuter ish olib boradi. Masalan, "Mentor" ("Ustoz") ta'lim tizimini olib qaraylik. Bu o'quv tizimi mualliflari tomonidan o'rganilayotgan fan sub'ektining o'ziga hos xususiyatlari hamda o'quvchilarning dars zharayonida o'lchamlarining turlicha b o'lishi olingan. Quvchilar o'rganilayotgan materialni erkin, turli xil hil o'quvchilar uchun turli xil tempda o'zlashtirishlarini olingan holat uchun sharoit yaratilishini ta'minlash zarur bo'ladi. Bularni ta'minlash uchun esa tizim bir qancha to'plamini taklif qiladi. [2]

Didactic Samara Material Electron Kurinishda Berishdan Emas, Beams, Ush Material Kandai Mazmund Berilishiga Boglik Buladi" Degan Fikrni Asosiy Boshlangich Nuqta sifatida qabul qilinishi kerak bo'ladi. qoquv dasturlarini asosan 8-32 o'quvchilarga mo'ljallab chiqarish yaxshi samara beradi.

Xozirga qadar avtomatlashtirilgan o'quv jarayonini tashkil qilish uchun kompyuterlarni sotib olish va o'quv fanning biror qismi uchun olingan (yoki sotib olingan) dastur etarli miqdorda degan ma'lumotlar mavjud. Bu vaqtda eng asosiy narsa, o'quvi jrayoning services tashkil qilish material olinmai koladi. Oldindan yaxshilab oylab olingan uslubning ywqligi o'quvchilar va talabalarda dasturni tayyorlash fakatgina tugmachalarni bosishdan va mashq natizhalarini daftarga ko'chirishdangina iborat bo'lib qoladi. Agar printer mavzhud bulmasa, natizhalarni dafarga ko'chirish ancha vaqtni talab qiladi.

Dars qismidan quydan avval kuch va talabalarga fikrni singdirish zarur buladi. Ya'ni ta'lim zjarayoniga komputerlarni qo'llash biror bir "moda" ga ergashish emas, komputerni bu jarayonda eng yaqin yordamchiga almashtirishdan iboratdir. Uning didaktik potensiali juda ham yuqoridir. Ammo baribir ma'lum bir chegarada buladi va bu chegarani anglab olish kerak buladi.

Buni anglab olish esa unchalik ham sodda emas. Buni hattoki, bazi bir o'qituvchilar ham tushuna olmaydilar. Malumki o'qitish jarayonini

komputerlashtirish birinchi marta Amerika Qo'shma Statlarining o'quv yurtlarida amalga oshirilgan bo'lib, bu zharayon eng ashaddiy konservativ muallimlar tomonidan berilgan qattiq tanqidga uchragan. Ular bazilari yangi texnikani o'rganish va ular bilan ishlashga vaqtni xohlamas edilar. Boshqalari esa ananaviy o'qishdan voz kechishni istamas edilar. Uchinchilari bo'lsa, komputer o'qitishni o'z zimmasiga bo'lsa, o'zingizning keraksiz bo'lib qolishlaridan qo'rqardilar. [3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq 2030 yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari

<sup>1</sup> Mahmudov M.H., Ne'matova F.B.(2021). Loyihalash–ta'limning sifat va samaradorligini oshirishning muhim shartlardan biri. Научно-практическая конференция. С. 55-59.

<sup>2</sup> Mahmudov M., Ne'matova F. (2020). Boshlang'ich ta'limni loyihalash: muammo va yechimlar.



qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rin tutadi.

Boshlang'ich o'qish savodxonligi nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash kerakki, 2020-yilgi PIRLSda mamlakatlarining yarmidan ko'pida deyarli barcha o'quvchilar (95 foizdan ko'prog'i) fundamental o'qish qobiliyatlarini namoyish etdilar. Bu o'quvchilar matndan g'oyalar va ma'lumotlarni topib takrorlashlari va to'g'ridan- to'g'ri xulosachi qarishlari kerakedi.

Qiziqarli tomoni PIRLS 2020 natijalarigako'ra 50ta davlatdan 48tasida qiz bolalar o'g'il bolalarga ko'ra yuqori natijalarni ko'rsatgan. 2001-yildan beri qizlar va o'g'il bolalar savodxonligi o'rtasidagi farq qisqarmagan. Qiz bolalar 2001-yilda ham o'qish savodxonligi borasida o'g'il bolalardan o'zib ketgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ota-onalarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati pasaygan. Buni 2011-yilda 31 mamlakatda va faqat 2 mamlakatda o'qish savodxonligida o'sish kuzatildi. 2020-yilda o'rtacha hisobda atigi 32 foiz o'quvchilarning ota-onalari o'qishni yoqtirishini va 17 foizi o'qishni yoqtirmasliklarini aytishdi<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Дилова Н.Г. (2018). Важность совместного обучения в повышении эффективности начального образования. *39-son 1-to'plam\_noyabr\_2022*

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga ko'ra, talabalarning badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish qobiliyati quyidagi 4 mezon bo'yicha baholanadi:

-matnda berilgan ma'lumotlarni aniqlash; (ilmiy-ommabop matnlarni tahlil qilish misolida)

-ma'lumotlarni sharhlash va umumlashtirish (adabiy tahlil);

-matn mazmuni, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish (adabiy tahlil).

4-sinf o'quvchilarini "O'qish kitobi" darsligi asosida xalqaro PIRLS nazorati ostida o'qishga tayyorlash hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yordam berish maqsadida "4-sinf o'qish darslari"ni adabiy tahlil qilindi. "Ko'nikmani shakllantirish" uslubiy qo'llanma yaratildi. Ushbu qo'llanmada ushbu muammoning pedagogik tajribasi va uning echimi hisobga olingan. Shuningdek, o'quvchilarga o'qish savodxonligini, ya'ni ilmiy-ommabop va badiiy asarlarni tahlil qilishni o'rgatish uchun o'quv qo'llanmalari tavsiya etildi. Bu yetarli emas.

Xalqaro PIRLS talablari, eng avvalo, o'qish va tahlil qilish uchun tavsiya etilgan matnning adabiy-badiiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy saviyasiga bog'liq.

Darsliklarda o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydigan asarlar tanlanishi kerak. Talaba yaxshi asar o'quvchida turli kechinmalar (qayg'u, xavotir) hosil qilishini, fikrlashga undashini, o'z pozitsiyasini tanlash imkonini berishini his qilishi kerak. Ish matni asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning o'qish savodxonligini ta'minlashi kerak. Bu borada darsliklarimizda kamchiliklar mavjud.

O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish ko'p jihatdan o'qituvchining matn tahlilidagi bilimiga, pedagogik mahoratiga bog'liq.

Singapurlik to'rtinchi sinf o'quvchilari ePIRLS bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatishgan bo'lsa-da, barcha ishtirokchilar ePIRLSda ham yaxshi

o'qiy olishlarini isbotlashdi. O'rtacha hisobda, o'quvchilarning 50 foizi veb-sahifalardan ma'lumotlarni topish va ularni umumlashtirib, xulosa chiqarishda mukammal darajada bilimlarini ko'rsatishdi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O'zbekistonlik o'quvchilar PIRLSda yuqori natijalarni qo'lga kiritishlari uchun ularga barcha sharoitlar yaratilgan. Faqatgina berilgan resurslardan unumli foydalanish va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan muhabbatini kuchaytirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Дилова Н.Г. (2018). Важность совместного обучения в повышении эффективности начального образования. *International scientific review of the problems and prospects of modern science and education*. С. 90-91.

2. Ne'matova F. (2021). Loyihalash–ta'lim berishning muhim shartlardan biri // Центр научных публикаций (buxdu.uz). Т. 6. № 6.

3. Mahmudov M., Ne'matova F. (2020). Boshlang'ich ta'limni loyihalash: muammo va yechimlar.

4. Нематова Ф. (2020). Problems of designing primary education. Молодой ученый. №. 49. С. 408-410.

5. Mahmudov M., Ne'matova F. (2020). Boshlang'ich ta'limni loyihalash: muammo va yechimlar. Научно-практическая онлайн-конференция «Современная наука и образование: проблема, решение, результат». Т. 2. – №. 2. – С. 9-11.

6. Mahmudov M.H., Ne'matova F.B.(2021). Loyihalash–ta'limning sifat va samaradorligini oshirishning muhim shartlardan biri. Научно-практическая конференция. С. 55-59.

## **BOSHLANGICH SINFLARDA O`QISH SAVODXONLIGI BO`YICHA PISA DASTURINI QO`LLASH SAMARADORLIGI**

**Zayniyeva Muazzam Sadriddinovna**

**Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 53- maktab**

**boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Sharipova Gulnoza Kamarovna**

**Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 21-maktab**

**boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda PISA dasturiga murojaat etish hamda uning manfaatli tomonlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Savodxonlik, o'quvchilar, xalqaro tadqiqotlar, PISA.

### **KIRISH**

Ma'lumki, o'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo'lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o'rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar. Yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko'ra mazkur savodxonlik o'quvchilarning o'rganishlari uchun o'qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

PISA testlari turli yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: *O'qish savodxonligi. Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan*

*o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.*

Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi! bu testlarda o'quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo'yicha o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazish nazarda tutilmagan!

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

- a) Bir javobli testlar;
- b) Bir nechta javobli testlar;
- c) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
- d) Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.

## **NATIJARAR**

Quyida PISA dasturi bo'yicha o'qish savodxonligi darsida o'tkazish mumkin bo'lgan jarayon keltiriladi.

### **Badiiy asar va film**

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari asosida suratga olingan filmda ba‘zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Masalan, Kumushbibi chap qo‘lida choy uzatish sahnasi. Filmdagi yana bir lavhada birgina qisqa so‘z tashlab ketilgan. Agar chuqurroq o‘ylab ko‘rilsa, kinochilar adibimizning topqirligiga putur yetkazib qo‘yganini fahmlash mumkin. Asarda Yusufbek hojining Marg‘ilondan Toshkentga birinchi bor kelgan Kumushbibini kutib olish sahnasi bor. Shu gapga diqqat qiling!

Filmda:

Yusufbek hoji: Marg‘ilonda shunday kelinimiz bor ekan, bilmay yurgan ekanmiz.

Asarda:

Yusufbek hoji: Marg‘ilonda **ham**shunday kelinimiz bor ekan, bilmay yurgan ekanmiz.

Filmdagi bu xato oqibatida qanday ma‘no o‘zgarishi sodir bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

- A. Hech qanday o‘zgarish yo‘q
- B. Asarda Yusufbek hoji bir gap bilan Kumushbibini maqtash asnosida Zaynabni ham alqab o‘tadi, filmda bu ma‘no tushib qolgan.
- C. Asarda Yusufbek hoji bir gap bilan Kumushbibini maqtash asnosida o‘g‘li Otabekni ham alqab o‘tadi, filmda bu ma‘no tushib qolgan.
- D. Asarda Yusufbek hoji Kumushbibiga Toshkentda ham kelini borligini bildirmoqchi bo‘lgan, filmda bu ma‘no tushib qolgan.

2. Filmda bu so‘zning tushib qolishiga qanday omil sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin? To‘g‘ri bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma javobni belgilang.

- A. Rejissyorning e‘tiborsizligi
- B. Senariy muallifining e‘tiborsizligi
- C. Rejissyorning matnni jo‘rttaga o‘zgartirgani
- D. Rejissyorning yo senariy muallifining o‘zbek tili imkoniyatini to‘liq bilmasligi
- E. Abdulla Qodiriyning o‘zining maslahati

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, PISA dasturini qo`llash orqali o`quvchilar o`qish savodxonligini rivojlantirishdan tashqari, ularning dunyoqarashi, innovatsion fikrlashini yuksaltirishga ham erishiladi.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Doniyarov M. Xalqaro baholash tizimida boshlang'ich ta'limning o`rni. Журнал начального образования. 2020 yil.
2. Qorayev, S. B., & Allayorova, S. B. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PISA xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences, 2(2).
3. Muratov, X. X., & Yusupova, S. A. (2020). UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABLARIDA DARS MASHG'ULOTLARINI AUTOPLAY MEDIA STUDIO DASTURI ORQALI INTEGRATSIYALASH. Academic research in educational sciences, (3).
4. Xaydarov, B., & Tashtemirova, N. (2020). O`QUVCHILARNI MATEMATIK SAVODXONLIK BO`YICHA PISA TADQIQOTLARI BILAN TANISHTIRISHNI TASHKIL QILISH TAJRIBASI HAQIDA. Science and Education, 1(2).
5. Doniyarov M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyati haqida mulohazalar. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.

## HOZIRGI BOSHLANG'ICH SINIF O'QITISH JARAYONIGA QOYILADIGAN TALABLAR

**Tashkent viloyati Quyi Chirchiq tumani**

**4-sonli maktabning Boshlangich sinf oqituvchisi**

**Boynazarova Flyura Xakimjonovna**

**Annotatsiya:** Bugungi kunning ta'lim tizimiga sifatli ta'lim tizimini joriy etish talabi qo'yilmoqda. Sababi o'quvchi maktabgacha ta'lim tizimida o'ziga yarasha ko'nikma hosil qilib maktabga bormoqda. Bunday holatda o'quvchilarda fan yuzasidan savollar kelib chiqadi. Savollarga javob berish borasida o'qituvchi har kuni izlanishi shart hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** O'qitish jarayoni, tabaqalashtirish, pedagogic mahorat, individual ta'lim.

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o'qitishning chuqur ijtimoiy e'tiqodlilik bilan uyg'un ilmiyligiga qo'yilayotgan talablar g'oyatda muhimdir. Didaktikada o'qitishning ilmiyligi nima ekani asosli ravishda bayon qilinadi. Ma'lumki, maktab ta'limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bolsa, uni shundayligicha, hech bir qo'shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogning vazifasi o'quvchilarga ilmiy, haqqoniv bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarni mustaqil o'rganishlarida o'zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi - inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yodga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta'limning birinchi pog'onasida olgan juziy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak. Ilmiy asosdagi to'g'ri o'qitish natijasida o'quvchilar ongida obyektiv olamning haqqoniy manzarasi hosil boladi. Pedagogika amaliyotida ba'zan g'alati voqealar ham uchraydi. O'quvchilar qiziquvchanligi sababli o'qituvchiga savol beradilar va xuddi ana shu pavtda o'qituvchi asosli javob bera olmaydi, xijolat chekadi. Noto'g'ri javob bersam,



keyinchalik obro'yim ketadi, deb o'ylaydi. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchidan «Kosmos nima?» - deb so'raydilar va u sarosimaga tushib qoladi. Darhaqiqat, buni birinchi sinf o'quvchilariga qanday tushuntirish kerak? O'qituvchi puxta o'ylab olib, keyin, chunonchi, ertasiga javob berish o'rniga, shu zahoti «Kosmos bizdan juda uzoq narsa», - deb javob qildi. Shunday javobdan keyin o'quvchilarda kosmos haqida qandaydir tasavvur hosil bo'ladimi? Chinakam ilmiylik doimo ijtimoiy rivojlanish va moddiy olam qonuniyatlarining obyektivligini o'z ichiga oladi. Bizning fan dialektik falsafa poydevoriga quriladi. U voqelikning sovuqqonlik, loqaydlik bilan yozilgan tavsifi emas, balki moddiy olam haqidagi qarama-qarshi tushunchalarning o'zaro kurashish maydoni va qurolidir. Fanlar - e'tiqodlarni shakllantirishning kuchli omili. Shuning uchun yoshlarimiz olgan bilimlar ularning e'tiqodiga aylanishi juda muhimdir. Mana shu vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim talabdir. Biz faqat ana shunga asoslanib bolalarni mustaqil o'ylashga o'rgatishimiz, ularda o'zlarining qarashlari va nuqtayi nazari tizimini tarkib toptirishimiz mumkin. Agar bilimlarni bayon etish, ishning usullarini ko'rsatish mumkin bolsa, ijodiy faoliyatni o'rgatish uchun o'quvchilarni xuddi ana shu faoliyat jaravoniga bevosita jalb etish shart. Mana shu muammo bo'yicha ayrim mulohazalarni ifodalashga harakat qilamiz. Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan, o'quvchilarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo'ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko'ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk san'at asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va hokazolarni yaratadigan iste'dodli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o'ylab topishi, ozgina bo'lsada, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim. O'quvchining ijodini qanday tushunish kerak? Bolalar hech qanday yangilik yaratmaydiku?

O'quvchining ijodkorligi, eng avval, uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan masala yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, mehnat darslari va hokazolardagi mustaqil fikrlashida namoyon bo'lishi lozim. O'quvchining ijodi - uning olgan bilimlarini hayotda ko'rgan hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki ma'lumotlarni tahlil qila olishidan iborat. Har qanday ijoddan maqsad borliqni rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir. O'qitishdagi individual yondashish ham ta'lim jarayonining muhim talabidir. O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi materialni olish, mustahkamlash, takrorlash, uy vazifasini tuzish hamda darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarini olib borilishi orqali amalga oshiriladi. Bu ishlarda faqat o'qituvchilar emas, balki mazkur sinfdagi kuchli o'quvchilar yoki bo'sh o'quvchilarga biriktirilgan yuqori sinf o'quvchilari ham qatnashishi lozim. Ta'limning demokratik va insonparvarlik tizimiga olish davrida o'qitishdagi individual yondashish alohida ahamiyat kasb etadi, binobarin, hozirgi kunning talabi o'quvchi o'rta maktab dasturini o'zlashtirishi uchun ta'limning har bir bosqichida tegishli bilimlar olishiga erishishdan iboratdir. Shaxs doimo shakllanishda bo'ladi. Shaxsning shakllanishi sust kechishi ham mumkin. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosini faqat maktab emas, balki jamiyatning rivojlanishi ham hal qiladi, albatta. Jamiyat tobora rivojlanishi bilan shaxs har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. O'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish muammosi ta'lim nazariyasi va amaliyotida yangi muammo emas. Ammo u hozirgi paytda talim-tarbiya nazariyasida alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning mohiyati, fan-texnika taraqqiy etayotgan sharoitda malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. Talimni tabaqalashtirish muammosi ilmiy-pedagogik asosda hal qilinsa, o'qitishni ma'lum darajada individuallashtirishga imkoniyat paydo bo'ladi. O'qitishni individuallashtirish juda murakkab muammo bolib, ma'lum metodologik va pedagogik yondashishga bogliq holda bevosita hal qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.uz](http://www.uz)
2. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
3. [www.slaydlar.uz](http://www.slaydlar.uz)
4. [www.refaratlar.uz](http://www.refaratlar.uz)

**ENGLISH IS FUN (WITH GAMES)**

**Dehkanabad District, Kashkadarya Region English teacher at the 97th  
general secondary school under the Department of Public Education**

**Tursunova Gulnoza Amirqulovna**

***Abstract:** In recent years, the attention to learning and teaching foreign languages is increasing significantly. This requires making foreign language lessons, especially English, interesting, that is, using various innovative methods, technical tools, interactive games that attract different students. The use of such games during the lesson increases the student's enthusiasm for learning science.*

***Key words:** foreign language, interactive games, technical tools, didactic games, Roley style of games, playful grammar, Taboo words (forbidden words), Pictionary (word game).*

There are a number of interesting games in the process of teaching English and Russian. That's it is worth mentioning that when teaching language to children, it is necessary to use such games in which all students participate equally and learn new things from the lesson (for example, new vocabulary can be memorized, if this process is repeated every day, the student's language 'at wealth rises to a higher level). It is inappropriate to start the lesson with grammar concepts, especially for younger students, because it causes them to get bored quickly. As a result, interest in education may fade [1-5]. Even the process of greeting with them should be started in an unconventional way, for example, starting the lesson with some kind of greeting English song when the teacher enters (mainly a motivational method for primary school students) is an effective method. If the lesson continues in this way, the students will not lose their attention to one task during the lesson. They even look forward to English lessons. Of course, all this should be organized by the teacher, and it is the pedagogue's responsibility. Therefore, some types of games can be mentioned to make learning a foreign language interesting. From "Rolli games" to improve the effectiveness of English and Russian language

lessons can be used. The advantage of this game is that it is played based on the situation. This game is not only useful for learning science, but also helps to develop mental ability. In this game, topics are selected and children create dialogues. For example, the passenger's conversation when stopping a taxi, or the conversations in clothing stores - all of this is spoken and shown in English. It is in this game that we can use the tactics of working with a group, that is, dividing students into groups and dividing them into different topics. In this case, competition also occurs. Competition is a criterion [5]. If the group that has done the task well is encouraged, the aspirations of the rest of the students will also increase. In addition, it is appropriate to use didactic games to conduct English lessons meaningfully.

**OBJECT** - this game serves to increase students' vocabulary. We know that the most important direction in learning a foreign language is to memorize a new word. Taking into account the characteristics of students, each student memorizes vocabulary in his own way. We are sure that memorizing new words through games is suitable for everyone and makes the process easier. In the game we mentioned above, during the lesson, 15 objects in the classroom are placed on the table and the students come and look at these objects. The items are covered and then the students have to write what they see on the board in English for a certain amount of time. The student who can write the most words correctly will be the winner. In order to ensure the quality of this game, I can say that in order to attract students who are in this situation and did not participate in the lesson, it would be appropriate if they were given the task of making one sentence for the names of these items, and this it also prevents apathy. Pictionary is a game familiar to most English language teachers and learners, a word game with its name and a picture in it. You can use a normal blackboard or a magnetic board to draw in this game. Students of the class are divided into two groups and a table is drawn on both sides of the blackboard for each team. The scores of the teams are recorded in these

tables. Names of words are written on the desk and turned upside down. Pupils from each group take turns choosing one of the hidden words and drawing it on the board. The team that gets it first will be awarded a point. This game also sharpens the minds of students. We can also say that the use of pictures is a tactic that attracts readers quickly, especially if it is created by the students themselves.

Taboo words game (Forbidden words) is a fun game that helps students use synonyms and their rates. The use of synonyms ensures the fluency of speech and the beauty of speech. Especially in the English language, one should not make mistakes in the use of words, because many words with the same meaning in the English language are used according to the content of the sentence. This game will help you to be careful in this regard. In this, groups are formed, that is, students sit facing each other. Each team chooses one person from their team to sit on the chair opposite them. The teacher goes behind the students and holds a word written on a large piece of paper. The students sitting in the seats should not be able to see this word. There will be some time for the member of the team sitting in the seat to say the word that the teacher is holding. When using games, use them according to the knowledge and age of the children we can change it, that is, make it easier or more complicated. The purpose of these above-mentioned games is to strengthen the memory of students, increase their mental capacity, quickness, intelligence, remember new words easily and, most importantly, organize the lesson meaningfully. Today, the educational process is mainly carried out in a traditional way, but at all stages of the educational system, continuous learning of foreign languages, as well as improving the qualifications of teachers and teaching with modern educational and methodological materials provision requires further improvement. Modern pedagogical and information-communications By introducing advanced methods of education, it is desirable to make the growing young generation experts in the languages they are learning, and on the basis of

this, they should be able to speak these languages easily. After all, everything is for the great future of our youth and the development of our country.

### **References:**

1. Brandvik, M. L., & McKnight, K. S. The English Teacher's Survival Guide: Ready To-Use Techniques and Materials for Grades 7-12. Jossey-Bass.
2. Sandford R, Ulicsak M, Facer K and Rudd T “ Using commercial off-the-shelf computer. games in formal education.” Retrived 28-10-2011 from < [http://www2.futurelab.org.uk/resources/documents/project\\_reports/teaching\\_with\\_games/TWG\\_report.pdf](http://www2.futurelab.org.uk/resources/documents/project_reports/teaching_with_games/TWG_report.pdf)>, 2005.
3. Harnad, S., Lancaster, J. B., & Steklis, H. D. “Induction, evaluation and accountability”, Origins and Evolution of Language and Speech. New York: New York Academy of Sciences. 1976
4. Hayles, N. K. “Electronic Literature: New Horizons for the Literary”. Notre Dame: University of Notre Dame Press, 2008. [7] Hayes, R. T. “The Effectiveness of Instructional Games”. Naval Air Warfare Center, Orlando, (November 2005).
5. Warschauer, M. “Laptops and literacy: Learning in the wireless classroom”. 2006

**Basketbol o'yinni texnikasi hamda basketbol o'yinida foydalaniladigan taktikalar.**

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat" kafedrası  
o'qituvchisi Xolmaxmatov Bobur**

**Parmonova Moxinur Erkin qizi**

**JM 1-22 guruh.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Basketbol o'yinni texnikasi hamda o'yinda foydalaniladigan taktikalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Basketbol, o'yin taktikasi, himoya, hujum taktikasi, to'pni uzatish, zamonaviy basketbol.

Basketbol (inglizcha: basket; so'zidan olingan bo'lib, basket — savat, 'ball' — to'p) har birida beshtadan o'yinchi ishtirok etadigan jamoaviy sport turidir. O'yindan bosh maqsad — to'pni qo'l bilan o'ynagan holda 3,05 m balandlikdagi shitga mustahkamlangan savatga tushirib, imkon qadar ko'proq ochko olish. Har bir jamoada beshtadan o'yinchi ishtirok etadi. Jahondagi eng kuchli basketbol ligasi ham Milliy Basketbol Assotsiatsiyasi (MBA) dir. Liganing nomdor professional basketbolchilari 1992-yilgi Olimpiadadan boshlab AQSH terma jamoasini sharafini yirik musobaqalarda xam ximoya qilib kelmoqda. Olimpiada o'yinlari basketbol turnirida eng ko'p AQSHterma jamoasigolib chiqqan — 12-marta, Faqatgina SSSR 2-marta (1972, 1988), Yugoslaviya (1980) va Argentina (2004) Olimpiada chempioni nomini tortib olgan. Basketbol tarixidagi eng buyuk o'yinchilar AQSHlik Karim Abduljabbar, Lerri Berd, Medjik Djonson, Uilt Chemberlen, Uilyam Rassel, Maykl Jordon xisoblanishadi. Zamonaviy basketbol yulduzlaridan Shakil O'nil, Kobi Brayant, Tim Dankan, Alen Ayverson, Lebron Djeymslarni e'tirof etish mumkin. Yevropa basketboli yulduzlaridan rossiyalik Andrey Kirilenko, germaniyalik Dirk Novitski, ispaniyalik Pou Gazol, serbiyalik Predrag Stoyakovich va fransiyalik Toni Parkerlarni e'tirof etish mumkin.



SHuningdek xitoylik Yao Min va argentinalik Emmanuel Jinobili xam Dune basketbol ixlosmandlari orasida katta nufuzga ega.[1]

O'yin texnikasi – basketbolning rivojlanish jarayonida shakllangan musobaqaning konkret vaziyatlarni eng muvaffaqiyatli ochishga qaratilgan usullar yig'indisidir. Basketbol o'yinni texnikasini bir tartibda o'rganish uchun uning klassifikatsiyadan foydaniladi. Basketbol o'yinni 2 bo'limdan tashkil topgan turli texnik priyomlar yordamida o'tkazildi. Bu hujum texnikasi va himoya texnikasi har bir bo'lim hujum va himoyadan qo'llaniladigan texnik priyomlarning guruhlarining tashkil topadi. Usul gruppalari ularning har xil yo'llar bilan bajarilishini o'z ichiga oladi. [2] Oyoqlarni to'g'ri ishlata bilish va chalg'itish usullari ikkala bo'limga ham qarashlidir. Usullarning ayrim bajarish yo'llari o'z navbatida bajarilish harakteriga ko'ra bir biridan farq qiladi. Masalan usuli bir joyda turib, harakatda bo'lganda yoki sakraganda bajarish mumkin. Hujum texnikasi. Hujumda qo'llaniladigan hujum texnikasi texnik priyomlarga to'pni ilish va uzatish, uni yerga urib olib yurish, savatga otishlar, chalg'atishlar kiradi. Ular maydonda harakat qilish to'xtalishlar va burilishlar kabi usullar bilan birgalikda bajariladi. Bu usullarni bajarish eng qulay va mustahkam dastlabki holat turishidan boshlanadi. Bunda oyoqlar bukilgan, gada bir oz oldinga egilgan, uning og'irligi oyoqlarda barobar taqsimlangan, qo'llar to'pni olish va ushlab turish uchun qulay holda ko'krak oldida bukilgan bo'lishi kerak. To'p keng yoyilgan barmoqlar bilan kaftlarga to'liq tekizilmagan holda tutib turiladi. Maydonda harakat qilish texnikasi. Basketbolchi yurish, sakrash, to'htash va burilish yordamida maydonda harakat qiladi. Bu guruhda priyomlarni oyoqlarning to'g'ri ishlashiga asoslanadi. To'p bilan bajariladigan usullar texnikasi. To'pni ilish bir yoki ikki qo'llab bajariladi. Bu harakatlar ko'krak va yelka balandligiga, yuqorilab (boshdan baland) va pastlab (tizzadan past) hamda dumalab va maydondan sapchib kelayotgan to'plarni ilishlarga ajratiladi. O'rtacha balandlikda kelayotgan to'pni ikki o'qllab ilish eng asosiy usullardan hisoblanadi. Basketbolchi bir oz bo'shashgan qo'llarni

uchib kelayotgan to'pga qarshi to'g'irlaydi. Panjalar yarim oysimot ochilgan bosh barmoqlarni bir-birlariga qarab yo'naltirilgan, qolganlari esa oldinga yuqoriga qaratib keng yoyilgan bo'ladi. To'p barmoqlarning ichiga tegishi bilanoq basketbolchi uni mahkam ilib oladi, to'pning uchish tezligini kamaytiradi. Keyingi harakatlarni bajarish uchun u qulay holatini egallaydi va qo'llarini bukib to'pni gavgavga yaqinlashtiradi. To'pni uzatish. To'pni uzatish asosiy texnik usul hisoblanadi. Uning yordamida basketbolchilar o'zaro harakatlarini bajaradilar. [3] O'yin davomida uzatishning har xil usullari qo'llaniladi. O'yin sharoitiga qarab uzatishlar turli: dastlabki holatlardan bir joyda turib harakatda sakrab; har hil harakatlarda yaqin masofaga, uzoq masofaga, past va yuqori troyektoriya bilan yo'nalish bo'yicha maydonning eni, bo'yi, diagonali bo'ylab bajarilishi mumkin. Ikki qo'llab ko'krakdan va yuqoridan to'p uzatish usullari zamonaviy basketbolda ko'proq ishlatiladi. Ko'krakdan ikki qo'llab to'p uzatish yaqin va o'rta masofada bajaradigan o'zaro harakatlari paytida qo'llaniladi. Uni bajarish uchun basketbolchi turish holatida to'pni ko'krak oldida tutib turadi. Qo'llar bukilgan, tirsaklar pastga tushirilgan bo'ladi. Barmoqlar joylashtirilgan, bosh barmoqlar bir-birlariga qolganlari esa yuqoriga-oldindan qaratilgan bo'lishi lozim. To'pni uzatish qo'llarning pastki-gavgavga, yuqoriga qarab dastlabki dira bo'ylab bajariladigan harakati bilan bajariladi. SHundan so'ng qo'llar tez oldinga qarab to'g'irlanadi. Uzatish panjalarining faol harakatlari bilan yakunlanadi. To'pni yo'nalish tezligini oshirish uchun basketbolchi oyoqlarni to'hrilashi yoki qadam qo'yishi mumkin. Savatga to'p otishlar. O'yinning yakuniy natijasi savatga otiladigan to'plarning aniqligi bilan bog'liq Ular har xil: yaqin (3 metrdan ortiq) masofalarda bajariladi. Otishlar xarakteriga sakraganda to'plarni savatga bir va ikki qo'llab otish mumkin. Xo'irgi kunda to'plar savatga himoyachilarning qattiq qarshiligi ostida otiladi. Shuning uchun, to'pning savatga aniq borishga oyoqlarning, qo'llarning, ayniqsa, panjalarning to'g'ri ishlashi, aniq mo'ljal olish shu sharoitga mos samarali usulni tanlash shu bilan birga, basketbolchining muvozanat saqlashiga va har xil sharoitda

qiyin kordinatsiyali harakatlari bajarish imkoniyatlarini yaratish uchun ma'lum mushak guruhlarini bo'shashtirish qobiliyatlariga ega bo'lish katta ahamiyatga ega.

[4]

**Xulosa:** Zamonaviy basketbolda to'pni savatga sakraganda bir qo'llab otish shitdan qaytgach to'pni qayta otish, "Kryuk" usulida va yuqoridan pastga otish kabi usullar katta ahamiyatga ega. To'pni yerga urib yurish. To'pni bir qo'llab ketma-ket yerga urish to'pni yerga urib yurish deyiladi. Bu usul bir joyda turganda, yurganda va asosan, yugurganda bajariladi. Bu usul to'pni basketbolchining harakat qilishga qo'llaniladigan asosiy usul hisolanadi. To'pni yerdan har xil: yuqoriroq va pastroq, sapchitib turib yurish mumkin. U qo'lni bukib, to'pni bir oz yuqoriga ko'taradi so'ng uni yana maydonga ma'lum burchak bo'yicha keskin itaradi. To'p pastroq sapchib yerga urib yurilganda oyoqlar ko'proq bukiladi. To'pni tizzadan pastga tez-tez yerga urit yurishga oyoq va qo'llarning har bir ma'lumda ishlashi, chap va o'ng qo'llarni barobar ishlata bilish, harakatni yuqoriga tezlikda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chalg'itishlar asosiy maqsadni bajarishdan avval uni berkitib himoyachining diqqatini chalg'itish uchun hujumchi bajaradigan harakatlar chalg'itishlar deb ataladi. Ko'pchilik texnik usullar yoki ularning qo'shilmas chalg'itish harakati sifatida qullanishi mumkin. Chalg'itishlar qo'llanilayotgan priyomlarga mos sur'atda bajarilishi kerak. Bunda muvozonat saqlanib qolishi shart. Chalg'itish harakatlarini bir marta yoki bir necha marta bajarish mumkin. Ular to'psiz va to'p bilan bir joyda turganda va harakatda bo'lganda bajarilish mumkin. Harakat paytida chalg'itishlarni bajarish qiyinroq hisoblanadi. Himoya texnikasi. Jamoaning hamma basketbolchilari himoyada samarali o'ynay olishlari kerak. Buning uchun eng avvalo mavjud himoya texnikasining hamma usullarini egallash lozim. Himoya texnikasi 2 guruhga: maydonda harakat qilish texnikasi to'pni egallash va qarshi harakat qilish texnikasiga bo'linadi. To'pni egallash va harakat qilish texnikasi. To'pni olib qo'yish. Bu usulni bajarish uchun to'p o'zatayotgan basketbolchlarning

harakatlarini diqqat bilan kuzatish, to'pning yo'nalish tomonini oldindan aniqlash va to'g'ri pozitsiyani tanlash zarur. Himoyadagi basetblchi to'p uzatish vaqtida uni olib qo'yish maqsadida o'zini to'sib turgan hujumchining oldindan to'pga qarshi chiqishi uchun turgan joyidan keskin qo'zg'alishi lozim. Bunda oxirgi qadamning katta qo'yilishi, gavda va qo'llar to'ga qaratilgan bo'lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Basketbol. Tuzuvchilar dotsent A.SH. Kosimov, dotsent O.T. Rasulov, X.A. Ismatullayev, Toshkent – O'qituvchi -1986 yil[1]**
- 2.Jismoniy tarbiya (T. Usmonxo'jayev, S.Arzumanov)[2]**
- 3.Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti (T. Usmonxo'jayev S.Arzumanov)[3]**
- 4.www.ziyonet.uz[4]**

## **Python dasturlash tilini o'rganish.**

**Qibray tumani 3-o'rta umumta'lim maktabi informatika fani o'qituvchisi.**

**Dusqobilova Gulzor Qulmamatovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Python dasturlash tilini o'rganish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Python, mantiqiy kod, dasturlash tili, loyihalar, ta'lim, ma'lumotlar.

Python — (payton, piton) — turli sohalar uchun yuqori darajadagi umumiy maqsadli dasturlash tili. Uning dizayn falsafasi muhim chekinishdan foydalangan holda kodning o'qilishiga urg'u beradi. Uning til konstruksiyalari va obyektga yo'naltirilgan yondashuvi dasturchilarga kichik va yirik loyihalar uchun aniq, mantiqiy kod yozishda yordam berishga qaratilgan [4]. Shuningdek Python sun'iy intellekt hamda ma'lumotlar muhandisiligi sohalarining tili hisoblanadi. [1]

Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik dasturlash tillari qatoriga kiradi. Va shu bilan birga unda dasturlash juda ham yoqimlik. Python dasturlash tili muallifi – Gvido van Rossum (Гвидо ван Россум) Python samarador yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi (предоставляет эффективные высокоуровневые структуры данных,) va oddiy, lekin samarador ob'yektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi. [2] Pythonning o'ziga xosligi. Oddiy, o'rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta'minot. O'z dasturingizni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni xisobga olishingizga xojat qolmaydi. Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlay oladi. Interpretatsiya (Интерпретируемый) qilinadigan til. Kengayishga (Расширяемый) moyil til. Agar siz dasturingizni biror joyini tezroq ishlashini xoxlasangiz shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodingiz orqali ishga tushirsangiz (chaqirsangiz) bo'ladi. Juda xam ko'p hilma-hil kutubxonalarga ega. [4]

O'rnatish.

Agar siz biror GNU/Linux distributivini ishlatayotgan bo'lsangiz ko'p xollarda sizning tizimingizda python o'rnatilgan bo'ladi. Buni tekshirib ko'rish uchun terminalingizdan quyidagi buyruqni ishga tushirib ko'ring.

```
python -V.[5]
```

Agar sizda Python 3.4.3 yozuvi yoki shunga o'xshash yozuv xosil bo'lsa unda xammasi joyida. Windows operatsiyalar tizimiga o'rnatish uchun [www.python.org/downloads](http://www.python.org/downloads) web saxifasiga o'tamiz va u yerdan oxirgi python versiyasini yuklab olamiz. Pythonni o'rnatish odatiy dasturlar ni o'rnatish kabi kechadi. Xech qanday qiyin joyi yo'q. Keyingi bosqichda python interpretatorini buyruqlar qatoridan (командной строки) ishga tushira olishimiz uchun biz python o'rnatilgan joy manzilini PATH deb nomlanuvchi o'zgaruvchiga qo'shib qo'yishimiz kerak bo'ladi.

Hozirda dasturlash tillari soni ko'p lekin ulardan qaysi birini o'rganish asosiy moummolardan biri. O'zbekistonda java, C# c++, php va javascript bu tillarni ishlatadiganlar soni juda ham ko'p lekin 2016 yildan bera juda tez o'sib kelayotgan python dasturlash tilini ishlatadiganlar soni bu dasturlash tilini foydalanuvchilari qaraganda kam. Asosiy mavzuga qaytamiz: Nima uchun python dasturlash tilini o'rganish kerak? Bu savolga men asosiy 5 ta sabab bilan ko'rsataman.

1.Sodda va o'rganish oson.

Shunday qili, 1-sabab Python juda sodda va o'rganish oson. Python juda kuchli til va u ingliz tiliga juda o'xshash. Bepul va open source. Bundan tashqari, Pythonda siz murakkab sintaksis bilan shug'ullanishingiz shart emas, quyidagi rasmda ko'rishingiz mumkin.

Agar siz "Hello, world" so'zini ekranga chiqarish uchun javada 3 qator kod yazamiz lekin pythonda shunchaki `print("Hello, world")`. Bu bilan python dasturchisi 1 soatga qiladigan ishni java dasturchisi 1 kunda bitiradi

2.Web dasturlash.

Python veb-saytlarni ishlab chiqish uchun bir qator frameworklar bor. Mashhur frameworklar Django, Flask, Pylons va boshqalar. Ushbu frameworklar Python-da yozilganligi sababli, kodni tez va barqaror qilishiga asosiy sabab. Boshqa veb-saytlardan ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan joylarda veb-qirqishlarni ham amalga oshirishingiz mumkin. Shuningdek, Instagram, bit chelak, Pinterest kabi ko'plab veb-saytlar faqat ushbu frameworklar bilan yozilgan. Yana bir pythonni gigant kompaniyalar ishlatishi misol uchun google, facebook va boshqalar.

### 3.Suniy intellekt va mashina tili.

AI texnologiya dunyoda tez va jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri. Siz aslida inson miyasiday o'ylaydigan, tahlil qiladigan va qaror qabul qiladigan robotlar yaratishingiz mumkin. Bularni barchasini Keras va TensorFlow kutubxonalarini bilan qilsa bo'ladi. Hozirda o'zim ham computer vision sohasida bir-ikkita loyihalar ham qilyapman. Computer vision bu rasmga qarab uni kimligini va uni harakatlarini aniqlaydigan yo'nalishlar bu albatta pythonda sodda ko'p qatorlik kod yozmaydi. Buni amalga oshirish uchun openCv kabi kutubxonalar mavjud.

### 4.Data Science.

Python ko'plab ma'lumotlar ustida ko'plab amalarni amalga oshirish mumkin. Hozirgi kunda ma'lumotlarni barchasi raqamli bo'lib bo'ldi endi ularni tartibga solish, ular ustida amalar bajarish kerak. Bu uchun pythonda "Numpy" va "Pandas" kabi kutubxonalar bilan amalga oshiriladi. Python shuningdek jadval, matritsa va statistik ma'lumotlar bilan ham ishlaydi bularni amalga oshirish uchun "Matplotlib" va "Seaborn" kabi mashhur kutubxonalar bor.

### 5.Pythonning mashhurligi va yuqiri ish haqi.

Python dasturchilari sohada eng yuqori ish haqiga ega. AQSHda Python dasturchisining o'rtacha ish haqi taxminan \$120,000ni tashkil qiladi.

### Xulosa:

Xulosa qilib aytish mumkinki endilikda python dasturlash tilini o'rganish istagi sizda paydo bo'lgan bo'lsa uni qayerdan o'rganish mumkin degan savol bo'ladi.

Agar siz ingliz tilini bilsayiz Youtube da bir qancha videolar bor siz o'zbek tilini bilsangiz unda uzbek developer kannalida python dasturlash tili videolari bor.

1.General Python FAQ — Python 3.9.2 documentation“. [1]

2.„Python 0.9.1 part 01/21“. Alt.sources archives. „Starlark Language“. [2]

3.Kuhlman, Dave. „A Python Book: Beginning Python, Advanced Python, and Python Exercises“ [3]

4.Rossum, Guido Van (20-yanvar 2009-yil). „The History of Python: A Brief Timeline of Python“ <https://codingdojo.com/blog/top-7-programming-languages>[sayt ishlamaydi][4]

5.Narzullayev Anvar. Pythonda dasturlash asoslari. — T.: „Akademnashr“, 2021. — B. 6.[5]



## **KOMIL INSON TARBIYASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING AHAMIYATI**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani 18-sonli maktabi ona tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi**

**Yerdasheva Dilfuza Bahodirovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ona tili va adabiyot fanining komil inson tarbiyasidagi ahamiyati va ona tili va adabiyot darslarida tashkil etilishi mumkin bo'lgan turli qiziqarli o'yinlarga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** komil inson, ezgulik, tarbiya, ma'naviyat, mehnat, ilmiy yangiliklar, o'yinlar.

O'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan ijobiy intilish va ehtiyojni shakllantirish, o'zaro bellashuv elementlarini joriy etish hamda o'quvchilarda muntazam ravishda o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida yangi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini izlashda ijobiy faollikni oshirish zarur bo'lib qoldi. Ta'lim rivojining buguni va istiqboli bugun sinfda dars berayotgan o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq. Zero, o'qituvchi maktabda asosiy figura hisoblanar ekan, u o'ziga bildirilgan ishonch, yosh avlod tarbiyasidek murakkab, mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarmog'i zarur. O'qish sifatini yanada oshirish davr talabi bo'lib qolgan shu kunlarda darslarni noan'anaviy usulda olib borish keng yo'lga qo'yilgan. Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta'limiga taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov: "Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yanada yaqin jipslashtiradi... Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir", - deb aytgan edi. Ta'lim mazmunining asosini dars tashkil etadi. Dars orqali ilmiy yangiliklar va axloqiy tarbiya o'quvchilarga yetkaziladi. Bugungi kunda darslarimizni zamonaviy ruhda tashkil etib, noan'anaviy usullardan foydalanmay, har bir darsni san'at darajasiga ko'tarmay turib, belgilangan natijaga, ko'zlangan

maqsadga erishib bo'lmaydi. O'zbek xalqi yoshlarini har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash, yangi zamon kishisini shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Sir emaski, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va yuksak fazilatli insonni voyaga yetkazish juda murakkab va mashaqqatli ishdur. shuning uchun mas'uliyatli masalaga har bir davrda zamonaning ilg'or shaxslari mas'uliyat bilan yondashganlar va ta'limtarbiyaning qulay usullarini qidirganlar. XV asrning mashhur mutafakkiri Davoniy kishi xususiyatlari ikki xil: biri tug'ma, ikkinchisi hayot jarayonida paydo bo'ladigan xususiyatlar deb ajratadi va tug'ma xususiyatlarni tan olgan holda hayot jarayonida paydo bo'ladigan xususiyatlarni inson kamoloti uchun eng muhim omil deb hisoblaydi. Shu bilan birga yetuk inson bo'lish uchun har bir shaxs o'zida quyidagi hislatlarni tarbiyalash lozimligini aytib o'tgan edi.

1. Zukkolik
2. Fahm tezligi
3. Zehn o'tkirligi
4. Bilimni tez egallash qobiliyati
5. Qo'yilgan muammoni tez anglash
6. Esda saqlash qobiliyati
7. Xotira

Shunday qilib, Davoniy haqiqiy baxt-saodatga erishaman degan inson yuqoridagi fazilatlarni egallashga intilishi zarur deb hisoblaydi. Keltirilgan xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish inson tafakkurining o'sishiga olib keladigan omillardandir. Lekin bu narsa o'z-o'zidan bo'lavermaydi. Buning uchun tinimsiz mehnat, mashqlar zarur. mashhur Amerika fizigi T. Edison buyuk inson bo'lishga bir foiz talant va 99 foiz mehnat zarurligini ta'kidlagan edi. Yuqoridagilardan xulosa qilib, shuni aytmoqchimizki, darslarni noan'anaviy usulda tashkil etish, darslarning turli bosqichlarida o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning tafakkurini o'stirish zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida quyidagi

o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni yanada faollikka chaqirishi shubhasiz. "Fonetika" bo'limida:

1. "Tushirilgan harfni qo'ying" o'yini Bu o'yin o'quvchilarga o'tilgan mavzuni o'zlashtirish hamda savodxonligini oshirishda yaqindan yordam beradi. Masalan: X yoki H Mu...tor, A...mad yoki b yo p kito..., makta... va shu kabi.
2. "Harf jildirish" o'yini Ushbu o'yin o'quvchilarning fikrlash doirasini o'stiradi va so'z boyligini kengaytiradi. Masalan: 5 ta 5 harfli so'z yoziladi. 1-so'zda a harfi 1-o'rinda, 2-so'zda 2-o'rinda va shu kabi. aholi - bahor - arava - lug'at - piyola
3. "Kim tez?" o'yini Bu o'yindan alfavit mavzusini o'tganda foydalanish mumkin. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi hamda kim tez alfavit tartibida so'zlar yoza oladi deb mashq berish mumkin. Bu o'yinni murakkablashtirish uchun 2 -yoki 3- harfi alfavit tartiblar bo'lishini topshiriq qilib beriladi. Masalan: savdo, abgor.....
4. "So'nggi bo'g'inga so'z yasash" o'yini. Bo'g'in mavzusidan so'ng foydalanish mumkin bo'lgan o'yin. Sa/vol – voli/da – da/da – Da/mir – mi/rob Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni ona tili fanidan yuksak bilim va salohiyatli qilish bugungi kunning talabidir. Nega deganda, hozirda yurtboshimiz tomonidan yosh avlodning chet tillarini bilish darajasini yaxshilashga e'tibor qaratilib, bugungi kunda yoshlarimiz ikkita emas, to'rtta tilni bilishlari zarurligi uqtirilayotgan bir davrda, o'quvchilarning avvalo, o'z ona tillarini yaxshi bilishlari va ona tilida ravon so'zlay va fikrlay olish qobiliyatlarining mavjudligi ularning chet tillarini tez va oson o'zlashtirishlariga zamin yaratadi. Bu esa maktablardagi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga katta mas'uliyatli vazifa yuklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29- avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G'ulomov "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent-1998-yil.
4. Kazadayev, A., Sharopov, B., Hakimov, S., Umarov, I., Muxtoraliyeva, M., Dadaxanov, F., & Abdunazarov, A. (2022). MAMLAKATIMIZDA NEMIS TA'LIM TIZIMINI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI TAHLILI. *Journal of new century innovations*, 18(1), 124-129.

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKDAN FOYDALANISH

**Nosirov Mehridin Zayniddin o'g'li**

**Samarqand viloyati Narpay tumanidagi**

**42- umumta'lim maktabning**

**Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maktablarda tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni tasviriy san'at faniga bo'lgan qiziqishini orttirishda ko'rgazmalilikdan unumli foydalanish xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'rgazmalilik, tasviriy san'at, o'yin, musobaqa, badiiy asarlar

Tasviriy san'at darslarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini shakillantirish va doimiy ravishda uni oshirib borishga bog'liq. Fanga qiziqishi bo'lmagan boladan yahshi natija kutib bo'lmaydi. Shuningdek o'quvchi darsdan birorta natijani ongli ravishda olganida hamda unga ega bo'lishga ishonch hosil qilgandagina fanga qiziqish paydo bo'ladi.

Tasviriy san'atda o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishning bir qator yo'llari mavjud:

-san'atning mohiyatini bolalar ongiga sindirish;

-mashhur san'at namoyondalarining hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish filmlar namoyish etish albomlar tayyorlash;

-ozgina bo'lasada bolalarni erishgan yutuqlarini qayd qilish va rag'batlantirish ularning ibrotomus ishlarini sinfdagi barcha o'quvchilarga namoyon etish;

-qiziqarli bo'gan san'at asarlari haqida suhbat va murozalar o'tkazish;

-muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilarining ishlaridan ko'gazmalar tashkil etish, ularni ishlarini tuman, shahar, viloyat ko'gazmalariga tavsiya etish;

-har bir darsda o'qtuvchi bolalarga yangi bilim, tushuncha va malakalar berishi;

-tasviriy san`at darslarini o`yin, musabaqa tarzida tashkil etishi {viktorina krasvord, chaynvord yechish};

-bolalarning tasviriy ijodi uchun ko`proq ularni qiziqtirgan mavzularni tavsiya etish.. Ayniqsa ertaklar hikoyalar multiplikatsiyalar filmlar asosida dengiz tubiga va boshqa planitalarga hayoliy sayohat mavzularida rasm chizdirish;

-bolalarni yirik muzey va ko`rgazmalarga olib borish;

-mashhur san`atkorlar bilan uchrashuvlar o`tkazish va boshqalar.

O`quvchilarni tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini oshirishda ko`rgazmali materiallardan keng foydalanish ham katta samara beradi. Bunda san`at asarlari reproduksiyalarni ko`rsatish o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini yanda orttiradi. Reproduksiyalarni bolalarga shunchaki ko`rsatish, uning mazmunini tahlil qilish bilan chegaralanib qolmay asarning yaratilish tarixi, asar haqida yirik olim rassomlarni aytgan fikrlarini o`quvchilarga yetkazish muhimdir. Avvalo ko`rsatiladigan asarlar o`z mazmunini va yaratilish tarixiga ko`ra qiziqarli bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan badiiy asarlar qatoriga I.Repinning “Ivan Grozniy va uning o`g`li Ivan”, N.Genning “Pyotr I shahzoda Aleksey Petrovichni so`roq qilmoqda “, V.Perovning” Ovchilar manzilgohda”, Leonardo Do Vinchining “Mona Liza. Jakonda “asarlarini ko`rsatib ular haqida kengroq tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir.

Ma`lumki, barcha tasviriy san`at darslarida ko`rgazmali qurollar ishlatiladi. Albatta, o`quv predmetining ko`rgazmali qurollarsiz tassavur etib bo`lmaydi. Shuningdek tasviriy san`at darslarida ko`rgazmalilik turlari ham nihoyatda turli-tumandir. Xususan natura uchun shuningdek tushuntirish uchun mo`ljallangan tabiiy va suniiy materiallar chizish va yasash usullari va bosqichlarini ko`rsatuvchi ko`rgazmali tablitsalar shular jumlasiga kiradi. Ayniqsa:

1. Tabiat maxsulotlaridan –daraxt, gul, bargcha, shoxcha rasmlari.

2. Hayvonot olamidan- kapalak, ninachi, qo`ng`zlar, burgutlar, it, bo`ri, quyon, turna va boshqa rasmlar.

3. Turmushda qo'llaniladigan buyumlar- oshxona va sport buyumlari, mehnat qurollari va boshqalar

4. Transport vositalari- harbiy texnika, sport texnikasi rasmlari

5. Odam va hayvonlarni turli tomondan ko'rinishlarini, ranglari, shakllarini, hamda perspektiv qisqarishini tasvirlovchi rasmlar

6. Odam va narsalarni chizish bosqichlarini ko'rsatuvchi rasmlar

Bunday ko'rgazmalar namoyish etilganda sinfdagi barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan o'lchovda tasvirlanishi lozim. Bu rasmlar o'z xarakteriga ko'ra rangli yoki oq-qora bo'lishi mumkin.

Ko'rgazmali qurollar nafaqat rasmi, balki turli materiallardan {karton, yog'och, sim, loy, tabiiy va badiiy materiallar} yasalgan bo'lishi mumkin. Ular tasviriy san'at nazariyasiga {kompozitsiya perspektiva, rangshunoslik, yorug' soya}, uning qonuniyatlarini ko'rsatuvchi modellar bo'ladi. Bu ko'rgazmali qurollar avval eskiz yoki kichik o'lchovdagi nusxa tarzida tayyorlanadi. U o'qituvchi tasdig'idan o'tgandan so'ng katta o'lchovda ishlanadi. Har bir tayyorlangan ko'rgazmaga o'quvchi qisqacha tushuntirish xati yozadi. Unda ko'rgazmadan foydalanishga oid metodik ko'rsatmalar namoyish vaqti va bosqichlari ko'rsatiladi.

Ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan darsga doir konspekt va metodik ishlanmalar bilan bog'liq holda amalgam oshirish maqsadga muvofiqdir. Lekin ko'rgazmali qurol dars ishlanmasi bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.

O'quvchilarni tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda shuningdek turli ko'rgazmalar ham tashkil etish lozim. Ko'rgazma orqali maktabda tasviriy san'at sohasida olib borilayotgan ishlarga baxo berish mumkin bo'ladi. Shuningdek ko'rgazma olib borayotgan ishlar yakuni sifatidagina ahamiyatli bo'lib qolmay, balki kelgusi ishlarda ham muhim rol o'ynaydi. Ko'rgazmaning natijalari

o`qituvchini kelgusida kamchiliklarni bartaraf etishda olib borilgan ishlarni yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Amaliyotda ko`rgazmaning ikki xil shakli uchraydi.

1.O`quvchilarning ijodiy ishlaridan tashkil etiladigan ko`rgazmalar

2.Mashhur tasviriy va amaliy san`at ustalari asarlarining asl nusxalari yoki ularning reprodüksiyalaridan tashkil etiladigan ko`rgazmalar.

O`quvchilarning ijodiy ishlaridan tashkil etiladigan ko`rgazmalarining shakllarini hoyatda turli- tuman bo`ladi. Xususan:

1.Sinf ko`rgazmasi. Alohida sinf o`quvchilarining eng yaxshi ishlaridan tanlab olish orqali tashkil etiladi

2.Maktab ko`rgazmasi. Maktab o`quvchilarining eng yaxshi ishlarini tanlab olish orqali yaratiladi.

3.Shaxsiy ko`rgazma. Soha bo`yicha katta yutuqlarga erishgan o`quvchining faoliyatiga doir bo`ladi.

Ko`rgazmalilik prinsipi tasviriy san`atni o`qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga uning harakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o`rganishga ko`maklashadi.

Ko`rgazmalilik tasviriy san`at darskarida boshqa o`quv predmetlaridagidek yordamchi emas balki o`quvchilarda tushuncha va tassavurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o`ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tassavur etib bo`lmaydi Bu o`rinda tasviriy san`at darslarida ko`rgazmalilik prinsiplarining roli juda katta.

Darslar uchun ko`rgazmali qurollar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo`yiladi:

1.Darsning maqsad va vazifalariga mosligi.

2.O`quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi

3.Ko`rgazmaning aniqligi , tushunarli bo`lishi

4. Tasvirning sifatli bo`lishi

5. Ko`rgazmalar o`zining rang- barangligi bilan o`quvchilarda zavq va qiziqish uyg`otish

6. Estetik talablarga mosligi

Tasviriy ko`rgazmali qurollarga, pedagogik rasmlar fotografiya, geometric gipsli shakllar va boshqa sun`iy usul bilan tayyorlangan tasviriy vositalar kiradi. Sanab o`tilgan ko`rgazmali qurollar quyidagicha guruhlanadi;

1. Mehnat va turmush buyumlari ular geometrik shakllar, sabzovotlar, mevalar, qushlar, hayvonlar, gullar va o`simliklar, amaliy san`at buyumlari.

2. Buyumlarning tuzilishi, pers peleti va qonunlari, yorug`-soya, rangshunoslik, dikarativ stilizatsiyaga doir geometrik shakldagi simdan yasalgan modellar vidioiskatel va boshqa ko`rgazmalar.

3. Rasmlar va tablitsalar unda rasm va naqsh chizishdagi ketma-ketlik, atrof-muhitning perspektiv ko`rinishlari amaliy san`at asarlarining tasvirlari.

4. Rassomlar asarlarining reprodaksiyalari, amaliy san`at asarlarining tasvirlari. Bunday ko`rgazmali qurollar yordamida yorug`-soya va rangshunoslik kompozitsiyalari qonunlari tushuntiriladi.

5. Bolalarga naturani chizishda ketma-ketlikni, har-xil ekspanatlar bilan ishlash uslubini, buyumlarning qurilishi, tasvirlanayotgan predmetlar va obektlarning fazoviy holatini ko`rsatuvchi pedagogik rasmlar va boshqalar.

6. Namoyish qilinadigan ko`rgazmali qurollar {diapozitivlar, diafilmlar, slaydlar, kinofilmlar}. Bular orqali o`quvchilar turli rasmlar, xalq amaliy san`at ustalari bilan tasviriy san`at asarlarini yaratish texnikasi va texnologiya bilan tanishadilar.

Ko`rgazmali qurollardan foydalanish masalalari o`qituvchining nutqi bilan ham bo`liqdir. Nutq va ko`rgazmalilikning uyg`unligi ikki jihatdan foydali bo`lishi ikki joyda ko`rinadi. Chunonchi, birinchidan, o`qituvchining nutqi ko`rgazmalilikga ko`maklashsa, ikkinchidan ko`rgazmalilik o`qituvchi nutqiga



ko`maklashadi. Tasviriy san`atni o`qitiishda, ayniqsa narsaning o`ziga qarab rasm ishlash va san`atshunoslik asoslari darslarida ikkinchi yo`l ko`proq bo`lib shu yo`l qo`llaniladi. Agar ko`rgazmalilikning birinchi yo`li bilim qonun tushunchalarni o`zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi yo`li pedagogga bu qonun-qoydalarni, atrof muhitdagi hodisalarni isbotlashda o`qituvchiga ko`maklashadi o`qtuvchining so`zi sinfda zaruriy muhit hosil qilishda o`qtuvchilarning ijodiy faoliyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o`qituvchining nutqi ravon tushinarli va ma`noli bo`lishi lozim. Shundagina o`qituvchi oldiga qo`yilgan vazifani a`lo darajada bajara olgan bo`ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Boymetov. B Tolipov N “Maktabda tasviriy san`at to`garagi` Tosh 1995
- 2.Komenskiy Ya A “Velikaya didaktika” Izobr ped soch Moskva :Uchpedgiz 1995
- 3.Leonar do Dovinchi “ Kniga o jivopisi”- Moskva 1934
- 4.Oydinov N. “Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari”- Tosh o`qit 1997

**Maqol ibratning kalitidir**  
**BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti**  
**talabasi Hasanova Solihabonu**

Annotatsiya: Maqollar xalqimiz hayotini, turmush tarzini, madaniyani, ma'naviyatini so‘zlovchi manbadir.

Maqollar tugal fikrni anglatuvchi, o‘tkir mazmunli qisqa va lo‘nda iboradir. Maqollar har bir xalqning ma’naviy merosi hisoblanadi. Bunda xalqning asrlar davomida ko‘rgan kechirgan voqealari, kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq tajribalari o‘z aksini topadi. Maqol - xalq og‘zaki ijodi bo‘lib, qisqa lo‘nda, obrazli, gramatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli manbadir. Maqol muayyan ritmik qolibga ega bo‘ladi. Maqollar asosan oddiy odamlar tomonidan yoziladi va mana shu insonlar hayotida ro‘y beradigan qiyinchilik va xursandchilik damlarini ifodalab turadi. Maqollar biror joyda qayd etilmagan. Bizgacha yetib kelishining sababi juda katta ma’noni o‘z ichiga qamrab olganidir. Maqollar shunday ibratli so‘zki, u gaplarga husun beradi. Inson fikrini tushuntirishi osonlashadi. Uni yorqin va ta’sirchan qiladi. Ba’zi takrorlarni oldini oladi. Shuning uchun ham ma’rifatli inson borki, uning nutqida har doim maqol hamroh bo‘ladi. Maqollarni yig‘ish birinchi bo‘lib Mahmud Koshg‘ariy boshlab bergan. U sayohat qilib ko‘p xalqlardan maqollar, hikmatli so‘zlar yig‘gan va o‘z asarida keltirib izohlagan. Mana shu maqollar hozirgi kunda yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham aks etadi. Bugungi kunda ma’rifatli va bilimli yoshlar aynan maqollar orqali ham o‘zlariga tegishli xulosani chiqarib olishlari mumkin. Maqollar hayotimizning bir bo‘lagidir Ana endi fikrimizni dalillash maqsadida " Ma’nolar mahzani " izoli kitobidan namunalar keltiramiz:

Qizlarjon qaynar buloqqa boshlamang

Moli ko‘p deb boy bolasin xushlamang <sup>4</sup>

Bu misralarni qizlarga nasihat sifatida olishimiz mumkin. Chunki, ayollar boylikka o‘ch bo‘lishadi. Yigitlarni boyligiga uchib baxtsiz bo‘lmang. Oddiyroq yigitga turmushga chiqsangiz ham sizni baxtli qila oladigan insonni tanlang degan ma‘ni yotadi. Bu maqolni mag‘zini chaqib yetishni ayni damda bu maqolni yod olishlarini maslahat beramiz

Yana bir maqolni tahlil qilishimiz mumkin.

Rajab "tulki " qorovul bo‘ldi,

Xotini erovul bo‘ldi.

Bu maqol majoziy ma‘noda o‘zini eridan ham ortiq deb biluvchi , eridan oshirib ish va gap -so‘z qiluvchi , erining boyligiga yoki amaliga kerilib , katta gapiruvchi va uncha - muncha odamni mensimaydigan ayollarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llaniladi <sup>5</sup>. Bu maqol yaratilgan davrni hech kim aniq ayta olmaydi. Lekin, shunday bo‘lsa ham maqol o‘z ahamiyatini zig‘ircha ham yo‘qotmagan. Bugungi kunda ham jamiyatimizda shunday ayollar mavjud. O‘zlarini erlaridan ham yon-atrofdagi ayollardan ham ustun bilishadi. Boshqalarni kichkinagina xatolaridan ham katta muammo qidirib, mazax qilishadi. Erlari oddiyroq lavozimda ishlasalar ham uni bo‘rttirib yon - atrofdagi odamlarga o‘zlarini ko‘z-ko‘z qilishadi. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki ayol kishi nozik bir xilqat hisoblanadi. Ayollar o‘zlarining latofati, nazokati va odobi bilan butun jamiyatga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Ayollarsiz bu dunyoni tasavvur qilish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1" Ma'nolar mahzani " izohli lug‘ati

2 Oxunjon Safarov "O‘zbek xalq og‘zaki ijodi". Toshkent 2010-yil

3 "O‘zbek xalq maqollari " ensiklopediasi

---

<sup>4</sup>Ma'nolar mahzani - 93- bet

<sup>5</sup> Ma'nolar mahzani -98-bet

**Tarix darslarida axborot texnologiyalari va zamonaviy usullarni qo‘llashning samarasi**

**Эффективность применения информационных технологий и современных методов на уроках истории**

**The effect of using information technology and modern methods in history lessons**

**Xalilova Muhayyo Sobirovna**

**Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani**

**27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**

**tarix fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarida axborot texnologiyalari va zamonaviy usullarni qo‘llashning samarasi yoritilgan bo‘lib, unda tarix fani ustozlari uchun foydali ma’lumotlar jamlangan.

**Аннотация:** В данной статье освещается эффект применения информационных технологий и современных методов на уроках истории, собрана полезная информация для преподавателей истории.

**Annotation:** this article covers the effectiveness of the use of Information Technology and modern methods in history lessons, which contains useful information for teachers of historical science.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** tarix darslarini axborot texnologiyalari va zamonaviy usullarni qo‘llashning samarasini ko‘rsatib berish.

**Цель написания данной статьи:** показать эффективность применения информационных технологий и современных методов проведения уроков истории.

**The purpose of writing this article:** to show the effectiveness of the use of history lessons in Information Technology and modern methods.

**Usullar:** “Piramida”, “Tarixiy diktant”, “Blits –savol”, “Shaxmat musobaqasi”, “Beshinchisi ortiqcha”, “DEBAT”, “Zakovat”.

**Методы:** “пирамида“,” исторический диктант“,” блиц –вопрос“,” шахматный турнир“,” пятый плюс“,” дебаты“,”интеллект”.

**Methods:** “Pyramid“,” historical dictation“,” Blitz –question“,” chess competition“,” fifth plus“,” debate“,”Intelligence”.

**Natija:** yosh avlodni tarix bilan hamnafas yashashga undash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Результат:** побуждать подрастающее поколение жить в гармонии с историей, воспитывать их в духе патриотизма.

**The result:** to encourage the younger generation to live in harmony with history, to educate them in the spirit of patriotism.

**Kalit so‘zlar:** qadimiy, tarix, axborot texnologiyalari, adabiyotlar, madaniyat.

**Ключевые слова:** древность, история, информационные технологии, литература, культура.

**Keywords:** ancient, history, information technology, literature, culture.

Bizning qadimiy va go‘zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu-ulomolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy bilimlarning, ayniqsa islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarimizning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Tarixni o‘qitishda qo‘llaniladigan matnlarga - darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar kiradi. Bosma matnlar ta’lim oluvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo‘lgani kabi ta’lim beruvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi. Tabiiydirki, o‘qituvchi shu manbalardan to‘g‘ri va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni didaktika talablariga, umuman tarix ta’limining yuksak talablariga javob

berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli, g'oyaviy va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tarix ta'limida tarixiy - badiiy adabiyotlardan foydalanishda ta'lim oluvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish va ularning, fanga oid qiziqishlarini ham inobatga olish kerak.<sup>1</sup>

Tarix o'qitish tajribasiga ko'ra maktabda ta'limning quyidagi texnika vositalaridan foydalanilmoqda :

1.Oddiy texnika qurilmalari: Karta va o'quv kartinalari ilinadigan, yog'ochdan yoki boshqa materialdan yasalgan siljiydigan oddiy qurilmalar: ko'chma sinf yozuv taxtasi, sinf devoriga ilinadigan ikki yoqlama ochiladigan yozuv taxta.

2. Ovozli apparatlar: plastinkalar qo'yib ovoz chiqaradigan asbob, magnitofon, radiopriyomniklar, bundan tashqari hozirgi paytda kompyuter texnologiyalardan, disklarga tushirilgan tasvirlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Maktab tajribasida plastinkalar va magnit lentalar, zamonaviy disklar yordamida, shuningdek, radiopriyomniklar vositasida o'quvchilarni mumtoz va o'zbek, chet el bastakorlarining asarlari bilan tanishtirish, tarix fanlarini o'rgatish keng quloq yoymoqda. Chunki musiqiy ijodiy asarlarga doir maktab kursining madaniy – tarixiy materialini plastinka va tasma yozuvlarisiz ko'rsatib bo'lmaydi. Masalan, madaniyatga doir mavzularni o'tgan paytda musiqa asarlarini eshittirish darsni maroqli bo'lishiga yordam beradi. Badiiy asarlar yozilgan plastinka va magnit tasmalari ham bor. Darsda G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri yozilgan plastinkadan foydalanish mumkin.

Bu manbalardan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi :

1.Yozuv materiallari yuzasidan o'quvchilarga savollar berish bilan bu yozuvlar dars materiali tarkibiga kiritiladi.

2. Avvalo gramplastinka yoki tasma, disk yozuvi eshitiladi va ko'rsatiladi. So'ngra bu yozuv suhbat yordamida tahlil qilinadi.

3. Yozuvlar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilinadi.

Ovozli texnika vositalariga radio eshittirishlari ham kiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun radio orqali maxsus dastur yoki umumiy dastur bo'yicha tarixdan

1.I.T. Xoshimov "Tarix darslarida didaktik o'yinlar" Metodik tavsiya, Jizzax-2012-yil, 41-bet.

beriladigan eshittirishlarni eshittirishni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda bunday eshittirishlar ko'pincha magnet tasmasiga yozib olingan bo'ladi.

Tarix darslarida magnetofon yozuvlaridan keng foydalaniladi. Radio va televideniye orqali beriladigan o'quv va sinfdan tashqari ishlarga bag'ishlangan eshittirishlar tarixiy voqealarning ishtirokchilari, mehnat qahramonlari, yozuvchilar va ijtimoiy arboblardan o'tkazilgan uchrashuv materiallari ana shu magnetofon yozuvlarining asosini tashkil etadi. Bu uchrashuv va suhbatlar aynan takrorlanmaydi, yozib olingan magnetofon tasmasidan uzoq yillar davomida va istagan vaqtda darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Bu o'rinda ham texnika vositasi o'quvchiga qo'l keladi.

Har xil ko'rsatuv asboblari va qo'llanmalari ta'lim texnika vositalarining uchinchi guruhini tashkil etadi. Ular epidiaskop, diapozitiv, diafilmlar va o'quv kinofilmlaridan iborat.

Tarix darslarida bunday texnik sharoiti mavjud bo'lgan kino xonasi yoki texnika vositalaridan foydalanishga moslangan maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak. Texnika vositalari bilan ta'minlangan xona asosan quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. xonani tezda qorong'ulatish va tezda yorug'latish mumkin bo'lsin.

b) qorong'u paytda o'quvchilarning yozuv – chizuv ishlarini olib borshi, tasvirlarni daftarga tushirishi, darslik matni bilan ishlashi uchun o'tirgan o'rinlari maxsus lampochkalar bilan yoritiladigan bo'lsin.

c) xonada juda katta yozuv taxtasi bo'lishi kerakki, uning bir qismi tasvir bilan band bo'lsa, bir qismi tasvirlarni ko'rsatish yoki boshqa maqsadlar uchun bo'shu bo'lsin.

d) xarita va rasmlar ilinadigan maxsus moslama bo'lsin.

e) zarur texnika vositalari va ularni ko'rsatadigan apparatlar xonada mavjud bo'lishi bilan birga ular tuzuk, ishga yaroqli holda saqlansin.

Bunday maxsus tarix xonasi bo'lmagan taqdirda sinfni uni texnika vositalaridan foydalanadigan qilib jihozlasa bo'ladi. Bu holda tegishli vosita va jihozlar maxsus javonda saqlanadi.

Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

a) o'qituvchi o'z bayonini o'quv filmining eng muhim va yorqin kadrlarni ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi. Tanlab olingan o'sha kadrlarni izohlaydi va tegishli xulo'asini chiqaradi.

b) 10-15 daqiqali qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi.

c) maxsus kino darsi tashkil etiladi.

d) darsdan tashqari vaqtda film tomosha qilinadi.

Ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlar davom etayotgan bir paytda tarix o'qitishda teleeshittirishdan ikki xilida foydalanilmoqda.

1) sinfda qabul qilish uchun beriladigan o'quv ko'rsatuvlarini komyuterlar orqali o'quvchilarga yetkazish.

2) o'qishdan tashqari vaqtlardagi teleko'rsatuvlar. <sup>2</sup>

**Quyida tarix darslarida qo'llanadigan zamonaviy usullar haqida to'xtalib o'tmoqchiman:**



“Piramida” usulida o’quvchilar tomonidan mavzuga oid atamalarning ingliz tilidagi tarjimasini topish lozim.






2. A.Zamonov “Tarix fanidan olimpiadaga tayyorlanamiz” Olimpiada ishtirokchilari uchun o’quv qo‘llanma, Toshkent – 2012-yil, 76-bet

“Blits –savol” usuli.

Bunda sinfdagi har bir o’quvchiga o’tilgan mavzu yuzasidan savollar o’qib eshittiriladi. O’quvchilarning har biri bu savollarga navbat bilan (o’qituvchi ko’rsatmasiga binoan) javob berib ketishadi. Savolga javob bergan o’quvchi 1 ballga ega bo’ladi (1 dona rag’bat kartochka).

“Shaxmat musobaqasi” usuli.

Sinf o’quvchilari 3 guruhga bo’linadi. O’qituvchi har bir guruhga a4 formatdagi qog’ozga shaxmat tasviri tushirilgan topshiriqlarni tarqatadi. Topshiriqlar quyidagicha bo’lishi mumkin: **Yunonistonlik olimlarning nomlarini qora kataklarga, ularning asarlari yoki mashhur fikrlarini oq kataklarga joylashtirib chiqing.**

Shaxmat musobaqasida o'quvchilar javoblarini o'qituvchi tinglab, qo'shimcha adabiyotlardan olingan ma'lumotlar asosida hikmatli so'zlardan namunalar keltiradi. Har bir guruh javoblari kuzatib boriladi. Faol guruhlariga muvofiq rag'bat kartochkalari berib boriladi

### **“Beshinchisi ortiqcha” metodi.**

“Beshinchisi ortiqcha” metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi. O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: -berilgan tushunchalar ro'yxatidan mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang. Tushunchalar:

- 1) Poseydon, Yunoniston, Afina, Shamash, Aid
- 2) Satirlar va nimfalar, Artemida, Ares, Nika, Mitra
- 3) Apollon, Basserey, Germes, Dionis, Femida
- 4) Geya, Xronos, Indra, Gipnos, Uran
- 5) Apis, Ayaks, Tesey, Gerakl, Axilles
- 6) Kentavr, Siklop, Sfinks, Sirena, Titan

**“Tarixiy diktant” metodi.** Ushbu metodda tashlab ketilgan soʻzlar oʻz oʻrniga qoʻyiladi.

Moʻgʻulistonning ulugʻ xoqoni [redacted] soliq va hashar ishlarini tartibga solish toʻgʻrisida maxsus farmon - [redacted] chiqaradi. Yomlar boʻylab [redacted] xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi. Movarounnahrda asta-sekinlik bilan boʻlsa-da, shahar hayoti, xususan hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshlaydi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa, tovar va pul munosabatlarining tiklanishida Maʼsudbek tomonidan [redacted]-yilda amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega boʻladi. U Movarounnahrning [redacted] ta shahar va viloyatlarida, bir xil vazn va yuqori qiymatli sof [redacted] tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi.

**“DEBAT” metodi.** Ushbu usul yordamida moʻgʻullar hukmronligi davrida yurtimizda oʻtkazilgan islohotlarning salbiy va ijobiy tomonlarini sanab bering.



**“Zakovat” usuli.** Bunda o‘quvchilarga mavzuga doir turlicha savollar beriladi.

1. Qadriyat so‘zining ma‘nosi?
2. Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Jumlani to‘ldiring Tarixiy xotirasiz-...
4. Xalqni ma‘naviy merosdan, qadriyatlaridan ayirish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Darhaqiqat, tarix tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Shu ma‘noda olamning yaratilish tarixi, Yer tarixi, barcha fanlar tarixi va boshqa tushuniladi. Insoniyat va uning mahsuli bo‘lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o‘tmishi taraqqiyoti jarayonini o‘rganuvchi fan.

Tarix fani — insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o‘rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san‘atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o‘rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o‘rgansa, tarix fanining tadqiqot ob‘yekti — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o‘tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig‘ish, taxlil qilish, to‘plangan bilimlarni ma‘lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma‘nosini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o‘tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko‘ra bilishdek muhim vazifani xal qiladi.

Tarix fanida, boshqa fanlarda bo‘lganidek, muqarrar ixtisoslashuv amalga oshmoqda. Hozirgi zamon tarix fani alohida bo‘limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Tarix fani asrlar davomida qo‘lyozma asarlarda ifodalangan

maishiy hayot, voqea-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyantarixiy kontekstda tarixiy hayot yoʻlining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yoʻlni bosib oʻtdi.

Oʻzbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik topilmalar maʼlumot beradi. Mil. av. I mingyillikka oid yozma manbalar, zardushtiylarning muqaddas [Avesto](#) kitobida, [ahamoniylar](#) davri kitobalarida (Behistun, Naqshi Rostam va boshqalar) Turon va [Movarounnahrning](#) tabiati, xalqlari haqida maʼlumotlar keltirilgan. Oʻzbekistonning qadimgi tarixi haqida [Gerodot](#), [Ksenofont](#), [Ktesiy](#), [Polibiy](#), [Diodor](#), [Strabon](#), [Kursiy Ruf](#), shuningdek, xitoy, arman, arab mualliflari yaratgan yozma manbalarda maʼlumotlarni uchratish mumkin.<sup>3</sup>

Asrlar davomida Oʻzbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaviy xayoti tarixi haqidagi maʼlumotlar saroy yilnomachilari, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qoʻlyozma manbalar shaklida jamlana bordi.

Oʻrta asrlar tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ayniqsa, mufassal yoritilgan. Usha davrda yaratilgan „Temur tuzuklari“, Nizomiddin Shomiyning „Zafarnoma“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“; Abdurazzoq 3. U Joʻrayev va boshqalar. “Oʻzbekiston tarixi”, “T” “Oʻqituvchi” 2019 “Antik dunyo” ilmiy-tarixiy, ijtimoiy-maʼrifiy jurnal. 2015-yil 1-son, 51-bet.

Samarqandiyning „Matlaʼ us saʼdayn va majmaʼ ulbahrayn“ („Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qoʻshilish oʻrni“); Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarlarida Amir Temur va temuriylar saltanatining tashkil topishi, ichki va tashqi siyosati, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid muhim maʼlumotlar keltirilgan.

Xullas, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e’tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo‘qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug’ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan bunyod etilgan obidalar o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta’mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Toptalgan tariximiz, qutlug’ qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta’mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Burhoniddin al-Marg‘inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug’ allomalarimizning sha’nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko‘tardi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.I.T. Xoshimov “Tarix darslarida didaktik o‘yinlar” Metodik tavsiya, Jizzax-2012
- 2.A.Zamonov “Tarix fanidan olimpiadaga tayyorlanamiz” Olimpiada ishtirokchilari uchun o‘quv qo‘llanma, Toshkent - 2012.
- 3.U Jo‘rayev,Q.Usmonov,G.Jo‘rayeva,N.Norqulov “O‘zbekiston tarixi”, “T” “O‘qituvchi” 2019 “Antik dunyo” ilmiy-tarixiy,ijtimoiy-ma’rifiy jurnal. 2015-yil 1-2 sonlar
- 4.Internet saytlari:[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz), [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

## **TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA NAZARIY-AMALIY YONDASHUVLAR**

**Mirahmedova H.T. Xudaybergenova D.X. Narziev N.M.**

**Annotatsiya.** Malaka oshirish va qayta tayorlash tizimida pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirish xususiyatlari yoritilgan. Tibbiy pedagogning kasbiy mahoratini va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch, maxsus kompetensiyalar mazmuni berilgan bo'lib, tibbiy pedagogik kompetentlik, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar hamda tibbiy ta'lim jarayonida pedagogning kasbiy mahoratini ijodkorligini rivojlantirish omillari yoritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** kompetentlik, mahorat, o'qituvchi shaxsi, boshqaruv mahorati, pedagogik ijodkorlik, tibbiy- kasbiy kompetentlik.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" gi yangi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevralda "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrda "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlashda tibbiy oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi. Tibbiy oliy ta'lim sohasi bo'yicha pedagog

kadrlarni tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida rivojlantirilgan bo‘lib, pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsida nomoyon etish lozim. Malaka oshirish va qayta tayorlash tizimida tibbiy pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligini takomillashtirishda, uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishini, kasbiy tibbiy pedagogik tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi. Tibbiy pedagogik kompetentlik, integrativ, innovatsion kreativ yondashuvlar asosida tibbiy pedagogning kasbiy mahoratini ijodkorligini rivojlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlarini (keys-stadi, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o‘tkazish metodikasi asosan tinglovchilarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari tibbiy ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va modernizatsiyalash mahsulidir.

O‘zbekiston

Respublikasini yanada qaror toptirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, yoshlarni tarbiyalash, ularning faolligini oshirish<sup>6</sup>” kabi yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, o‘z navbatida, mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan tibbiy ta’lim tizim sifatida ko‘rib chiqish zaruratini izohlaydi. O‘qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi va kasb mahorati uning qobiliyati mezonlari hamda kasbiy fazilatlari (chuqur bilimga egaligi va pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi), tibbiy ta’lim jarayonini rivojlantirish, o‘zgaruvchan sharoitlarda ta’lim muassasasiga moslashuvi, innovatsion faoliyat, tibbiy ta’lim jarayonining samarali kechishiga jiddiy ta’sir etuvchi omillardan biridir. Tinglovchilar pedagogik kompetentlik tushunchasini tavsiflashda qobiliyatlarning qay darajada namoyon bo‘lishi va imkoniyatlarining

---

<sup>6</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон, 70-модда.



qanday ochilishiga tinglovchilar va o'qituvchi-pedagog o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllari, umuman olganda o'qituvchining kasbiy etukligiga bog'liq jarayonlarni amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish va qayta tayorlash tizimida pedagogik kompetentsiya – biror kasb bilan doimiy shug'ullanadigan inson o'z kasbini mohirlik bilan bajarilishi pedagogik kompetentlik va kasbiy jihatdan sog'lom turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda “kompetentlik” tushunchasi “pedagogning tibbiy-kasbiy mahorati” sifatida o'rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida rivojlangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan tibbiy pedagogik kompetentsiya, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv hamda shaxs emotsional-irodaviy (irodaviy ta'sir o'tkazish va mantiqiy ishonтира olish) kabi kompetentsiyaviy majmualar kompleksi kiradi. Malaka oshirish va qayta tayorlash tizimida pedagogik kompetentlik darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, tibbiy pedagogik faoliyati jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish, ikkinchidan, tibbiy pedagogning ijtimoiy-madaniy muhitga singishi, tibbiy ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-madaniy me'yorlari va kasbiy kompetentligini namoyon etishi. O'qituvchining pedagogik mahorati va o'z kasbiga “kompetentligi”, o'qituvchilik faoliyatining samaradorligi, ma'lum ko'rsatkichlarga, masalan, tibbiy pedagogning bilim darajasi va tibbiy pedagogik salohiyati, zamonaviy o'qitish texnologiyasini qay darajada o'zlashtirib olganligidir. Kasbiy tibbiy pedagogik mahorat, malaka oshirish va qayta tayorlash tizimida tibbiy ta'lim berish va tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni qanchalik hal eta olish pedagogik kompetentsiya bilan belgilanadi. O'qituvchining kasbiy pedagogik mahorati va o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi, o'qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig'indisidir. SHunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi

faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi, verbal noverbal ta'sirlar kiradi. Bu pedagogik kompetensiya tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega o'zaro bog'liq jihatlardir. SHundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining kasbiy kompetentligi o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan me'yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar o'qituvchi sub'ekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlarini belgilash mumkin. Kompetensiya yuksak mahorat, qobiliyatlar majmui, tibbiy pedagogik mahoratning ko'rsatkichlari hisoblanadi. Malaka oshirish tizimida pedagogic kompetensiya– bu tinglovchilar bilan hamkorlik va do'stona munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladigan "ta'lim va tarbiya berish san'ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod"dir. Pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o'z faoliyatida qo'llay olishni talab etadi. Pedagogik kompetensiya – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik –psixologik sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, o'qitish metodikasini mukammal egallagan tibbiy pedagogik fazilatlari, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy bilim va tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal rivojlangan kasbiy faoliyatidir. Malaka oshirish tizimida pedagogik kompetensiya didaktik faoliyatida ijodiy qo'llagan holda o'quv ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir. Pedagogik kompetensiya– bu o'qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida tinglovchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Yuksak kasbiy pedagogik mahorat egasi, ya'ni kasbiy pedagogik ijodkorlik. Tibbiy oliy ta'lim

muasasasi tibbiy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita tibbiy ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi professor-o'qituvchilarga alohida talablar qo'yadi. Malaka oshirish tizimida amaliy faoliyatga ijodkorona tatbiq etishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan, o'z-o'zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual asoslarini, asosiy qoidalarining mohiyatini o'zlashtirgan kasbiy pedagogik tinglovchilarga tibbiy ta'lim va tarbiya berishda innovatsion g'oyalarning etakchisi bo'la olishi mumkin. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi: u tinglovchini tinglay olishi, vaziyatdan munosib ravishda chiqish, kasbiy tibbiy pedagog yangi g'oyalarni hamisha qo'llab-quvvatlaydi, g'oya va fikrlarini bemalol, erkin ifodalash mumkin bo'lgan muhitni yarata oladi. Demak, ijodkor, kasbiy tibbiy- pedagog o'z kasbining etuk ustasi – ustoz pedagog, ma'lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Malaka oshirish tizimida pedagog barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va kompetentligini oshirib, zamonaviy pedagogik va ilg'or tibbiy pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o'rganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirib tinglovchilarga taqdim etib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralъ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreлъ "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrъ “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
5. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.
6. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
7. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
8. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

### **Internet saytlar**

9. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

# MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani**

**1-umumiy o'rta ta'lim maktab matematika o'qituvchisi**

**Shodmonova Ozoda**

***Annotatsiya:** Kompyuter texnologiyalarining qo'llanish sohasining kengayishi, axborot texnologiyalarining yaratilishi jamiyat hayotining barcha sohalarida ya'ni ishlab chiqarishda, fanda, ta'limda, tibbiyotda va boshqa jabhalardagi rivojlanish ya'ni tezkor axborot almashinuviga, qisqa vaqtda axborotlarni qayta ishlash, o'z vaqtida manbaga uzatishga olib kelmoqda. Ushbu maqolada shular va matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni haqida fikr yuritiladi*

***Kalit so'zlar:** matematika, interfaol darslar, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy metodika, pedagogik texnologiyalar.*

Ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan ko'plab elektron o'quv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, o'rgatuvchi dastur vositalari kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ular o'zida boshqarilish imkoniyati, interfaol uslublar, sun'iy intellekt elementlari, hissiy moslashuvchanlik kabi xususiyatlar muvjudligiga ko'ra ta'limda ma'lum samaradorlikni ta'minlaydi. Pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash, ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baholashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l

ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarlibo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar. Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin. Matematika fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni

ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar. Elektron jadvallar asosan iqtisodiy masalalarni yechishga mo'ljallangan bo'lsada. Uning tarkibiga kiruvchi vositalar boshqa sohaga tegishli masalalarni yechishga ham, masalan, formulalar bo'yicha hisoblash ishlarini olib borish, grafik va diagrammalar qurishga katta yordam beradi. Elektron jadval yordamida berilgan algoritm asosida masalalarni hal etish, jadvaldagi qiymatlar bo'yicha turli shakllar yasash va bosmaga chiqarish ishlarini bajarish mumkin. Exceldagi avtomatik to'ldirish imkoniyatidan foydalanib sonli qiymatlarni va matn elementlarini kiritishni osonlashtirish mumkin. Bu imkoniyat ayniqsa funksiya qiymatlarini jadvashtirishda katta yordam beradi. Funksiya qiymatlarini ma'lum qadam bilan hisoblash matematikaning juda ko'p bo'limlarida uchraydi. Ayni shu imkoniyatlardan foydalanib matematika fakultetidagi talabalar funksiyalarning grafiklarini hosil qilishlari va shu tariqa ayrim murakkabroq funksiyalarning xossalarini ekranda aniq ko'rishlari mumkin. Excel dagi funksiya ustasi funksiya va uning argumentlarini yarim avtomatik tartibda kiritishga yordam beradi. Funksiyalar ustasini qo'llash funksiyaning yozilishi va uning hamma argumentlarini sintaktik to'g'ri tartibda kiritilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida talabalarning funksiyalarning xossalarini qiynalmay va tezda o'rganishlariga juda katta yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim — Ta'lim taraqqiyotill jurnali, Toshkent —Sharql, 1999, 7 - soni
2. Levenberg L.Sh. va boshqlar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchi
3. Bikbaeva N.U. va boshqalar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchill 1996 yil.
4. Skatkina A.A. —Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.II Moskva —Prosvesheniell.



**Xalq og'zaki ijodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik  
ko'nikmalarini shakillantirish**

**Shamsiddinova Laylo Sadriddin qizi**

**Navoiy viloyati Zarafshon shahar 1-XTCHO'IDUM maktabi boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakillantirishning nazariy asoslari va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish haqida fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, kitobxonlik, tarbiya, kutubxona, ertak, hikoya, barkamol avlod.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g'oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan. Ta'lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta'lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta'minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo'lgan. Hali insoniyat yozish-o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalari aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish darajasiga etgan. Yozish-o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan,

aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta'sirchanligi yanada ortib borgan. Boshlang'ich ta'lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini ta'minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo'lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi. Buning uchun har bir fanning mazmuniga kirgan mavzular mutaxassis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to'plangan ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig'indisi xalq pedagogikasining mazmunini ifodalaydi. Xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va donishmandlarning yoshlarni kutilgan maqsadga muvofiq barkamol kishilar qilib etishtirishda tarbiyaning maqsad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish borasida qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligi, tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisidir. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarni milliy o'zligini anglashga, mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlari bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Shu tufayli ham boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning mazmuniga xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilib kelinadi. Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi. Bola ular orqali o'z xalqining o'timishini, mehnat faoliyatini, orzuhavas

va intilishlarini bilib oladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, ongli va faol o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari asrlar davomida tajribada sinalgan, hayotda takror-takror qo‘llangan, shubhasiz yaxshi natijalar bergan tushunchalarni aks ettiradi. Bu tushunchalar xalq aql-zakovati va ijodiy mulohazalari bilan sayqallangan, yuksak badiiy qiymat kasb etadigan darajaga yetkaziladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi qisqa, aniq ma’no anglatadigan maqollardan, keng qamrovli, bir-biriga ulanib ketadigan dostonlargacha bo‘lgan har xil turdagi namunalarni o‘z ichiga oladi. Bularning hammasida inson kamoloti, aql-idroki, kuchqudrati, axloq-odobi, mehnat faoliyati va mahorati talqin qilinadi. Bola kamolotining turli davrlariga mos keladigan, ta’limning har bir bosqichida o‘rganilishi mumkin bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash, xilma-xil metod va usullardan, vosita va shakllardan foydalangan holda o‘rgatish o‘qitishning samaradorligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta’lim va tarbiyaning mazmuniga o‘zgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir. Mustaqil O‘zbekistonning rivojlanish yo‘li negizlari bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik hamda milliy tarbiyani amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari eng ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Respublikamiz olimlari tomonidan xalq og‘zaki ijodi namunalari va ularni yoshlarga o‘qitish muammosi muntazam o‘rganib kelingan. H.Zarifov, I.Afzalov, M.Alaviya, M.Murodov, G‘.Jahongirov, T.Mirzaev, M.Obidova, Z.Husainovalarning tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi namunalarining turli janrlari, paydo bo‘lishi va taraqqiyot masalalari nazariy jihatdan asoslangan. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, qo‘shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko‘proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi.

Lekin ularning ham tarbiyaviy ta'sirini inkor etish mumkin emas. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o'z ichiga olgan, kishilarning axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va diyonatga, to'g'rilik va rostgo'ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ'ib qilingan. Boshlang'ich sinflarda nisbatan ko'proq o'rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog'liq hamda farq qilinadigan tomonlari bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo'nalishlarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lsa, topishmoqlar ko'proq yoshlarning aqliy kamolotiga ta'sir etishning vositasi bo'lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta'limga yaqin turadi. O'quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin. Bu fikr keyingi boblarda batafsilroq tahlil etilishi sababli atroflicha to'xtalmadik.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi maktabning, oila va jamoatchilikning ta'siri ostida amalga oshib boradi. Bola kamolotining bu yo'nalishi uni kelajakda qanday inson, mutaxassis, o'zi va jamiyat uchun zarur hamda foydali bo'lishini belgilab beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda hech narsani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bola tarbiyasida "kichik", "arzimas", "mayda-chuyda", degan narsalar bo'lmasligi kerak. Ana shu arzimas narsalardan keyinchalik "ulkan" muammolar kelib chiqishini doim esda saqlash zarur. Maktabdan tashqarida, bola televizor va kompyuterdan charchaganida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa ham aqliy, ham axloqiy, ham sihat-salomatlik uchun ulkan hissa qo'shish mumkin ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T: O’zbekiston ,2017;
2. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti Boshlang’ich ta’lim. Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
3. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha Yangi tahrirdagi o’quv dasturi Boshlang’ich ta’lim. Toshkent, 2005.
4. Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi Boshlang’ich ta’lim, 1998, 6-son.
5. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Toshkent, 2010.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH UCHUN AXLOQIY SUHBATDAN FOYDALANISH**

**Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi**

**26-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Sobirova Ra'no**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida do'stona munosabatlarni, birgalikda o'ynash va o'qish odatlarini, talablarga bo'ysunishni, o'z harakatlarida yaxshi odamlardan o'rnak olish, ijobiy, qahramonona munosabatni shakllantirish kerak. mashhur san'at asarlari. Boshlang'ich sinf o'quvchisini axloqiy tarbiyalashda muloqot madaniyatini tarbiyalash muhim o'rinni egallab kelishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** axloqiy e'tiqod, hukm, baholash, suhbat, axloqiy sifatlar.

Tengdoshlar jamoasida boshqalarga hurmat, xayrixohlik, irodali fazilatlar, vazminlik shakllanadi. Jamoa bolalar hayotida tobora kuchayib bormoqda, bolalarning munosabatlari murakkablashmoqda. Har qanday axloqiy sifatni tarbiyalashda har xil tarbiya vositalari ishlatiladi. Umumiy axloqiy tarbiya tizimida axloqiy e'tiqod, hukm, baholash va tushunchalarni tarbiyalashga qaratilgan vositalar guruhi muhim o'rinni egallaydi. Bu guruh axloqiy suhbatlarni o'z ichiga oladi. Eksperimental guruh bolalarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun biz axloqiy suhbatlar tsiklidan foydalanganmiz. Tsiklning asosiy qismi ertaklar va hikoyalarni muhokama qilish uchun suhbatlardan iborat edi. 2 -ilovada MS Kutovanning kitoblaridan olingan ertaklar ro'yxati keltirilgan. "Ko'z yoshidan ertaklar: biz ota -onalarning asabini saqlaymiz", Petrova V.N. "7-11 yoshli bolalar bilan axloqiy suhbatlar: bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya: o'qituvchilar va metodistlar uchun qo'llanma". Bundan tashqari, tematik axloqiy suhbatlar o'tkazildi, ularning ro'yxati 1 -ilovada ham bor. Biz o'z ishimizda bir nechta suhbatlarning borishini ajratib ko'rsatishni lozim deb bildik (3 -ilovaga qarang). Dars paytida axloqiy suhbatlar samaradorligini oshirish uchun biz quyidagi

shartlarni kuzatdik: 1) suhbatning muammoli tabiati, qarashlar, g'oyalar, fikrlar kurashi zarurligi. Savollar nostandart bo'lishi kerak, ularga javob berishda yordam ko'rsatish muhim. 2) bolalarga o'z fikrlarini aytish imkoniyatini berish. Ularga boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rgating, sabr -toqatli va to'g'ri nuqtai nazarni rivojlantiring. 3) ma'ruzalardan qoching: kattalar gapiradi, bolalar tinglaydi. Faqat ochiqchasiga aytilgan fikrlar va shubhalar eksperimentatorga suhbatni boshqarishga imkon beradi, shunda bolalar o'zlari muhokama qilinayotgan masalaning mohiyatini to'g'ri tushunadilar. Muvaffaqiyat suhbatning tabiati qanchalik iliq bo'lishiga, yigitlar o'z ruhlarini ochishlariga bog'liq. 4) o'quvchilarning hissiy tajribasiga yaqin bo'lgan suhbat uchun material tanlash. Faqat haqiqiy tajribaga tayangan holda, suhbat muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. 5) hech kimning fikrini e'tiborsiz qoldirmaslik, bu hamma nuqtai nazardan muhim - xolislik, adolat, muloqot madaniyati. 6) axloqiy suhbatga to'g'ri rahbarlik qilish - o'quvchilarga mustaqil ravishda to'g'ri xulosaga kelishlariga yordam berish. Buning uchun tajriba o'tkazuvchi voqea yoki harakatlarga o'quvchining ko'zlari bilan qarashi, o'z pozitsiyasini va u bilan bog'liq his -tuyg'ularni tushunishi kerak. Bolalar bilan axloqiy suhbatlar qulay muhitda o'tdi. Ular tabiatan axloqiy emas edilar, ularda tarbiya, tanbeh va masxara bor edi. Bolalar o'z fikrlarini bildirishdi, o'z taassurotlari bilan bo'lishishdi. Suhbat davomida savollar, yorqin misollar, ishonarli izohlar, bolalarning gaplariga aniqlik kiritish, bolalarning faolligi va to'g'ri hukm va baholarni birlashtirish orqali ta'minlandi. Savollar ketma -ketligi bolalarni boshqa odamlar bilan muloqot qilishda va o'z vazifalarini bajarishda bajarilishi kerak bo'lgan axloqiy qoidalarni tushunishga undadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan axloqiy suhbatlarda o'yin -kulgi elementlari mavjud edi. Buning uchun suhbatlar mazmuniga ma'naviy muammoni o'z ichiga olgan turli vaziyatlar kiritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijobiy harakatlari jamoatchilik fikrining ob'ekti bo'lishi juda muhimdir. Jamoatchilik fikrining rivojlanishi yangi axloqiy tushunchalarni kiritish va o'zgartirish, bolalarga

jamoaviy hayot voqealarini, individual bolalar harakatlarini muhokama qilish va baholash qoidalarini o'rgatish orqali sodir bo'ldi. Bolalar jamoasining hayoti uchun ishlab chiqilgan qoidalar axloqiy baholash mezoni bo'lib xizmat qildi. Suhbat natijalarini sarhisob qilib, suhbat maktab o'quvchilarining ongi va his -tuyg'ulariga chuqurroq kirib borishi uchun yorqin bayonotlar keltirildi. Suhbat maqsadini tashkil etuvchi toifalar aniq ajratilgan. Yigitlar tajribachining yordami bilan tengdoshlarining, ba'zan kattalarning xatti -harakatlariga adolatli baho berishni o'rgandilar, nima mumkin va nima bo'lmasin, nima yaxshi va nima yomonligini tushunishni o'rganadilar. Bizning darslarimizning estetik asosini she'rlar, topishmoqlar, qo'shiqlar qo'shib qo'ydi, ular asosiy qismga ham, bolalar bilan qo'shimcha ishlarga ham qo'shildi. Adabiy materiallar bolani axloqiy tarbiyalashda ajralmas hisoblanadi, chunki bolalarga boshqalarning xulq -atvori va harakatlarini o'zlariga qaraganda baholash osonroqdir. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun biz bolalarni badiiy adabiyot bilan bog'liq turli tadbirlarga jalb qildik. Masalan, yigitlar ertak va ertaklarga asoslangan chizmalar yaratdilar. Ko'rgazma tashkil etildi. Har xil axloqiy fazilatlardagi bolalarning xulq -atvori, harakatlarining amalda namoyon bo'lishi - bu shakllanish bosqichining kutilgan natijasidir. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1) Alyabyeva E.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan axloqiy va axloqiy suhbatlar va o'yinlar. M.: Ta'lim, 2003.- 202 p.
- 2) Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. - M.: Aspekt Press, 1996.- 284 b.
- 3) Bogdanova O.S., Kalinina O.D. Axloqiy suhbatlarning mazmuni va metodologiyasi. Moskva: Ta'lim, 1985.275 p.
- 4) Bolotina L.R. , Komarova TS, Baranov SP Maktabgacha pedagogika: o'rta pedagogik o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. 2 -nashr .. M: Akademiya, 1997. - 315 b.



**YUKSAK MA`NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O`RTA  
OSIYO ALLOMALARI ILMIY MEROSINING O`RNI  
(ALLOMALARNING FAOLIYATI MISOLIDA)**

**Normurodova Aziza Yigitali qizi**

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs talabasi**

**E-mail: azizanormurodova@gmail.com**

**Tell:+998917341611**

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada bugungi kundagi zamonaviy yoshlarni tarbiyalashda buyuk allomalarimiz, olimlarimizning tutgan o`rni haqidagi ma`lumotlar bayon etilgan. IX-XII asrlar va XIV-XV asrlar davomida O`rta Osiyo hududida o`ziga xos renesans davri yuzaga keladi. Ushbu davrda Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Ulug`bek kabi buyuk ajdodlarimiz yashab ijod etishgan. Ular qoldirgan ma`naviy merosning bugungi kundagi yoshlar tarbiyasida o`rni beqiyosdir.

**KALIT SO`ZLAR.** Yuksak ma`naviyatli yoshlarni tarbiyalash, Yuksak ma`naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O`rta osiyo allomalari fikrlari, Yuksak ma`naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O`rta Osiyo allomalarining merosi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning so`zlari.

**KIRISH.** O`rta Osiyodagi ajdodlarimizning jamiyat, tabiat, butun borliq haqidagi bilimlarning o`zida aks ettirgan zardushtiylik ta`limotining yodgorligi bo`lmish “AVESTO” kitobida ma`naviyatga oid g`oyalar o`z aksini topgan. Insoniyat taraqqiyotining har bir davrida ma`naviy kamolot masalasiga alohida e`tibor qaratilgan. Chunki jamiyatning evolutsion taraqqiyoti ma`naviyat rivojiga bevosita bog`liq, zero, ma`naviyatning yuksalishi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy rivojiga asos bo`lib xizmat qiladi. Buyuk ajdodlarimiz ilm-fanining qaysi sohasi bilan shug`ullanmasinlar, inson ma`naviyatini shakllantirishga, ta`lim-tarbiya masalalariga alohida e`tibor berganlar. Yoshlarning jamiyatdagi ijtimiy-siyosiy, iqtisodiy ,madaniy islohatlarni amalga oshirish jarayonlarida faol qatnashuvlarini

ragʻbatlantirish , ularning maʼnaviy-axloqiy, gʻoyaviy-nazariy salohiyatlarini oʻstirish uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Yoshlarni tarbiyasi, ularning maʼnaviyatini yuksaltirish soxasidagi islohatlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Dastlabki bosqichda sobiq tuzumdan meros boʻlib qolgan yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi maʼmuriy-buyruqbozlik tizimi va uning xuquqiy asoslari tugatilib, ularni tarbiyalashning, huquq va manfaatlarni himoya qilishning demokratik asoslariga poydevor qoʻyildi. Voyaga yetmagan va yoshlar huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslari yaratilib, zarur institutsional tuzilmalar shakllantirildi.

Mustaqillik tufayli oʻrganish, tahlil etish imkoniyatiga ega boʻlgach, ona zaminimiz maʼnaviy merosini chuqurroq oʻrganish biz yoshlarning vazifamiz, oʻz tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham boʻlmaydi. Davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yoʻlida erkin ijtimoiylashuvi va oʻzini samarali namayon etish uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Mohiyatan davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlantirish, raqobatbardoshligini taʼminlash, milliy xavfsizligini mustahkamlashni koʻzda tutuvchi bu siyosat dasturiy, tashkiliy, siyosiy va mexanizmlarga tayanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va maʼnaviy sogʻlom oʻsishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega boʻlgan, uygʻun rivojlangan insonlar boʻlib, XI-asr talablariga toʻliq javob beradigan barkamol avlod boʻlib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻyganmiz“. Barkamol avlod tarbiyasidagi 2 ta tushuncha bir-biri bilan doimo uygʻun ishlatiladi.

**Taʼlim tushunchasi** shaxsning maʼrifiy va tarbiyaviy darajasini yuksaltirish orqali uning rivojlanishini taʼminlash maqsadida oʻrgatuvchi bilan oʻrganuvchilar

o`zaro birgalikda amalga oshiradigan didaktik faoliyat. Shaxsning aqliy taraqqiyotini ta`minlash maqsadida ko`riladigan didaktik chora-tadbirlar tizimidir.

**Tarbiya tushunchasi.** 1) Yangi avlod kishilariga katta avlodning ijtimoiy tarixiy tajribasini berish tufayli rivojlanishini ta`minlovchi ijtimoiy funktsiya; 2) Ijtimoiy institutlar ta`siri ostida inson sub`ektiv-shaxsiy va ma`naviy dunyosini shakllantirish, qaror toptirish, boyitish va takomillashtirishning aniq maqsadga yo`naltirilgan, tizimlashtirilgan va ongli jarayoni. Tarbiya-ta`limi bilan o`zaro jips bog`langan ijtimoiylashtirishning asosiy bo`g`ini, ta`lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Ajdodlarimiz e`zozlab kelgan, asrlar qaridan olib o`tilgan falsafiy-axloqiy pand-nasihatlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko`zda tutuvchi siyosat qurboni bo`ldi, e`tibordan chetda qoladi. Bu esa yosh avlodning ma`naviyatiga salbiy ta`sir o`tkazdi. Vaholanki Islom Karimov “O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li” kitobida takidlaganidek: “O`tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma`naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta`sir ko`rsatmoqda”.

**Renesans** uyg`onish davri madaniyati, ma`naviyati va ma`rifat mohiyati e`tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarashi, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning qayta uyg`onishni anglatadi. Uyg`onish davri namoyondalari qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning aql-idrogiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi. Sharq va arab uyg`onishi uchun umumiy xususiyatlar aqtik davrga murojat qilish uni qayta tiriltirish, tabiiy fanlar rivoji, fanda universallikni (qomusiylik), gumanizmni targ`ib etish va boshqalarda namoyon bo`ldi.

Sharq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy fikri rivojini Abu Nasr Farobiy (873-950) tasavvur etish qiyin. U “Sharq Aristoteli“, “Ikkinchi muallim“ degan unvonga sazovar bo`lgan mutafakkirdir. Sharqda Qadim Yunonistonning eng mashhur

faylasufi Aristotel “Birinchi Muallim“ deb yuritilgan. Farobiy ko`p tillarni bilgan qomusiy olimdir. U yaratgan asarlarning umumiy soni 160 ta bo`lib, uni 2 guruhga ajratish mumkin: 1) Qadimgi Yunon faylasuflari va tabiatshunoslarini: Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalarning ilmiy merosini tarjima qilish, sharxlash, targ`ib qilish va o`rganishga bag`ishlangan asarlar. 2) O`rta asr fanining tabiiy, ijtimoiy-falsafiy sohalariga oid risolalar. Masalan, “Aristotelning “Metafizika” asariga izoh“, “Aristotelning “Osmon sistemasi“ kitobiga izoh”, Aristotelning “Etika” kitobiga sharx, “Substanstiya haqidagi so`z”, “Masalalar manbai”, “Qonunlar haqida kitob”, “Bo`shlik haqidagi kitob”, “Fozil odamlar shahri” va boshqalarni ko`rsatish mumkin. Farobiyning fikricha insonning va jamoatning g`alabaga erishuvi, yaxshilikni qo`lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammalikka ko`tarilishi inson va jamoaning o`z qo`lidadir. U davlatni fozil va johil davlatlarga bo`ladi. Fazilatli shaharlarda ilm-fan, falsafa, axloqiy-marifat 1-o`rinda bo`lmog`i lozim, deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi. Fozil shahar boshlig`i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg`on va yolg`onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko`ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo`lishi kerak deb aytadi. Farobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go`zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamoliga to`squinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kasbi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo`lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi. Beruniyni fikricha, kishilar uchun dunyoda turli hollar bor. Bu maqtaluvchi-yaxshilik va qoralanuvchi-yomonlikdir. Maqtaluvchi yaxshi hollar bo`lib, ularning tayanchini poklik va tozalik deb ko`rsatadi.

Jahon madaniyati va ma`rifatiga katta hissa qo`shgan, SHarq va Yevropa “Shayx-ur-raisa-olimlar boshlig`i” unvoniga ega bo`lgan alloma Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) ilmiy merosi biz uchun bebaho xazinadir. U o`z umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning “Tib qonunlari” nomli 5 jildan

iborat kitobi asrlar davomida SHarq va Yevropa meditsina bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

O'rta osiyo tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojining boshlanishi buyuk allommalar Al-Farg'oniy va Al-Xorazmiylar nomi bilan bog'liqdir. Ularning har ikkovi ham Bag'doddagi "Bayt Ul-Hikma" ning yetakchi ilm sohiblaridan sanalgan. 1990-yil Al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Uning vafoti 861-yildir. U mashhur falakkiyshunos olim. Uning asosiy asarlari "Astronomiya va Astralyabiyaga kirish", "Falakdan bo'lgan sabablar", Astralyabiya fani usullari, "Osmon harakatlari va yulduzlar ilmi" va boshqalardir. Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" kitobi va o'sha davrdagi astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo'lgan. Al-Xorazmiy (780-850) Sharqning buyuk mutafakkiri, qumusi olimdir. Uning ilm-nujum, geodeziya, geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan. Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir. Bulardan eng mashhuri "Kitob Al-Jabr va Al-Muqobala" asaridir. Bu asar riyoziyot yangi mustaqil fan-algebraning vujudga kelishiga zamin bo'ldi.

Xorazmiyning "Sind Hind", "Ziji Xorazmiy", "Astrolyabiya bo'yicha risola", "Quyosh soati haqida risola", "Yerning shakli haqida kitob", "Trigonometrik jadvallar", "Musiqqa bo'yicha jadvallar", "Tarix haqida" va boshqa asarlarning muallifi. Uning buyuk xizmatlaridan biri Yevropa va yaqin Sharq ilmini qadimgi hindlarning 10 talik tizimi tanishtirish bo'ldi. Uni Yevropada "Al-Garitmus" deb yuritganlar. Xorazmiy buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048). U o'z umri davomida 150 dan ortiq asar yaratgan. Shulardan eng mashhurlari "Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar", "Ma'sud qonuni", "Hindiston", "Geodeziya", "Minerologiya", "Saydana" va boshqalardir.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Prezidentimiz Islom Karimovning "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarning tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro

konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi”. Bugungi konferensiyamizning maqsadi-O`rta asarlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o`rni va roliga baho berishdan iborat. Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan say-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug` allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfirotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhim deb hisoblayman. Men O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida bo`lganida, ana shu kilomerni ko`rib, bu ulug` ajdodimizning ilmiy dahosi oldida yanada bir bor hayratga tushish baxtiga muyassar bo`ldim.

Fazoviy trigonometriya asoschisi deb tan olingan, o`zining matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari bilan shuhrat qozongan yana bir buyuk alloma Abu Nasr Ibn Iroqdir. Uni haqli ravishda “Ikkinchi Ptolomey” deb ataydilar.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytish mumkinki bizlarga shuncha sharoitlar qilib berilayapti, biz bundan foydalanib o`qishimiz zarur. Buyuk ajdodlarimiz biz uchun qoldirgan merosini, 1-o`rinda asrab avaylashimiz zarur, 2-o`rinda shu merosni hozirgi zamon bilan uyg`unlashtirilgan holda o`rganishimiz kerak. Ajdodlarimiz qoldirgan merosni har bir yoshlar o`rganishi zarurdir. Har bir ota -ona bolaga tarbiyani yoshligidan berishi lozim, bolani ilmga bo`lgan muhabbatini oshirish kerak. Har bir yoshlar ajdodlarimiz qoldirgan merosni o`rganib chiqsa. U o`z ma`naviyatini ham ilmini ham boyitgan bo`ladi. Biz yosh kelajak xozirgi kunda oqishimiz zarurdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. KARIMOV. I. A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild.– Toshkent”O`zbekiston, 1999
2. Karimov. I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoq . T:Sharq, 1998-yil
3. N. A. Jumayeva. O`rta osiyo allomalarining ilmiy merosi. Uslubiy qo`llanmamiz. Buxoro , “Durdona” nashriyoti. 2013
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mizriyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi //Xalq so`zi , 2017 yil 23 dekabr.
5. Karimova. I. A. Konferensiyaning ochilish marosimadagi nutqi. 2014-yil 16-may.
6. Karimov. I.A.O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. T: O`zbekiston , 199- yil

# **BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Axtamova Dilnoza Olim qizi**

**Navoiy viloyat Zarafshon shahar**

**1-XTCHO'IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

## **ANNOTATSIYA**

Ma'lumki hozirgi kunda hech bir sohani axborot-kommunikatsion texnologiyalarisiz tasavvur etish mumkin emas, hech bir soha yoqki axborotkommunikatsion texnologiyalari kirib kelmagan. Biz faoliyat olib borayotgan jamiyatning har bir a'zosi har kuni, har daqiqada, uzliksiz ravishda shiddat bilan ortib borayotgan axborot resuslaridan foydalaniladi. Kun, soat sayin ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishib borishiga ulkan xizmat qiladi. Shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratni zamonaviy axborot texnologiyalarini o'z ish faoliyatiga tadbiiq etgan xolda olib borsa ta'lim jarayiniga yanada yorqinlik olib kirishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** axborot resuslar, axborot texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, boshlang'ich sinf, intellektual salohiyat, boshlang'ich ta'lim.

## **KIRISH**

Har bir o'qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o'zi axborot muhutini shakllantirishiga zamin yaratishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'z muhitida yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 nozbrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshrish chora-tadbirlari



to'g'risida" gi PF-6079-son farmonida asosida ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash uyzasidan qator vazifalarni belgilab beradi.

Axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasining shu qadar ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro nufuzi, demokratik institutning rivoji darajasi axborot texnologiyalarning tadqiqotiga bog'liq bo'lib bormoqda. Axborot insoniyatning nixoyatda muhim va cheksiz resursiga aylandi. Bu esa qaysi sohaga bo'lishidan qat'iy nazar, internetning milliy sigmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi. O'qitish va o'rganish jarayonida Internettexnologiyalariga katta o'rin ajratilmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayoniga ko'maklashib, o'qitish dasturlari, o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklar va jurnallardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda, bu esa o'z navbatida foydalanuvchilarga ilmiy maktab ishlarini ta'minlamoqda. O'quvchilarni internetdan olayotgan axborotlariga tanqidiy yondoshish va uning foydali manbalari asosida o'z duyoqarashini kengaytirish, g'arazli manbalar asosida o'z dunyoqarashini kengaytirish, g'arazli ma'lumotlarni inkor eta bilish g'oyat muhimdir.

## MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'limda komp'yuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini belgilash, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llasning eng muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, komg'yuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasasi umumiy faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlash lozim. Boshlang'ich ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli y'o'nalishlari zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tarmoqli axborot texnologiyalaridan foydalanishni bildiradi. Bunday vositalarni qo'llashda umumta'lim maktablar va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining samaraligini

oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Komp'yuter o'quv manbalarini kengaytirib beradi, ya'niy turli mul'timediali darsliklar, elektron kitoblar va boshqalaridan foydalanish imkoniyati keng tarqalmoqda. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunda axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim tizimiga yangi talablarni ko'yadi, shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinflardagi ta'limda ham ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan ta'lim faoliyatini muhitining axborotlashtirishini talab qiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida ishlab chiqilgan "2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish" dasturida ham ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish masalalari belgilangan vazifalar sifatida ta'kidlangan. Ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish axborotlashgan ta'lim mul'timedia vositalari yordamida tashkil etilgan ta'lim tizimini maydonga olib chiqdi. Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv –tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich xal etish yo'llari va vositalari yuqorida tilga olingan davlat hujjatlarida belgilab berilgan.

## NATIJA

Axborot-kommunikasion texnologiyalar foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga erishish, boshqarish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida ta'lim tamoyillari, mohiyati o'zgaradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olish zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterda ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va

sifatiga e'tibor qilgan holda tadbiq etilayotgan ta'lim sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – boshlang'ich sinf o'quvchining qiziqishini, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topish zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining har xil sathli o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning echimi bo'la oladi.

### REFERENCES

1. Tayloqov. N.I., Elektron darsliklarning oddiy darsliklardan afzalligi nimada? Fizika matematika va informatika.-2009. -№№ 53-40 b.
2. Begimqulov.U.SH. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari. "Info. Kom Uz" J. № 4, 2006 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 nozbrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshrish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son Farmoni. [www. Lex.uz](http://www.Lex.uz).

## **BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA O`QISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

**Mubarak Urazbayeva Erkabayevna**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani 36- maktab**

**Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarining rivojlantirish usullari, o‘qish darsining tarkibiy qismlari, bu qismlarning o‘zaro bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Ifodali o‘qishda olib boriladigan ishlarning mazmun va mohiyati izohlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘qish, boshlang‘ich sinf, ongli o‘qish, to‘g‘ri o‘qish, o‘qish tezligi, ifodali o‘qish.*

O‘zbekistonning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang‘ich ta‘lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning bilimli, va fikrlash doirasi keng bo‘lishini ta‘minlash. Ularning ma‘lumotkarini tahlil qilib, keng miqyosda foydalanilishiga erishish. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ilg‘or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta‘lim berishning yangi yangi usullarni ishlashi juda nuhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarining, ayniqsa birinchi sinfdagi o‘qish darslarining maqsadi o‘quvchilarda ongli, to‘g‘ri, ravon, tez va ifodali o‘qish malakasini hosil qilishdir. O‘qish darslar matematika, atrofimizdagi olam, odobnoma va boshqa fanlarga doir mavzularda beriladigan bilimlarni, mustahkam o‘qib olishlarida juda katta rol o‘ynaydi, chunki bola to‘g‘ri, ongli ravon o‘qisagina matn mazmunini yaxshi anglab oladi. O‘qish darsining o‘zaro mahkam bog‘langan to‘rt asosiy tarkibiy qismi bor. Ular quyidagilardan iborat: ongli o‘qish, ifodali o‘qish, to‘g‘ri

o'qish va tez o'qish. Bu qismlar orasida ongli o'qish yetakchi o'rinda turadi. O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l – yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Ongli o'qish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga erisha olishlari kerak: o'qigan so'zlarining asl va ko'chma ma'nolarini, har bir gapning ma'nosini aytib bera olishlari, bo'limning mazmunini qisqacha bayon qilib bera olishlari, matnning to'liq mazmunini bayon qilib bera olishlari, o'qiganlariga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. O'quvchida ifodali o'qish malakasini tarbiyalash uchun esa, uni o'qiganlarining ma'nosini to'xtamlarga rioya qilgan holda, so'z urg'ulariga ahamiyat berib, o'rtacha ovozda ta'sirli o'qishga o'rgatish va hokazolar talab qilinadi. To'g'ri o'qish malakasini o'stirish uchun shoshmasdan, harflarning o'rnini almashtirmasdan, so'z qo'shimchalarni to'liq holda orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qilishi lozim. O'qish tezligini oshirish uchun o'quvchilarning ongli o'qishi katta ahamiyatga ega. Ongli o'qish – matnni to'la va aniq tushunib o'qishdir. Ongli

o'qish yuzasidan qilinadigan ishlar o'quvchilarni o'qilayotgan matn mazmunini chuqur anglab olishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, ularning fikr va malakalarini kengaytiradi. Ongli o'qish malakasini oshirish maqsadida, darslik matnlari oxirida savol va topshiriqlar berilgan. bu savol va topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini qayta hikoya qilishga hamda o'qituvchining savollariga mustaqil ravishda javob qaytarishga va o'z hayotiy tajribalari asosida ijodiy so'zlab berishga o'rgatadi. O'quvchilar matnni qismlarga bo'lib, unga mos sarlavha qo'yishga, har bir qism mazmunini ochuvchi rasmlar chizishga savollar topa bilishga ham asta sekin o'rgatilib boriladi. Avval hajmi kichik va mazmunan soda so'ngra esa hajmi katta va mazmuni murakkabroq matnlar bilan ish olib boriladi. O'qishning ongli bo'lishiga yordam beradigan vositalardan biri bu to'g'ri o'qishdir. O'qiganda xato qilmay, so'zlarni buzmay, tovush va bo'g'inlarni tushirib qoldirmay yoki o'rnini almashtirmasdan oxirgi bo'g'inlarni ya'ni qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz etish, orfoepiya qoidalariga rioya qilish to'g'ri o'qishni ta'minlaydi. To'g'ri o'qish malakasini hosil qilish o'qishning hamma jarayonida olib boriladi. O'qish ongli bo'lsagina to'g'ri va tez o'qish malakasi hosil bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarni doimo o'z-o'zini kuzatib borishga o'rgatish, hatosiz, tez va to'g'ri o'qishga intilish hislarini paydo qilish, ayniqsa birinchi sinfdagi o'qish darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. O'qish tezligi ongli, ravon o'qishga bog'liqdir. O'qish tezligini oshirishga ko'p bo'g'inli va imlosi qiyin so'zlarni matndan tashqarida bo'g'inga bo'lib o'qish yordamida erishiladi. O'qish tezligini oshirish bosma va yozma harflar bilan yozilgan so'z va gaplarni ovoz chiqarib o'qishni, xor bo'lib o'qishni, ichda o'qishni, matnlarni rollarga bo'lib o'qishni ko'proq mashq qildirish yo'li bilan ta'minlanadi. Bola qancha ko'p o'qisa, o'qish tezligi shuncha ortib boradi. O'qish darsida berilgan bilimlar bolaning sinfdan tashqi vaqtlarda ko'proq kitob o'qishini yo'lga qo'yish bilan chuqurlashtiriladi. O'quvchilarning o'qish tezligini oshirish uchun dars davomida quyidagi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi dars boshlangunga qadar doskaga bugun o'qiladigan matndagi

ayrim gap va so'zlarni bosma harflar bilan yozib, ustini vaqtincha yopib qo'yadi. O'quvchilar kitoblarini ochib bugungi o'qiladigan matnni ko'zdan kechiradilar va doskada yozilgan so'z yoki gaoni matndan tez topishga harakat qiladilar. Partalarga avvaldan savol yoki topshiruv yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchining ruxsati bilan bolalar kartochkalarda yozilgan savol – topshiriqlarni o'qiydilar va matn ichidan shu savol topshiriqqa mos javob izlaydilar. “Tez o'qish musobaqasi” ni o'tkazish bolalarga alohida huzur bag'ishlaydi. Bunda har qaysi bolaning matnni bir vaqtda o'qishga boshlashi, matnni oxirigacha ma'lum vaqtda ichlarida o'qib tugatish lozimligi aytiladi. Birinchi bo'lib o'qib bo'lgan bolalar belgilab boriladi va o'qiganlarini og'zaki gapirib berishga tayyorlanib o'tiradi. Musobaqada g'olib chiqqanlar yulduzcha bilan taqdirlanadi. Ifodali o'qish – so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib, asar mazmunini tushunib, asarda ifoda etilgan his tuyg'uni, qahramonlarning ichki kechinmalarini, ruhiy kayfiyatlarini anglab o'qish demakdir. Bolalar ta'sirchan bo'ladilar. O'qituvchi asarni his hayajon bilan hikoya qilib berishi, uning bolalarga chuqur ta'sir etishiga erishishi, ayrim hollarda yodlarida yaxshi saqlab qolishlariga muvaffaq bo'lishi, asar mazmuni va unda ishtirok etuvchilarning ishlari ular uchun xuddi hayot qoidasidek tuyuladi. Asar mazmunini o'quvchilarga to'la anglatish uchun o'qituvchining o'zi uni ifodali o'qish va hikoya qilib berishga puxta tayyorgarlik ko'rishi zarur. Ifodali o'qish ongli o'qishning ko'rsatkichidir, chunki matnning ma'nosini anglab o'qiy olgan o'quvchi, albatta, ifodali o'qish malakalarini ham egallagan bo'ladi. Ongli o'qish ifodali o'qish malakalarini o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi. Ongli, to'g'ri va ravon o'qish malakasi hosil qilingan sari, ta'sirli o'qish malakasi ham o'sib boradi. Ta'sirli o'qish o'quvchida his – tuyg'u uyg'otishga, voqea hodisalarni tasavvur etishga, estetik zavq bag'ishlashga xizmat qiladi. Ifodali o'qishda olib boriladigan ishlarning mazmun va mahorati 4 asosiy shart bilan izohlanadi: o'quvchilar o'qiganlari yuzasidan nimalarni aytib berishni (qanday fikrni, qanday mazmunni bayon etishni) yaxshi tushinib olishlari zarur; o'quvchilar asarda

o'qiganlari yuzasidan jonli va ishonarli munosabatda bo'lishlari lozim; adabiy asar o'quvchilarning ma'lum maqsadga qaratilgan holda o'qishlarini, mazmuni bayon etishdagi moyilliklarini (fikr, misol, tabiatning tasviri) taqozo qiladi; eshituvchilarning matnni o'qiyotgan o'quvchi fikrini tushunib bilishi talab etiladi; Bularning barchasi ifodali o'qishning o'sib borishiga yordam beradi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. K. Qosimova va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009.
2. М.П. Воюшина, С.А.Кислинская, Е.В. Лебедева. Методика обучения литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.
3. Matchonov S., Shojalilov A., Gulomova X. va b. Oqish kitobi. 4- sinf uchun darslik. –T.: Yangiyol poligraf servis. 2020.
4. Матчонов С. Адабиёт дарсларида таҳлил ва талқин уйғунлиги. Тил ва адабиёт talimi. 2020. 7- son.



## TARBIYANING GLOBALLASHUV JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI.

**Tulaboyev Samariddin Solijonovich**

**Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**Annoatsiya:** Ushbu maqolada, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan galoballashuv jarayonida, jamiyatning asosiy kuchi ko‘magi ildizi hisoblangan yoshlarning tarbiyasi ahamiyati va muhimligi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘z o‘rnida munosib ravishda tarbiyalash masalasi. Yurtimizda bu borada zamon talablariga mos holatda olib borilayotgan ishlar mohiyati aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** Golaballashuv, ma’naviyat, ommamiyat madaniyat, tarbiyaning vazifasi, an’analar, milliy qadryatlar, rivojlangan davlatlar tajribasi. Ijtimoiy illatlar.

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается важность и важность воспитания молодежи, которая считается корнем поддержки основной силы общества в нынешнем быстро развивающемся процессе глобализации. Вопрос достойного воспитания подрастающего поколения на его месте. Отражена суть проводимой в нашей стране работы в этом направлении в соответствии с современными требованиями.

**Ключевые слова:** национализация, духовность, массовая культура, задача воспитания, традиции, национальные ценности, опыт развитых стран. Социальные пороки.

Hozirgi biz yashab kelayotgan davrda rivojlanish jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Bu rivojlanishlarni turli talqinlarda atash mumkin. Ba’zilar zamon shiddati, jadal yuksalgan taraqqiyot, texnologiyalar gajitlar davri dep atashsa: yana ba’zilar innovatsiyalar davri deyishadi. Darhaqiqat shiddat bilan o‘sib borayotgan bu davrda insolarlarning ma’naviy jihattan tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratish zarurdir. Bugungi kunda davlatning muhim toifasi, kelajagi hisoblangan yoshlarni ma’naviy jihattan barkamol yetuk qilib tarbiyalashda yurtimizda samarali ishlar

olib borilmoqda. Milliy urf-odat, an'analarga tayangan holatda, yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash, ularning ongu-shuurida insonparvarlik, marifatparvarlik g'oyalari singdirib borilmoqda. Buning samarasi asta sekin nomoyon bo'lmoqda.

Davlatlar rivojlanar ekan ularning qudrati salohiyati, intellektual imkoniyatlari qanchalik yuksak bo'lmasin buni tag zamirada milliy o'zlik an'anarga tayangan mehnatkash millat mehnati yotadi. Shuni anglab olish muhumki globallashuv jarayonida millit tarbiyaning ahamiyati dolzarb masaladur.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq o'tmishni tarixni tiklashga e'tibor qaratildi. Boy merosimiz, ota- bobolarimiz ilmiy meroslarini o'rganish o'zlikni anglashga urg'u berila boshlandi. Ma'naviyat masalariga e'tibor kuchaytirildi. Ma'rifat ila yo'g'rilgan g'oyalar asnosida millat uyg'otiladi shakllantirila boshlandi.

Bugungi kunga kelib yurtimizda uchunchi renesans poydevori qurish ishlari amalga oshirila boshlandi. Xususan Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarorni qabul qildi. Yagona «Tarbiya» fani 1–9-sinflarda – 2020-2021 o'quv yilidan, 10–11-sinflarda esa – 2021-2022 o'quv yilidan boshlab ajratilgan umumiy soatlar doirasida «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini birlashtiradi. Bu shundan dalolat beradiki jadal sur'atlarda rivojlanish faqatgina ilm fan yutuqlariga, iqtisodiyotni ko'tarish bilan bir qatorda insonlarning dunyo -qarashini ham shunday o'stirish muhim masaladir. Globallashuv mazmun mohiyaniga nazar tashlasak. Globallashuv — bu hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Yana, globallashuv millat va elatlar, mamlakatlarning madaniy, ma'naviy, iqtisodiy jihatidan uyg'unlashuviga olib keladigan jarayondir. Bugungi dunyoning taraqqiyoti ichki

va tashqi omillar ostida yuzaga kelmoqda. Ichki va tashqi omillar asosan axborot vositasi bilan ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamon juda tez sur'atlarda rivojlanar ekan turli xil yod g'oyalar ham hozirgi innavatsion texnologiyalardan foydalanib yoshlarni ongini zaharlashga urinishmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlari-dan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, qo'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibat-larini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Ommamiy madaniyat bu turli hil yod vositalar degan niqob ostida axloqiy buzuklik va zo'ravonlik, g'oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy ildiziga bolata urish, milliy qadryatlarimizga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. Anu shu holatlarni oldini olishda milliy tarbiyaning o'rni va ahmiyati beiqosdur. „Ma'naviyatga tahdid — o'zligimiz va kelajagimizga tahdid“ hisoblanadi. [1]

Shu vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta

xavf solib butun jahonda bamisoli virusdek yangi yangi shtaplar ila tarqalib borayotgan bunday xurujarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Tarbiyani shakllantirishda rivojlangan davlatlar bilan ularning tajribalarini ham o'rgangan holatda o'zimizning milliy an'analarimizga sodiq holda o'z yo'limizdan odilashimiz darkor. Zero bizning yurimiz buyuklar yurti ma'naviyati boy ma'rifatparvarlar yurti hisoblanadi. Abdurauf Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. [2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Nashriyot. Ma'naviyat nashriyoti Nashr etilgan sanasi. 2008-yil Sahifalar soni .176 bet. ISBN 978-9943-04-075-5
2. Abdurauf Fitrat. Nodirjon ABDULAXATOV, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti, tarix fanlari nomzodi

## **Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining mashg'ulotdagi faolliklarida noan'anaviy o'yinlarning ahamiyati**

**Andijon viloyati Ulug'nor tumani 6-DMTT Uslubchisi**

**Jo'raboyeva Shohsanam Sharipjon qizi**

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi xodimlarning bola faoliyatidagi roli va tarbiyachi mahorati.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, kompetentlik, kompetensiya, individ, ijtimoiy zamonaviy tarbiyachi.

Yosh avlodni shaxs sifatida shakllanishida oiladan tashqari, uzluksiz ta'limning ham o'z o'rnini hamda vazifalari bor. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z maxoratini doimo faollashtirib borishva hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka xayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Pedagog, tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar: Bolalar bog'chasida bolalar bilan olib boriladigan ta'lim va tarbiya ishning butun mazmunini tarbiya vazifalari bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning maqsad va vazifalari: 1)bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish 2)ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilishi va ehtiyojlarini qondirish: 3) milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalari sodiq holda voyaga etib borishini ta'minlash: 4)ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'limiga tayyorlashdan iborat. Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, bigalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik

nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, goyaviy e'tikodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchi, tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turiladi. Ayniqsa majburiy ta'lim guruhi tarbiyachisi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Majburiy guruh tarbiyachisi tashkilotdagi tarbiyachi xodimlardek, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi kerak. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'lsa ovuntara olishi kerak. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak. Pedagog tarbiyachi shaxsiga quyiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikkasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muxim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning xayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar kilaoladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo'la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqmaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog tarbiyachi bo'la olmaydi. Bolalarni sevish pedagogning murakkab

mehnatini jozibali va engil qiladi. O'qituvchi tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga xurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagoga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarga chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi. Maktabgacha talim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyachilari mashg'uatlarida noan'anaviy mashg'ulotning o'rnini. **Nutq o`stirish** umumiy guruhdagi o`quv faoliyatida 5-6 yoshli bolalar uchun **Bir nom bilan ayt** didaktik o`yinin qo`llash mumkin.

**Maqsad:** bolaning tabiat va jixozlar haqidagi bilimni mustahkamlash, so`z boyligini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, tez fikrlash va topqilikka o`rgatish.

**Jihozlar:** turli mevalar, sabzavotlar, hayvonlar, mebellar, transportlar va daraxtlar tasvirlangan rangli rasmlar.

**O`yin qoidasi:** bola tarbiyachi ko`rsatgan rasmlarni bitta umumiy nom bilan nomlashi kerak.

**O`yinning borishi:** tarbiyachi umumiy bitta nom bilan nomlanadigan rasmlarni ketma-ketlikda ko`rsatadi. Masalan, karam, piyoz, qalampir, kartoshka, sabzi rasmlarini ko`rsatganda bolalar bularni bir nom bilan sabzavotlar deb atalishini aytadilar. Ayiq, bo`ri, tulki, olmaxon, kiyik, yo`lbars rasmini ko`rsatganda bular yovvoyi hayvonlar deb atalishini aytadilar. Bu o`yin orqali bolalar rasmda ko`rsatilgan jonli va jonsiz predmetlarning xususiyatlari, rangi, qayerda o`sishi yoki yashashi haqida ham ma`lumotga ega bo`ladilar. So`zlarni qayra takrorlash orqali nutqi rivojlanadi, so`z boyligi ortadi. Tarbiyachi bolalarni gapirtish orqali ularning nutqidagi kamchiliklarini ham aniqlash imkoniga ega bo`ladi va noto`g`ri talaffuz qilgan so`zlarini to`g`ri talaffuz qildirishga harakat qiladi.

**Juftini top** didaktik o`yini.

**Maqsad:** bolalarni tabiatdagi jonzotlar bilan tanishtirish, ular haqida tasavvurga ega bo`lishga o`rgatish, ularda topqirlik, tez fikrlash, bilimdonlik qobiliyatlarini shakllantirish.

**Jihozlar:** turli hasharotlar, gullar, mevalar, daraxtlar tasvirlangan rangli didaktik tarqatmalar to`plami.

**O`yin qoidasi:** bola tarbiyachi tomonidan aralashtirilgan kartochkalardagi bir xil rasmlarni tanlaydi.

**O`yinning borishi:** Tarbiyachi rasmlar tasvirlangan varaqni kartochkalarga kesib oladi. 10 juft kartochkadan iborat to`plam hosil bo`lgach, kartochkalar aralashtiriladi va yuza qismini pastga qilib terib chiqiladi. (bo`sh tomoni tepaga) O`yinchilar navbat bilan 2 tadan kartochkalarni ochadi. Agarda ochilgan kartochkalar bir xil bo`lsa, unda o`yinchi kartochkalarni o`zida olib qoladi, aks holda kartochkalarni ochishda davom etadi. Agar kartochkalar mos bo`lmasa, oldingi holatida, ya`ni teskari qilib qo`yadi va kartochkalarni ochish navbati keyingi o`yinchiga o`tadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tushunchalarni rivojlantirishga hissa qo`shadigan matematik toifalarga (shakli, miqdori, hajmi, vaqti, joylashuvi) o`z-o`zidan qiziqish bildiradilar. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida pedagoglar bolalarning bu boradagi bilimlarini, ya`ni ilk matematik tasavvurlarini kengaytirib boradilar.

Umumiy guruhdagi matematika mashg`ulotlarida ham “Qiziqarli matematika”dan didaktik o`yinlarni qo`llash bolalarni elementar matematik tasavvurlarini shakllanishiga, ma`lumotlarni qabul qilish, fikrlash, diqqat, xotirani rivojlantirish, dunyoqarashini kengayishiga xizmat qiladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Zaxarash, T. O'qituvchilar malakasini oshirish mazmunining zamonaviy yangilanishi / T. Zaxarash // Maktabgacha ta'lim - 2011.-№ 12. S.74
2. Svatalova, T. O'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini baholash bo'yicha qo'llanma / T. Svatalova // Maktabgacha ta'lim - 2011.-№1. S.95.
3. Xoxlova, O.A. O'qituvchilarning kasbiy vakolatlarini shakllantirish / O.A. Xoxlova // Katta o'qituvchining qo'llanmasi - 2010. - № 3.- B.4.



## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA STILIZATSIYA USLUBINI TURLI USULLARDA QO‘LLASHNING MAZMUNI

*Sultonova Shahnoza Fazliddin qizi.*

*Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa  
madaniyati fani o'qituvchisi*

**Kalit so‘zlar:** *pedagog, musiqa, ta’lim, stilizatsiya, uslub, mahorat, o‘qituvchi.*

*В статье раскрывается содержание использования стилизации разными способами на уроках музыкальной культуры, введение стилизации в произведения русских композиторов, важность отбора необходимых произведений для дальнейшего повышения интереса учащихся к этой деятельности.*

**Ключевые слова:** *педагог, музыка, воспитание, стилизация, стиль, мастерство, педагог. The article describes the content of the use of stylization in different ways in the lessons of music culture, the introduction of stylization in the works of Russian composers, the importance of selecting the necessary works to further increase the interest of students in this activity.*

**Key words:** *teacher, music, education, stylization, style, skill, teacher.*

**Kirish.** Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta’lim tizimida, ayniqsa, oliy pedagogik ta’lim tizimida pedagog-kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligi yuqori ko‘tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli izlanishlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism.** Stilizatsiya bu - stilizatsiyalash (biror uslubga solish, keltirish yoki unga monand, o‘xshatib asar yaratish) ma’nonisi bildirdi. Stilizatsiya ko‘pincha o‘tmishga qaytishni o‘z ichiga oladi. Bu atama ijodiy uslubning o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan buyuk kompozitorlarning ijodiga nisbatan qo‘llaniladi.

**Stilizatsiya uslubini qo‘llashda quyidagi usullarni misol tariqasida ko‘rishimiz mumkin:**

- 1. Reproduktiv usul olingan bilimlarni tekshiradi. Amaliy misollar yordamida video metodi operalar, operettalar, baletlar va boshqalarning filmga moslashtirilgan qismlarini ko‘rish misolida badiiy asarlardagi musiqa o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.*
- 2. Muammoni taqdim etish usuli - bolalar bilan birgalikda ishlash uchun sharoit yaratadi, bu musiqa asarlarining stilizatsiyasini izlashda ayniqsa muhimdir.*
- 3. Tadqiqot usuli musiqa yoki musiqa asaridagi muammo bo‘yicha muayyan loyihani amalga oshirishga qaratilgan.*
- 4. O‘yin usuli didaktik o‘yinlarda tovush, uning dinamikasi, balandligi va boshqalar haqida g‘oyalarni rivojlantirish uchun ishlatiladi.*

Usullarning xilma-xilligi o‘qituvchiga yoshi, dastlabki bilimlari, o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa ko‘plab omillarga qarab eng mos keladigan o‘qitish usullarini tanlash imkonini beradi. O‘qituvchilar didaktikada ishlab chiqilgan umumiy pedagogik o‘qitish metodlariga asoslanib, ulardan musiqa asarining ma’no va mazmunini tushunish imkonini beruvchi musiqa o‘zlashtirish usullari bilan foydalanadilar. Uslub tahlili usuli bilan an’anaviy usullardan foydalanish musiqa ta’limida musiqiy doirani kengaytiradi. Musiqiy asarni stilizatsiya qilish tamoyillarini o‘qitishda qo‘llash L.G. Archajnikov, oliy o‘quv yurtlarida musiqa madaniyati fanida musiqa uslubi toifasidan foydalanish zarurligini ta’kidlagan. Bizning fikrimizcha, umumta’lim maktabida musiqa darslarida stilizatsiya tamoyillaridan foydalanish inson faoliyatining hissiy-emotsional sohasini shakllantirishda musiqa asarining imkoniyatlarini ochishga o‘quvchi e’tiborini jalb qilish uchun sharoitlar yaratish kerak. Musiqashunoslikda uslub tahlilidan, M.K.Mixaylov, V.V.Medushevskiy, B.V.Asafiyevning asarlarida foydalanilgan. Shu bilan birga, o‘qitish metodikasi, uslub tahlili, amalda musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ham, umumta’lim maktabida ham keng

qoʻllanilishini aytgan. Oʻquv jarayonida uslub evolutsiyasi, mualliflik uslubi, ijodiy yoʻnalishlarini oʻrganish, materialni stilistik tamoyillarga muvofiq taqsimlay olish, musiqa asarlarining stilizatsiya, uslub oʻzgarishi, improvizatsiya, kompozitsiya kabi turlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, olimlarimiz uslub tahlili oʻqitish usuli sifatida oʻqituvchi va oʻquvchining samarali oʻzaro taʼsirida kognitiv va aqliy faoliyatni shakllantiradi. Musiqani intonatsion uslubda idrok etish usuli umumiy badiiy uslubdir. Chunki uning mazmuni musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish juda muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan usuldan foydalanish ongdagi garmonik, ritmik va ohangdor undoshlarda mustahkamlangan musiqiy-eshitish nuqtalarini aniqlashga yordam beradi. Musiqa madaniyati darsida intonatsion va uslubiy idrok etish usulidan foydalanish musiqa asarini tushunish uchun sharoit yaratadi. Usulni qoʻllash musiqiy asarlarni etnik, individual, tarixiy rivojlanish omillari asosida uslublarning intonatsion-majoziy taqqoslash birligida tanlashdan boshlanadi. Idrokning yaxlitligiga erishish uchun metod boshqa oʻqitish usullari bilan birgalikda qoʻllaniladi. Har bir asarni chuqur oʻrganish ayniqsa muhimdir, chunki oʻqitishning boshqa usullari idrokning yaxlit birligida musiqani toʻliq oʻzlashtirishni taʼminlamaydi.

**Muhokamalar va natijalar.** Badiiy asar - bu bevosita idrok etishning amaliy darajasida idrok etiladigan tarixiy, falsafiy, individual va boshqa xususiyatlar majmuidir. Musiqa asarini jaranglashi jarayonida musiqaning individual uslubdagi oʻziga xosligi ochilib, uslubning emotsional tuygʻusini aks ettiradi. Usul oʻqituvchi va talaba oʻrtasida maxsus ijodiy munosabatlarni yaratish uchun moʻljallangan, musiqa odamlarni his-tuygʻular birligida birlashtiradi. Tasviriy-tavsiflash texnikasi ohanglarning stilistik xususiyatlarini ifodalovchi ifoda vositalarini tahlil qilgan holda musiqani bevosita ovoz berishni oʻz ichiga oladi. Musiqadagi uslublarni bilish nafaqat uni tinglash, balki tajribalar darajasida amalga oshirilishi kerak. Keng maʼnoda badiiy obrazlarni hissiyemotsional intuitiv idrok etish, tor

ma'noda musiqiy asarlar mantiqini tushunish. Tasviriy materialda musiqiy matn detallarida, tovush va mazmun birligida ifodalangan uslubiy xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim. Musiqani intonatsion-stilistik idrok etish usuli tarixiy o'zgarishlar sharoitida asarlarning intonatsionmajoziy mazmunini va musiqiy asarlarning stilistik rang-barangligida ohanglar tovushini individual ifodalashning zamonaviy shakllarini o'zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Usul rus ta'limi an'analariga xos bo'lgan musiqa asarini jonli ijro etishdan foydalanishga asoslangan, chunki nazariy tushuntirishlar uslublar va musiqa tushunchalarining xilma-xilligini yetkaza olmaydi. O'rta maktab o'quvchilariga musiqa ta'limining metodikasi va o'qitish usullarini tahlil qilish asosida biz rus musiqa ta'limida ko'plab usullarni qo'llashning barqaror tizimi ishlab chiqilganini yuqorida ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarni rus musiqasining musiqiy makoniga kiritish uchun sharoit yaratgan deb hisoblaymiz. Ularda vatanparvarlik, estetik did, musiqiy eshitish va hokazolarni shakllantiradi. O'qitish usuli, ishlab chiqilgan texnologiyalarga qaramay, keyingi tushunish bosqichida va global transformatsiyalar tizimida innovatsion transformatsiyalardan foydalangan holda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi bosqichda inson musiqa haqida ma'lumotni faqat ommaviy axborot vositalarida, asosan estrada, rok musiqasi orqali oladi, shuning uchun talabalarni zamonaviy musiqa klassikasi, musiqa rivojiga hissa qo'shgan kompozitorlar ijodi bilan yaqindan tanishtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Dis. avtoref. ... ped. fan. dok. – Toshkent: O'zDJTU, 2011. 46-b.
2. Zunnunov A., Tolipov O'. Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish. – T.: "Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati", 2006. – 94 b.
3. Usmonboyeva M., To'rayev A. Kreativ pedagogika. -Toshkent: TDPU, 2016. – 144 b.

## **Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodi faoliyati**

**Sultonova Dilyora Farhod qizi.**

**Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola musiqa san'ati haqida bo'lib, o'rta ta'lim sohasida musiqa darslarida tashkil etiladigan musiqa savodi faoliyati xaqida so'z yuritiladi. O'zbekistonda barcha sohalar qatori musiqa ta'lim tizimida ham keng qamroli yangilanishlar va ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Musiqa darslarida musiqa savodini yanada kuchaytirish va o'quvchilarga bilimni yetkazib bera olish uslublari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Garmonik, lad, major, minor, musiqiy, nazariy, tovush, temp, interval, alteratsiya, janr, sol kaliti, nota, savod.

**Abstract:** This article is about the art of music and the activities of music literacy in music education in secondary education. In Uzbekistan, as in all areas, music education is widespread. Comprehensive updates and positive changes are taking place. Music lessons provide information on ways to further strengthen music literacy and provide knowledge to students.

**Keywords:** harmonic, lad, major, minor, musical, theoretical, sound, temp, interval, variation, genre, sol key, note, literacy.

Xalqimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning dunyoqarashiga, o'z kasbini mukammal egallaganligiga, fidoyiligiga, zamon bilan hamnafasligiyu yosh avlodni sevishi, o'qitishi va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslariga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash,

nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi va izlanuvchan, ijodkor bo'lib musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'ilozim. Hozirda O'zbekistonning chekka qishloqlarida musiqa o'qituvchilari yetarlimi? Shunday bir markaz joylarda ham boshlang'ich musiqa darslari sinf rahbarlari tomonidan o'tilishi kuzatib kelinmoqda. Bunday hollarni bartaraf etish lozim. O'quvchilar musiqa darsini intiqlik bilan kutishadi va darsning musiqa savodi qismini ham o'qituvchi mahorat bilan o'tishi kerak. Lekin ko'p joylarda bunga ahamiyat berilmaydi yoki bunga o'qituvchining bilimi yetishmasligi sabab bo'ladi. Musiqa savodi faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlanib maktabda chuqurlashtirib o'rgatiladi. Musiqa savodi musiqa ta'limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanib, o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi. Musiqa savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatni o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib qo'shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diradi. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab –dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda - qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan

asarlarning kim tomondan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodi benazir ko'makchidir. Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham, o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'rgatilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. 1-sinfda musiqa savodining boshlang'ich bilimlarni beradi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina ashulalar aytib, raqsga tushgan bo'ladilar. Musiqa savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Tabiiyki maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa savodi faoliyati alohida o'rganilmaydi balki barcha faoliyatlarda umumlashgan xolda olib boriladi. Shuning uchun o'qituvchi nihoyatda extiyotkorlik bilan bolalarga musiqa haqida tushuncha beradi. «Siz qanday qo'shiqlarni bilasiz? Raqsga tushishni bilasizmi? Musiqani yaxshi ko'rasizmi?» va shu kabi savollar orqali bolalar bilan muloqotga kirishadi. «Endi men sizlarga musiqa aslida nima ekanligi va qanday paydo bo'lganligi haqida gapirib beraman...» - deb bolalarni o'zaro suhbatga tortadi va musiqiy savod berishni boshlaydi. O'quvchilar musiqa haqida tushunchaga ega bo'lganlaridan keyingina, ularning musiqaning ifodalovchi vositalari bilan tanishtirish mumkin. 1- sinfda o'quvchilar nota yozuvi, notalarning joylashuvi, notalar nomi, uzunligi bilan qisman tanishib boradilar. Musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqat qilishga yordam beruvchi vositadir. Shuning uchun musiqa tilini yaxshiroq tushunish uchun, musiqaning muhim ifodalovchi vositalarini bilish ahamiyatlidir. Eng muhim bo'lgan vositalardan

ladlar - major va minor lادلari haqida o'quvchilarga tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. 1-sinfning 2-yarmida bevosita nota yozuviga kirishish mumkin. Avvalom bor o'quvchilarga notalar yoziladigan chiziqning nega beshtaligi, nota yo'lining ahamiyati va ularda notalar qanday joylashishi haqida boshlang'ich tushunchalar berilgan bo'lmog'i lozim. Nota yozadigan chiziq pastdan yuqoriga qarab sanalishini o'qituvchi doskaga yozib ko'rsatib berishi lozim. Skripka kaliti yoki sol kaliti haqida tushuncha berish kerak. Notalar yozilishidan oldin kalit belgisi qo'yilishi kerakligi, kalitsiz nota yozish mumkin emasligini o'quvchilarga misollar bilan tushuntiriladi. Shu tarzda nota yozuvi o'rgatiladi. Yozishdan avval o'quvchilar notalar joylashuvini yodlagan bo'lishlari kerak. Ana shundan keyin o'quvchilar beshta chiziqlarni qaysi birida qanday nota joylashganini o'zlari topa boshlaydilar. Ayrim hollarda o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga tushunarliroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun nota chiziqlari yordamisiz ham qo'l yordamida notalar joylashuvini topish va ko'rsatishlari mumkin. Buning uchun o'qituvchi qo'lini kundalang holda tutib, har bir barmog'ini nota chizig'i deb faraz qiladi. O'quvchilarga ham o'ng qo'llarini xuddi shunday tutib o'qituvchi bilan birgalikda chap qo'l ko'rsatkich barmog'ida notalarni ko'rsatadilar va o'qituvchi aytgan notalarni o'zlari topib ko'rsatadilar. Demak, musiqa savodi faoliyati maktablardagi eng muhim va etakchi faoliyatlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'rganiladigan asarlarni savodli holda o'zlashtirishlariga imkon beradi va bolalarni xar tamonlama rivojlantirishga yordam beradi. "Har kimki hikmat o'rganaman desa, yoshlikdan boshlasin, ilmi va dono kishilardan saboq olsin, shundagina u komillik darajasiga yetadi" - deydi taniqli mutafakkir. Ibn Sino esa: "Musiqa inson ruhini yo'ldoshidir", deydi. Shunday ekan, hozirgi davrda musiqa o'qituvchidan mas'uliyatni, fanga yangicha yondashuvni, uning metodologiyasini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish orqali, kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi vositasida musiqiy madaniyatni tarkib



toptirish. Musiqani san'at sifatida ongli idrok etish, undan ma'naviy ozuqa olishdan iborat bo'lib, o'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida komil inson qilib tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G.Sharipova.G'.Najmekdinov Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi
2. Apraksina.O.A. Maktablarda musiqiy tarbiya metodikasi
3. D.Soipova Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
5. G.M. Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi
6. Ijtimoiy axborot ta'lim portali:[www.ZiyoNET.uz](http://www.ZiyoNET.uz)
7. M.S. Muxiddinova “Мақтабгача таълим ташкилотларида ахбороткомпьютер технологияларини муסיқа тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари” 2020 yil
8. Sh.R.Mahkamova “Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда муסיқанинг ўрни” 2020
9. M.A.Asadullaeva “Ёшларни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни” 2020 yil

## Musiqa fanini o'qitishning og'zaki metodlari va ularni qo'llash usullari

**Qahhorova Guljamol Abdug'affor qizi.**

**Navoiy viloyat Navoiy shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** O'quvchilar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining og'zaki mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki qo'shik matnlari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki tushuntirish, hikoya, suhbat, izoh, sharh va hokazo metodlar jumlasiga kiradi. Bunda asosiy narsa fikr bayon qilishning to'g'ri tizimidir. Bu metodlar yoki tushunchalami shakillantirish va o'zlashtirish jarayoniga, yoki hissiy obrazlami shakillantirish va tasavvur qilishga qaratilgan bo'ladi. Ushbu maqolada musiqa fanini o'qitishning og'zaki metodlari va ularni qo'llash usullari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, metod, mantiq, obraz, mulohaza.

**Abstract:** When students receive basic learning information in the process of the teacher's oral feedback and proofs, or based on song lyrics, such methods include oral explanation, storytelling, conversation, commentary, commentary, and so on. The key is to have the right system of communication. These methods focus on the process of forming and mastering a concept, or on forming and imagining an emotional image. This article discusses oral methods of teaching music and how to use them. Keywords: Music, method, logic, image, reflection.

### **Asosiy qism**

Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli san'at dunyosiga olib kiradi, qiziqarli hikoya va suhbat bilan o'quvchilar diqqatini musiqa obrazlariga yo'naltiradi. Musiqa o'qituvchisi so'zidan foydalanish sohasidagi shaxsiy pedagogik texnikasini takomillashtirish ustida hamisha ishlashiga to'g'ri keladi. Quyidagilar uning asosiy mezonlari qatoriga kiradi:

- so'zlarni aniq talaffuz qilish, yaxshi diksiya; nutqning sur'atini va ohangini

mohirona tartibga solish, intonatsiyalarning rangbarangligi; - pauzalarda mantiqiy urg'ularni o'z vaqtida qo'llash; - bayon qilish uslubining emotsionalligi; - imo-ishora va mimikaning egallaganligi, ularning nutq mazmuniga o'z vaqtida, o'ylab va me'yori bilan kiritish; - talabalar oldida o'zini qat'iy va ayni vaqtda erkin tutishi. Hikoya. Hikoya tinglanadigan musiqa asari yoki o'rganiladigan qo'shiq mazmunini izchillik bilan obrazli qilib, chiroyli bayon qilishdir. Syujetning borligi va uning vaqt jihatidan rivojlanib borishi hikoya uchun xarakterlidir. Hikoya qilish jarayonida tinglovchilarning tuyg'ulari va kechinmalariga ta'sir etiladi va bu bilan ulaming o'rganilayotgan asarga bo'lgan munosabati shakllanadi. Hikoya - bu o'qituvchining musiqa asari haqidagi jonli, obrazli va yorqin hikoyaviy bayonidan iboratdir. Hikoya qisqa, obrazli va qiziqarli bo'lib, undagi bayon mazmuni asosiy maqsad - o'quvchilarni asar obrazini badiiy tasavvur etishga va shu vosita bilan musiqa asarini badiiy idrok etishga erishishdan iboratdir. Hikoya metodi og'zaki bayon qilishda musiqa asarining mazmunini o'quvchilarga savol berib uzmasdan bayon qilishni nazarda tutadi. Faqatgina qiziqarli va obrazli qisqa hikoya bolalar qalbida o'rganiladigan asarga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg'ota oladi. Pedagogning yorqin, jonli hikoyasi, u keltirgan misollar va faktlar o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi. O'quvchilarga tafakkurning obrazlilik xos bo'lganligi uchun ular bilan ishlashda hikoya metodini qo'llash ayniqsa maqsadga muvofiqdir. Biz hozircha darsdagi o'qitish metodi sifatida o'qituvchining hikoyasi haqida gap yuritdik. Ammo hikoyadan o'quvchilarning bilimlarini tekshirish vositasi sifatida ham foydalaniladi. U holda gap o'quvchilardan yakka holda so'rash vaqtidagi hikoyalari to'g'risida boradi. O'qituvchi o'quvchilardan hikoyachilarni, dokladchilarni oldindan tayyorlaganda, o'quvchilarning hikoyalari dars davomida qo'llaniladi. O'quvchilar bunda eng muhimi hikoya qilish vaqtida muayyan rejadan foydalansin, mazmun elementini mantiqan birma-bir ochib bersin; hikoyaning ma'lum bosqichini tugallar ekan, yakunlovchi jumlamani tushuntirishning yangi bosqichi bilan bog'lay olsin. Tegishli nutq madaniyatini

ta'minlash o'quvchilarga ortiqcha so'zlar, siyqasi chiqqan iboralardan qutulishda mohirona maslahatlar ko'magida yordam berish, aytilgan har bir mustaqil fikr, mulohaza, so'zlaming, o'ylab topilgan yangi fikrlaming originalligi uchun rag'batlantirishlar muhim ahamiyatga ega. Nutq o'stirish o'quvchilar shaxsini intellektual rivojlantirishda o'ta muhim ahamiyatga molik vazifa bo'lib, u faqat musiqa o'qituvchilarini emas, balki barcha o'quv fani o'qituvchilarining ham vazifasi ekanligini unutmash kerak. Suhbat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatning jonli, faol savol javob shakli. O'qituvchi savol berishi bilan juda ham rang-barang o'quv vazifalarini hal etish o'quvchilar bilimini aniqlash, ulami umumlashtirish va tizimlashtirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish vaqtida o'quvchi tafakkurini boshqarish, o'z tarbiyalanuvchilarining bilish kuchi va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Bunda o'quv material bolalarning musiqa haqida bilim doirasi va amaliy tajribalari bilan bog'lanib o'zlashtiriladi. Suhbat jarayonida o'qituvchi o'quvchilaming fikriy faoliyatini kuchaytiradi, musiqa haqidagi bilim doirasini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Tushuntirish. Bu ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darslarida qo'llaniladi. U musiqa savodi, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi kabilarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish o'rganilayotgan qo'shiq, musiqa savodi va undagi qoidalar va musiqa bilan harakatning mohiyatini ochib berishga qaratilgandir. Musiqiy tarbiyada u doimo tushuntirilganlarni nima uchun aynan o'qituvchi talab qilgan usulda bajarish zarurligi sabablari va shartligini ochib berish bilan bog'langan. Masalan, o'qituvchi musiqa savodidan biror bir mavzuni yoritayotganda uning ham ilmiy asosda, ham hayotiy misollar orqali sodda yo'llar bilan o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak. O'qituvchi tomonidan tushuncha berilayotgan vaqtda nutqqa «chunki» so'zini kiritish tushuntirish metodi uchun xarakterlidir. Tavsif. Tavsif musiqa bilan bajariladigan harakatlaming belgisi, sifatlari yoki ulaming izchilligi haqida qo'llanmani o'z ichiga oladi, lekin musiqiy harakatning aynan shunday xarakterini shart qilib qo'yuvchi asboblarni ko'rsatilmaydi. Tushuntirishga nisbatan tavsif go'yo

uning soddalashgan shakli hisoblanadi. Musiqa tajribasida harakat amallari yoki ularning elementlari o'quvchilarga yetarligicha yaxshi ma'lum bo'lgan yoki yangi harakatlarni bajarish yo'llari juda soddaligi tufayli batafsil tahlil qilinmasa ham bo'ladigan hollarda tavsifdan foydalaniladi. Sharhlash (kommentariya). Bu o'quvchilarning musiqa idrokini rivojlantirishda darsning musiqa tinglash qismida asosan musiqa o'qituvchisining badiiy nutqi orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi musiqa darsiga tayyorgarligi jarayonida tanlangan musiqa asariga va uning mazmuniga mos adabiy matn tayyorlaydi. Musiqa va ifodali o'qilgan matn bir vaqtning o'zida magnit lentasiga yoki diskka yozib olinadi. Bunda o'qituvchining vazifasi yangrayotgan musiqa asarini va uning mazmuni hamda xarakterini unda aks etayotgan voqelikni bevosita va bilvosita sharhlab boradi. Sharhlash musiqa o'qituvchisidan katta ko'tarinki ruhda tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Agar musiqa o'qituvchisida badiiy o'qish qobiyati bo'lmasa, unda u adabiyot o'qituvchisi yoki boshqa talantli o'qituvchi nutqidan foydalanishi mumkin. Musiqa asarini sharhlash orqali o'quvchilarga bunday taqdim etish ularda asarga nisbatan yaxshi taassurot qoldirishga yordam beradi. Darsda og'zaki metodlardan foydalanishga o'quvchilarning o'z fikrini erkin ayta olishlari, ashulalar, she'rlar, badiiy asarlardan parchalar ijro etish uchun keng imkoniyatlar ochib berish kerak. Xulosa. Shunday qilib, maktablarda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari og'zaki uslubining asosiy turlarini ta'riflab berdik. O'qituvchining vazifasi bu to'plangan metodlarni faqat egallabgina qolmasdan konkret vaziyatda ularning har biridan oqilona foydalanish, o'sha vaziyat uchun aynan mos variantlarini o'ylab topish, ularning boshqa metodlar bilan mohirona qo'sha olishdan iboratdir. O'qitishning og'zaki metodlari tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishiga alohida ahamiyat berish zarur. O'quvchilarda musiqa faoliyatlari mazmunini asoslash, isbotlash, taqqoslash, bir-biriga qarama-qarshi qo'ya olish mahoratini oshirish uchun og'zaki metodlarning rolini ko'tarish lozim. O'qituvchining so'zi faqat oddiy axborot berishdan iborat bo'lmay, balki ishontiruvchi, asoslovchi, isbotlovchi ta'sirchan

kuchga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining so'zi emotsiyalar, bayon qilinadigan mavzularga shaxsiy munosabat bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim. Bularning hammasi o'qitishdagi og'zaki metodlarning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2010.
2. G. Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2008.
3. G.M. Sharipova, D.F. Asamova, Z.L. Xodjayeva. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014

## **Musiqqa madaniyatining shakllanishi va o'zbek xalqining musiqiy me'rosi tarixi**

### **Navoiy viloyat Navoiy shahar 2- umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqqa madaniyati fani o'qituvchisi**

#### **Radjabova Shamsiya Axtamovna**

**Annotatsiya:** O'zbek xalqining musiqqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqqa, xalq bastakorlik yo`lari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko`rinishlari bir-birini to`ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo`lagi sifatida namoyon bo`lmoqda.

**Kalit so'zlar:** Ashula, musiqqa, raqs, folklor, mumtoz musiqqa, xalq bastakorlik.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf- odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an'analarimizga bo`lgan e'tibor, ularni yangidan islox etish jarayoni ustivor yo`nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo`lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boylklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo`lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo`g'ini bo`lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo`shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo`shiq va musiqqa

ularga hamrox bo`lgan. Zero, bugungi muborak Mustaqillikka erishgan kunimizda, o`zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma`naviyatimizning bir bo`lagi bo`lgan, ota-bobolarimizdan meros bo`lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an`anaviy qo`shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma`naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An`anaviy musiqa va qo`shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo`qotmagan holda Mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo`lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo`lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san`ati milliy musiqa san`atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog`liq holda paydo bo`lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san`at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an`anaviy ruhdagi qo`shiqlari o`lmas meros bo`lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo`shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo`lmish musiqiy san`at bilan shug`ullanayotgan barcha mutaxassis va san`atkorlarga muhim vazifa qilib qo`yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz [tamomila yangi jamiyat](#), yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o`zgarishlar paydo bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz ta`kidlaganlariday, ma`naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an`ana va rasm - rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o`zlikni anglash singari juda ko`p omillarni o`z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

“Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - eng avvalo, uning o`ziga, ma`naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog`liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma`naviy



va aqliy o`lish ehtiyojiga g`ov bo`lmasligi lozim. Ma`naviylik va mahrifiylik xalqimizning ko`p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o`ziga xos xususiyati bo`lib keldi".Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma`naviy jabhalarning barcha yo`nalishlari o`zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo`ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma`naviy hayotdagi o`ziga xos o`rnini baholash, uning ta`sirchanlik kuchini Mustaqillik mafkurasi tomon yo`naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko`ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo`liga yo`naltirilgan desak, xato qilmagan bo`lamiz.Musiqiy madaniyat o`zining serqirraligi bilan ajralib turadi.Ayniqsa, o`zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o`zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo`q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg`u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o`z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o`zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo`shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o`rin tutadi. XIX asr oxirlariga kelib o`zbek musiqiy madaniyatida o`zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o`lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog`liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o`rganmoq zarur bo`ladi. Chunki bazi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta`sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o`ziga xos rivojlanish davri bo`lganligini ham e`tirof etish zarur bo`ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o`lkamizda milliy musiqa san`atimizni ilmiy ravishda o`rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta`sir etdi. Bu borada V. A. Uspenskiy, Ye.Ye. Romanovskaya, N. N. Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o`tish zarur bo`ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, [Tolibjon Sodikov](#), Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg`alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy

madaniyatining durdonalari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo`shdi. Natijada, o`zbek xalq musiqalari, qo`shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yo`zini ko`rdi. So`nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko`rinishlarga to`la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o`tgan davrlar mobaynida ilm fan, san`at, jumladan, musiqiy madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini e`tirof etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, tahlili singari sohalarni olish mumkin. Shu o`tgan davrlarning salbiy oqibatlari sifatida hayotimizning o`ta siyosiyashtiriluvi, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo`l qo`yilishi, xalqchil yo`nalishlarga bepisandlik munosabatida bo`lish, azaliy xalqaro madaniy aloqalar rivojlanishiga sun`iy to`siqlar qo`yilishi kabilarni ko`rsatish mumkin. Qadimgi yunonistonda estrada tushunchasining paydo bo`lishi. Estrada tarixini o`rganish uchun shu tushunchani paydo qilgan tarixiy daqiqalarni tasavvurimizda tiklab, uning o`z davri tomoshalardagi ilk ko`rinishlarini izlaymiz va o`rganamiz. Sayoxatimizni qadimgi greklarning tasavvuri va tafakko`rini ifodalagan miflar-rivoyatlaridan boshlaymiz. Ularning miflari diniy ruhda bo`lib, olam avvalida Xaosdan iborat bo`lgan, degan fikrni ta`qidlaydi. Xaos- bugun ham hamma narsaning aralashib ketgan shakli ma`nosida ishlatiladi. Xaosdan Yer-Geya va yerosti olami –Tartar paydo bo`lgan. Geyadanning o`g`li Uran, osmon xudosi kelib chiqqan. Uran va Geyadan titan-katta xudo Kronos tug`ilgan. Kronosdan-Aid, Poseydon, Gestiya, Demetra, Gera va Zevs kabi kichik xudolar kelib chiqqan.

Zevs boshliq kichik xudolar-titanlar, ya`ni katta xudolar hukmdorligini ag`darib tashlab, olamni o`zlari idora qila boshlaganlar. Shunday qilib, Zevs-bosh xudo, Osmon ma`budasi va nikoh homiysi Gera uning xotini bo`lgan.

Greklar tabiatdagi mo`jiza va o`zgarishlarning sodir bo`lishiga Xudolar sababchi deb qarab, ularning vazifalarini quyidagicha taqsim qilganlar:

1. *Poseydon-dengiz xudosi*
2. *Demetra- hosildorlik va don xudosi*
3. *Gestiya- uy-ro`zg`or ma`budasi*
4. *Aid-yer osti xudosi*
5. *Afina-donishmandlik va urush xudosi*
6. *Appolon- ro`shnolik va san`at xudosi*
7. *Artemida-oy va ov ma`budasi*
8. *Gefest- temirchilik xudosi*
9. *Afrodita - go`zallik va sevgi xudosi*
10. *Dionis- go`zallik yigit qiyofasidagi xoil va vino xudosi.*

Greklar o`z miqlarida xudolar bilan odamlar o`rtasidagi munosabatni bog`lay boshlaydi. Natijada Prometey osmondan olovni odamlarga olib tushgani uchun jazolanadi. Yarim xudo-qahramon Greklar 12 marta qahramonlik ko`rsatadi. U xudolar va odamlar nikohidan paydo bo`lgani uchun alohida ezozlangan. Gerakl yovuzlikka qarshi kurashadigan, she`r terisini yopingan, qo`liga tayoq tutgan qahramon obrazidir. Dunyo madaniyatida katta o`rin tutadigan bayramlar qadimgi greklarning ham o`z xudolariga bag`ishlab o`tkazadigan asosiy tadbiri bo`lgan. Bu bayramlarni tantanali nishonlash uchun ular, xatto qo`shni shaharlaridan mehmonlar chaqirishgan. Natijada, bayramlar – xalq o`yinlari ko`rigiga, jismoniy tarbiya ko`rgan yigitlar o`rtasidagi musobaqalarga, yasangan qizlarning kiyimlari namoyishiga hamda xor, qo`shiq va raqs ustalarining musobaqasiga asos

bo`lgan. Teatr, aktyor, tragediya, komediya, xor, orkestr, drama, sahna, estrada, stadion, bu-qadimiy greklar yaratgan tomosha san`ati atamalari bo`lib, ular hozir ham o`z mohiyatini yo`qotmagan. Bular tarixiga ham bir nazar tashlaylik.

Otning taqasi shaklini eslatadigan qadimgi grek teatrlari 20-25 mingcha tomoshabinni sig`dira olgan. O`rtasi tekis bo`lgan, atrofi tepalik bilan o`ralgan joyni ular jihozlab - stadion, ya`ni musobaqa joyi deb atashgan. Uch tomoni tuproq bilan o`ralgan tepalik shaharning bir tomoni tekislikdan iborat bo`lsa, bu joyni jihozlab-teatr deb atashgan. Demak, Greklar tomoshabinlar o`tiradigan joyni teatr deb atashgan. Tekislikning tomoshabinga eng yaqin, oldi qismi-orkestr, xor joylashadigan maydoncha deb atashgan. Bugun ham shunday, musiqali teatrlarda tomoshabin bilan sahna orasidagi joyga- orkestr va xor joylashadi. Xor bilan muloqotga kiruvchi va uni boshqaruvchi Korifeyni, tomoshabinlarga yaxshiroq ko`rinishini ta`minlash uchun, uni orkestrni orqa tomonida maxsus jihozlangan - taxta chorpoya ustiga chiqarishgan. Chunki, xorning obro`si baland bo`lib, uning oldida yurish mumkin emas edi. Keyinchalik, korifey va xor bilan muloqot qilishi uchun chorpoya ustiga birinchi aktyor ham chiqqan. Sahnada Korifey bilan birga birinchi akt yo`lining paydo bo`lishi taxta jihozni yanada kengaytirishni talab qilgan va uni greklar –“estrada”, ya`ni sahna, tom ma`noda- “maxsus ko`tarilgan joy”, deb ataganlar. Demak, estrada-aktyorlar idrosi uchun maxsus jihozlab ko`tarilgan joy bo`lib, sahna atamasi bilan hamon o`z mohiyatini saqlab kelmoqda. Qadimgi greklar, “skene” deb, estrada-sahna ortidagi maxsus chodir, ya`ni palatani atashgan. U yerda aktyorlar qiyingan va sahna jihozlarini saqlagan. Keyinchalik estrada-sahna orti maxsus devor bilan to`silgan va “skene”-chodir tomoshabinga ko`rinmaydigan bo`lgan. Bu devorda uchta eshik qoldirilgan va undan aktyorlar sahnaga kirib-chiqib to`rgan. Ilk bor bu devorga Dionis uchun atalgan qurbonliklar osib qo`yilgan. Shunday qilib devor asta-sekin mavzuga mos o`zgarib, ilk dekloratsiya- sahna bezagi vazifasini o`tay boshlagan

Bugungi kundagi teatr tushunchasi bizda yaxlit tomosha ko`rsatish maskanini

anglatadigan bo`lsa, greklarda esa tomoshabinlar o`tiradigan joy- teatr; xor joylashadigan joy-orkestr; aktyorlar harakat qiladigan joy, sahna-estrada; jihozlar saqlanadigan joy-skena tushunchalaridan iborat bo`lgan1.

## 2. Musiqada yangicha uslub.

Hozirgi zamon o`zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko`lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an`analarga ega bo`lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo`nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ardoqli navobaxsh merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko`rkam musiqiy an`analari madaniy-ma`naviy mulkimizga aylandi. Har qanday san`at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so`nggi yuz yillik mobaynida O`zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog`lik murakkab va o`zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 20-yillardan e`tiboran kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi. Tabiiyki, tez orada o`zbek xalq ijodiyoti, an`anaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o`zaro chambarchas bog`liq qatlamlar bilan uzviy bog`liq ravishda milliy qadriyatlarimizga, «noan`anaviy» kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo`shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o`lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida o`zil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida ehtirol etish lozim. G`arbiy va Sharqiy Yevro`pa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o`zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o`zlashtirish, uni o`zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg`or kompozitorlarimiz [nafaqat Markaziy Osiyo](#), balki Sharq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo`lga kiritishga muvaffaq bo`ldilar.

Yangicha musiqiy uslubda noyob zamonaviy asar yaratish, jahon xalqlari musiqasi rivojlanishini hisobga olib, tobora yangidan - yangi ijodiy ufqlarni ochib berish bilan tavsiflanuvchi baynalminal jarayonga O'zbekiston o'z munosib ulushi bilan dadil kira oldi. Kasbiy ulgayish bosqichlarini tezkorlik bilan o'tab, har tomonlama yetuklik pallasiga ko'tarilishi bilan «O'zbek kompozitorlik maktabi» dunyo musiqa madaniyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga intildi. Asosan XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ana shunday ijodga moyillik darajasi ilgari ayricha holda bo'lgan ikki toifadagi musiqiy tafakkur an'alarining o'lkamizda uzviy mushtarakligiga erishilganligi bilan ham harakterlanadi. Shu boisdan ko'p ovoqlik uslub ila bunyod etilgan turli janrlardagi badiiy jihatdan barkamol, mumtoz asarlar ma'naviy qadriyatlarimizning jahonshumul salohiyatini yanada oshirdi. Musiqiy madaniyatimizning yangi yo'nalishi bo'lgan o'zbek simfonik musiqasi 70- 80-yillarda peshqadam safga chiqib olganini eslab o'taylik. Bu o'rinda respublikamizda, kushni va qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli madaniy tadbirlar, konsert, ko'rik-tanlov hamda festivallarda katta muvaffaqiyat bilan ijro etilgan o'zbekona poemalar, syuitalar, uvertyuralar, fantaziyalar, cholg'u konsertlar va simfoniyalar xalqaro musiqa jamoatchiligi diqqat-e'tiborini qayta-qayta o'ziga jalb qilgan. Bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish simfonik ijodiyoti alohida e'tiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xilma xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob an'alariga, mumtoz namunalar xazinasiga ega sermaxsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar tashqil etadi. Zero, har qanday andozada bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlari hamisha qadrlidir. Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'xna milliy

an'analarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyiligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Jumladan, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli "Tanovar" poemasi, "Lola" syuitasi, Reyngolpd Gliyerning "Farg'ona bayrami" shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavqu- shavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar orasida Mutal Burxonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun "Alishe'r Navoiyga qasida"si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushel, Sulaymon Yudakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirovning "Lirik poema"si, Boris Nadejdinning "Bolalarga" syuitasi, Ikrom Akbarovning "Shoir xotirasiga", "Epik poema"lari, "Samarqand hikoyalari" turkumi, Sayfi Jalilning "Samarqandnoma" simfoniyasi, To'lqin Qurbonovning simfonik kuylari, Mirsodiq Tojiyevning "Shoir sevgisi" poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirhalil Maxmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafu Bafoyev, [Rustam Abdullayev](#), Habibullo Raximov, Baxrullo Lutfullayev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Zaminimizdagi musiqa san'atining rivoji uch ming yilga borib taqaladi. O'tgan bu zalvorli davrlar mobaynida musiqiy madaniyatimiz juda ko'p marta o'zining uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi va xalqimiz ma'naviy boyligining negizi sifatida ezgulik va taraqqiyot uchun xizmat qildi. Shuning uchun ham biz juda boy, rang-barang, ko'lami keng, usluban xilma xil, qiymati chin ma'noda bebaho darajali ulug'vor musiqiy merosga egamiz. O'rta asrlarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida «O'n ikki maqom»dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha yetib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg'ona - Toshkent maqomlari, an'anaviy ijrochilik va surnay yo'lari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san'ati musiqiy madaniyatimizning sarchashmalari sifatida baxramand qilib kelmoqda.

3. Musiqa madaniyati rivojida milliy cholg'ular o'rnini. Milliy cholg'ularimizning toifalari ko'pchiligi, turfa yakka va jo'navozlik ijro an'alarining o'ziga xosligi bo'yicha milliy musiqa san'atimizga dunyo uzra teng keladiganini topish qiyin. Sharq musiqa ilmining asoschisi deb butun jahonda tan olingan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy, buyuk allomalarimizdan Abu Ali ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Abduraxmon Jomiy, Alishe'r Navoiy, Zaynulobiddin Xusayniy, Kavkabiylar Buxoriy, Darvish Ali Changiy va boshqalar sharqona jahonshumul ahamiyatga molik noyob nazariy va estetik qarashlarni ishlab chiqqan holda mumtoz musiqiy asarlarning ham muallifi sifatida keng tanilgandirlar. Ana shunday xalqchil va ustozona qatlamlar orqali bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyatimiz tufayli tarixan juda qisqa muddatlarda O'zbekistonda yanada yangicha, ko'p ovozli milliy kompozitorlik ijodiyoti o'zil - kesil shakllandi, o'z qiyofasiga ega bo'ldi, jadal ravnaq topdi. Bunda xalq musiqamiz, ayniqsa, maqomchilik an'analari faqat hayotbaxshlikni taxminlabgina qolmay, balki mahsuldor zamin bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, ulug'vor maqom san'ati milliy ma'naviy mulkimizning eng qimmatli va ardoqli xazinasidir. Uning asl namunalari necha-necha avlodlar bahramand bo'lib kelishmoqda. Hatto keng ko'lamli targ'ibot uchun rasman taqiqlangan paytlarda ham maqomlarning mavqei, amaliy-hayotiy mohiyati saqlanib qolaverdi. Xalqimizning yuksak ongi, didi, ruhiy talab va ehtiyojlariga bastakorlik ijodiyoti, ustozona hofizlik va sozandalik ijrochiligi ma'naviy ozuqa berib kelgan. Shu bois bunday san'at ustalari el - yurtimiz orasida hamisha qadrlanganlar va ezozlanganlar. Buyuk istiqlol tufayli musiqiy madaniyatimiz eski siyosiy - mafkuraviy tazyiqlardan xolos bo'ldi. Shu bilan birga, u ko'xna mumtoz an'alarimizning to'la tiklanishiga, ayniqsa, yosh avlodlarni bilimdon, savodxon, ma'naviy barkamol darajada tarbiyalashga misli ko'rilmagan imkoniyat yaratdi. Xususan, biz aynan mustaqillik davrida ko'xna maqom ijrochiligi va an'anaviy ijodkorligida yuzaga kelgan yangicha ijodiy salohiyatning tiklanishini kuzatishga muyassar bo'lmoqdamiz.



Diniy-falsafiy ashulalar masalasiga kelsak, bular, avvalo bizning tarixiy boyligimizdir. Kingadir g'ayri tabiiy tuyo'lsa ham, bu yo'nalishga to'siq bo'lmaslik aslida ozodlik, [erkinlik](#), yuksak madaniyatga xos chinakam demokratik tamoyillarning amaldagi yaqqol ifodasi bo'lsa kerak. Chunki mumtoz sharq she'riyatida bitilgan ilohiy, tasavvufona mavzular o'tmish musiqamizda o'zining ohanrabo, ta'sirchan ifodasini topgan va qadrlangan. Bunday ashulalarning o'z tinglovchilari, asosan, keksalar orasida shinavandalari, muhlislari bor. Buni albatta, hisobga olish zarur bo'ladi. Kezi kelganda shuni ham ehtirol etish kerakki, Ovrupaga turdosh zamonaviy musiqa ijrochiligi bo'yicha, jumladan, fortepiano, torli, damli va zarbli cholg'ular, akademik uslubdagi xonandalik ixtisosliklaridan ko'plab iqtidorli yosh musiqachilarimiz voyaga yetmoqda. Ularning aksariyati respublika va chet mamlakatlarda nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etishib, sovrindorlikni qo'lga kiritishayotgani quvonarli holdir.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining ma'naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

Tayanch

tushunchalar:

«Mumtoz musiqa» yetuk, namunaviy degan ma'noni anglatadi.

«Folklor» o'zbek xalq og'zaki ijodi

«Musiqiy madaniyat» keng qamrovli bo'lib, musiqa faoliyat bilan bog'langan munosabat va qadriyatlar tizimini ifoda etadi. Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O`zbek xalqining musiqa merosini qadim bilan bog`liqligini qanday tushunasiz?
2. Musiqiy madaniyatimizning ma`naviy hayotdagi o`rni qanday?
3. Musiqiy madaniyatimizning serqirraligi qanday tushuniladi?
4. Musiqiy madaniyatimizdagi o`zgarishlar qaysi davrlarni o`z ichiga oladi?
5. Hozirgi zamon musiqa ijodiyotiga qanday baho berasiz?
6. O`zbek musiqa madaniyatining xalqaro miqyosdagi ahamiyati qanday?

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmatov S. Hofizlik san`ati. O`quv-uslubiy qo`llanma. 2007 y. 135b.
2. I. Rajabov. Maqom asoslari. T., 1992. 10-15 betlar  
Xorijiy adabiyotlar
3. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to`plami. T. "Yangi asr avlodi".
4. Michael Pilhofer, Holly Day. Music Theory for Dummies. 2007. 10-12.  
Elektron ta`lim resurslari

## MUSIQA DARSLARINI FANLARARO ALOQADORLIGIDA TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

**Rustamova Gavhar Ernazarovna**

**Navoiy viloyat Navoiy shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa  
madaniyati fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada musiqa ta'limi jarayonida o'qitish metodlari mazmunida fanlar aloqadorligiga oid manbaalardan foydalanishning dars sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa madaniyati, dars, metod, suhbat, hikoya, tushuntirish ko'rgazmalilik, amaliy o'qitish, taqqoslash.

**Abstract:** The article considers the positive impact of the use of sources related to the content of teaching methods in the process of music education on the quality and effectiveness of lessons.

**Keywords:** Musical culture, lesson, method, conversation, story, explanatory demonstration, practical exercises, comparison. Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "musiqa madaniyati" fani o'zining spetsifik tuzilish xususiyatlari, ifodaviyligi, tabiatiga ko'ra bir qator fanlar (ijtimoiygumanitar, tabiiy, musiqiy) va san'at turlari (raqs, tasviriy san'at) bilan o'zaro bog'liqlik va o'qitish predmetiga ko'ra umumiy qonuniyatlariga aloqadorlikni o'zida mujassam etadi. Bu esa o'z navbatida musiqa darslarini tashkil etish, uni yuqori darajada sifatli va muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashga erishish uchun fanlararo aloqadorlik imkoniyatlaridan, musiqiy fanlarni o'zaro bog'langanlik komponentlaridan oqilona va o'z o'rnida foydalanish ehtiyojini vujudga keltiradi. Musiqa o'qitish metodikasi va pedagogikasi ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan eng ilg'or, ta'sirchan, amaliyotda sinalgan va samarali natijalar bergan metod va vositalardan foydalanishni ta'lim mazmuni va sifat darajasini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimiga yangi-yangi pedagogik, innovatsion o'qitish texnologiyalarini kirib kelishi, fan-texnika sohasidagi shiddatli o'zgarishlar ta'lim

sohasida ham o'ziga xos yangilanishlarni taqozo etmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi maktab ta'limida ham musiqa darslarini tashkil etish va o'qitishda har bir sinf, darsining har bir faoliyatida aynan bir xil bo'lmagan usul va metodlardan ustalik bilan foydalanish, darslarning noan'anaviylik va ta'sirchanligiga birlamchi e'tibor qaratish davr talabidir. Shunday ekan, umumta'lim maktablaridagi "musiqa madaniyati" fanini o'qitishda ham ilg'or pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy o'qitish metodlari bilan birga pedagogika nazariyaning umumiy, xususiy, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, o'yin, taqqoslash, musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash, baholash va rag'batlantirish metodlaridan o'z o'rnida foydalanish kerak bo'ladi. Respublikamizda musiqa pedagogikasi yo'nalishida izlanishlar olib borgan yetuk olimlarning ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy musiqa o'qituvchisining professional tayyorgarlik darajasiga qo'yilayotgan talablar xususiy metodlardan muvaffaqiyatli foydalanish jarayonida ijobiy yechim topishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan. "Musiqa madaniyati" darslarida fanning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglagan holda, uning amaliy va ijodiy ijrochilik bilan bog'liq vazifalarini, yil, chorak mavzulari doirasida darsliklarga kiritilgan musiqa nazariyasi, tarixi, vokal, xor ijrochiligiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda shakllantirish va mustahkamlashda, shuningdek, o'quvchilarni musiqiy-nazariy bilimlarini o'zlashtirishlari jarayonida boshqa fanlarga oid bilimlarga murojaat qilish, izlanishga undovchi metod xususiy metoddir. Aynan ta'kidlab o'tilgan metodlar orqali musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning turli shakl, usul va vositalarini qo'llash mumkin. Bir soatlik dars jarayonida ta'lim berishning bir necha xil usullarini qo'llash oqibatida o'quvchi hech bo'lmaganda biror bir faoliyatga va uslubga o'zini munosabatini bildiradi, qiziqishini namoyon qiladi yoki ayrim tushunmagan holatlarga oydinlik kiritish yuzasidan savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Natijada o'quvchida darsga, yoki o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan munosabat, o'rganish va bilish faoliyatiga xohish-istak

kuchayadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar o'quvchida musiqa san'atining biror-bir turiga qiziqish paydo bo'lsa, u darslarga ham o'zicha tayyorgarlik ko'ra boshlaydi, musiqa darslari bo'lishini kutadi, o'zini namoyon qilish, bilganlarini amalda ko'rsatish bilan ko'pchilik oldida g'ururlanish istagi bilan bog'liq kechinmalar paydo bo'ladi. Dars davomida qo'llaniladigan metodlar mavzunini o'quvchilarga yetkazish maqsadiga yo'naltirilgan va turli manbalardan olingan dalillarga asoslangan bo'lishi darslarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etishda ko'proq ta'sirchanlik kasb etadi. Mana shunday metodlar jumlasiga kiruvchi bir qator metodlar haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz: Hikoya qilish metodi. Bu metod musiqa o'qituvchisining musiqa asari haqidagi jonli, emotsional, yorqin hayotiy voqealar va aniq tarixiy dalillar, adabiybadiiy lavhalar asosiga qurilgan bayon bo'lib, uni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni musiqa asari, janri, uning ijro uslubi bilan an'anaviylik jihatlari, badiiy-g'oyaviy mazmuni, qanday holatda, kimlar tomonidan qanday tartibda ijro etilishi, mohir ijrochilari va mualliflari haqida chuqur va to'laqonli ma'lumotlar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. Hikoya metodi yordamida o'qituvchi o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi va tarixiy ildizlari haqida boy tarixiy materiallarga tayangan holda muhim ma'lumotlarni berishi mumkin. Bu o'rinda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan to shu kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari, eng qadimgi madaniy yodgorliklar – "Avesto", Yunon-Baqtriya davlati, Zardushtiylar davri, Qadimgi Xorazm davlatlari davridagi, Kushonlar sulolasi, qadimgi Farg'ona, Qang' davlatlari vaqtidagi madaniyat, san'at, qo'shiqchilik janrlari haqidagi tarixiy materiallarga tayangan holda ma'lumotlar berish o'z o'rnida musiqa darsini tarix fani bilan aloqadorlikda tashkil etish imkonini beradi. O'quvchilar O'rta Osiyo zaminida yetishib chiqqan va jahon fani, madaniyati, shu jumladan, musiqa san'ati, musiqa ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan va xizmatlari butun dunyoda e'tirof etilgan buyuk ajdodlarimiz, alloma-olimlar haqida bilishlari shart. Shunday ekan, buyuk faylasuf, qomusiy olim, o'z navbatida musiqa ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Nasr Forobiy,

Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdulqodir Marog'iy, Az-Zamaxshariy, Darvish Ali Changiy, Abdurahmon Jomiy, Kavkabiy kabi mutafakkirlarning ilm fan sohasidagi buyuk xizmatlari bilan birga ularning musiqa nazariyasi, cholg'u sozlari, musiqiy tovushlar tuzilishi xususiyatlari haqidagi asarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tibbiyot, matematika, geografiya, adabiyot va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlariga bog'lab tushuntirish yoki shu fanlar bo'yicha mavjud qo'shimcha materiallarga, ma'lumotlarga tayangan holda hikoya qilinishi mumkin. Hikoyalar ayrim ijodkorlar hayoti va faoliyati haqida, o'zbek milliy musiqa madaniyatida alohida o'rin tutuvchi asarlar (ular zamonaviy asarlar yoki kompozitorlar ijodi haqida ham bo'lishi mumkin), dostonlar, maqom san'ati, folklor ijodiyoti haqida bo'lishi mumkin.

2. Suhbat metodi ham didaktikaning eng ta'sirchan uslublaridan hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shakldagi faoliyatdan iborat bo'ladi. Musiqa asarining mavzusiga ko'ra darslikda berilgan o'quv materialini bilan birga uning boshqa fanlar bilan aloqador (masalan, tabiat, hayvonot olami, adabiyot, tarix, ekologiya, ona tili va hokazo) ma'lumotlarni misol keltirish, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qilish, asarlarga tavsif berish, g'oyaviy badiiy mazmunini, nazariy jihatdan tuzilishi, janr xususiyatlarini tahlil qilish, ko'rgazmali vositalardan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashlariga qulay sharoit yaratiladi. O'quvchilar bu jarayonda faol qatnashadilar, o'z fikr mulohazalarini bildirishga harakat qilishadi. Masalan, o'qituvchi o'zbek musiqasining mahalliy uslublari bo'yicha o'quvchilar bilan suhbat o'tkazar ekan Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent, Surxandaryo Qashqadaryo yoki Xorazm uslubini bir qator fanlarga oid o'rganilishi xususiyatlarini e'tiborga olishi kerak. Avvalo, ushbu hududlarda yashovchi xalq, elatlarni etnografiyasi, tili (shevasi), tarixi, kiyinish madaniyati, musiqa cholg'ulari, o'ziga xos raqs uslublari haqidagi ma'lumotlarga tayanishi zarur. Bu kabi mavzulardagi darslarni tashkil etishda musiqa tartixi, folklorshunoslik (dostonchilik, baxshichilik, xalq musiqasining ommaviy janrlari),

adabiyotshunoslik, ona tili, geografiyaga oid materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi. 3. Tushuntirish metodi. Bu asosan nazariy ma'lumotlarni berishda qo'llanadi. Musiqa savodi bo'yicha bilimlarni yetkazishda fizika (tovush va tovushning fizik xossalari, ovoz kuchi, tembri, tovush amplitudasi va hokazo) matematik o'lchovlar, notalar cho'zimlarini turkumlanishiga bog'lab tushuntirish ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirilishiga yordam beradi. Musiqa alohida fan sifatida e'tirof etilguncha matematika ilmining tarkibiy qismi sifatida o'rganilganligi tarixdan ma'lum. Tarixning guvohlik berishicha buyuk allomalar Muso Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, arab olimi Al Kindiylarning matematika, falsafa, falakiyotga oid asarlarida musiqaning nazariy tamoyillarini yoritish uchun maxsus bo'limlar ajratilgan. Masalaga mantiqan yondashganda ham musiqaning nazariy asosi bo'lgan tovushlar cho'zimi, ritmik tuzilishi, ton tuzilishi, o'lchamlari, hissalarini ijro etishdagi vaqt hajmi, barchasi aniq matematik hisoblarga asoslanadi. Shuningdek, intervallar o'lchamlari, dirijiyorlik o'lchovlari, hatto raqs harakatlari ham ma'lum matematik hisoblashlar orqali bajariladi. Albatta, musiqa darslarida nazariy qoidalarni tushuntirishda mana shunday fizik va matematik qonuniyatlardan hamda shu fanlarga daxldor asboblardan (kamerton, metronom) foydalanish o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirish shubhasiz. 4. Ko'rgazmali o'qitish metodlari. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va garmoniyalashgan tovushlar tizimidan iboratdir. Uni faqat eshitish a'zolari orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko'rgazmali metodi nota yozuvlarini chiroyli yozishda (chiroyli yozuv, husnixat qoidalariga ko'ra) rasm, chizmachilik fanlariga oid bilimlarga tayangan holda ish tutish muhim ahamiyat kasb etadi. Dirijiorlik sxemalari, raqs harakatlarini chizma tasvirlarini doskada, plakatda namoyish etish, o'quvchilar tomonidan daftarlariga tushirish, asar obrazlari asosida ularning rasmlarini chizish kabi faoliyatlarda o'quvchilarni rasm, chizmachilik fanlari bo'yicha bilim va malakalari qo'l keladi. Bu o'rinda o'qituvchining pedagogik

mahorati, notiqlik, rejissiorlik qobiliyati muhim rol o'ynaydi. 5. Amaliy o'qitish metodlari o'qituvchi tomonidan, asosan, o'quvchilarni amaliy ijrochilik bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida qo'llaniladi. Bunda o'qituvchining "shaxsiy namunasi" ya'ni har bir amaliy harakatni o'zi ko'rsatib berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vokal-xor malakalari (tovush hosil qilish, tovushni yo'llash, niqobdor kuylash, nafas olish, nafasni sarflash, soz, ansanblik, diksiya, intonatsiya) ustida ishlash, musiqaga mos qadam tashlash va harakatlar bajarish (o'yin, raqs, gimnastika elementlari), bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish kabi faoliyatlar amaliy metodlar vositasida amalga oshiriladi. Bu faoliyatda o'quvchilarni induvidial, psixologik, fizologik xususiyatlari e'tiborga olinishi zarur. 6. O'yin metodi - asosan boshlang'ich sinflarda ko'proq qo'llaniladi va yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinf o'quv repurtuariga kiritilgan musiqa asarlari bolalarni yosh, psixologik xarakteriga ko'ra sho'x, raqsbop, o'yin-raqs harakatlari bilan ijro etiladigan namunalardan iborat bo'lib, ularni ijro etishda o'yin, raqs va uning elementlariga keng o'rin beriladi. Bunda o'qituvchining raqs san'ati, uning eng oddiy harakat elementlaridan xabardor bo'lishligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni (asosan qizlarni) raqs tugaraklariga qatnashtirish va u yerda o'rganganlaridan dars jarayonida foydalanish, ayrim darslarni o'tishda raqs to'garagi rahbari, baletmesterlar xizmatidan foydalanish, birgalikda tayyorgarlik ko'rish va ularning tajribalaridan foydalanish mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek xalq musiqa folklori, xususan, bolalar folklori qo'shiqlari biror-bir o'yinni bajarish yoki o'yin xarakteridagi mashqlar, harakatlar orqali ijro etiladi va bu musiqa o'qituvchisidan shunday asarlar bilan ishlashda folklorshunoslikka oid manbalarga murojaat qilib ish tutishni talab qiladi. 7. Taqqoslash metodi. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarning mavzu yuzasidan berilayotgan bilim, tushunchalar mohiyatini aniq idrok etishlariga erishish ko'zda tutiladi. Dars jarayonida musiqiy janrlarni bir-biriga o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash, mahalliy uslublardagi o'ziga xoslik, an'anaviylik, ijrochilik yo'llarini farqli jihatlarini



ko'rsatib berish, shuningdek, qo'shiq bilan marsh, raqs musiqasini eshitib, tinglab aniqlash, taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchining adabiyot (mumtoz ashulalarni mumtoz she'riyat bilan bog'liqligi), folklorshunoslik, ona tili, tarixiy dalillarga (tarixiy mavzudagi qo'shiqlar) musiqa asarlari tahlili faniga oid bilimlarga tayanib ish tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Taqqoslash davomida boshqa fanlarga oid dalillar o'quvchilarning bilim va tushunish doirasini, musiqiy tafakkurini rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oddiygina musiqali ritmik harakatlar bajarish yoki marsh musiqasi sadolariga mos qadam tashlash jarayonida marsh musiqasini boshqa janrlardan nimasi bilan farq qilishi haqidagi tushunchalarga e'tibor qaratish, marsh musiqalari harbiy zarurat asosida bo'lganligi, u asosan Yevropada shakllanib, bizning musiqa madaniyatimizga XIX asr oxirlarida "duxovoy orkestr" ijrochiligi bilan kirib kelganligi haqida ma'lumot berish marsh musiqasi haqidagi tushunchalarni o'quvchilar xotirasida mustahkam o'rnatib qolishiga olib keladi. Umuman olganda har bir fan ma'lum darajada boshqa fanlar bilan o'ziga xos tarzda va ko'rinishda bog'langan bo'ladiki, bu bog'lanish musiqaning nazariy va amaliy ijrochiulik bilan bog'liq o'qitish jarayonida ko'proq va yorqinroq namoyon bo'ladi. Shunday ekan, fanlar aloqadorligi va bog'liqligidan oqilona va o'rinli foydalanish musiqa o'qituvchisidan barcha fanlar bo'yicha keng bilimlarga hamda musiqa san'atining bir qancha yo'nalishlaridan yetarli darajada boxabar, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini talab qiladi. Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etish, ilg'or innovatsion texnologiyalardan, ilg'or ish tajribalaridan foydalanish, yangi va samarali ish usul va shakllarini ijod etish va qo'llash davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Soipova. Musiqa o`qitish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, fan va texnologiyalar.2009-yil,
2. Qo`rbanova G.I. Vospitaniye molodyoji vduxi nasionalnoy idei sredstvami MUZYKI i nasionalnykh sennostey. -M.:Drofa.
3. Qudratov I. Musiqa ta`limida fanlararo a`loqadorlik. Uslubiy qo`llanma, SamDU,2015-yil
4. Alibekova R.I. Metodicheskiye rekomendatsii Russkaya slovestnost Ot slova k slovesnosti

## **INTERFAOL METODLARDAN ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA FOYDALANISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

**Adizova Mohinur Ramazon qizi**

**Buxoro viloyati Shofirkon tumani 4-o'rta ta'lim maktabi**

**ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** intefaol, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, tanlash, ixtiyoriy, bajarish, majburiy, imkoniyat, metod, texnologiya.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik. Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytganda mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchifaoliyati birgalkda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy

va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogic texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim.

Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anaviy uslubda ish olib bordik. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshadi. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi sanaladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or

pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi. Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa

o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy

maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., "Sharq", 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.
4. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
5. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

**TASVIRIY SAN'AT FANINING KELIB CHIQISH TARIXI VA BUGUNGI  
KUNDA FANNING O'ZIGA XOS RIVOJI HAQIDA USLUBIY  
TAVSIYALAR**

**Parpiyeva Nigoraxon Bohodirjonovna**

**Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 9-sonli o'rta ta'lim maktabi  
tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada san'atning vujudga kelishi, uning rivojlanishi, shuningdek, tasviriy san'atning paydo bo'lishi, uning turlari hamda ushbu san'at rivojlanayotganligidagi qo'shilgan hissalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** san'at, professional san'at, aqliy va jismoniy mehnat, go'zallik hissi, tasviriy san'at, fabula.

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik xissi ortdi, voqelikdagi go'zallik qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi. Tasviriy san'at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga



qarab real borlikni ob'yektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga. o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham Tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashiga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi. O'zbekiston hududida ham Tasviriy san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Zarautsoy rasmlari, Xorazm, Sug'd, Baqtriya mahobatli haykal va rangtasvirlari shuning dalilidir. O'rta asrlar Tasviriy san'ati uslub jihatidan rangbarang, turlari keng va xilmaxil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. Hindiston, Indoneziya, HindiXitoy o'lkalarida betakror haykaltaroshlik asarlari yaratildi. O'rta Sharq mamlakatlarida miniatyuraning o'ziga xos turi yaratilgan bo'lsa, O'rta asr Yevropa madaniyatida haykaltaroshlik va rassomlik diniy e'tiqod va dunyoqarashlar zaminida o'ziga xos yo'nalish va, mazmun kashf etdi, ikona san'ati ravnaq topdi. Roman uslubi va gotikaaa barpo etilgan me'moriy obidalarda san'atlar sintezining ajoyib namunalari yaratildi. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy

san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki oliy ta'lim tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern — yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv

jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo`nalishlardan sanaladi. Bu esa o`z navbatida tasviriy san`at o`quv mashg`ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma`ruza (muammoli ma`ruza, ma`ruza-seminar, virtualtexnologik ma`ruza, vizual ma`ruza, binar ma`ruza, kirish ma`ruzasi, ma`ruza-konferentsiya, axborotli ma`ruza, ma`ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma`ruza, on-line ma`ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o`qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o`yinlar, o`quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Oliy ta`lim muassasalaridagi tasviriy san`at o`quv jarayoniga, xususan Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o`ziga xos hisoblanadi. Interfaol — so`zi inglizcha so`z bo`lib, «inter» — o`zaro va «act» — harakat qilmoq ma`nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol — ya`ni o`zaro harakat qilmoq ma`nosini anglatadi. Bunday o`zaro harakat turlariga “talaba — o`qituvchi” va “talaba-talaba” ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o`qitishda o`qituvchi o`quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo`lib, o`quvchi bu faoliyatning sub`ekti sifatida namoyon bo`ladi. Interfaol o`qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo`lib, interfaol o`qitish jarayonida ta`lim oluvchi o`qitishning ob`ektidan o`zaro hamkorlikning sub`ektiga aylanishi, o`quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O`qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o`yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko`rib chiqiladi. Interfaol o`qitish talabalardan axborotlarni o`zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta`lim maqsadlarining to`laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta`limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi:

- o'qituvchining jadal faoliyati — o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

- o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti — talaba hisoblanadi;

- muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

- o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi;

- o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabadan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayner, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki boshqa biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Har qanday oddiy, asbobtexnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun ham grafik bilim va malakalar kerak bo'ladi. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir. Hayotda inson uchun muvaffaqiyatning asosiy sirlaridan biri, qulay vaziyat kelganda undan foydalanmoqlikka tayyor turishdir. Shunday ekan har doim o'qituvchi o'quvchining qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib, darslarda didaktik, noan'anaviy, yangi usul va g'oyaga asoslangan holda, ularning ijodiy faolligini oshira bilishi va mustaqil kasbga yo'llay bilishi kerak

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayev N.U. «San'at tarixi» Tema 1, Toshkent, O'qituvchi, 1986-y.
2. Abdiyev V. I. «Qadimgi Sharq tarixi», Toshkent, 1965-y.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000-2005-y.

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA  
INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA METODIK  
TAVSIYALAR**

**Farg'ona viloyati Farg'ona tuman 61- umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi**

So'fiyeva Hosiyat

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'qituvchilarning matematika fani asoslarini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Kalit so'zlar: loyihalash, interfaol metodlar, "Qora quti", "Zakavatda zukko", "Atamalar jangi",

Bugun matematika kirib bormagan biror soha yo'q, har bir fan, albatta, matematika bilan uzviy bog'liq. Ushbu fanga o'quvchini qiziqtirish, rejada berilgan mavzularni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash pedagogning vazifasi sanaladi. Pedagog kutilayotgan natijaga erishish uchun avvalo darsni rejalashtirishi yoki loyihalashtirishi lozim bo'ladi. Darsni loyihalashtirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
2. Natijalarni oldindan ko'ra bilish;
3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rin tutadi. Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Loyihalarda pedagog tomonidan quyidagi faoliyatlar namoyon bo'ladi:

- ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi yakunlanuvchi tahliliy faoliyat;
- oldindan ko'ra bilish va loyihalash.

Tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligi hisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog'ozda taqvim-reja, qisqacha yozma bayon sifatida aks etiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali hal etilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog'liq. O'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsadi va sharoitlarga muvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga

1. O'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;
2. O'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;
3. O'qituvchining kasbiy mahorati, shuningdek, ta'lim muassasasi moddiytexnik bazasi. Bu o'rinda o'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Unda:

- o'quvchilarga taqdim etiladigan materiallar;
- o'quvchilarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar;
- o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumot bilim turlari o'z aksini topadi. Agar pedagog faoliyati o'quvchilarning talablarini qondirish, ya'ni yakuniy maqsadlarga qaratilsa, u holda pedagog yaxlit pedagogik jarayonni yoki alohida dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashda ham qiyinchilikka duch kelmaydi.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyahasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularning g'oyasi bilan ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat.

O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish o'qituvchi uchun o'quvchilar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini beradi.

2. Bu bosqich o'quv predmetining mavzusi yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'limlar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lda ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi o'qituvchi, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini muayan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shartsharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Bosqich natijasi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifalarni qayd etish bilan tavsiflanadi.

3. Mazkur bosqich ta'lim maqsadi va vazifalariga tayanilgan holda, o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir. Ta'lim jarayoni o'quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'rikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayan bilim, ko'rikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi.

Bu bosqich samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqishi sanalgan bu bosqichda mashg'ulotning shakli, metodi va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi. Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulot shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'uv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

5. Navbatdagi bosqichda o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun yetarli deb belgilangan vaqt hajmi, ya'ni, muayyan mavzu yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning o'quvchilar tomonidan qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6. Mazkur bosqichda mashqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan mashqlar tizimining samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi. Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimini quyidagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiqdir:



a) mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan yechilishi lozim bo'lgan mashqlar;

b) darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar. O'quvchilar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir-birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik va eng muhimi evolyutsion xususiyat kasb eta olishi lozim.

7. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning bu bosqichida o'quvchilarnin umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi o'quvchilarning mavzu yuzasidan muayyan tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir-biri bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

8. Ta'lim jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyihaning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, ta'lim jarayonining yakuniy darajasini o'rganish bilan nihoyalanadi. Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Bildirilgan fikrlardan anglanadeki, har bir bosqichda amalga oshirilayotgan vazifalar o'rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish amaliy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlashga olib keladi.

Qora quti" metodi. Bunda qutiga oldindan tayyorlangan mavzu yuzasidan savollar solinadi. Bunga asosan darsda yaxshi ishtirok etmagan o'quvchilarni qamrab olish mumkin. O'quvchilar qutidan savol Olib savollarga javob berishadi.

"Atamalar janggi" metodi Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Ular "Atamalar janggi" metodi. Bunda o'quvchilar

3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqadi. Ular fanga oid atamalarni ketma-ketlikda aytishadi. Ayta olmay qolgan o'quvchi o'yinni tark etadi. O'yin shu tariqa davom etadi.

“ZAKOVATLI ZUKKO” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston. 1999.
3. Tolipov O'.Q'.Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2006. 11. Rahimov D. Burchak va uchburchak bissektrisalarining farqi nimada? “Ma'rifat” gazetasi, 4 anrel 2012 yil.27-son.
4. Olimov B. Ikki ilg'or usul. ”Ma'rifat” gazetasi, 17-oktabr 2012 yil. 83-son.
5. Rahimov D. Funksiya uzluksizligi nega kerak? “Ma'rifat” gazetasi, 26-dekabr 2012 yil.103-son. 14. Jakayeva K. Aymurzayeva G. O'quvchi mustaqil fikrlasin. “Ma'rifat” gazetasi, 26- sentabr 2012 yil.73-son.

## Tarix o'qitish metodikasining zamonaviy uslublari.

*Tagayeva Nasiba Rustamovna*

**Xorazm viloyati shovot tumani 52-son maktabning tarix fani o'qituvchisi.**

*Annatatsiya:* Mazkur maqola tarix o'qitish metodikasi fanining mazmun-mohiyatini o'quvchi yoshlarga yetkazish, fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalar bilimni oshirish, fanning sir-asrorlarini o'quvchilar ongiga singdirish bo'yicha o'qitishning texnologiyalashtirish qoidalari, usul, vositalaridan foydalanishning ta'lim texnologiyasi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Ilmiy tafakkuri, ilmiy pedagogik, o'qitish uslubiyati, ma'naviy barkamol.*

**Kirish:** O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O'zbekiston xalqlari tarixi o'qituvchilarining milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. Lekin, hozirga qadar bu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmasdan kelindi.

**Asosiy qism:** Maktabda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bog'liqdir. O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmaning qayta nashr qilinishi shu maqsad uchun xizmat qiladi degan umiddamiz. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalariga mo'ljallangan ushbu qo'llanma o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan —O'zbekiston tarixil va —Jahon tarixi

fanlarining yangi dasturiga muvofiq tayyorlandi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'alariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix kursining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlaridagi tarix fakultetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishdan ko'zda tutilgan kelgusida o'qituvchi bo'lib chiqadigan talabalarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Tarix o'qitish metodikasi tadqiq etadigan, talabalarning puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarix o'qitishning umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat va lar ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'ladi?

**Xulosa:** Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon

bo'ladi: o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston tarixi fani dasturi. Universitetlar va pedagogika oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari uchun. T. 1996
2. Q. Usmonov. O'zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.-T.: —O'qituvchil. 2005.
3. J. Rahimov O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T. O'qituvchi. 1995
4. T. Rahmatullayev. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda arxeologiya materiallaridan foydalanish T. O'qituvchi. 1994.

**INTERNATIONAL DISHES**  
**XORAZM VILOYATI XIVA SHAHAR XALQ TA'LIMI**  
**BO'LIMIGA QARASHLI**  
**10-SONLI O'RTA TA'LIM MAKTABI**  
**INGLIZ TILI FANI O'QITUVCHISI**  
**RAXIMOVA MAFTUNA UMRBEK QIZINING**

6-sinflar uchun Unit 3. Lesson 1

**Subject: English**

**Theme: International dishes**

**Aims:**

**Educational:** - students learn vocabulary for international dishes.

- they talk about likes and dislikes and make suggestions.

**Developing:** - learning vocabulary for famous dishes from different countries

**Learning outcomes:** At the end of the lesson students will learn vocabulary for famous dishes from different countries

**Competence:** SC1, FLCC, and PC

**Type of the lesson:** Mixed, group work, pair-work, individual work

**Method of the lesson:** nontraditional, mixed

**Equipment of the lesson:** "Guess What 6" SB, WB, pictures, internet, computers, projector

**TECHNOLOGICAL MAP OF THE LESSON:**

<b>№</b>	<b>Part of the lesson</b>	<b>Tasks</b>	<b>Time</b>
<b>1</b>	Organizational Moment	-to greet pupils. - to check up the register	5 min

2	Repeating last lesson	- to give pupils some questions about last lesson. – to ask words from previous lesson	5 min
3	Explaining new theme	- to explain to pupils new vocabulary and theme	20 min
4	Consolidating new theme.	- to consolidate new theme and new words of the theme.	10 min
5	Marking.	- To mark pupils	5 min
6	Homework.	- Giving homework.	

### Procedure of the lesson:

**I. Organizing moment:** Motivation, Greeting, checking attendance, season, weather, checking the preparation for the lesson.

- Check for homework given on past lesson.
- Ask pupils all new words learnt on previous lesson.

### Warmer

- Write International food day on the board. Ask students what it means and if they've ever been to one.



### II. Pre-activity:

**Activity 1. Listen and look.**

- Say Listen and look at the flags. Where does each kind of food come from? Play the recording. Students listen and look.
- Play the recording again, pausing to ask questions. Teach spicy.

**CD1:45**

**Alex:** Look! It's International Food Day today. Look at all this different food we can try.

**Emma:** Great! I'd like to try sushi. I like fish and rice. I think sushi's from Japan.

**Alex:** Yes, it is. And there's paella, too. That's from Spain. This one has rice, chicken, and vegetables. It's delicious.

**Pedro:** What about some noodles from Thailand? They look good.

**Carla:** Or a curry from India. Do you want to try some curry? It's really spicy.

**Pedro:** I like curry, but I like stew more. This stew's from Russia. I want to try Russian stew.

**Carla:** I have stew a lot. I want to try something different. These tacos look good. Are tacos from Mexico?

**Pedro:** I think so. But lots of people eat them.

**Emma:** I'd like to try these dumplings.

**Alex:** What are dumplings?

**Emma:** They're a little like pasta. These dumplings are from China. They have meat inside.

**Alex:** Look – they have kebabs from Greece! I love kebabs.

**Pedro:** What do they have from the United Kingdom? Oh, yes – fish and chips.

**Carla:** Yes, but I have fish and chips a lot. I want to try something different. What about some rice and beans from Peru?

**Alex:** Let's get a lot of things and share them.



All: Good idea.

### III. Main part

#### Activity 2. Listen and repeat. Then match

- Play the recording. Students repeat and point.
- Play the recording again. Students say the letter and read the label aloud.



a curry   b dumplings   c fish and chips   d kebabs   e noodles  
f paella   g rice and beans   h stew   i sushi   j tacos

**Key:** 1 i 2 f 3 e 4 a 5 h 6 j 7 b 8 d 9 c 10 g

**CD1:46**

1 sushi 2 paella 3 noodles 4 curry 5 stew 6 tacos  
7 dumplings 8 kebabs 9 fish and chips 10 rice and beans

### Activity 3 Listen and suggest dishes. Then practice with a friend.

- Play the recording, pausing for suggestions.
- Students then practice in pairs as in the example.

I like fish and potatoes. I don't like rice.

Why don't you try fish and chips?

**Key:** 2 Why don't you try sushi? 3 Why don't you try kebabs? 4 Why don't you try rice and beans? 5 Why don't you try (Russian) stew? 6 Why don't you try curry? 7 Why don't you try paella? 8 Why don't you try dumplings?

**CD1:47**

- 1 I like fish and potatoes. I don't like rice.
- 2 I like fish and rice. I don't like chicken or meat.
- 3 I like meat and salad. I don't like fish or chicken.
- 4 I don't like meat, chicken, or fish. I like vegetables, and I like rice.
- 5 I like meat and vegetables. I don't like rice.
- 6 I like spicy food.
- 7 I don't like potatoes or pasta. I like rice, chicken, and vegetables.
- 8 I like pasta, and I like meat.

### Activity 4. Which of these dishes would you like to try? Ask and answer.

- Students work in pairs to ask and answer.

#### *IV. Post-activity*

**Workbook Activity 1 Complete the words. Then check (✓) the correct ingredients.**

- Students complete the words and check the correct pictures.

1 I like s t e w.



2 I don't like \_ u \_ \_ i.



3 I'd like to try \_ oo \_ \_ e \_ .



4 I often eat \_ i \_ \_ a \_ \_ \_ i \_ \_ .



**Key:** 2 sushi - a, b 3 noodles - b, c 4 fish and chips - b, c

**V. Homework**

**Workbook Activity 2 Read and write the words.**

- Students read the definitions and write the words.

1 These are from China. They're made with flour, meat, and vegetables.

dumplings

2 This food is from India. Sometimes it's yellow. It's made with meat and vegetables.

\_\_\_\_\_

3 This food is from Mexico. It's made with flour, meat, cheese, and vegetables.

\_\_\_\_\_

4 This food is from Spain. It has rice, vegetables, and meat or fish.

\_\_\_\_\_

5 This food is from Greece. It's made from meat and vegetables.

\_\_\_\_\_

**Key:** 2 curry 3 tacos 4 paella 5 kebabs

**Workbook Activity 3. Which food is your country famous for? Name two.**

- Students write the names of national dishes.

1 My country is famous for \_\_\_\_\_.

2 It's famous for \_\_\_\_\_, too.

**My picture dictionary → Go to page 87: Write the new words.**

- Students write the new words under the correct pictures.





## VI. Ending the lesson

- Play Definitions (see page xv) with food items.

Giving marks according to pupils' participation to the lesson

*Deputy director on educational affairs:* \_\_\_\_\_

*Signature:*

\_\_\_\_\_

# International Food Match

Name: \_\_\_\_\_

*Match the food pictures to the words on the right column.*




1) naan bread



2) noodles



3) sashimi



4) spaghetti



5) pizza



6) Beijing duck



7) sushi

# Food around the world



Rice	Cheese	Lamb	Chili pepper
Burger	Fish	Pizza	Omelette



ITALY



FRANCE



USA



CHINA



SPAIN



UK




MOROCCO



MEXICO



Look at the pictures and write.



I like

I don't like




# My favourite food

















Match the food with the pictures.

1. ice- cream
2. cake
3. cup-cake
4. hamburger
5. sandwich
6. cheese
7. pizza
8. sushi
9. chicken
10. candy
11. bread
12. hot dog
13. meat
14. egg
15. sausage
16. French fries




Look at the pictures. Circle.



 <p>salad chicken cheese</p>	 <p>bread meat sandwich</p>	 <p>chicken cheese honey</p>	 <p>chocolate cheese chicken</p>
 <p>juice milk lemonade</p>	 <p>bread sandwich meat</p>	 <p>fruit vegetables salad</p>	 <p>chocolate ice cream honey</p>
 <p>ice cream honey jelly</p>	 <p>chicken bread meat</p>	 <p>lemonade water juice</p>	 <p>fruit salad vegetables</p>
 <p>water lemonade milk</p>	 <p>chicken fish cheese</p>	 <p>milk lemonade water</p>	 <p>bread cake sandwich</p>

# Likes and dislikes



Tom

Susan

- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False

- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False
- True  False

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI FANINI O'QITISH BAZI USULLARI

**Andijon viloyati Shahrixon tumani**

**XTBga qarashli 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona tili va Adabiyoti  
fani o'qituvchisi**

**Ibragimova Hayotxon Yusufovna**

***Annotatsiya:** Ushbu maqola ona tili fanining bolalarni o'qitishdagi ahamiyati va ongiga tasiri haqida tushinchalarga to'xtalib o'tilgan. Bulardan tashqari ona tilini o'qitishda har xil usullardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ona tili o'qitish, o'quv predmeti, fonetika, reproduktiv topshiriqlar, metod.*

O'zbek tili o'zbek xalqining milliy tili bo'lib, u maktabda asosiy o'quv predmeti sifatida o'qitiladi. Ona tilini o'rganish natijasida o'quvchilarning aqli, ongi, umumiy madaniy darajasi oshadi, tevarak - atrofimizdagi voqea – xodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini to'laroq tushunib boradilar. Ona tilini bilish natijasidagina o'quvchining og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi, maktabda o'rganiladigan boshqa o'quv predmetlarini yaxshiroq bilib olishga erishadi, tevarak atrofdagi voqea – xodisalar, umuman, borliq, dunyo to'g'risidagi bilimlari kengayadi. Ona tilini puxta bilish orqaligina har bir narsaga qiziqish shakllanadi, kuzatish, xarakter, xotira kabi psixologik xususiyatlar rivojlanib, bilim olish jarayonidagi Qiyinchiliklarni yengish, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish malakalari hosil bo'ladi. Natijada milliy g'urur, mehnatga muhabbat, kasbni ongli tanlay bilish, insonparvarlik, jamoani hurmat qila bilish, xalqimizning azaliy odatlari, udumlariga e'tiqod kabi ijobiy xususiyatlar o'quvchilarga singib boradi, har bir sohada faollik ko'rsatish, ijodiy izlanishga ishtiyoq uyg'onadi. Ta'lim jarayonidagi o'quvchi faolligi ko'prok o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan metod va usullarga ham bog'liq. O'tiladigan mavzu yuzasidan o'quvchilar ma'lum tushunchalarga ega bo'lsalar reproduktiv usullar muammoli metodlar bilan qo'shib

olib borilishi mumkin. Fonetika, leksika, morfologiya va sintaksisdan oldingi sinflarda ayrim tushunchalarga ega bo'lgan o'quvchilar vazifani berilgan namunaga qarab bajaradilar. Ona tili darslarida bajariladigan qator topshiriklar: ko'chirib yozish, izohli yozuv, izohli, saylanma diktant, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlillar namunalari, she'riy matnni nasriy yo'l bilan bayon qilish, suz, so'z birikmasi, gap va matnlarni namunada berilganidek tuzish kabi topshiriqlar reproduktiv xarakterdagi topshiriqlar sanaladi. Shuningdek, ma'lum bir grammatik qoida talabiga muvofiq so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar tanlash, taqqoslash, o'xshash va farqali tomonlarni aniqlash yo'li bilan qoida tuzish, saylanma diktant, erkin insho, o'qilgan badiiy va ilmiy asarlarga taqriz yozish, asar tilini mustaqil o'rganish, referatlar tayyorlash kabi izlanishga asoslangan ish usullari o'quvchilarni tadqiqotchilik ruhida tayyorlaydi, amaliy ko'nikma hosil qiladi, og'zaki va yozma nutqni o'stirishga imkon yaratadi. Ona tili darslarida o'rganilayotgan materialni oldin o'rganilganlar bilan bog'lab o'rganish o'quvchining o'quv – biluv faoliyatini rivojlantiradi. Ma'lum bilimlarga tayanib, noma'lum bilimlarni izlab topishga, reproduktiv topshiriqlarni ham, ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni ham bajarishga qiziqish, o'quvchining izlash faoliyatini vujudga keltiradi. O'qitish metodlarini tanlashda mavzuning murakkablik darajasi mavzu yuzasidan ayrim tushunchalarning mavjudligi, o'quv materialining hajmi hisobga olinadi. Hajmi sifatidan katta va murakkab mavzularni o'tishda o'qituvchi tushuntirish, namoyish etish metodini muammoli ta'lim bilan qo'shib olib borgani ma'qul. Metod tanlashda umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillarni amalga oshirishni ham ko'zda tutilishi lozim. Ona tili darslarining har bir bosqichi ma'lum bir maqsadni ko'zlagani uchun metod ham o'zgaradi. Yangi bilim berish jarayonida qo'llaniladigan metod bo'limlarni mustahkamlashdagi metoddan farq qiladi. Ona tili fani bo'limlarining o'ziga xos xususiyatlariga ham e'tibor berish kerak. «Leksika» bo'limini o'tishda ko'proq so'zning ma'nosini aniqlash, berilgan matndan bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni topish, matndagi biror so'zni

ularning ma'nodoshlari, qarama – qarshi ma'nosi, shakldosh va undoshlari bilan almashtirish kabi usullardan foydalansak, nutq o'stirishda notanish so'zlar ma'nosini izohlash, inshoga tayyorlanish, uslubiy xatolarni tuzatish kabi usullar qo'llaniladi: uzluksiz ravishda orfoepik, orfografik va punktuatsion malakalarni shakllantirish, nutq aniqligini ta'minlash, nutq me'yorlarini o'rgatish usullaridan foydalanamiz. Mavzuni o'rgatishga o'z vaqt ajratilgan bo'lsa, o'qituvchi bayoni evristik suhbat bilan qo'shilgan holda amalga oshiriladi. Metod tanlashda beriladigan bilim manbaiga ham qaraladi. Bilimlar o'qituvchining jonli nutqidan olinadigan bo'lsa, tushuntirish – namoyish etish, muammoli bayon, reproduktiv metodlardan foydalanilsa, kitobdan olinadigan bo'lsa, mustaqil ishlatish (izlanish, qisman izlanish) metodidan foydalaniladi. Muammoli ta'lim ijodiy tafakkurni rivojlantirish bilan noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilib olish, til materiallariga qiziqish, olingan bilimlarni puxta egallash imkonini yaratadi. Ijodiy izlanish muammoli savol qo'yish bilan bog'lanib, muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

Ona tili fanining bo'limlari orasidagi va boshqa fanlar bilan bog'lanishi o'qitishning muhim tamoyillaridan ekanini unutmaslik kerak, til bo'limlari orasidagi bog'lanishni yaxshi bilish va hisobga olish tizimli takrorlash va mustahkamlashni tog'ri tashkil qilishga imkon beradi. O'quvchilar ham til hodisalarini bir – biridan ajralgan holda emas, balki bir butun holda tushunish imkoniga ega bo'ladilar. Bu o'quvchilarning nutq taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. X.Ne'matov, A. G'ulomov. Ona tili ta'limi mazmuni T. 1995.
2. M.Qodirov, H. Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2019.
3. G'.Hamroyev. Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. – Samarqand-2019.
4. Kazadayev, A., Sharopov, B., Hakimov, S., Umarov, I., Muxtoraliyeva, M., Dadaxanov, F., & Abdunazarov, A. (2022). MAMLAKATIMIZDA NEMIS TA'LIM TIZIMINI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI TAHLILI. *Journal of new century innovations*, 18(1), 124-129.
5. Mukhtasar, M., Begyor, S., Aleksandr, K., Farrukh, D., Isroil, U., Sodiqjon, K., & Akbarjon, A. (2022). ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF THE DEVELOPMENT OF THE GERMAN EDUCATION SYSTEM IN OUR COUNTRY. *Journal of new century innovations*, 18(1), 168-173.

**Matematikani o'qitishda muammoli, blokli va modulli metodlar**  
**Samarqand viloyati Nurobod tumani 1-son kasb hunar maktabi**  
**matematika fani o'qituvchisi**

**Xudoyorova Nargiza Muhamadiyevna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada matematikani o'qitishda muammoli, blokli va modulli metodlardan foydalanish to'g'risida fikr-mulohazalar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** struktura, modul, blokli, tengsizlik, sxema, muammo

**“Matematika hamma aniq fanlarga asos.**

**Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli,**

**keng tafakkurli bo'lib o'sadi,**

**istalgan sohada muvaffaqiyatli**

**ishlab ketadi”.**

**SH. MIRZIYOYEV.**

Bugungi kunda yurtimizda har sohada turli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan ta'lim tizimida ham. Hozirgi axborot- texnologiyalari rivojlangan zamonda o'quvchilar internet tarmog'idan to'la foydalanishadi. Bu esa bugungi kun o'qituvchisidan tinimsiz izlanishni, dars o'tishda zamonaviy pedagogik usullardan, axborot-texnologiyalaridan foydalanishni talab etmoqda.

Matematikani o'qitishda ham boshqa metodlar bilan birgalikda muammoli metod o'zining strukturaviy tuzilishi bilan boshqa metodlardan farq qiladi. Qatnashayotgan metodlarning har biri o'zining asosiga analiz va sintez, taqqoslash, analogiya induksiya va deduksiya metodlarini qo'yish mumkin, unda bu metodlar yordamida o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini yana ham kengaytiradilar va undan yuqori foydalanadilar. Muammo – bu kishilik jamiyati o'zining rivojlanishi jarayonida to'plagan tajriba yordamida hal qilishi mumkin bo'lmagan masalalar yig'indisiga aytiladi.



Lekin pedagogikada, jumladan metodika bu tushuncha o'quvchilarga beriladigan har bir mavzu uchun qo'llanilgani uchun o'quvchi har bir keyingi darsda yangi tushuncha bilan tanishadi. Shu tufayli uni o'zlashtirishi o'quvchi uchun muammo hisoblanadi.

Darsda muammo hosil qilish asosan to'rt darajali bo'lib, aksariyat hollarda birinchi va ikkinchi darajali muammolar bilan o'quvchilar uchrashadilar, chunki birinchi daraja, bu o'quvchilar ilgari olgan bilimlarini juda katta bo'lmagan faollashtirish asosida yangi bilimga o'tish imkoniyatlarini yaratishdir. O'quvchilar uchinchi va to'rtinchi darajali muammolarni ko'p hollarda olimpiadalarda har xil toifali bahslarda ko'rishlari mumkin. Umuman muammoli dars o'tishda o'qituvchi har bir o'quvchidan tez-tez so'rab, tergap turgani uchun o'quvchilarning faolligi oshadi va ular sistemali dars tayyorlashga majbur bo'ladilar, oqibat natijada matematikani bilishga, o'rganishga ehtiyoj ko'paytirib boradi. Bundan o'quvchilar juda manfaatdor bo'ladilar.

Matematikani o'qitishda blokli o'qitish metodi ham ishlatiladi. Bu metod o'zining strukturaviy tuzilishi jihatidan quyidagi tartibda amalga oshadi. Buning uchun avval tashkiliy qism, bu o'qitishni blokli tizimga olib o'tishning tashkiliy bosqichi bo'lib bunda predmetlarning bloklarga ajratilishi va dars jadvallarida blok predmetlarining tartib bilan birga o'quv qo'llanma va darsliklarning tartibli joylashishi strukturasi hisobga olinadi. Blokli o'qitish bir predmet mavzulari orasida ham yuqorida aytilgan xususiyatlarni ko'rish mumkin. Masalan, maktabda «kvadrat tengsizliklarni yechish» - mavzusini o'tishda avval chala kvadrat tenglama, to'la kvadrat tenglamani radikal uslubda yechish, Viyeta teoremasi mavzulari asosida doskani yarmini shu ma'lumotlarga to'ldirgan holda (yoki kompyuterda yozib, televizorga ulab qo'yiladi) doskani ikkinchi qismiga kvadrat tengsizlikni yechimini topishni olti punktda ko'rsatiladi va ulashtirilib intervallar uslubi ko'rsatiladi. Bunda o'quvchilar juda yaxshi tushunadilar. Bu jarayonni modulli metod asosida ham amalga oshirish mumkin. Modulli metod asosida

matematika darsini o'tish uchun avvaldan shu darsda qilinishi va amalga oshirilishi zarur bo'lgan tushunchalar, qonuniyatlar, fikrlar ketma-ketligi o'rganiladi va uni moduli tuziladi. Shu modul asosida sinfda dars olib boriladi. So'ngra o'quvchilarga uyda nazariy va amaliy masalalarni yana ham chuqurroq o'rganish uchun savollar ketma-ketligi modul qilib beriladi va unga tegishli adabiyotlar, betlarini ko'rsatib beriladi. Uni o'quvchi tayyorlab kelib o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradi va tegishli reytingini oladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning o'z ustida ishlash mustaqil fikrga esa bo'lishi uchun muhim ahamiyatga egadir. Umuman bu metodlar o'qitish va o'rgatish jarayonini faollashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Matematika o'qitish jarayonida yuqoridagi ta'lim turlaridan foydalanilganda o'quvchilarning faolligi oshadi va matematikaga bo'lgan qiziqishlari rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
2. Азизхожаева Н.Н. Педагогические/технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
15. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. "Matematika o'qitish metodikasi" –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000. –127b.

**" Mukammal sonlar "****Andijon viloyati Andijon tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
matematika fani o'qituvchisi****Abdullayeva Nargiza Nuriddinovna**

Annotasiya : Ushbu maqolada mukammal sonlar, ularning xususiyatlari va ushbu sonlar tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar : *mukammal sonlar, Yevklid, " Negizlar" ,...*

MUKAMMAL SONLAR — o'zidan farqli bo'luvchilarning yig'indisiga teng natural sonlar. Masalan, eng kichik mukammal son 6 bo'lib, o'z bo'luvchilarning yig'indisiga teng ya'ni  $6=1+2+3$ , ikkinchi Mukammal son bu 28 bo'lib, u ham shu qoidaga ko'ra sifatlanadi:  $28=1+2+4+7+14$ . 6 va 28 dan keyingilari - 496 va 8128 bo'lib, ular mos ravishda:  $496=124+62+31+16+8+4+2+1$  va;  $8128=4064+2032+1016+508+254+127+64+32+16+8+4+2+1$  bo'luvchilari yig'indisidan iborat. Keyingi mukammal sonlar ham o'z bo'luvchilarning yig'indisiga teng bo'lib, ular quyidagicha:

33550336

8589869056

137438691328

2305843008138952128

2658455991569831744654692615953842176

191561942608236107294793378084303638130997321548169...

Mukammal sonlar birinchi bo'lib Yevklidning «Negizlar» asarida uchraydi. Unda 4 ta juft sonlar berilgan . Ayni vaqtda 20 ta juft Mukammal sonlar ma'lum. Ulardan eng kattasi 24422 ( $244I - 1$ ) soni bo'lib, 1962- yilda aniqlangan. Toq mukammal sonlar shu kungacha ma'lum emas. Agar ular ma'lum bo'lsa ham juda katta sonlar bo'lishi ehtimol. Agar,  $2p-1$  ifoda tub son bo'lsa, unda  $2p-1(2p-1)$  mukammal juft son bo'lishi isboti bilan keltirilgan edi. Keyinchalik, Leonard Eyler

barcha juft mukammal sonlar, Yevklid keltirib o'tgan yuqoridagi ifodaga bo'ysunishini isbotlab berdi.

$p=2, 3, 5, 7$  shartga mos keluvchi dastlabki to'rtta mukammal sonni, ya'ni, 6, 28, 496 va 8182 mukammal sonlarini Geras shahridan bo'lgan Nikomah (Nikomah Gerasskiy) ismli matematik o'zining "Arifmetika" nomli kitobida bayon qilgan. Mukammal sonlar qatoridan beshinchisini, ya'ni, 33550336 sonini XV-asrda olmon matematigi Regiomontan topgan. XVI-asrda, Sheybl ismli yana bir olmon matematigi keyingi ikkita mukammal sonni, ya'ni, 8589869056 va 137438691328 ni aniqladi. Ular,  $p=17$  va  $p=19$  ga mos keladi. 1772-yilda Leonard Eylerning o'zi  $p=31$  ga mos keluvchi va tartib bo'yicha sakkizinchi mukammal sonni hisoblab topgan. U 2305843008139952128 soni edi. 1883-yilda Rossiyalik oddiy qishloq matematika o'qituvchisi Pervushin tomonidan  $p=37$  ga mos keluvchi, to'qqizinchi mukammal son aniqlangan.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida matematiklar  $p=89$ ,  $p=107$  va  $p=127$  ga mos keluvchi yana uchta mukammal sonlarni topishgan. Lekin, bu inson imkoniyatlari va sabr-toqati bilan topilgan oxirgi mukammal sonlar bo'ldi. Chunki, e'tibor bergan bo'lsangiz, endilikda gap milliard yoki, trillionlar xonasi haqida, emas, balki, undan ham katta sonlar ustida bormoqda. Kompyuter tugul, oddiy kalkulyatorlar ham bo'lmagan zamonlarda, matematiklar ushbu sonlarni hisoblab topish uchun qanchalik ter to'kishganini tasavvur qilishning o'zi qiyin.

Undan keyingi aniqlangan mukammal sonlarning barchasi kompyuterlar vositasida topilgan bo'lib, ularni matematik usul bilan qo'lda hisoblash har qanday o'tkir zehni matematik uchun ham murakkablik qiladi. Hozirda, 2018-yilning 1-aprel holatiga matematika fanida jami 50 ta shunday mukammal son aniqlangan bo'lib, ularning barchasi juft sonlardir. Toq mukammal sonlarni qidirish ham davom etmoqda. Shunisi aniqki, agar, son o'qida, basharti qayerdadir juda katta, ulkan toq mukammal son bo'lsa ham, uning 101500 dan katta bo'lishi tayin.

Hozirda, mukammal sonlarni izlash bilan maxsus loyiha qatnashchilari shug'ullanmoqdalar. GIMPS deb nomlanuvchi ushbu loyiha mersenne.org saytida o'z natijalarini e'lon qilib boradi. Ushbu loyiha ishtirokchilari 2008-yilda qiymati 107 dan katta bo'lgan dastlabki mukammal sonni aniqlashgan. Hozirgi kunda aniqlangan eng katta mukammal son esa  $2^{43112609} - 1$  ga teng bo'lib, u 12978189 xonadan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Baldor, A. 1986. Arifmetik. Nashrlar va tarqatish kodeksi.
2. Hammasi oddiy sonlar haqida. Do'stona raqamlar. Qayta tiklandi: [Numeroprimos.org](http://Numeroprimos.org).
3. Wolfram MathWorld. Eyler qoidasi. [Mathworld.wolfram.com](http://Mathworld.wolfram.com)

**RUSIYZABON O'QUVCHILARGA “O‘ZBEK TILI-DAVLAT TILI”,  
“O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI”**

**MAVZUSINI O‘RGATISH BO‘YICHA AYRIM TAVSIYALAR**

**Raxmanova Shoxsanam Uktamovna**

**Navoiy viloyati Xatirchi tumani 7- IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi**

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada o'quvchilarning davlat tilida og'zaki va yozma matn yaratish savodxonligini shakllantirish, tilimizning ma'no yaratish - birlamchi xususiyatini his qilish, jamiyatning barcha sohalari rivojida istiqbolli ezgu so'zning asos bo'lishini anglash zaruriyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, pedagoglarga talabalarda orfografik me'yor ko'nikmasini mustahkamlash bo'yicha ayrim tavsiyalar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Asos va qo'shimchalar imlosi, tovush o'zgarishlari, bosh harflar imlosi, chiziqcha bilan yozish, so'zlarni qo'shib va ajratib yozish talablari, bo'g'in ko'chirish qoidalari, orfografik me'yor, savodxonlik.*

**KIRISH**

O'qituvchi darsni kirish suhbatidan boshlaydi: Agar xalqdan uning tili va shu tilda yaratiladigan badiiy adabiyotini olib tashlasangiz, u xalqdan hech narsa qolmaydi, o'sha xalq hech bir bir giyoh o'smaydigan taqir cho'lga o'xshab qoladi. Chunki har bir xalqning dunyoda borligini, qadriyatlarini uning tili va adabiyoti ko'rsatadi. R.Hamzatov va Ch.Aytmatov asarlari orqali dunyo ahli dog'iston va qirg'iz millatini, ularning o'ziga xos qadriyatlarini tanigan. Bunday misollar ko'p.

Alisher Navoiy 15 asrdayoq 51 ming 230 misradan iborat “Xamsa” ni turkiy tilda yozib, uning ma'no ifodalashdagi ichki imkoniyatlarini dunyoga mashhur qildilar. Dunyo miqyosida tilimizning nufuzini balandlatdilar. 1499- yilda yozgan “Muhokamat-ul lug'atayn” asarida turkiy tilning forsiy tildan kam emasligini hayotiy misollar bilan ilmiy isbotlab berdilar.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuningdek, turkiy - o'zbek tilida Z.M.Boburning "Boburnoma", A.Qodiriyning "Otkan kunlar", "Mehrobdan chayon", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi"... E.Vohidov, A.Oripovlarning doston va she'riy to'plamlari yaratildi, bu asarlar dunyo adabiyot bo'stonida abadiy muhrlandi.

Albatta, har bir fuqaro, birinchi navbatda, o'z tilida savodli bo'lishi kerak, qachonki inson o'z tilida savodli bo'lsa, boshqa tillarga ham mehr va hushyorlik bilan munosabatda bo'ladi.

O'qituvchi : Til va unda jilolanadigan so'z, uning mohiyati haqida hikmatlarni eslaymiz.

Birinchi talaba: **"Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin".**

**A.Navoiy.**

Ikkinchi talaba: **"Til-millionlarcha avlodlar tomonidan yaratilgan  
tirik jondir".**

**A.N.Tolstoy**

Uchinchi talaba: **So'zdan halol foydalanish kerak.**

**N.V.Gogol.**

To'rtinchi talaba: **"Qalbdan chiqqan so'z qalbgaga yo'l soladi".**

**N.Ganjaviy.**

Beshinchi talaba: "So'z- buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlari bilan yuzko'rmas qilib yuborish mumkin, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin.

Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan. **L.N.Tolstoy.**

O'qituvchi "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuni moddalari bilan ishlayotgan talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Davlat tili haqidagi Qonunning "O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta-maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi",- deyilgan 6moddasini tushuntiring.

2. Davlat tili haqidagi Qonunning 15-moddasini qanday izohlaysiz? Bu moddaga mos hayotiy misollar keltiring: "O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar".

3. Davlat tili haqidagi Qonunning 19 moddasini tushuntiring. Ya'ni, "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalar, shuningdek, milliy, madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasini davlat tilida takrorlanadi". Qo'shma korxonalar ish faoliyatida ishlatilayotgan muhr va tamg'alar haqida nimalarni bilasiz?

4. O'zbekistonda boshqa millat tillariga e'tibor va hurmat haqida so'zlab bering.

5. Davlat tili haqidagi Qonunning 22-moddasi, ya'ni "Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi". Bu moddaga FSMU texnologiyasi asosida munosabat bildiring.

F	<b>Fikringizni</b> bayon qiling
S	Fikringizning bayoniga biror <b>sabab</b> ko'rsating
M	Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi <b>misol</b> keltiring
U	Fikringizni <b>umumlashtiring</b>



**II. Yangi mavzu bayoni.** Pedagog talabalarga “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” haqida nazariy ma’lumot beradi.

1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonuni qabul qilindi. O‘zbek xalqi, bunga qadar, 1940 -yil may oyidan boshlab kirill yozuvidan foydalanib kelar edi.

Orfografiya qoidalari ham shu yozuv xususiyatlarini aks ettirgan edi.

Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari 1995-yil 24-avgustda qabul qilindi, u quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

- a) Unlilar imlosi;
- b) Undoshlar imlosi.

2. Asos va qo‘shimchalar imlosi.

3. Qo‘shib yozish.

4. Chiziqcha bilan yozish.

5. Ajratib yozish.

6. Bosh harflar imlosi.

7. Ko‘chirish qoidalari.

Fuqarolarimizning davlat tilida savodxonligini ta’minlovchi qoidalar majmui imlo qoidalaridir. Qachonki har bir shaxs imlo qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirsa, orfografik me’yor ko‘nikmalarini puxta egallasa, savodxonlikka erishadi.

Buning uchun qanday nazariy talablarni bilishimiz va ko‘nikmaga ega bo‘lishimiz kerak?

O‘qituvchi talabalarga imlo qoidalari bo‘yicha tarqatmalar beradi.

**Birinchi talaba: Biz davlat tilida savodxon bo‘lishimiz uchun “Asos va qo‘shimchalar imlosi”ni o‘zlashtirishimiz kerak:**

Ya’ni:

1. A unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchalari qo'shilganda a unlisi o tarzda aytiladi va yoziladi: sayla+v= saylov; qayna+q= qaynoq, sayra+qi= sayroqi.

2. Shuningdek, o'qi+vchi= o'quvchi, sovi+q= sovuq, to'qi+vchi= to'quvchi so'zlarida i unlisi u ga aylanadi.

3. K k harfi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ular g va g' ga aylanadi; yurak-yuragi, bilak-bilagim, tilak-tilagim; buloq-bulog'im, quloqqulog'ing, qishloq-qishlog'i kabi. Erki, ishtiroki, huquqi, ravnaqi kabi so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi;

4. Singil, o'rin, ko'ngil, o'g'il, shahar kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa asosda tovush tushish hodisasi sodir bo'ladi; singli, ko'ngli, o'g'li, shahri.

Qayir, ayir so'zlariga il nisbat qo'shimchasi qo'shilsa asosda tovush tushish hodisasi sodir bo'ladi:

Qayril, ayril.

Ikki, olti, yetti sonlariga ov, ovlon jamlovchi qo'shimchalari qo'shilsa, o'zakda tovush tushish hodisasi ro'y beradi: ikkov, yettovlon.

5. U, shu, o'sha kabi olmoshlarga -da,-dan,-day,-dagi,-dosh,-cha

qo'shimchalari qo'shilsa, bitta n tovushi orttiriladi; men, sen olmoshlariga -ni, va ning qo'shimchalari qo'shilsa, bitta n harfi tushurib qoldiriladi: bunda, shundan, o'shancha, meni, sening.

6. Parvo, obro', mavqe so'zlariga egalik qo'shimchalari qo'shilsa, bitta y tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: Parvoyi, obro'yim, mavqeyim...

**Ikkinchi talaba : Shuningdek, biz so'zlarning qay hollarda qo'shib yozilish qoidalarini ham bilishimiz kerak.**

1. Ya'ni agarda so'z tarkibida xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar bo'lsa, bunday so'zlar qo'shib

yoziyadi: oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, kamhosil, umumdavlat, bug‘doyrang.

2. Agar so‘zning tarkibida r,-ar,-mas qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zlar bo‘lsa, bunday so‘zlar qo‘shib yoziyadi: o‘rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas.

3. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo‘shma otlar va sifatlar qo‘shib yoziyadi: toshbaqa, oybolta, qo‘yko‘z, sherdil, otquloq.

4. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo‘ljallanganligi kabi ma‘nolarni bildiruvchi qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziyadi: ko‘ksulton, achchiqtosh, ko‘zoynak kabi

5. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so‘zi bilan yasalgan joy nomlari qo‘shib yoziyadi: Oqtepa, Uchqo‘rg‘on, Davlatobod, Xo‘jaobod, lekin Markaziy Osiyo, Ko‘hna Urganch, G‘arbiy Yevropa kabi joy nomlari ajratib yoziyadi.

6. Ruscha, baynalmilal yoki so‘zma-so‘z tarjima qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziyadi: telestudiya, radioto‘lqin, elektrarra kabi.

**Uchinchi talaba : Biz so‘zlarning qaysi hollarda ajratib yoziyish qoidalarini ham bilishimiz kerak.**

1. Olib keldi, oshkor etdi, ogoh qildi kabi qo‘shma fe‘llar ajratib yoziyadi.
2. Har, kech, bir, u, shu, o‘sha, hamma kabi so‘zlar o‘zi birikib kelgan so‘zdan ajratib yoziyadi: har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o‘sha joyda, hamma vaqt kabi.
3. Ko‘makchilar o‘zi bog‘langan so‘zdan ajratib yoziyadi: Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon.
4. Sifatning orttirma darajasini yasovchi to‘q, och, tim, jiqqa kabi so‘zlar ajratib yoziyadi: tim qora, och ko‘k, to‘q sariq.
5. Qo‘shma sonlar ajratib yoziyadi: o‘n to‘qqiz, bir yuz yigirma besh, ellik olti.

O‘qituvchi: Biz, shuningdek, qachon so‘zlar bosh harf bilan yoziladi? So‘zlar qaysi hollarda bo‘g‘inga to‘g‘ri ko‘chiriladi? Qaysi hollarda chiziqcha bilan yoziladi? kabi talablarni ham o‘zlashtirishimiz kerak. O‘qituvchi talabalarga multimediyadan foydalangan holda bu haqda nazariy ma’lumotlarni beradi.

**III. Darsni mustahkamlash.** Talabalar topshiriqlarni bajarishadi va quyidagi matnlar ustida mulohaza yuritadilar.

**1. Topshiriq. Matnni o‘qing va unga sarlavha qo‘ying.**

“Muhabbat” degan so‘z hamma tillarda bor. Inglizlarda-“Love”, nemislarda“Libe”, fransuz tilida “Amur”, rus tilida “Любовь”...”Любовь к матери”...”Любовь к Родине”... Albatta, barcha tillarda bu so‘zning bir necha xil ifodasi ham bor.

Ammo o‘zbek tilida “muhabbat” degan so‘z shu qadar rango-rang ma’nolarga egaki, hayratda qolasiz. “Yoqtirib qolmoq”, “Ko‘ngil bermoq”, “Moyil bo‘lmoq”, “Xushtor bo‘lmoq”, “Oshufta bo‘lmoq”, “Dil bermoq”, “Bedil bo‘lmoq”, “Mubtalo bo‘lmoq”, “Maftun bo‘lmoq”, “Mahbub bo‘lmoq”, “Oshiq bo‘lmoq”, “Yaxshi ko‘rmoq”, “Ishq”, “Ishqi tushmoq”, “Ishqi foniy”, “Ishqi boqiy”, “Sevgi”, “Muhabbat”, “Mehr” va hokazolar... Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi-teng huquqli o‘zbek so‘zlari! Gap faqat bunda ham emas. Bu iboralarning hammasi umumma’noni anglatadi va... har biri alohida ma’no tashiydi... Tilimiz naqadar rango-rang! Tilimiz naqadar boy!

**(O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov)**

**II. Topshiriq. So‘zlarning juftlarini topib ko‘chiring. Namuna: o‘y-xayol, mehr-muhabbat.**

O‘y, muhabbat, sinoat, kuch, sadoqat, ona, do‘st, mulk, suron, ulov, ahvol, qobil, qarindosh, yer, arava, qoida, fozil, sotiq, narx, nasl, non, noz, ovqat, havas, armon, jahd, istak, armon, farog‘at, xarajat, do‘st, ijtimoiy, totuv, namak,

mehr,sir, qudrat, sevgi, ota, yor, mol, shovqin, ot, hol, mo‘min, urug‘, osmon, olim, qonun, savdo, navo, nasab, nasiba, ne‘mat, oziq, orzu, jadal, rohat, sir, totuv, tinch, asror.

**III Topshiriq. Matnni o‘qing. Ularga munosabat bildiring. Qaysi fikrlar siz uchun yangilik bo‘ldi? Matnda lotin alifbosigagina xos tovushlar haqida, ularning talaffuzi haqida ma‘lumot bering.**

So‘nggi bekatdagi bitiklar

Biron ishga kirishganda bilaman deb kirishmang. Bilmayman deb kirishsangiz, ko‘proq narsani bilib olasiz. Bilib bilmagandan ko‘ra, bilmay bilgan yaxshiroq.

Tor ixtisoslikni chuqur egallang. Keng bilimli bo‘lishga intiling.

Faol dam oling, badanni toza tuting, imon-e‘tiqodli bo‘ling. Uxlaganda tiniqib uxlang.

Bosh omborxonona yoki osori atiqalar muzeyi (ajoyibxonona) ham emas. Uni har xil keraksiz narsalar bilan to‘ldirib tashlamang.

Bardam bo‘ling. Bo‘lar-bo‘lmas gaplarga parvo qilmang. Xafagazak, savdoyi bo‘lib qolishdan saqlaning.

Ona tilida fikrlashga, toza gapirishga, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerda va kim bo‘lmasin, ona tilini kamsitishlariga aslo yo‘l qo‘ymang. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. Onayizor, Vatan, millat har biri bittadan, Ona tili ham bitta. Agar o‘z xalqingiz orasida gungalak-soqov va yot bo‘lib qolishni istamasangiz, ona tilini puxta o‘rganing, boshingizga ko‘taring. Kishi boshqa tilda bilimli bo‘la oladi, faqat ona tilidagina bekam-u ko‘st bo‘lishi mumkin. Ona tilini e‘zozlashni, qadrlashni va asrashni ma‘rifatli millatlardan o‘rganing.

**(Filologiya fanlari doktori, professor G‘aybulla Salomov)**

**IV. Uyga vazifa.**

**1.Topshiriq. Konseptual jadvalni to‘ldiring.**

	Tushunchalarga yondashuvlar	Tavsiflar, misollar
1	Orfografiya bo‘limi nimani o‘rgatadi?	
2	Unlilar va undoshlar imlosi deyilganda nimani tushunasiz?	
3	Asos va qo‘shimchalar imlosida qachon tovush tushish va orttirilish hodisasi ro‘y beradi?	
4	So‘zlar qachon chiziqcha bilan yoziladi?	
5	So‘zlar qaysi hollarda ajratib yoziladi?	
6	So‘zlar qaysi hollarda qo‘shib yoziladi?	
7	Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarida nimalarga e‘tibor berishimiz kerak?	
8	Bosh harflar bilan yoziladigan so‘zlarga misollar keltiring.	

**II.Topshiriq. Adabiy o‘qish. Muhammad Yusufning “Kechir meni, ona tilim” she‘rini o‘qing. She‘rda ifodalangan g‘oya haqida og‘zaki va yozma matn yarating.**

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim,  
She‘r yozdim-u, bo‘lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag‘ri dilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona  
tilim.

Onam “erkam” deb quchganda tunlar yarim,  
Erkim yo‘q deb zirqirardi bir joylarim,  
Parovozni                      hansiratgan  
bug‘doylarim,                      Oltinlarim,  
ma‘danlarim,      ipaklarim,      Ona  
tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,  
O‘zbekni qon qatshatganni o‘zbek siylar,  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo‘ldi, kimdir katta,  
Katta millat Afandisi yo‘qdir hatto,  
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,  
Zulm o‘tsa, faqat sendan o‘tdi zulm,  
Ona tilim, kechir meni ona tilim.

Sen bo‘lmasang nima bizga silliq she‘rlar,

Bu dunyoda tili yo‘qda, dil yo‘q derlar,  
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,  
Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qaragam, har shevangda ming jilolar,  
Har novdangda, har mevangda ming jilolar,  
Qodiriylar, Cho‘lponlar-u, Abdullolar...  
Sening qaytgan kuning tug‘ilgan yilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim

### **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2019-yil 21 oktabrdagi PF-5850 -son Farmoni. <https://www.lex.uz>
2. Mirziyoyev Sh. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF6084-son Farmoni. <https://www.lex.uz>
3. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni. <https://www.lex.uz>
4. Dastur. Oliy o‘quv yurtlari uchun. “O‘zbek tili “. -T.: O‘zDJTU, 2013.
5. Husanboyeva Q.P. “Oliy ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘qitish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi”. “Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari (nazariya, metodika, texnologiya ) mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.2020-y. 5-bet.
6. Enazarov T., Shakarova F. “Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tilini o‘qitishning dolzarb masalalari (Nazariya va amaliyot, metodika va



texnologiya). Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari. T. 2020. 18-bet.

7. O‘tkir Hoshimov. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”. T.2018. 235 b. 8. “Tafakkur gulshani”.T.1989. 459 b.

## **O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOYIYALARNING O‘RNI**

**Qodirova Nasiba Ag'zamovna**  
**Navoiy viloyati Xatirchi tumani**  
**7- IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi**

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim sohasiga xususan, o'zbek tilini o'qitishdagi ahamiyati, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi uchun xos axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** kompyuter, dastur, pedagogik texnologiya, metodika, multimedia

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizni umuman olganda kundalik hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Qaysi soha haqida gapirmaylik bu vositalar bizni tark etmaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kompyuter dasturlari vositasida yoshlarning bilimi va dunyoqarashini kengaytirishda keng foydanilmoqda. Turli fanlardan o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilib, dars samaradorligini yanada oshirmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar yo'lga qo'yildiki, bunda ta'lim-tarbiya tizimiga, oliy ta'limning o'quv-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini ortirish talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari oldiga juda katta ma'suliyatni qo'ydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o’zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida o’zbek tili va adabiyoti fanini o’qitishning yangi va samarali metodlari bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg’or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish” borasida katta ishlar qilinishi ko’zda tutildi. Va shu boisdan o’zbek tili va adabiyoti universitetida “O’zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fani o’quv dasturiga kiritildi. “O’zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fani o’zbek tili va adabiyotini o’qitishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasini talab darajasida o’rgatishga yo’naltirilgan. Fanni o’qitishdan maqsad – bo’lajak o’zbek tili va adabiyoti o’qituvchilarini dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishdir. Fanning vazifasi talabalarga o’quv mashg’ulotlari jarayonida qo’llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida, aynan o’zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo’yiladigan talablar to’g’risida, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma’lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko’nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat. [1]

## NATIJALAR

Ushbu “O’zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba quyidagi natijalarga erishishi ko’zda tutilgan:

- ✓ ta'limda axborot texnologiyalari bo'yicha tayanch tushuncha, atama va vazifalar;
- ✓ axborot-ta'lim muhitining tarkibi va tuzilishi;
- ✓ axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasining shakllanishida jahon tajribasi;
- ✓ axborot texnologilar dunyosida ilmiy va ta'limiy tadqiqot ishlarning reformasi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim;
- ✓ ta'limida axborot texnologiyalarini tatbiq etishning ahamiyati;
- ✓ axborot texnologiyalari sohasida innovatsion baholash;
- ✓ masofaviy ta'limni rivojlantirish sohasida asosiy loyihalar;
- ✓ axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati;
- ✓ ta'lim jarayonida interaktiv doska; bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;
- ✓ zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish;
- ✓ multimedia darsliklarining turlari va tuzilishini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- ✓ o'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish;
- ✓ elektron ta'lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak.[1]

## MUHOKAMA

Ushbu fan ya'ni "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari" fani 1-semestrda o'qitiladi. Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi juda yuqori ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan "Umumiy pedagogika", "Dasturlash asoslari va axborot texnologiyalari", "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar" hamda "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi", "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" kabi fanlar bilan bog'liqdir.

## XULOSA

Bugungi kunda istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarni yarata olishi va ularni mashg'ulotlarda umumli qo'llay olishi davr talabidir. O'zbek tili va adabiyoti darslarida foydalaniladigan elektron materiallarning sifati, samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatadigan yuqoridagi fan o'zbek tili va adabiyoti darslarining yanada yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Samdu.uz
2. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. *Prospects of Development of Science and Education*, 1(2), 247-249.
3. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O 'zbekistonda ilm-fan va ta 'lim masalalari: muammo va yechimlar, (3), 71-73.
4. Шайхисламов, Н. (2021). ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ЙЎНАЛИШИ: КОНТАКТ ЛИНГВИСТИКАСИ. *Scientific progress*, 1(4).
5. Shayxislamov, N. (2021). Tilshunoslik nazariyasi va tushunchasi. *The 21st Century Skills for Professional Activity*, (3), 174-176.
6. Shayxislamov, N. (2021). Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi va vujudga kelishi. *The 21st Century Skills for Professional Activity*, (2), 274-276.
7. Kobilova, N., Shayxislamov, N., & Raimova, M. (2021). O 'ZBEK VA INGLIZ PAREMIOLOGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI. *Scientific progress*, 1(4).
8. Шайхисламов, Н. (2020). Синтаксисни морфология билан интегратив ўргатиш. *Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари*, 383385.

9. Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Shofqorov, A. M. (2020). RASMIY HUJJATLAR MATNINING LEKSIK XUSISIYATLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI. *Science and Education, 1*(Special Issue 3).
10. Shofqorov, A. M., Baykabilov, U. A., Bayzakov, J. A., & Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2020). TIL O 'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI. *Science and Education, 1*(Special Issue 3).
11. Шайхисламов, Н. (2020). МАВКЕИ ЛИНГВОКУЛТУРОЛОГИЯ ДАР СИСТЕМАМ ФАНХ, О ВА ВОБАСТАГИИ ОН БО ЭТНОЛИНГВИСТИКА, СОТСИОЛИНГВИСТИКА ВА ЭТНОПСИХОЛИНГВИСТИКА. *Academic research in educational sciences, (4)*.
12. Ахмедов, Б. А., Шайхисламов, Н., Мадалимов, Т., & Махмудов, Қ. (2021). SMART ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНДАН ТАЪЛИМДА ТИЗИМИДА КЛАСТЕРЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Scientific progress, 1*(3).
13. Shayxislamov, N. (2021). ONA TILI DARSLARINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY METOD-KAKOGRAFIYA USULIDAN FOYDALANISH. *Scientific progress, 1*(3).
14. Shayxislamov, N. (2020). LINGVISTIKA, UNING ZAMONAVIY TURLARI HAMDA ULARNING O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TALQINI. *Scientific progress, 1*(2).

**O'ZBEK TILINI (DAVLAT TILI) O`QITISHNING UMUMDIDAKTIK VA O`ZIGA XOS PRINSIPLARI**

**Pirmatova Dilnoza Furqatovna**

**Navoiy viloyati Xatirchi tumani 7- IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi**

**ANNOTATSIYA**

O'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish, ya'ni interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat yorug' ko'rsatuvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos.

**Kalit so'zlar:** ona tili, ta'lim, prinsip, tarbiyaviy

Modomiki, maktab ta'limida ona tili eng asosiy va etakchi o'quv fanlardan ekan, oily ta'limning bakalavr tizimida "Ona tili o'qitish metodikasi" ham huddi shunday mavqega ega.

Ta'lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish prinsiplarini amalda qo'llash bilan chambarchas bog'langan.

**O'qitish prinsipi nima?** "Prinsip" lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. "O'qitish prinsipi" deganda dars samaradorligini ta'minlash, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bo'g'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi.

Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir.

Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga milliy

g`oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo`lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi.

Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo`llari ko`p:

- har bir mavzu va bo`limning ta`limiy imkoniyatlarini to`la ishga solish;
- tanlangan matnlarning o`rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yunalishlariga to`la moslashtirish;

darslikda berilayotgan ma`rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishini ta`minlash shular jumlasidand

### **O'zbek tilini o`qitishda ta`lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg`unligi**

**prinsipi.** Maktabda o`quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o`ta zarur bo`lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffo`zi, yozma nutqda tinish belgilarni to`g`ri ishlatish yuzasidan zarur ko`nikma va malakalar bilan taminlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg`ulotlari o`quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

**O'zbek tilini o`qitishda ilmiylik va tushunarlilik prinsipi.** Ta`limning ilmiyligini va bolalar uchun tushunarli bo`lishi prinsiplari o`zaro bog`langan, bir-birini to`ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

**O'zbek tilini o`qitishda sistemativiylik va izchillik prinsipi.** Ma`lumki, ona tili o`quv predmeti sifatida ma`lum sistemadan iborat. Bu sistema o`zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, tomonlarini o`z ichiga oladi. Ana shu til tizimini tashkil qilgan unsurlarning har bir o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi bilan bir qatorda, ular bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog`langan. Maktabda tilning fonetikasini o`rganmasdan uning grammatikasini o`rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Fonetika va grafikani etarli darajada o`zlashtirgan o`quvchigina leksikani puxta o`zlashtiradi. Leksika puxta o`rganilgach, so`z turkumlarini o`rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o`zaro uzviy aloqadorlikda o`rganish uning samaradorligini ta`minlovchi asosiy vosita sanaladi.



Ta`limda izchillik prinsipi sistemalilik prinsipi bilan uzviy bog`lanan. Kishining kundalik faoliyatida ham, o`quv ishlarida ham mustaqillik muntazamlilik bo`lishi shart. Akademik I.T. Pavlov: “Ishning boshlanishidayoq o`zingizni fan asoslarini izchil egallashga o`rgating. Fanning eng yuksak cho`qqilarini egallashdan oldin uning ibtidosini o`rganing. Oldingilarini o`zlashtirmasdan turib, keyingilarini o`rganishga utmang”, -deb o`quvchilarga maslahat beradi.

**Ona tilini o`qitishda nazariyani amaliyot bilan bog`lash prinsipi.** Ona tili o`qitishda nazariyani amaliyotga bog`lash daganda o`quvchilardan tildan egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo`llashini ta`minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo`lgan amaliy ko`nikmalar bilan qurollantirishni tushunamiz. Nazariyani amaliyotga bog`lash ona tilini o`qitishni foydali maqsadlarga burish. Urganilayotgan til hodisalarini o`quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga buysundirish, til ta`limini hayot bilan, kundalik turmush bilan, odamlarning mehnat faoliyati bilan bog`lash demakdir.

**Ona tilini o`qitishda onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplari.** Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda o`rganilayotgan mavzuga oid axborot mazmunini asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur va atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to`g`ri bayon qilish, egallangan bilimlarning ishonch va e`tiqodga aylanishi, o`rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana olish tushuniladi. Bu prinsip til hodisalarining mohiyatini anglab, tushunish, ongli o`zlashtirishni talab qiladi.

**Onglilik prinsipi.** Onglilik bilimlarni ongli ozlashtirishga yo`naltirilgan prinsipdir.

U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta`limning asosiy maqsadi, hayot uchun zaruriylikini aniglash;
- daliliy materiallarni ongli egallash va o`zaro farqlay olish;
- bilimlarni o`rganish, mustahkamlash, takrorlash;
- egallangan va o`zi erishgan natijalarni baholay bilish

xususiyatlarini tarbiyalaydi.

Demak, ona tilini o`qitish metodikasida onglilik prinsipiga asoslanish ma`no va mazmuni anglab, amaliy vazifalar – so`rash, tinglash, o`qish, yozish kabilarni bajarishda o`zlashtirilgan ko`nikma va malakaga, ijodiy tashabbuskorlikka, mustaqillikni oshirishga imkon beradi.

Ona tili ta`limi ongliligi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. So`z boyligini oshirish va ma`naviy guruhlar ustida ishlash.
2. Fikr bildirishda mantiqiy izchillikni ta`minlash.
3. Tilning ifoda imkoniyatlaridan to`g`ri va o`rinli, nutqiy vaziyatlardan mos ravishda foydalana olish.
4. Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish. Ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish.
5. Kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan tik o`rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish.

Lingvopsixologik o`quv topshiriqlari tizimini ona tili ta`limiga joriy etish, o`quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so`z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hoil qilishga, ko`nikma va malakalarini shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko`lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

O`quvchi - ta`lim – o`qituvchi tizimida o`zaro munosabatlar tasnifi quyidagicha: DTS talabiga ko`ra o`quvchi ta`lim jarayonining faol sub`ekti sifatida o`zi izlanishi, til hodisalarini kuzatish, farqlashi, tahlil va tasnif qilishi, xulosalashi lozim. Shunday usullar bilan ishlash orqaligina biz o`quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishimiz, rivojlantirishimiz mumkin.

Yangilangan ta`limning mazmuni, mohiyati, tarkibiy shakllanishi asoslarini quyidagicha belgilasa bo`ladi:

1. Anglash, baholash, amaliy qo`llay olish zarur bo`lgan til vositalari, imkoniyat va me`yorlarning izchil tizimini dars jarayoniga tatbiq etish.
2. Nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich shallantirishda og`zaki va yozma nutq malakalarini hosil qilish va rivojlantirish.

Shundagina o`quvchi fikr bildirishga shoshmaslikka, mustaqil mushohada yuritishga, so`zlashdan oldin har bir so`zni o`ylab ko`rishga, sharoitga mos so`z tanlash va o`z nutqida o`rinli ishlatishga o`rganadi. Unda so`zga mas`ullik hissi paydo bo`ladi, ixcham, ravon va raso so`zlashga odatlanadi.

### **Mustaqillik va faollik prinsipi.**

Mustaqillik va faollik orqaligina o`quvchi ta`limining faol sub`ektiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratsa, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo`ladi.

“Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o`z yo`liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik”, - deb ta`kidlaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov.

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko`rsatishi mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas. A.Disterverg aytganidek: “Mustaqil faoliyatga etaklovchi ta`lim haqiqatga, go`zallikka, ezgulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchli tarbiyalaydi”.

Mashg`ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo`yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o`quv jarayonini boshqaradi, yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi. Bu esa:

- o`zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko`nikmalarini shakllantiradi va o`stiradi;
  - o`quvchilar o`z kuchiga, o`z bilim imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;
  - bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta`rifu-tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurni tushuncha darajasida o`zlashtirishga olib boradi.
- Ona tili mashg`ulotlarida asosiy e`tibor o`quvhilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so`z boyligini oshirishga qaratilishi lozim.

O`quvchi har bir mashg`ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so`z boyligini oshirishi, so`zning ma`nosi,

urg`usi mohiyatiga qarab o`z nutqida qo`llashi, ravon va tiniq so`zlash malakasini egallashi darkor.

Masalan: 1-topshiriq ...il, ...ul, ...ol so`zlari oldiga bir undosh qo`shib, yangi so`zlar yasang.

Bil, dil, jil, zil, yil, nil, sil...

Bul, gul, kul, pul, tul, shul, kul...

Bol, lol, mol, tol, fol, pol, hol, kol...

2-topshiriq hosil bo`lgan so`zlarning ma`nodosh va uyadoshlarini toping.

Namuna: bil-o`rgan..., bul, shul, ushal, bol-asal.

Ularning ma`nolarini sharhlash orqali o`quvchining nutqiy malakasini shakllantiradi.

3-topshiriq o`quvchilar o`zlari topgan so`zlar ishtirokida so`z birikmalari hosil qiladilar, matn yaratadilar.

Til mashg`ulotlarida bunday o`yin – topshiriqlardan foydalanish yoshlarni mustaqil fikrlashga, darsda faol qatnashishga undaydi. Mustaqillik va faollik prinsiplarini amalda qo`llash ta`lim tizimini takomillashtirishda, o`quvchilarning bilish faoliyatini, mustaqilligini tarbiyalashda yaxshi natija beradi.

**O`quvchilarni yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o`quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipi.** Ta`lim jarayonida o`quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o`quv imkoniyatlarini hisobga olish didaktikaning eng muhim prinsilaridan biri bo`lib, u ona tili o`qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu prinsipga amal qilmay turib, til hodisalarini puxta va ongli o`zlashtirishga erishib bo`lmaydi.

Masalan: “Ko`chirma va o`zlashtirma gap” mavzusini o`rganishda quyidagi tarbiyaviy mantdan foydalansa bo`ladi.

### **O`g`ri.**

Bir boyning tillasi yuqolibdi. U qoziga borib arz qilibdi. Qozi da`vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to`plab, har biriga bittadan tayoq beribdi. Qozi

da`vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to`plab, har bittadan tayoq beribdi. Ularga: “Kimda kim pul o`g`irlagan bo`lsa, uning tayog`i ertaga bir enli uzayib qoladi: -debdi.

Hamma tarqalib o`z ishi bilan mashg`ul bo`libdi. Lekin o`g`ri vahimaga tushibdi:

tayog`i uzayib, siri ochilib qolishdan qo`rqibdi. Natijada u tayog`idan bir enlikcha yerini qirqib tashlabdi.

Topshiriq. 1. Matnni tugating. Boshqa sarlavha toping.

2. 1-2 gaplar shaklini o`zgartiring.

3. Qozi aytgan gapning mazmuniga e`tibor bering. Uni o`z so`zingiz bilan ayting.

4. Tilla, pul, qozi so`zlariga ma`nodoshlar toping.

Masalan: “Gapning uyushiq bo`laklari” mavzusini o`rganishda Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`atit turk” asaridan keltirilgan matndan foydalanish mumkin. “Men turklar, turkmanlar, ug`izlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarni to`pladim, turli so`z xususiyatlarini o`rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik fikrni ham aniqlash uchun qildim. Ularga shunchalik diqqat qildimki, bu tillar butunlay dilimga jo bo`ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim”.

Topshiriq. 1. Matnni diqqat bilan o`qing va sarlavha toping.

2. Men bu ishlarni mazkur tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim”,- degan gapning mazmuniga diqqat qiling.

3. Gap shakllarini o`zgartirib, o`z so`zingiz bilan ayting.

Ona tili darsligi uchun tanlangan mantlar ta`limiy va tarbiyaviy yo`nalishda, rangbarang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to`g`ri, tili soda va ravon, o`qituvchi uchun tushunarli bo`lishi maqsadga muvoviqdir. Ana

shundagina matn, matn yaratish tizimi va matn tahlili o`quvchi uchun zarur bo`lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Metodikada ilmiylik prinsipi – o`quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishi talab etsa, tushunarlik prinsipi o`quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya`ni oddiydan murakkabga, xususiyan umumiyga borishni taqozo qiladi.

Ona tili o`qitish metodikasida ilmiylik va tushunarlik prinsiplariga bir-birini to`ldiradigan va dars samaradorligini ta`minlaydigan yagona prinsip sifatida qaraladi. Bu ikki prinsipni parallel ravishda amalga oshirishda.

- til fanidagi tushuncha va atamalarning ma`nosini sharhlash, atroflicha, atroflicha tahlil qilish, puxta o`zlashtirishni ta`minlash;

- til sathlarini o`zaro aloqadorlikka o`rganish;

- til va nutqni farqlab o`rganish usul va vositalarini topish va amaliyotda qo`llash.

- o`quvchilarning yosh imkoniyatlarini, zehni, iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma tarzda to`g`ri, sodda, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo`naltirilgan lingvopsixologik o`yin-topshiriqlardan foydalanish ko`zda tutiladi.

Masalan: kecha va kunduz so`zlarining uxshash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang.

1. Uxshashlik: berilgan kucha va kecha so`zlar:

- harflar sonining tengligi;

- bir xil undosh bilan boshlanishi;

- talaffuz ohangidagi yaqinlik;

- oxirgi bug`unning – cha bilan tugallanishiga ko`ra bir-biriga

yaqin talaffuz qilinadi.

2. Farqi: birinchi bug`undagi ikki xilligi;

- lug`aviy ma`nosi; kecha-tun, oqshom; kucha-aholi yashaydigan joylarda yulovchilar o`tib turadigan, transport qatnaydigan yo`l.

### **Izchillik prinsipi.**

Ta`lim izchilligi uchun tizimlilik o`lchov hisoblanadi. Bu haqda Ya.A.Komenskiy aytadi: “Mashg`ulotlarni shunday o`tkazish kerakki, unda keyin o`rganiladigan hodisa o`rganilganlarga asoslansin, hozirgisi keyingilarini o`rganishda mustahkamlansin”.

Haqiqatdan ham, o`quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o`rganilgan va o`rganiladigan bilimlar urtasida aloqadorlikni ta`minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi.

Masalan: ot, uning ma`nosi, suroklari, birlik va ko`plikda, kelishik, egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi kabi boshlang`ich ma`lumotlarga tayanib, o`quvchilar ot so`z turkumi vositasida so`z birikmalari va gaplar kurishni o`rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

### **Ko`rsatmalilik va onglilik prinsiplari.**

Ta`limda ko`rsatmalilikdan foydalanish o`tiladigan mavzuni zoxiriy ifodalash va egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang`ich sinflarda uyunchoqlar, rasmlar, narsa buyumlarni bevosita kuzatish, ushlab va ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, qurilganlarni og`zaki ifodalash ehtiyoji esa o`quvchida boyitish, mustaqil mushohada ko`nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy malakalar hosil bo`lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ko`rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingafon, magnitafon, diktafon, radio va televideniya ko`rsatuvlari, o`quv – o`rgatuv texnikasining so`ngi yutug`lari: kopmyuter, multimediya, kolidoskop, vodeoglaz

singarilardan unumli va samarali foydalanish o`quvchining ijodiy va nutqiy barkamolligini tanlash, ma`naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o`quv qo`llanmalarini takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yunaltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o`quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

O`quvchi shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san`ati kurtaklarini rivojlantirish, og`zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e`tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o`rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko`rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko`ra turlicha bo`ladi:

1. Leksik jadvallar.
2. Fonetik jadvallar.
3. Grammatik jadvallar.
4. Imloviy (orfografik) jadvallar.
5. Stilistik uslubiy jadvallar.
6. Aralash jadvallar (imlo va so`z yasalishi fonetika va so`z tarkibi)

Jadvallar yasalgan materialiga ko`ra ikki xil ko`rinishda bo`ladi.

1. Bosma (grafik) jadvallar (har xil hajmli oq qog`oz yoki materialga ishlanadi)
2. Slayd jadvallar (rangsiz kleyonkaga rangli tasvirda tushuriladi)

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganishda zamonaviy texnika vositalari bo`lmish:

1. Lingafondan foydalanish ya`ni eshituv a`zolari orqali to`g`ri talaffuzki, qiroat san`atini o`rganish;



2. Video kurs: o`zbek tilining talaffuz me`yorlari audio-video muloqotini o`rganish.

3. Kommunikativ savodxonlikni ta`minlashga qaratilgan kompyuter o`quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:

- imloviy dasturlar (bunda o`quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o`quv mashqlari disketlarga joylanadi);

- fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo`yicha o`quv mashqlari disketlarga beriladi);

- Grammatik dastur (morfoligiya va sintaksis o`quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);

- Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o`quvchining uslubiyat bo`yicha egallagan bilim va ko`nikmalarini shakllantirish, so`z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishlash uchun mo`ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma`rifiy hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.

- Audio-vedio dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo`lib o`tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to`y, kelin salom, beshik to`yi); bayramlar – Mustaqillik kuni, Navro`z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o`quv dasturlaridan 1-, 2-, 3 – si so`z boyligini oshirish, fonetika, orfoefiya, leksikologiya, morfologiya, va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo`lsa, 4- va 5- dasturlar o`quvchining yozma va og`zaki nutqini shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo`ljallangan.

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganish jarayonini kodoskop, mul`timedia, “Videoglaz” kabi zamonaviy va zaruriy o`quv texnikasi bilan

ta'minlanishi, ularning o'quv muassasalarida mavjud bo'lishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'zbek tili o'qitish metodikasi fanini yutuqlari bilan boyitilmoqda, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda.

Ulardan biri Sizning e'tiboringizga havola qilinayotgan "Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish" nomli yangi o'quv qo'llanmasidir. Unda asosiy e'tibor so'z boyligini oshirish, egallangan Grammatik bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, so'zlash va so'z tanlash mahoratini, matn yaratish hamda nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Qo'llanmaga ilova qilingan kommunikativ ko'rgazmali jadvallar o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan barcha til hodisalarini qamrab olgan bo'lib, test topshiriqlari tuzish va uni echishda zaruriy ashyo vazifasini o'taydi.

Ona tili darslarida, kodoskop va videoglaz singari o'quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo'lsa, videoglaz barcha tasviru – yozuvlarni, ko'zga ko'rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha teleekranga chiqarib berishi mumkin.

"Videoglaz" ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof plyonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog'ozdagi tasvir kodoskopda ko'rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo'lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) plyonka varrakchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni plyonkada bajarib kelgan o'quvchi o'z ijodiy ishini ekranga tushirib, o'rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o'z fikri va yaratgan yangiligini himoya qilishi, to'g'ri yoki noto'g'riligi aniq bir xulosa va echimga kelishi mumkin.

Ta'lim texnologiyasida "portlash" effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu- "Videoglaz". Uning ishlatilishi ko'lami, ichki imkoniyatlari benihoya keng bo'lib, o'qituvchidan katta ijodiy tajriba va pedagogic mahoratini talab qiladi.

"Videoglaz" ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga uxlash ko'z vazifasini o'taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko'chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Bu ta'lim jarayonida tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o'z iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi omilga aylantiradi.

### **Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari.**

Tilshunoslik fanida o'rganiladigan bilimlarning asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi.

Tilda nimani qanday, qancha, o'rganish, o'zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug'ullanadi.

Demak, til o'qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

### **Ijodiy tafakkurni rivojlantirish**

Ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi.

Natijada:

- o'quvchidagi noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;
- egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta'minlanadi.
- Til materillarini qilishga qiziqish ortadi.

Demak, tafakkurni o'stirish til mashg'ulotlarida til hodisalarini kuzatish, takrorlash, tasnif qilish, umumlashtirish, uxlash vositalardan eng qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini (so'z urg'usi va mantiqiy u'rg'u, pauza va ovoz tembri, nutq sur'ati, tovush, bug'un, so'z, gaplarni ravon

aytish, gap mazmuniga ko`ra darak, so`roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta`minlashda ko`nikma va malakalar ham ona tili mashg`ulotlarida shakllanadi.

Tilning barcha bo`limlari ham nutqiy rivojlantirishda keng imkoniyatga ega. Masalan: “Fonetika” ni o`rganishda so`zdagi ma`lum bir tovushni uzgartirib, tovushdosh, so`zlar hosil qilish, shuningdek, o`zakdosh, qo`shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so`zlar yasash, ularning lug`aviy ma`nolari hamda ma`no guruhlari ustida ishlash o`quvchi so`z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

1-topshiriq. Berilgan so`zni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so`zlar yasang. Har bir so`z oldingisidan bir tovush bilan farqlansin.

O	L					
O	L	A				
O	L	A	M			
O	L	I	M	A		
O	L	I	N	M	A	

1.2. Hosil qilingan so`z ma`nosini sharhlang.

1.3. Ulardan so`z birikmalari hosil qiling.

1.4. Mazkur birikmalar ishtirokida gap tuzing.

“Leksikologiya” ni o`rganishda so`zning o`z va ko`chma ma`nosini farqlash, ko`p ma`noli, ma`nodosh, uyadosh, shakldosh so`zlar ustida ishlash so`z boyligini oshirish va boyitishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida o`z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

1-topshiriq quyida berilgan gaplarni o`qing. **Bosh** so`zi qaysi ma`noda ekanligini aniqlang.

1. Oybekning boshi og`ridi. 2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 4. Fermerga o`n bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o`qing. Qaysi so`z o`z ma`nosida, qaysisi ko`chma ma`noda ishlatilganini ayting.

1. Navoiy asarlarini o`qiyman – Navoiyni o`qiyman.

2. A. Oripov she`rlaridan yod oldim – A.Oripovdan yod oldim.

3. Samovarda suv qaynaydi. – Samovar .....

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, o`quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellectual qobiliyatlarni o`stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga urgatadi.

### REFERENCES

1. X.Ne`matov, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent. “ O`qituvchi” 1993 yil.
2. X.Ne`matov, A.G`ulomov. Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish. Toshkent. 1992 yil.
3. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, “ Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil 3-4 qo`shma soni. 27-30 betlar.
4. Yu. K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida, o`qitish metodlari. Toshkent. “ O`qituvchi” 1990 yil.
5. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta`limni tashkil qilish. Toshkent. “O`qituvchi” 1981 yil.
6. M.Saidov. Muammoli ko`rgazmalardan foydalanish. “ Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil. 5-6 qo`shma soni. 13-14 betlar.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## O'ZBEK TILINI (DAVLAT TILI) O`QITISHNING UMUMDIDAKTIK VA O`ZIGA XOS PRINSIPLARI

**Pirmatova Dilnoza Furqatovna**

**Navoiy viloyati Xatirchi tumani 7- IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi**

### ANNOTATSIYA

O'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish, ya'ni interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat yorug' ko'rsatuvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos.

**Kalit so'zlar:** ona tili, ta'lim, prinsip, tarbiyaviy

Modomiki, maktab ta'limida ona tili eng asosiy va etakchi o'quv fanlardan ekan, oily ta'limning bakalavr tizimida "Ona tili o'qitish metodikasi" ham huddi shunday mavqega ega.

Ta'lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish prinsiplarini amalda qo'llash bilan chambarchas bog'langan.

**O'qitish prinsipi nima?** "Prinsip" lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. "O'qitish prinsipi" deganda dars samaradorligini ta'minlash, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bo'g'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi.

Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir.

Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga milliy

g`oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo`lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi.

Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo`llari ko`p:

- har bir mavzu va bo`limning ta`limiy imkoniyatlarini to`la ishga solish;
- tanlangan matnlarning o`rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yunalishlariga to`la moslashtirish;

darslikda berilayotgan ma`rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishini ta`minlash shular jumlasidand

### **O'zbek tilini o`qitishda ta`lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg`unligi**

**prinsipi.** Maktabda o`quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o`ta zarur bo`lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffo`zi, yozma nutqda tinish belgilarni to`g`ri ishlatish yuzasidan zarur ko`nikma va malakalar bilan taminlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg`ulotlari o`quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

**O'zbek tilini o`qitishda ilmiylik va tushunarlik prinsipi.** Ta`limning ilmiyligini va bolalar uchun tushunarli bo`lishi prinsiplari o`zaro bog`langan, bir-birini to`ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

**O'zbek tilini o`qitishda sistemativiylik va izchillik prinsipi.** Ma`lumki, ona tili o`quv predmeti sifatida ma`lum sistemadan iborat. Bu sistema o`zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, tomonlarini o`z ichiga oladi. Ana shu til tizimini tashkil qilgan unsurlarning har bir o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi bilan bir qatorda, ular bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog`langan. Maktabda tilning fonetikasini o`rganmasdan uning grammatikasini o`rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Fonetika va grafikani etarli darajada o`zlashtirgan o`quvchigina leksikani puxta o`zlashtiradi. Leksika puxta o`rganilgach, so`z turkumlarini o`rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o`zaro uzviy aloqadorlikda o`rganish uning samaradorligini ta`minlovchi asosiy vosita sanaladi.

Ta`limda izchillik prinsipi sistemalilik prinsipi bilan uzviy bog`lanan. Kishining kundalik faoliyatida ham, o`quv ishlarida ham mustaqillik muntazamlilik bo`lishi shart. Akademik I.T. Pavlov: “Ishning boshlanishidayoq o`zingizni fan asoslarini izchil egallashga o`rgating. Fanning eng yuksak cho`qqilarini egallashdan oldin uning ibtidosini o`rganing. Oldingilarini o`zlashtirmasdan turib, keyingilarini o`rganishga utmang”, -deb o`quvchilarga maslahat beradi.

**Ona tilini o`qitishda nazariyani amaliyot bilan bog`lash prinsipi.** Ona tili o`qitishda nazariyani amaliyotga bog`lash daganda o`quvchilardan tildan egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo`llashini ta`minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo`lgan amaliy ko`nikmalar bilan qurollantirishni tushunamiz. Nazariyani amaliyotga bog`lash ona tilini o`qitishni foydali maqsadlarga burish. Urganilayotgan til hodisalarini o`quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga buysundirish, til ta`limini hayot bilan, kundalik turmush bilan, odamlarning mehnat faoliyati bilan bog`lash demakdir.

**Ona tilini o`qitishda onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplari.** Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda o`rganilayotgan mavzuga oid axborot mazmunini asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur va atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to`g`ri bayon qilish, egallangan bilimlarning ishonch va e`tiqodga aylanishi, o`rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana olish tushuniladi. Bu prinsip til hodisalarining mohiyatini anglab, tushunish, ongli o`zlashtirishni talab qiladi.

**Onglilik prinsipi.** Onglilik bilimlarni ongli ozlashtirishga yo`naltirilgan prinsipdir.

U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta`limning asosiy maqsadi, hayot uchun zaruriyligini aniglash;
- daliliy materiallarni ongli egallash va o`zaro farqlay olish;
- bilimlarni o`rganish, mustahkamlash, takrorlash;
- egallangan va o`zi erishgan natijalarni baholay bilish

xususiyatlarini tarbiyalaydi.



Demak, ona tilini o`qitish metodikasida onglilik prinsipiga asoslanish ma`no va mazmuni anglab, amaliy vazifalar – so`rash, tinglash, o`qish, yozish kabilarni bajarishda o`zlashtirilgan ko`nikma va malakaga, ijodiy tashabbuskorlikka, mustaqillikni oshirishga imkon beradi.

Ona tili ta`limi ongliligi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

6. So`z boyligini oshirish va ma`naviy guruhlar ustida ishlash.
7. Fikr bildirishda mantiqiy izchillikni ta`minlash.
8. Tilning ifoda imkoniyatlaridan to`g`ri va o`rinli, nutqiy vaziyatlardan mos ravishda foydalana olish.
9. Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish. Ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish.
10. Kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan tik o`rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish.

Lingvopsixologik o`quv topshiriqlari tizimini ona tili ta`limiga joriy etish, o`quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so`z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hoil qilishga, ko`nikma va malakalarini shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko`lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

O`quvchi - ta`lim – o`qituvchi tizimida o`zaro munosabatlar tasnifi quyidagicha: DTS talabiga ko`ra o`quvchi ta`lim jarayonining faol sub`ekti sifatida o`zi izlanishi, til hodisalarini kuzatish, farqlashi, tahlil va tasnif qilishi, xulosalashi lozim. Shunday usullar bilan ishlash orqaligina biz o`quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishimiz, rivojlantirishimiz mumkin.

Yangilangan ta`limning mazmuni, mohiyati, tarkibiy shakllanishi asoslarini quyidagicha belgilasa bo`ladi:

3. Anglash, baholash, amaliy qo`llay olish zarur bo`lgan til vositalari, imkoniyat va me`yorlarning izchil tizimini dars jarayoniga tatbiq etish.
4. Nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich shallantirishda og`zaki va yozma nutq malakalarini hosil qilish va rivojlantirish.

Shundagina o`quvchi fikr bildirishga shoshmaslikka, mustaqil mushohada yuritishga, so`zlashdan oldin har bir so`zni o`ylab ko`rishga, sharoitga mos so`z tanlash va o`z nutqida o`rinli ishlatishga o`rganadi. Unda so`zga mas`ullik hissi paydo bo`ladi, ixcham, ravon va raso so`zlashga odatlanadi.

### **Mustaqillik va faollik prinsipi.**

Mustaqillik va faollik orqaligina o`quvchi ta`limining faol sub`ektiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratsa, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo`ladi.

“Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o`z yo`liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik”, - deb ta`kidlaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov.

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko`rsatishi mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas. A.Disterverg aytganidek: “Mustaqil faoliyatga etaklovchi ta`lim haqiqatga, go`zallikka, ezgulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchli tarbiyalaydi”.

Mashg`ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo`yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o`quv jarayonini boshqaradi, yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi. Bu esa:

- o`zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko`nikmalarini shakllantiradi va o`stiradi;
  - o`quvchilar o`z kuchiga, o`z bilim imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;
  - bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta`rifu-tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurni tushuncha darajasida o`zlashtirishga olib boradi.
- Ona tili mashg`ulotlarida asosiy e`tibor o`quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so`z boyligini oshirishga qaratilishi lozim.

O`quvchi har bir mashg`ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so`z boyligini oshirishi, so`zning ma`nosi,

urg`usi mohiyatiga qarab o`z nutqida qo`llashi, ravon va tiniq so`zlash malakasini egallashi darkor.

Masalan: 1-topshiriq ...il, ...ul, ...ol so`zlari oldiga bir undosh qo`shib, yangi so`zlar yasang.

Bil, dil, jil, zil, yil, nil, sil...

Bul, gul, kul, pul, tul, shul, kul...

Bol, lol, mol, tol, fol, pol, hol, kol...

2-topshiriq hosil bo`lgan so`zlarning ma`nodosh va uyadoshlarini toping.

Namuna: bil-o`rgan..., bul, shul, ushal, bol-asal.

Ularning ma`nolarini sharhlash orqali o`quvchining nutqiy malakasini shakllantiradi.

3-topshiriq o`quvchilar o`zlari topgan so`zlar ishtirokida so`z birikmalari hosil qiladilar, matn yaratadilar.

Til mashg`ulotlarida bunday o`yin – topshiriqlardan foydalanish yoshlarni mustaqil fikrlashga, darsda faol qatnashishga undaydi. Mustaqillik va faollik prinsiplarini amalda qo`llash ta`lim tizimini takomillashtirishda, o`quvchilarning bilish faoliyatini, mustaqilligini tarbiyalashda yaxshi natija beradi.

**O`quvchilarni yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o`quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipi.** Ta`lim jarayonida o`quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o`quv imkoniyatlarini hisobga olish didaktikaning eng muhim prinsilaridan biri bo`lib, u ona tili o`qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu prinsipga amal qilmay turib, til hodisalarini puxta va ongli o`zlashtirishga erishib bo`lmaydi.

Masalan: “Ko`chirma va o`zlashtirma gap” mavzusini o`rganishda quyidagi tarbiyaviy mantdan foydalansa bo`ladi.

### **O`g`ri.**

Bir boyning tillasi yuqolibdi. U qoziga borib arz qilibdi. Qozi da`vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to`plab, har biriga bittadan tayoq beribdi. Qozi

da`vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to`plab, har bittadan tayoq beribdi. Ularga: “Kimda kim pul o`g`irlagan bo`lsa, uning tayog`i ertaga bir enli uzayib qoladi: -debdi.

Hamma tarqalib o`z ishi bilan mashg`ul bo`libdi. Lekin o`g`ri vahimaga tushibdi:

tayog`i uzayib, siri ochilib qolishdan qo`rqibdi. Natijada u tayog`idan bir enlikcha yerini qirqib tashlabdi.

Topshiriq. 1. Matnni tugating. Boshqa sarlavha toping.

5. 1-2 gaplar shaklini o`zgartiring.

6. Qozi aytgan gapning mazmuniga e`tibor bering. Uni o`z so`zingiz bilan ayting.

7. Tilla, pul, qozi so`zlariga ma`nodoshlar toping.

Masalan: “Gapning uyushiq bo`laklari” mavzusini o`rganishda Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`atit turk” asaridan keltirilgan matndan foydalanish mumkin. “Men turklar, turkmanlar, ug`izlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarni to`pladim, turli so`z xususiyatlarini o`rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik fikrni ham aniqlash uchun qildim. Ularga shunchalik diqqat qildimki, bu tillar butunlay dilimga jo bo`ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim”.

Topshiriq. 1. Matnni diqqat bilan o`qing va sarlavha toping.

4. Men bu ishlarni mazkur tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim”,- degan gapning mazmuniga diqqat qiling.

5. Gap shakllarini o`zgartirib, o`z so`zingiz bilan ayting.

Ona tili darsligi uchun tanlangan mantlar ta`limiy va tarbiyaviy yo`nalishda, rangbarang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to`g`ri, tili soda va ravon, o`qituvchi uchun tushunarli bo`lishi maqsadga muvoviqdir. Ana

shundagina matn, matn yaratish tizimi va matn tahlili o`quvchi uchun zarur bo`lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Metodikada ilmiylik prinsipi – o`quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishi talab etsa, tushunarlik prinsipi o`quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya`ni oddiydan murakkabga, xususiyan umumiyga borishni taqozo qiladi.

Ona tili o`qitish metodikasida ilmiylik va tushunarlik prinsiplariga bir-birini to`ldiradigan va dars samaradorligini ta`minlaydigan yagona prinsip sifatida qaraladi. Bu ikki prinsipni parallel ravishda amalga oshirishda.

- til fanidagi tushuncha va atamalarning ma`nosini sharhlash, atroflicha, atroflicha tahlil qilish, puxta o`zlashtirishni ta`minlash;

- til sathlarini o`zaro aloqadorlikka o`rganish;

- til va nutqni farqlab o`rganish usul va vositalarini topish va amaliyotda qo`llash.

- o`quvchilarning yosh imkoniyatlarini, zehni, iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma tarzda to`g`ri, sodda, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo`naltirilgan lingvopsixologik o`yin-topshiriqlardan foydalanish ko`zda tutiladi.

Masalan: kecha va kunduz so`zlarining uxshash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang.

1. Uxshashlik: berilgan kucha va kecha so`zlar:

- harflar sonining tengligi;

- bir xil undosh bilan boshlanishi;

- talaffuz ohangidagi yaqinlik;

- oxirgi bug`unning – cha bilan tugallanishiga ko`ra bir-biriga

yaqin talaffuz qilinadi.

2. Farqi: birinchi bug`undagi ikki xilligi;

- lug`aviy ma`nosi; kecha-tun, oqshom; kucha-aholi yashaydigan joylarda yulovchilar o`tib turadigan, transport qatnaydigan yo`l.

### **Izchillik prinsipi.**

Ta`lim izchilligi uchun tizimlilik o`lchov hisoblanadi. Bu haqda Ya.A.Komenskiy aytadi: “Mashg`ulotlarni shunday o`tkazish kerakki, unda keyin o`rganiladigan hodisa o`rganilganlarga asoslansin, hozirgisi keyingilarini o`rganishda mustahkamlansin”.

Haqiqatdan ham, o`quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o`rganilgan va o`rganiladigan bilimlar urtasida aloqadorlikni ta`minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi.

Masalan: ot, uning ma`nosi, suroklari, birlik va ko`plikda, kelishik, egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi kabi boshlang`ich ma`lumotlarga tayanib, o`quvchilar ot so`z turkumi vositasida so`z birikmalari va gaplar kurishni o`rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

### **Ko`rsatmalilik va onglilik prinsiplari.**

Ta`limda ko`rsatmalilikdan foydalanish o`tiladigan mavzuni zoxiriy ifodalash va egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang`ich sinflarda uyunchoqlar, rasmlar, narsa buyumlarni bevosita kuzatish, ushlash va ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, qurilganlarni og`zaki ifodalash ehtiyoji esa o`quvchida boyitish, mustaqil mushohada ko`nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy malakalar hosil bo`lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ko`rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingafon, magnitafon, diktafon, radio va televideniya ko`rsatuvlari, o`quv – o`rgatuv texnikasining so`ngi yutug`lari: kopmyuter, multimediya, kolidoskop, vodeoglaz

singarilardan unumli va samarali foydalanish o`quvchining ijodiy va nutqiy barkamolligini tanlash, ma`naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o`quv qo`llanmalarini takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yunaltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o`quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

O`quvchi shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san`ati kurtaklarini rivojlantirish, og`zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e`tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o`rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko`rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko`ra turlicha bo`ladi:

7. Leksik jadvallar.
8. Fonetik jadvallar.
9. Grammatik jadvallar.
10. Imloviy (orfografik) jadvallar.
11. Stilistik uslubiy jadvallar.
12. Aralash jadvallar (imlo va so`z yasalishi fonetika va so`z tarkibi)

Jadvallar yasalgan materialiga ko`ra ikki xil ko`rinishda bo`ladi.

3. Bosma (grafik) jadvallar (har xil hajmli oq qog`oz yoki materialga ishlanadi)

4. Slayd jadvallar (rangsiz kleyonkaga rangli tasvirda tushuriladi)

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganishda zamonaviy texnika vositalari bo`lmish:

4. Lingafondan foydalanish ya`ni eshituv a`zolari orqali to`g`ri talaffuzki, qiroat san`atini o`rganish;

5. Video kurs: o`zbek tilining talaffuz me`yorlari audio-video muloqotini o`rganish.

6. Kommunikativ savodxonlikni ta`minlashga qaratilgan kompyuter o`quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:

- imloviy dasturlar (bunda o`quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o`quv mashqlari disketlarga joylanadi);

- fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo`yicha o`quv mashqlari disketlarga beriladi);

- Grammatik dastur (morfoligiya va sintaksis o`quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);

- Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o`quvchining uslubiyat bo`yicha egallagan bilim va ko`nikmalarini shakllantirish, so`z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishlash uchun mo`ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma`rifiy hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.

- Audio-vedio dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo`lib o`tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to`y, kelin salom, beshik to`yi); bayramlar – Mustaqillik kuni, Navro`z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o`quv dasturlaridan 1-, 2-, 3 – si so`z boyligini oshirish, fonetika, orfoefiya, leksikologiya, morfologiya, va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo`lsa, 4- va 5- dasturlar o`quvchining yozma va og`zaki nutqini shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo`ljallangan.

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganish jarayonini kodoskop, mul`timedia, “Videoglaz” kabi zamonaviy va zaruriy o`quv texnikasi bilan



ta'minlanishi, ularning o'quv muassasalarida mavjud bo'lishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'zbek tili o'qitish metodikasi fanini yutuqlari bilan boyitilmoqda, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda.

Ulardan biri Sizning e'tiboringizga havola qilinayotgan "Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish" nomli yangi o'quv qo'llanmasidir. Unda asosiy e'tibor so'z boyligini oshirish, egallangan Grammatik bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, so'zlash va so'z tanlash mahoratini, matn yaratish hamda nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Qo'llanmaga ilova qilingan kommunikativ ko'rgazmali jadvallar o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan barcha til hodisalarini qamrab olgan bo'lib, test topshiriqlari tuzish va uni echishda zaruriy ashyo vazifasini o'taydi.

Ona tili darslarida, kodoskop va videoglaz singari o'quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo'lsa, videoglaz barcha tasviru – yozuvlarni, ko'zga ko'rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha teleekranga chiqarib berishi mumkin.

"Videoglaz" ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof plyonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog'ozdagi tasvir kodoskopda ko'rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo'lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) plyonka varrakchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni plyonkada bajarib kelgan o'quvchi o'z ijodiy ishini ekranga tushirib, o'rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o'z fikri va yaratgan yangiligini himoya qilishi, to'g'ri yoki noto'g'riligi aniq bir xulosa va echimga kelishi mumkin.

Ta'lim texnologiyasida "portlash" effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu- "Videoglaz". Uning ishlatilishi ko'lami, ichki imkoniyatlari benihoya keng bo'lib, o'qituvchidan katta ijodiy tajriba va pedagogic mahoratini talab qiladi.

"Videoglaz" ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga uxlash ko'z vazifasini o'taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko'chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Bu ta'lim jarayonida tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o'z iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi omilga aylantiradi.

### **Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari.**

Tilshunoslik fanida o'rganiladigan bilimlarning asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi.

Tilda nimani qanday, qancha, o'rganish, o'zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug'ullanadi.

Demak, til o'qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

### **Ijodiy tafakkurni rivojlantirish**

Ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi.

Natijada:

- o'quvchidagi noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;
- egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta'minlanadi.
- Til materillarini qilishga qiziqish ortadi.

Demak, tafakkurni o'stirish til mashg'ulotlarida til hodisalarini kuzatish, takrorlash, tasnif qilish, umumlashtirish, uxlash vositalardan eng qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini (so'z urg'usi va mantiqiy u'rg'u, pauza va ovoz tembri, nutq sur'ati, tovush, bug'un, so'z, gaplarni ravon

aytish, gap mazmuniga ko`ra darak, so`roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta`minlashda ko`nikma va malakalar ham ona tili mashg`ulotlarida shakllanadi.

Tilning barcha bo`limlari ham nutqiy rivojlantirishda keng imkoniyatga ega. Masalan: “Fonetika” ni o`rganishda so`zdagi ma`lum bir tovushni uzgartirib, tovushdosh, so`zlar hosil qilish, shuningdek, o`zakdosh, qo`shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so`zlar yasash, ularning lug`aviy ma`nolari hamda ma`no guruhlari ustida ishlash o`quvchi so`z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

1-topshiriq. Berilgan so`zni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so`zlar yasang. Har bir so`z oldingisidan bir tovush bilan farqlansin.

O	L					
O	L	A				
O	L	A	M			
O	L	I	M	A		
O	L	I	N	M	A	

1.2. Hosil qilingan so`z ma`nosini sharhlang.

1.3. Ulardan so`z birikmalari hosil qiling.

1.4. Mazkur birikmalar ishtirokida gap tuzing.

“Leksikologiya” ni o`rganishda so`zning o`z va ko`chma ma`nosini farqlash, ko`p ma`noli, ma`nodosh, uyadosh, shakldosh so`zlar ustida ishlash so`z boyligini oshirish va boyitishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida o`z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

1-topshiriq quyida berilgan gaplarni o`qing. **Bosh** so`zi qaysi ma`noda ekanligini aniqlang.

1. Oybekning boshi og`ridi. 2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 4. Fermerga o`n bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o`qing. Qaysi so`z o`z ma`nosida, qaysisi ko`chma ma`noda ishlatilganini ayting.

4. Navoiy asarlarini o`qiyman – Navoiyni o`qiyman.

5. A.Oripov she`rlaridan yod oldim – A.Oripovdan yod oldim.

6. Samovarda suv qaynaydi. – Samovar .....

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, o`quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellectual qobiliyatlarni o`stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga urgatadi.

### REFERENCES

8. X.Ne`matov, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent. “ O`qituvchi” 1993 yil.
9. X.Ne`matov, A.G`ulomov. Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish. Toshkent. 1992 yil.
10. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, “ Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil 3-4 qo`shma soni. 27-30 betlar.
11. Yu. K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida, o`qitish metodlari. Toshkent. “ O`qituvchi” 1990 yil.
12. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta`limni tashkil qilish. Toshkent. “O`qituvchi” 1981 yil.
13. M.Saidov. Muammoli ko`rgazmalardan foydalanish. “ Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil. 5-6 qo`shma soni. 13-14 betlar.
14. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **Umumta`lim maktablarida kimyo fanida laboratoriya mashg`ulotini kreativ usul bilan tashkil etish**

**Назира Садибекова Куанышбаевна**

**Каракалпакстан, Хужайли тумани 8- мактаб**

**Annotatsiya:** Umumta`lim maktablarida kimyo xonasi, laboratoriya mashg`ulotlari o`tkaziladigan xona va reaktivlar saqlanadigan preparatxonadan foydalanishning qonun va qoidalari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so`zlar:** kimyo fani, tabiiy fanlar, kimyoviy moddalar, laboratoriya, shtativi, probirkalar, shisha tayoqcha, menzurka, voronka.

Kimyo fani har kungi yashash tarzimizdagi ko'plab asosiy jihatlar kelajakda bizga yashirin ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan va ko'plab xayolga kelmagan xulosalarni yuzaga chiqishi bilan ham muhimdir. Kimyo fani imkoniyatlarimizni aql -idrokimizni anglashda va tushunib yetishimizga yordam beradi. Bu olamda yashash qanday bilimlar asosida rivojlanadi, kundalik hayotning ko'plab muammolarida bizning shaxsiy faoliyatimizda qanday qarorlar qabul qilinadi. Masalan: taom qachon o'zgaradi, qachonki uni pishirganimizda, qaysi tozalovchi vositani qaysi maqsadda tozalash uchun tanlaymiz, qanday materiallardan ishlab chiqarilgan va ularni xususiyatlari turlicha, biz ularni qanday qilib ishlata olamiz, tibbiyot vazifasida, vitaminlar va dori- darmonlar yoki potentsional tushunganimizda zamonaviy kimyo fanini texnologik ishlab chiqarish bilan aloqadorligini tushunib yetamiz. O'quv dasturi kimyo fani o'qitishda oddiydan murakkabga tomon tuzilgan bo'lib, dastavval modda, moddalarning xossalari, kimyoviy til, eng muhim kimyoviy tushunchalar va qonunlar, nazariyalar, kimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasi, kimyo sanoati erishgan yutuqlar, tabiat va jamiyatda kimyoviy ishlab chiqarishning o'rni, ta'siri haqidagi bilimlarni berish va amaliy malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilgan. O'quv dasturda o'quvchilar bilan

o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlariga, har bir mavzuga tegishli savol va topshiriqlarni yechishga katta ahamiyat beriladi, tegishli bo'limlar tugatilgandan so'ng olingan nazariy bilimlar masalalar yechish yoki test sinovlarini bajarish orqali mustahkamlab boriladi. Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan misoli uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar. Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, asbob uskunalardan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir. Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni maxsulotlar, asboblardan va boshqalar dars paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanishi mumkin. Ta'lim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, mahsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari ta'lim beruvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Ma'lumki kimyo fani tabiiy fanlar qatoriga kiradi va u kimyoviy moddalar ularning bir-biriga aylanishi va o'zgarishlarni o'rganadigan fan hisoblanadi. Fanni o'zlashtirishda nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda amaliy-laboratoriya ishlarini ham o'rni benihoya kattadir. Amaliy ishlar nazariyani to'ldirishga tasavvurlarni yanada kengaytirishga yordam qiladi. Laboratoriya ishlari, amaliy ishlar asosan laboratoriyalarda xususan o'rta umumiy ta'lim muassasasida kimyo xonalarida amalga oshiriladi.

O`rta umumiy ta`lim maktablarida kimyo kabinetini laboratoriya mashg`ulotlari o`tkaziladigan xona va reaktivlar saqlanadigan preparatxonadan iborat bo`ladi. Laboratoriya xonasida turli asbob va reaktivlar saqlanadigan shkaflar, o`quvchilar mashg`ulot o`tkazadigan stollar, turli xil maketlar va stendlar bo`ladi. O`quvchilarning stollar va o`qituvchi tajriba ko`rsatadigan stol xar bir darsning mazmuniga ko`ra jihozlanadi. O`qituvchi tajriba ko`rsatadigan stol yonida vodoprovod jo`mrangi va gaz gorelkasi albatta bo`lishi shart. O`quvchilar esa spirt lampasidan foydalanadilar. O`quvchilar stolida laboratoriya shtativi, probirkalar qo`yilgan shtativ, 100 yoki 250 ml li kolba, 2 yoki 5 millilitrli pipetka, 25 sm uzunlikda shisha tayoqcha, menzurka, voronka va chinni stakan quyilgan bo`ladi. Tuz, kislota hamda asoslarning har xil konsentratsiyali eritmaları laborant xonasida (preparatxonada) turadi va zarur bo`lganda o`quvchilarga laborantning o`zi quyib beradi. Bundan tashqari, laboratoriya xonasida bir chekkada va olish qulay bo`lgan joyda yong`inga qarshi kurash vositalari (qum solingan yashiq, o`t o`chirgich va boshqalar) hamda aptechka bo`lishi kerak.

Har qanday laboratoriyada albatta laborant lavozimida ishlovchi mutaxassis shaxs faoliyat yuritadi. Har bir laborantni u faoliyat yuritayotgan muassasaning o`ziga xosligidan kelib chiqqan holda burch va vazifalari belgilab qo`yilgan.

O`quvchilar laboratoriya ishini bajarayotganlarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishlarini laborant kuzatib turadi. Laborant o`zining nazariy va amaliy bilimlarini doimo oshira borishi va har yili o`qituvchiga imtihon topshirib turishi lozim. Har kuni ishning oxirida kabinetdagi elektr asboblari o`chirilganligini stollarda reaktivlar qolmasligini, vodoprovod va gaz jo`mraklari bekilganligini tekshirib, so`ngra kabinetni qulflaydi. Xar bir laborantda xalat, ko`zoynak, rezina qo`lqop bo`lishi kerak. Laborant doimo ozoda kiyingan bo`lishi, saranjom-sarishta ishlashi, moddalar bilan ishlagandan so`ng qo`lini albatta sovunlab yuvishi lozim. Laboratoriyada sintetik kiyimlar kiyish tavsiya etilmaydi.

Laborant va o`qituvchi o`zaro birgalikda o`quv laboratoriya tajribasini mashg`ulotdan avval birinchidan yaxshilab tayyorgarlik ko`rishlari kerak, ikkinchidan, o`quvchi ishtirokisiz ya`ni o`zlari muayyan tajribani sinov tarzida bajarib ko`rishlari kerak. Aks holda mabodo o`quvchilarga tajribalarni ko`rsatayotganda biror muhim qismi ko`ngildagidek chiqmasa (masalan gaz chiqmay qolsa yoki cho`kma tushmay qolsa yoki rang o`zgarmay qolsa) tajribani ishonchliligiga putur yetishi mumkin.

Laborant ko`rsatadigan tajriba yoki laboratoriya mashg`ulotiga zaruriy asbob va reaktivlarni o`qituvchi tomonidan tuzilgan kartochna asosida tayyorlaydi. Ayrim hollarda ba`zi zarur narsalar laborantning esidan chiqib qolishi mumkin. Shu sababli tayyorlangan o`quv asbob-reaktivlarini o`qituvchi albatta ko`zdan kechirishi va yetishmagan narsalarni laborantga aytishi lozim.

Kimyo darslarida o`qitishning faol usullaridan foydalanish, darslarning asosi qilib ko`rsatiladigan tajribalarga va laboratoriya mashg`ulotlariga katta e`tibor berib, ularni to`g`ri uyushtirish, qilib ko`rsatiladigan tajribalarga o`quvchilarning butun diqqat e`tiborini jalb qilish, har bir hodisaga o`quvchilarning tadqiqototchi sifatida yondashishlariga erishish kerak.

Kreativlik (lot., ing. "create" –yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor)– individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma`nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg`ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o`tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P. Torrens fikricha kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o`zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o`zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta`sirchanlikni ifodalaydi. Mashg`ulotlarda "kreativlik yo`l haritasi"ga



ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drapeau) sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
4. o'tiladigan natija

Amaliy mashg'ulotdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad butun o'tilgan mavzularga oid nazariy bilimlar naqadar puxta o'zlashtirilganligini bilib olishdan iborat. Bunday mashg'ulotni o'tkazishda barcha zaruriy asbob-jihozlar va reaktivlar oldindan taxt qilib qo'yilgan bo'lishi lozim. Shu sababli mashg'ulot o'tkazilishidan bir necha kun oldin o'qituvchi laborantga qanday tayyorgarlik ishlari ko'rish lozimligini aytib, laborantning ish jurnaliga yozib qo'yadi.

Tajribani bajarish paytida o'quvchilarning faoliyati boshqarilishi, kim yaxshi ishlayotganligini ta'kidlash, xavfsizlik texnikasi va natijalarini kuzatib borish kerak.

Ish yakunida avvaldan yig'ishtirish uchun bir necha daqiqa qoldirish kerak. Ish tamom bo'lgandan so'ng, uning natijalari muhokama qilinadi va daftarga yoziladi. Har bir laboratoriya ishi bajarilgandan keyin o'qituvchi o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotiga oid hisobotlari va tajribani qanday o'tkazganliklarini e'tiborga olib, har qaysi o'quvchiga ball (baho) qo'yib chiqadi.

Ko'pchilik hollarda o'quvchilar hosil bo'lgan moddalarning o'ziga xos xususiyatlariga yaxshi e'tibor bermaydilar. Shu sababli laboratoriya ishini baholagandan keyin, bajarilgan tajriba haqida yana qisqacha izoh berib o'tish mashg'ulotni yaxshi o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Kimyo fani va ayniqsa uning laboratoriyalari qiziqarli bo'lishi bilan bir qatorda o'ta mas'uliyatli hisoblanadi. Laboratoriya ishini nasbatan murakkabroqlarini

o`qituvchi va laborant ko`rgazmali tajriba sifatida avval o`zi o`quvchilarga ko`rsatib bersa yanada maqsadga muvofiq bo`ladi, qolaversa laboratoriya mashg`ulotiga barcha o`quvchilarni o`z vaqtida yetib kelishlarini ta`minlash ham juda muhimdir. Agar biror o`quvchi mashg`ulotga kech kelsa u tajribani mazmunini, ishlar ketma-ketligin tushunolmaydi natijada yana hammadan orqada qoladi. Tajribani iloji boricha hamma bir vaqtda boshlab, bir vaqtda tugatishi yaxshi natija beradi. Tajribalarni bajarishda ishni bajarish tartibiga qat`iy amal qilinishi kerak. Vaqtni avvaldan belgilab qo`yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari tajribalarni bajarishda oddiydan – murakkabga tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq bo`ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- А.Э. Янгибаев, М.Эргашева «Умумий ўрта таълим мактабларида кимё фанидан лаборатория ишларини ташкил этиш ва ўтказиш» Қўлланма. Тошкент – 2010 й. 59 бет.

- Т.С.Назарова, А.А.Грабетский, В.Н.Лаврова. Мактабда химиядан тажриба ўтказиш. Т. “Ўқитувчи”. 1992, 6-11, 104-105 б.

- Г.Р.Ҳамидова Кимё ўқитиш методикаси умумий курсидан маърузалар матни. Тошкент, 2001й. 45 бет.

- Нишонов М, Тешабоев С. Мактабда кимёдан лаборатория ишлари Т.Ўқитувчи. 1995 й 104 б.

**«TEXNOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA BUYUK  
ALLOMALARIMIZNING HUNAR HAQIDAGI O'GITLARIDAN  
SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI»**

**Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani. 49-son maktabning texnologiya fani  
o'qituvchisi Ollaberganova Nilufar San'atqizi**

**Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 28- son maktabning texnologiya fani  
o'qituvchisi Jumaniyozova Iqbol Otaboyevna**

**Annotatsiya:** O'quvchilarda ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan xalq hunarmandchiligi turlarini hayotimizda o'rni beqiyos ekanligini anglatish, shu orqali ijodkorlik va sabr – toqat tuyg'ularini shakllantirish, hayotga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** xori mug'ilon, geodeziya, mineralogiya, ganchkorlik. Xalq hunarmandchiligi san'ati milliy qadriyatlarni va an'analarni izchil o'rganish, rivojlantirish hamda takomillashtirgan holda boyitish malaka va ko'nikmalariga asoslanadi.

**Annotation:** To teach students that the types of folk crafts inherited from our ancestors have a unique place in our lives, thereby forming a sense of creativity and patience, arousing interest in life.

**Keywords:** choir, geodesy, mineralogy, pottery. The art of folk handicrafts is based on the skills and abilities to consistently study, develop and enrich national values and traditions.

**Аннотация:** Дать понять учащимся, что виды народных промыслов, доставшиеся в наследство от наших предков, занимают в нашей жизни ни с чем не сравнимое место, формируя тем самым чувства творчества и терпения, пробуждая у них интерес к жизни.

**Ключевые слова:** Хори Мугалин, геодезия, минералогия, горное дело. Искусство народных промыслов основано на навыках и умениях обогащать

национальные ценности и традиции путем их последовательного изучения, развития и совершенствования.

Bugungi kunda milliy hunarmandchilik va amaliy sanʼatni rivojlantirishga davlat miqyosida katta ahamiyat berilmoqda. Oʻzbek milliy anʼanalarini qayta tiklab, yoshlarni hunar oʻrgatishga yoʻnaltirish taʼlim tizimida ham dolzarb vazifalardan sanaladi. Respublikamizda xalq hunarmandchiligining 150 dan ortiq turlari boʻlib, jumladan kashtachilik, zardoʻzlik, gilamdoʻzlik, popopchilik, toʻquvchilik, yogʻoch oʻymakorligi, naqqoshlik, misgarlik, zargarlik, doʻppichilik, kulolchilik, kandakorlik, ganchkorlik va hokazolardir. Buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy kasb-hunar toʻgʻrisidagi qarashlarida: «Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmogʻi, yaxshi tarbiya olmogʻi va yaxshi xulq-fazilatlarga ega boʻlmogʻi kerak» deb taʼkidlaydi. Unsuru-l-Maoliy Kaykovusning sharq xalqlari orasida keng tarqalgan «Qobusnoma» axloqiy - taʼlimiy asarida: «Ey farzand, ogoh boʻlki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz boʻlur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mugʻilon (tikonli buta) ning tani bordur, ammo soyasi yoʻqdur. Hunarsiz kishi ham xori mugʻilon yangʻligʻ na oʻziga va na oʻzgaga foyda berur» deb keltiriladi. Buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy kasb-hunar toʻgʻrisidagi qarashlarida: «Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmogʻi, yaxshi tarbiya olmogʻi va yaxshi xulq-fazilatlarga ega boʻlmogʻi kerak», deb taʼkidlaydi. Buyuk allomalarimizning ilgʻor qarashlari hamda xalq ogʻzaki ijodidan foydalanish tizimini interfaol usullar shaklida tashkil qilish kutilgan samaralarni beradi. «Javohirlar sandigʻi». Mazkur shartda «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Mineralogiya», Mahmud Qoshgʻariyning «Devonu lugʻatit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu biligʻ», Alisher Navoiyning «Xamsa» va yana qator asarlaridan parchalar, shuningdek xalq maqollari va matallaridan namunalarni keltirilgan boʻladi. Biroq ularning parchalari ostiga muallif hamda asarlarning nomlari yozilmagan boʻladi. Masalan, Hunarni asrabon netgumdur oxir, 87 10 Olib

tuproqqamu ketgumdur oxir. Ushbu hukmat qaysi shoirning qaysi asaridan olingan. Bu nutqda mehnatga aloqador qanday mazmun bor? (Javob: Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazining nutqi. Bu baytda hunardan maqsad u orqali insoniyatga naf keltirish g'oyasi ilgari surilgan). O'quvchilar shu kabi yo'nalishda belgilangan savollarga javoblar beradilar. Hunar haqida aytilgan hikmatlar va maqollarni mazmunini sharhlaydilar. «Mantiq imorati». Ushbu shartda o'quvchilar chala qoldirilgan yoki yakuniga yetkazilmagan biror hikmat yoki maqolning davomini aytadilar va sharhlaydilar, ya'ni hikmat, mantiq imoratini tiklaydilar. Masalan, Mehnat insonni.....(ulug'lar) Mehnat kishini boqar....(yalqovlik o'tga yoqar) Mehnat qilgan.....(elda aziz) Har hunarning o'z siri bor....(har ishning o'z yeri bor) Odamning qiymati emas siymuzar....(odamning qiymati bilim va hunar) Bu o'yin o'quvchilar o'rtasida o'zaro tashkil qilinishi ham mumkin. Bir o'quvchi maqol yoki hikmatni boshlab, yarmida to'xtatadi.

XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbubul qulub” asarlari ham mavjud.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U “Hayratul abror”ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyjanobroq ekanligini “Hotam Toyi” hikoyatida keltiradi. Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga “Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko'rgil”, -deydi. Shunda chol kulib: “Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin”, - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun

kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi. Alisher Navoiy mehnatning insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida Qorandan o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini “Mehmonnoma” deb ataydi. Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanad

Ma’rifatparvar shoir Furqat ham o‘zining ma’rifiy she’rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritarkan, har bir sog‘lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da’vat etadi, hunarga mehr qo‘ygan, uni o‘rganishni da’vat etgan kishining jahonda qadri baland b‘lajagini uqtiradi<sup>4</sup>.

Pedagog shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o‘rgatishi kerak, - deb ta’kidlagan ekan, yoshlar ma’naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She’rlarida bolalarni otalarining mehnati qadriga yetishga undaydi. Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirarkan, “O‘qi”, “Kitob”, “Qalam” kabi she’rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmasligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradi. U yoshlarga kelajakda o‘z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta’kidlaydi. Yuqoridagi fikrlar o‘quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhimvosita sanaladi.

Mehnat ta’limi fanining fan sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablariga kirib kelishi sobiq ittifoq yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda mehnat ta’limi fani ishlab chiqarish mehnati bilan uyg‘unlashtirildi. Bir guruh o‘qituvchilar va metodistlar

maktabda o'qitiladigan fanlarni hayot bilan bog'lash uchun maktabda mehnat ta'limi fanining mustaqil fan sifatida kiritilishi zarurligi taklifini beradi. Ikkinchi guruh pedagoglar birinchi guruh fikrlarini inkor qilib, maktab o'quv rejasidan o'ringan boshqa fanlarni o'qitish orqali ham mehnatga o'rgatish mumkinligini ma'qullaydi. 1920-yildan boshlab mehnat ta'limi maktab o'quv rejasida fan sifatida emas, balki kompleks tizim, keyinchalik loyiha tizimi asosida o'qitila boshlandi. 1932-yilda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va rejimi to'g'risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini predmetli o'qitish ishlab chiqiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan «Javohirlar sandig'i», «Mantiq imorati» kabi bosqichlarni uzviy davom ettirish, tahlillar yuzasidan yakuniy xulosalarga kelish mumkin. Chunki ushbu usullar o'quvchilarni amaliy jarayonlarga chorlab, yoshlarni kasb-hunarga, oilaviy hayotga tayyorlab boradi. Shunga ko'ra, dars jarayonlarida Buyuk allomalarimizning g'oya va qarashlari hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi va qayd etish kerakki, bu kutilgan samaralarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI laboratoriya mudiri A.P.Sulaymonov. «Amaliy fanlarni o'qitish va o'quv – tarbiya jarayonining sifat va samaradorligi: muammaolar va yechimlar» Toshkent – 2017 y.
2. A.Jalolov «Kasb qanday tanlanadi» Baxt - saodatga intiluvchilar uchun Toshkent «Yangi asr avlodi» - 2010 y.
3. Ziyonet.uz

**Geografik xaritalar, turlari va ulardan foydalanish.****Sadullayeva Sanobar Matnazarovna****Xorazm viloyati Urganch tumani 45-sonli IDUMI 1-toifali geografiya fani  
o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografik xaritalar atlaslar, globuslar va ulardan qanday foydalanish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Geografik xaritalar, dunyo va yarimsharlar, materiklar va okeanlar, globus, atlas, massshtab, yer shari

Xarita (nemischa Karte-asl; yunoncha chartes-yozish uchun ishlatiladigan papirus varag'i)-kartografik proyeksiyalardan foydalangan holda belgilar yordamida yaratilgan Yer yuzasi, yulduzli osmon yoki uning qismlarining qisqartirilgan tasviri (namunasi). Xaritada daryo o'zanining o'zgarishi, tuproq qoplami, jarliklar, botqoqliklar, aholi punktlari va yo'llarning tabiati va boshqalar ko'rsatilgan. b. aniqlash mumkin. Ob'ektlarning joylashishini va o'zaro bog'liqligini masshtabda, fazoviy va sonli xususiyatlarda aniqlaydi. Xarita mamlakat sanoati va iqtisodiyoti, ilm- fan va mudofaa sohasida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, u turli binolarni tadqiq qilish, rejalashtirish, loyihalashda keng qo'llaniladi;

Xarita-Yer yuzasi yoki uning qismlarini aniq kartografik proyeksiyadagi xaritasi, uni tekislikda minimallashtirish va umumlashtirish. Kerakli ma'lumotlar foydalanish maqsadiga qarab ko'rsatiladi.

Geografik xaritalar - bilim manbai. Turli mazmundagi va massh-tabdagi xaritalardan o'quvchilarning maqsadli foydalanishi talab qilinadi. Kursning materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasiga oid bo'limlarida har bir mavzuga taalluqli bo'lgan xaritalar berilgan. Demak, muayyan mavzu-ni organish jarayonida xaritalardan foydalanish shart. Geografik xaritalarning tasnifi. Geograik xaritalar g'oyat ko'p va xilma-xildir. Xaritalar - o'rganish, hisobga olish, saqlash va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Xaritalar 4 ta asosiy belgisiga ko'ra, ya'ni xaritada tasvirlangan hu-dudning katta-kichikligiga,



masshtabiga, mazmuniga va ko'zda tutilgan maqsadiga qarab guruhlariga ajratiladi. Tasvirlangan hududning katta-kichikligiga ko'ra, xaritalar: dunyo va yarimsharlar, materiklar va okeanlar hamda ularning qismlari, tabiiy o'lka-lar va ularning qismlari, mamlakatlar, viloyatlar va boshqa ma'muriy birliklar xaritalariga bo'linadi. Masshtabiga ko'ra: yirik masshtabli (1:10000 dan 1:200000 gacha), o'rta masshtabli (1:200000 dan 1:1000000 gacha), mayda masshtabli (1:1000000 va undan mayda) xaritalar bo'ladi. Joy planini tuzishda ham muayyan masshtabdan (1:5000) foydalaniladi. Lekin plan kichik hududlar uchun tuziladi. VI sinf darsligi va atlasidagi barcha xaritalar mayda masshtabli xaritalar guruhiga kiradi. Ulardan faqat umumiy ma'lumotlar olsa bo'ladi. Xaritalardagi xatolik ekvatorida yo'q, qutblar tomon ortib boradi. Mazmuniga ko'ra, xaritalar: umumgeografik va mavzuli xaritalarga bo'linadi. Umumgeografik xaritalarda geografik landshaftning tashqi ko'rinishi tasvirlanadi. Ularda relyef, suvlar, o'simlik, aholi punktlari, yo'llar, chegaralar va boshqalar bir xil aniqlikda va mukammallikda ko'rsatiladi. Geografik xaritalar umumgeografik xaritalardir. Mavzuli tabiiy xaritalarda geografik landshaftning ayrim elementlari boshqa elementlariga nisbatan aniq va mukammal tasvirlangan. Bunday xaritalarga VI sinf atlasidagi yer qobig'ining tuzulishi, tabiat zonalari, iqlimi va boshqa xaritalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ba'zan mavzuli xaritalarda bitta yoki ikkita emas, balki bir-biri bilan bog'langan bir qancha komponentlar ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday xaritalarga kompleks xaritalar deyiladi. Xaritalarning qo'llanilish maqsadi ularning masshtabiga, mazmuniga va jihozlash usuliga katta ta'sir ko'rsatadi. Buni bitta hududni bir xil masshtabli va mazmunli, lekin har xil maqsadli xaritalarini bir-biriga taqqoslab, yaqqol ko'rish mumkin. Maqsadiga ko'ra, xaritalarni: o'quv, ilmiy, turistik, targ'ibot-tashviqot kabi turlarga bo'lish mumkin.

Geografik atlaslar ta'rifi, tasnifi va xususiyatlari. Yagona dastur asosida bir butun (yaxlit, bo'linmas) asar sifatida bajarilgan geografik xaritalarning sistemali to'plamiga geografik atlas deb aytiladi. Qadimgi yunon olimi Klavdiy

Ptolemeyning geografik xaritalar to'plamini (eramizning II asri) birinchi geografik atlas deb hisoblash mumkin. Xaritalarning to'plami uchun "Atlas" nomi Merkator tomonidan (1595-yil) taklif etilgan. Maktab geografik atlaslari - bu o'quvchilarning mashg'ulot vaqtida mustaqil bajariladigan ishlari uchun mo'ljallangan eng muhim kartografik qo'llanmadir. Hozirgi vaqtda barcha maktab geografiya kurslari muqim geografik atlaslar bilan ta'minlangan bo'lib, ular darsliklar bilan bir qatorda bo'lishi shart hisoblangan qo'llanmalar qatoriga kiradi.

Geografik globus. Globus - Yer sharining kichraytirilgan modeli bo'lib, Yerning tashqi qiyofasini hamda uning yirik qismlari (materiklar, okeanlar, ularning bo'laklari) nisbatini eng to'g'ri va ko'rgazmali tasvir-laydi. Globusda kartografik tasvirning xatoliklari bo'lmaydi, shuning uchun undagi turli geografik obyektlarni bir-biriga taqqoslash mumkin. Globus yuzasining hamma qismida masshtab bir xil, ya'ni o'zgarmas bo'ladi.

Maktab o'quv globuslari 1:83000000, 1:50000000, 1:40000000, 1:30000000 masshtabda tayyorlanadi. Yunon olimi Pifagor (eramizdan avvalgi VI asr) ning Yer shar shaklida degan fikriga asoslanib, yunonistonlik Krates (er.av.II asr) birinchi globusni yasagan. O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048 - y.) Shimoliy yarimsharning globusini yasagan. Birinchi mukammalroq geografik globusni 1492-yilda Martin Bexaym yasagan. Lekin unda Amerika, Avstraliya va Antarktida tasvirlanmagan. Hoji Yusuf Hay'atiy 1886-yilda ishlagan globus Samarqanddagi madaniyat va san'at tarixi muzeyida saqlanmoqda. M.Ulug'bek nomidagi O'zMU geografiya fakultetida 1984-yilda H.Hasanov rahbarligida I.Y.Oshev yasagan ulkan "Relyefli globus" o'rnatilgan. Hozirgi vaqtda globuslarning bir necha turlari mavjud. Bular maktab globusi, relyefli globus, osmon jismlarini tasvirlovchi globuslardir.

### **Xulosa:**

Ushbu maqolada geografik xaritalar atlas globuslardan qanday foydalanish kerak. Masshatlarni qanday ishlatish kerak shu kabilar xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Geografiya. 7-sinf (2017, P.G'ulomov, P.Baratov) ·[1]**
- 2.Geografik darsligi 9--sinf.A.Qayumov I.Safarov Toshkent-2020[2]**
- 3.www.ziyonet.uz[3]**
- 4.Geografiya. 8-sinf (2010, P.Musayev, J.Musayev) ·[4]**
- 5.Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. 9-sinf (2006, A.Qayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva).[5]**

**Xodimlar uchun texnika xavfsizligi**  
**Xorazm viloyti Xonqa tumani 3-sonli maktab**  
**texnologiya fani o'qituvchisi**

**Raximov Rasulbek**

Xavfsizlik – ma'lum darajada xavf tug'ilishi bartaraf etilgan faoliyat holati, ya'ni faoliyatni amalga oshirishdagi asosiy maqsadlardan biridir. Xodimlar texnika xavfsizligiga rioya qilishlari uchun quyidagilarni bilishlari shart. **1.Mehnat**

**qonunlari** kodeksida balog'atga yetmagan yoshlarning, ayollarning mehnatiga alohida e'tibor berilgan. 18 yoshga to'lmagan yigitlarni 16 kg.dan, qizlarni 10 kg.dan ortiq yuk ko'tarishiga, ularning ish vaqtini haftasiga 36 soatdan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shuningdek, ularni tungi va ish vaqtdan tashqari ishlarga hamda dam olish kunlari ishlashga jalb etish taqiqlanadi. Ishchi xodimlar uchun ish vaqtining me'yoriy muddati 40 soatdan oshib ketmasligi, 18 ga kirmagan yoshlar hamda mehnat sharoiti zararli bo'lgan ishlarda mehnat qiluvchilar uchun ish vaqti miqdori haftasiga ko'pi bilan 36 soat bo'lishi kerak. **2.**

**Ish vaqti va dam olish rejimi** Korxonada, muassasa, tashkilotlarda xodimlar ish vaqtining me'yoriy muddati haftasiga 40 soatdan oshiq bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida 18 yoshga to'lmagan xodimlar uchun ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagicha belgilangan: – 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga ko'pi bilan 36 soat; – 15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan xodimlarga, shuningdek, ta'til vaqtida ishlayotgan 14 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga haftasiga ko'pi bilan 24 soat. Mehnat sharoitlari zararli bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun haftasiga ko'pi bilan 36 soatdan iborat ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilangandir. Xodimlar uchun ikki kun dam olinadigan besh kunlik ish haftasi belgilangan.

**3.Dam olish, ovqatlanish uchun tanaffus.** Xodimlarga dam olish va ovqatlanish uchun ko'pi bilan ikki soat tanaffus beriladi. Bu tanaffus ish vaqtiga kirmaydi. Tanaffus, odatda, ish boshlangandan keyin, uzog'i bilan to'rt soatdan so'ng

beriladi, tanaffus muddati va uni berish ichki mehnat tartib qoidalari bilan belgilanadi.

**4. Ayollar va yoshlar mehnatini muhofaza qilish** *Ayollar mehnati.* Og'ir ishlarda va mehnat sharoiti zararli bo'lgan ishlarda, shuningdek, yer osti ishlarida ayollar mehnatini qo'llash taqiqlanadi. Yer ostidagi ba'zi ishlar bundan mustasnodir. Nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onadan biriga 16 yoshga to'lgunga qadar ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'langan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi. Tibbiyot xulosasiga muvofiq homilador ayollarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish me'yorlari kamaytiriladi yoki ular yengilroq bo'lgan hamda noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sir etishini istisno qiladigan boshqa ishlarga avvalgi ishidagi o'rtacha ish haqi saqlanib qolgan holda o'tkaziladi. Ayollarning xohishiga qarab, ularga bola bir yarim yoshga yetgunga qadar bolani parvarishlash uchun qisman haq to'lanadigan ta'til berilib, shu davrda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi. Yuqorida ko'rsatilgan ta'tildan tashqari, ayolning arizasiga muvofiq, unga bola uch yoshga to'lguniga qadar bolani parva-rishlash uchun ish haqi saqlanmaydigan qo'shimcha ta'til beriladi. *Yoshlar*

*mehnat.* O'n olti yoshga to'lmagan shaxslarni ishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Alohida hollarda korxonalar, muassasa, tashkilot, kasaba uyushmasi komiteti bilan kelishib, o'n besh yoshga to'lgan shaxslar ishga qabul qilinishlari mumkin.

**5. Maxsus kiyim-boshlar va shaxsiy himoya vositalarining** o'rniga ularni tayyorlash uchun materiallar yoki sotib olish uchun pul berish taqiqlanadi. Yuqorida ta'kidlangan maxsus kiyim-boshlar va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish muddatlari o'rnatilgan bo'lib u quyidagicha belgilangandir: korjomalar, poyabzalar - 12 oy; qo'lqoplar - 1 yoki 2 oy; himoya kaskalari - 2 yil; himoya ko'zoynaklari, maxsus oynali kaskalar va gazniqoblar - yaroqsiz holga kelgunga qadar; issiq kiyim-boshlar (paxtali kurtka, shim va b.)

**6. Mehnat gigiyenasi** – tibbiyot fanining bir qismi bo'lib, ish sharoitlarining inson sog'ligiga va ish qobiliyatiga ta'sirini o'rganadi, shuningdek, mehnat sharoitlarini

sogʻlomlashtirish hamda ishlab chiqarishni yuksaltirishga yoʻnaltirilgan sanitariya-gigiyena, oldini olish va davolash tadbirlarini ishlab chiqadi.ashga yordam beradi. Maʼlumki, inson uchun koʻrish, eshitish, nafas olish, sezish va asab sistemalari muhim aʼzolar hisoblanadi. Inson 20 dan 20000 Gs chastotali tebranishgacha boʻlgan tovush toʻlqinlarini eshita oladi. Quloqning sezish qobiliyati ancha yuqori boʻlib, 2000 Gs dan 4000 Gs gacha diapozondagi tovushlarni normal eshitadi, biroq 800 Gs dan past va 6000 Gs dan yuqoriroq chastotada sezish qobiliyati birmuncha pasayadi. Odam nafas olganda oʻpkaga kirayotgan havo tarkibida kislorod 21%, chiqarayotganda 16% ni tashkil qiladi.Havo tarkibidagi zararli moddalar (gazlar, bugʻlar, chang va b.) inson uchun juda zararli boʻlib, har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Sof toza havo tarkibida 77% azot, 21% kislorod, 1% is gazi va boshqa aktiv gazlar, 1% inert gazlar (argon, neon va b.) mavjud.

**7.Inson xoh kunduzi**, xoh tunda, ish vaqtida ham, dam olish vaqtida ham, uyquda ham maʼlum darajadagi shovqin taʼsirida boʻladi. Masalan, barglarning shitirlashi 10–40 dB, soatning chiqillashi quloqdan 1m uzoqlikda 25–35 dB, uxlayotgan odamning nafas olishi 25 dB atrofida, oddiy soʻzlashuv vaqtida -50–60 dB, qattiq baqirib soʻzlashganda – 75 dB, 100 km/soat tezlikda harakatlanayotgan yengil avtomobil – 110 dB, 50–100m balandlikda uchayotgan reaktiv samolyot - 120–130 dB tovush intensivligidagi shovqin hosil qiladi.

**8.Titrash bilan ishlovchi** jihozlar ishlatiladigan xonaning harorati 16C dan kam boʻlmasligi lozim. Agar bunday jihozlar tashqi muhitda ishlatilsa, ish joyi yonida isitiladigan va harorati 22C dan kam boʻlmagan dam olish xonalari boʻlishi zarur. Ishchi titrash bilan ishlovchi jihozlar bilan ishlaganda, har 1 soatda 10–15 minut tanaffus qilishi va jihoz bilan ishlashning umumiy vaqti ish smenasining 2/3 qismidan ortiq boʻlmasligi lozim. Bunda uzluksiz ishlash vaqti 15–20 daqiqadan oshmasligi zarur. Titrash bilan ishlovchi mashinalar va jihozlarda ishlaganda ish vaqtidan tashqari ishlashga ruxsat etilmaydi.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BOLALARDA INTILISH VA QIZIQISHNI**

### **UYG'OTISH, NUTQNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYA VA**

#### **QONUNIYATLARI**

**Omonova Matluba**  
**Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi**  
**75-maktabining "Boshlang'ich ta'lim"**  
**fan o'qituvchisi**  
**Mulikboyev O'tkir Qo'chqor o'g'li**  
**"Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi**  
**Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi**  
**75-maktabining ijodiy-madaniy masalalar**  
**bo'yicha targ'ibotchisi**

**Annotatsiya** O'quvchilarning qiziqish va intilishlarini oshirib borish qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, bolalarni she'r va hikoyalar orqali qiziqishlarini nutq rivojlanishga zamin yaratish, o'ziga xoslik bilan uddaburon va epchilligini oshirish, yashayotgan, nafas olayotgan muhitiga moslashish jarayoni hamda bilim olish darajasini yuqori bosqichiga olish masalalari bayon qilinadi.

**Kalit:** Fan, pedagogika, tarbiya, she'rlar, nutq, Abdulla Avloniy, maqsad, mashg'ulot, intilish, boshlang'ich ta'lim,

Yuqori intellektual salohiyatga va intilishga ega, qalbi va ongida ezgu xislatlar mujassamlashgan yoshlar har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqbolini ta'min etishi shubhasizdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni ularga bilim olish, badiiy - hayotiy masalalarni hal qilish o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirishni taqozo etadigan qiziqishlarini oshirish muhim masalalardan bittasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yozish, yangi raqs o'ylab topish, Shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyotning turli yo'llari bilan rag'batlantirib borish darkordir. Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlar bolalarda ko'rish va eshitish, materiallar sifatini (fakturasini) ushlab ko'rib, ajrata bo'lish qobiliyati, sezish tuyg'ularim (hid va ta'mni ajrata olish)

rivojlantirishga yordam beradi. "Ovchilar", "hayvonlar", "izquvarlar"ni o'ynash bolalarda faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularim shakllanish yo'lidir. Bunga yorqin tadbirlarga, san'at asarlar, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin.

Bolalarda salbiy, xunik, yomon narsalarga ham emotsional munosabatni rivojlantirish lozim. Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlarni qo'yish yordam beradi. Bolaning his - tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq harakat qilishga, o'z holatini badan harakatlari , imo-ishoralar , raqs orqali ko'rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni ham kiritish katta samara beradi. Dars jarayonlari ham qiziqarli bo'lishi uchun sinfda o'ziga xos mos muhitni yaratish: zarur bo'lgan partalar o'rniga o'zlariga qulay bo'lgan stol va stullar o'rnini almashtirish, mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusida "devordagi suratlar", "hayvonlar va o'simliklar dunyosi" paydo bo'ladi. Bularni o'quvchilarning o'zlari o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan, foydalanish mumkin. Har bitta fan bir biri bilan bog'liqligi o'quvchilarni qiziqtirishda faqat bitta fanga bog'lanib qolmay umumiy planda qiziqishni oshirish kerak. Masalan, 1--4-sinflarning o'quv rejasi bo'yicha tahlil qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Filologiya ikkiga bo'linadi:

1.O'zbek tili.

2.Ona tili va o'qish.

Bu ikki fan orasidagi bog'lanish shundan iboratki, har ikki fanning maqsadi o'quvchilarda yozma va og'zaki nutq malakalariga ega bo'lishga qaratilgan.

Keyingi misolni inson va jamiyat sohasida ko'rib chiqsak bo'ladi. Inson Va jamiyat sohasi beshga bo'linadi.



- 1.Odobnoma. (Tarbiya)
- 2.Musiqqa madaniyati.
3. Tasviriy sa'nat.
4. Mehnat.
5. Jismoniy tarbiya.

Bu fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir.

Nutq o'stirish-- harflarni to'g'ri talaffuz etish va yozish, so'zlarni to'g'ri o'qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon tasvirli o'qish , gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi ; fikr bayon qilish uchun zarur bo'lgan ayrim grammatik vositalarni o'z o'rnida qo'llay olish, xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o'qib tushunishga qiziqishni oshirib borish lozim. Boshlang'ich ta'limda har bir darsning maqsadi nutqni o'stirishga qaratilgandir. Asosan ona tili va o'qish, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar nutq o'stirish, bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishsa, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, (tarbiya) musiqqa madaniyati, tasviriy sa'nat, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida mustahkamlash qiziqishni oshirib boradilar. Masalan 4-sinf ona tili darsligini olaylik, unda nutq o'stirishga oid mashqlar berilgan. 22-mashqni ko'rib chiqsak, bunda so'zlarni o'qing, talaffuzga e'tibor bering va so'zlarni ko'chirib yozilishini bilib oling degan shart berilgan: "Bayroq, a'lochi, qal'a, e'lon, Rasm, qat'iy, o'ladi, Ma'mura, ,ko'z, vatan, olxo'ri, a'zo, sariq, jahon, san'at, arqon, poda, qit'a, beda"

O'qish davomida esa nutq o'stirish jarayonini hikoyalar, ertaklar, she'rlar, matnlar orqali ko'rishimiz mumkin.3-sinf o'qish darsligida:

Uyg'un

Saodat soqchilari

Shonli g'olib armiya,

G'ururimiz faxrimiz,

Tilga olsak nomini,

Ochiladi bahrımız.

U bor hayot kundan Kun,

Yasharadi odatda,

Vatanimiz mangu hur,

Xalqimiz saodatda.

Agar iflos qo'lin,

Yurtimizga cho'zsa yov,

Armiyamiz zarbidan,

Yanchiladi beayov.

Baxtimizga bor bo'ling,

Vatan mehribonlari,

Saodat soqchilari,

Tinchlikning posponlari.

She'rni to'xtamlariga rioya qilib , ifodali o'qishga tayorlaning,

4-sinf matematika darsligini ko'rib chiqsak, bunda matematik atamalar orqali , o'lchov birliklari, masalalar, amalni og'zaki bajarish orqali nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi. "Ikki xonali va Uch xonali songa ko'paytirish" mavzusidagi 930-mashqda 36 ni 47ga ko'paytirish kerak . Ko'paytiramiz 36ni 7ga birinchi to'liqsiz ko'paytma 252ni hosil qilamiz.

Ko'paytiramiz : 36ni 40ga , ikkinchi to'liqsiz ko'paytma 1440ni hosil qilamiz.

To'liqsiz ko'paytmalarni qo'shsak, ko'paytma 1692 hosil bo'ladi.

Tabiatshunoslik darsida, ya'ni 4-sinfning tabiatshunoslik darsligida bir qancha O'zbekistonning geografik o'rni , o'rmonlari, hayvonot olami, yer osti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo'lib bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish davomida qiziqish va nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

Odobnoma (tarbiya) darsida ham bir qancha qiziqarli odob-axloqqa oid matnlar , she'rlar, hikoyalar, hikmatli so'zlar berilgan bo'lib bularni ham o'quvchi o'qish,

gapirish jarayonida nutq o'stiradi. 4-sinf Odoynoma (hozirgi tarbiya) darsligidagi "Umr o'tib boradi misoli ertak" she'rida shunday satrlar bor.

Umr o'tib borar misoli ertak,  
Ertaning ketidan kelib qolar shom,  
Faqat g'aflat ichra yotmagin yurak,  
Qaytib kelmas sira bu yoshlik ayyom.  
Payt kelar, va'daning qimmatini qolmas,  
Muhlat bermas u dam to'lgan paymona.  
O'tgan bir oningni qaytara olmas,  
Na ko'z yosh na, afsus va na bahona...

(Abdulla Oripov)

O'quvchi bolalarning yosh davridagi kattalari bilan munosabatga kirishuvining eng muhim xususiyatlaridan biri - ularning xohish- istaklarini boshqarish imkoniyati mavjudligidir. Ularni kattalarni ezgu niyatga bo'ysindirish , ota- onalar va tarbiyachilar mayliga ko'niktirish mumkinligidir. Umumiy Ta'lim mazmuni o'quvchilarni har tamonlama ruhiy rivojlanishga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir predmetni o'rganish bolaning mavzuni anglash jarayonini uni qiziqish bilan eslab qolishni , tasirchanlikni faollashtiruvchi , tafakkurni , nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. O'qitishda o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bolalarning samarali bilim va ko'nikmalar ma'lumot olishiga, tarbiyalanib rivojlanib borishiga zamin yaratadi.

Har bir o'quvchi ichki va tashqi omillar ta'sirida muhitga moslashib shaklanib boradi. Bunda tarbiyaning to'g'ri berilishi muhim asos hisoblanadi qiziqish intilishga, intilish o'quvchilarda hozirjavoblikni kashf qiladi. Bilim oliy maqsad Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. "Alhosil.-- deb yozgan edi u , -- butun hayotimiz, g'ayratimiz, dunyo dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdir... Shuning uchun o'qimak , bulmak

zamonlarini qo'ldan Bermay , vujudimizning dushmani bo'lgan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdir". Maqsad bir ilm yo'lida qiziqishlar, intilishlar yuksalishlar yo'lida olg'a boraylik aziz o'quvchilarim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya  
Raxima Mavlonova, Nargiz Rahmonqulova, 2013
2. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi  
D.R. Babayeva. 2018
3. Boshlang'ich ta'limning intergratsiyalashgan pedagogikasi  
R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, 2009

## **O'ZBEK TILI - O'ZLIGIMIZ TIMSOLI**

**Akramova Dildora Xayrullayevna**

**Navoiy viloyati Xatirchi tumani 7- IDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilning inson hayotida tutgan beqiyos o'рни, o'zbek tilining taraqqiyoti, shuningdek, o'zbek tilining bugungi kundagi rivoji haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** til, xalq, davlat, jamiyat, imlo, yozuv, turkiy tillar, fikr, milliy madaniyat, davlat tili.

Har bir xalq o'zi yaratayotgan moddiy ne'matlar bilan faxrlanishga haqli. Ammo tabiatda shunday boylik borki, unga ega bo'lmasdan, avaylab-asramasdan, rivojlantirmasdan turib kamolotga erishib bo'lmaydi. U ham bo'lsa, millatga berilgan ulug' ne'mat – tildir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: “Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur”.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, tilimizga davlat tili maqomi berilganiga ham 30 yildan oshdi. Uning shonli rivojlanish tarixiga bir nazar tashlaylik. Ma'lumki, o'tmishda Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan davlatlarda musulmon dini hukmron din hisoblangan. Bu davlatlar hududida davlat tili arab tili va qisman fors-tojik yoki turkiy (eski o'zbek) tillari bo'lganligi uchun ish yuritish hujjatlari, ko'pincha, forstojik tili, ba'zan esa arab tilida yuritilgan. Lotin tili Yevropa uchun qanday rol o'ynagan bo'lsa, o'tmishda arab va fors-tojik tillari ham O'rta Osiyo hududidagi davlatlar uchun xuddi shunday nufuzga ega bo'lgan. Lekin bundan O'rta Osiyo hududidagi davlatlarda eski o'zbek tilida umuman ish yuritilmagan edi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ma'lumki, Ko'hi Mug'dan topilgan So'g'd hujjatlari orasida VIII asrda turkiy tilida yozilgan hujjat ham topilgan. Shuningdek, Xorazm shohi

Muhammad, mo'g'ullar hukmronligi, Qutlug' Temur davri, undan keyingi Amir Temur davri, o'zbek xonliklarida ko'pgina hujjatlar eski o'zbek tilida ham tuzilganligi haqida manbalarda qator dalillar mavjud.

Bu borada temuriy Husayn Boyqaro (1438-1506)ning xizmati alohida diqqatga sazovordir. U maxsus farmon chiqarib, o'zi hukmronlik qilgan davlatda eski o'zbek tili (turk-chig'atoy)da ish yuritilishini joriy etgan edi. Ammo o'sha davrdagi ayrim siyosiy-ijtimoiy, huquqiy sabablarga ko'ra, hatto aholisining mutlaq ko'pchiligini o'zbeklar tashkil qilgan Buxoro amirligi, Qo'qon xonliklari devonlari hamda davlatning boshqa tashkilotlarida, o'sha davr an'anasiga ko'ra, hujjatlarning asosiy qismi fors-tojik tilida tuzilgan.

Haqiqatan ham, til inson uchun berilgan buyuk ne'mat, u milliy madaniyatning ham muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat aloqa quroli, balki inson shaxsini fazl-u kamolga yetkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislat va fazilatlarini uyg'unligini ta'minlovchi ibrat va tarbiya manbai hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bag'ishlaydi. Bundan tashqari u inson faoliyatida borliqni bilish, fikr almashish, jamg'arilgan bilimlarni avloddan-avlodga yetkazish vositasidir. Tilda millatning bor-yo'g'i, o'y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg'ulari aks etadi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi.

Darvoqe, jamiyat hayoti, inson kechinmalari naqadar rang-barang bo'lsa, til ham shu qadar serjilodir. Til qanchalik serqirra bo'lsa, boyisa, millat ma'naviyati ham shu qadar yuksaladi. Ona tiliga hurmat, avvalo, uning sofligini ta'minlashga intilish orqali yuzaga chiqadi. Til sofligi dolzarb masala sanaladi. Ayni kunda til mavzusi barchaning diqqat markazida. Tilimiz taqdiri va tarixi bilan qiziqqan har bir vatandoshimiz bu mavzuga qo'l urmoqda. Chunki bunga majbur bo'lyapmiz. Misli tilloga teng ona tilimiz qadrini bilmayapmiz. Ko'cha-kuyda g'aliz va o'rinsiz qo'llanilayotgan so'z va iboralar odamning ta'birini xira qiladi.

1989-yili o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi amalda tilimiz ravnaqi uchun butunlay yangi davrni boshlab berdi. Mana qariyb 30 yildan oshdi. Uzoq o'tmish

uchun bu dengizdan tomchidek gap. Lekin o‘tmishga nazar soladigan bo‘lsak, ne-ne ulamolar, ilmiy xodimlar, fan arboblari o‘z ona tili bo‘la turib, ilmiy ishlarini rus tilida himoya qilganliklari, darsliklarda ham o‘sha vaqtlarda deyarli ko‘pchilik atamalarning boshqa tillarda ifodalanishi juda achinarli holat, albatta. Vaholanki, biz haligacha ona tilimizning ichki imkoniyatlaridan, adabiy tilimizning tuganmas bebaho boyligidan to‘liq foydalanayotganimiz yo‘q.

Darhaqiqat, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi o‘zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotida eng yirik voqealardan biri bo‘ldi. Endilikda biz qanchadan-qancha ulug‘ bobolarimiz ilmiy meroslarini, ma’naviy meros hisoblanmish hikmat durdonalarini, badiiy asarlarini, tarixiy memuar asarlarini o‘z ona tilimizda sevib mutolaa qilayapmiz. Ayni damda davlatimizning muhim hujjatlari ham shu tilda yozilmoqda. Ona tilimiz davlatlararo muloqotlarda, dunyoning nufuzli minbarlarida, xalqaro anjumanlarda ham keng qo‘llanmoqda. Hatto Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida davlat tilida nutq so‘zlashi tilimizning yanada yuksakligi, ona tilimizga bo‘lgan e‘tibori va hurmati ramzidir. Tilimizning millatimiz ruhi ekanligini yana bir karra dunyo miqyosiga isbotladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilini sevish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir. O‘z tilini hurmat qilgan xalq o‘zligini, o‘z g‘ururini asrabavaylagan bo‘ladi. Ona tiliga muhabbat har bir so‘zning ma’nosini chuqur anglagan holda ishlatish, uni yaxshi bilish, asrab-avaylash kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, biz, ayniqsa, o‘zbek tili o‘qituvchilari tilimizning beqiyosligini, rangbarangligini, kelgusi avlodga teran yetkazishimiz muqaddas burchimiz ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Zero, davlat tili birligimiz, borligimiz ramzidir. Shuningdek, ayni damda yoshlarimiz ongiga milliy g‘urur va nafosatni yuksaklarga ko‘tarishni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro obro‘e‘tiborining yuksalishi uchun ona tilimizni yanada boyitish, uni puxta egallashimizga ham ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini

takror va takror uqtirishimiz zarur. Ana shunda yosh avlod qalbida tilimizga yanada mehr oshadi, kelajakda ular o‘z ma‘naviy barkamolligini ko‘rsata olishi, shubhasizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1-qism., Toshkent, 1980.
2. R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent, 2007.
3. Sanaqulov Usmon. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. T.,2004.
4. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. T., 1972; 5. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).

**Boshlang‘ich sinfda matematika darslarida foydalaniladigan didaktik o‘yinlarning mazmuni va ulardan foydalanish.**



**Nilufar Abdunabiyeva Mamurjonovna****Toshkent viloyati Parkent tumani 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga yordam berish maqsadida yozildi.

**Kalit so'zlar:** Didaktik o'yin, ob'yektiv voqelik, geometrik shakllar, psixologik ahamiyati, kvadratlar.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning uquv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, ob'yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi.

### **Didaktik o'yin: «Ko'rganni eslab qolish»**

Didaktik topshiriq: qo'shib sanash yo'li bilan geometrik shakllar miqdori bilan bog'liq ravishda son qatorini tuzish.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunaga 3 — 4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometrik shakllarning soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o'zining daftoriga to'g'ri yozish.

Foydalaniladigan buyumlar: 1) 6 ta qizil doiracha va 6 ta ko'k kvadrat solingan individual konvert; 2) o'rtasidan qizil chiziq tortilgan qalin oq qog'oz; 3) o'qituvchining qo'lida geometrik shakllar yopishtirilgan namunalar.

Bolalar tezlik bilan ko'k kvadratlarni yoyadilar. Oradan bir oz vaqt o'tgach, eng ziyrak o'quvchilar qo'llarini ko'taradilar. 15—18 nafar bola 30 — 50 sekund mobaynida topshiriqni bajaradi. Ba'zi bir bolalar beparvo va befarq bo'ladi. Masalan, bolalardan biri uyga o'xshash shaklni teradi. (Bu yerda shakllarning nomlari bolalarga oldindan o'rgatilganligi nazarda tutiladi.) O'yinning borishi: o'qituvchi o'quvchilarga geometrik shakllar rasmi solingan konvertlarni tarqatadi. Bolalar konvertlarni ko'zdan kechiradilar. O'qituvchi konvertlar bilan birga oq qog'oz ham tarqatadi. — Bolalar, — deydi o'qituvchi, — hamma shakllarni bir yerga to'plab, partaning chetiga qo'yinglar. O'yinni mana bunday tartibda o'ynaymiz: men sizlarga kvadratlar yoki doiralarni shakllari solingan qog'oz namunasini ko'rsataman (ko'rsatadi). Sizlar esa sanab, qog'ozda qancha shakllar borligi va ular qanday joylashganligini eslab qolinglar. Uchgacha sanayman, undan so'ng namunani olib qo'yaman, sizlar esa qo'lingizdagi qizil chizikli oq qog'ozlarga shakllarni xuddi namunadagidek joylashtirishingiz lozim.

Dastlab o'qituvchi eng oddiy usulni (kamroq shakllar rasmi solingan bir xil shakllarni) tanlaydi. — Diqqat! — deydi o'qituvchi, — ko'rsata boshlayman bir, ikki, uch! To'rt nafar bola esa barcha kvadratlarni qatorasiga terib qo'ydi. Uch nafari doirachalarni bir chiziqqa tizishdi. O'qituvchi bolalarga o'z- o'zlarini tekshirish imkonini berish maqsadida namunani ikkinchi marta ko'rsatadi va topshiriqning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini tekshirib chiqishni taklif qiladi. Oradan 5—10 sekund o'tgach, namunani olib qo'yadi. — Endi, bolalar, — deydi o'qituvchi, — aytinglar-chi, qancha kvadrat qo'ydingizlar? — Beshta. — Barakalla, hammangiz ham g'olib bo'ldingiz. Endi men sizlarga qiyin namunani ko'rsataman. Sizlar diqqat bilan qarab turing. Diqqat: bir, ikki, uch!

O'qituvchi ikkinchi namunani ko'rsatadi.

Ko'pchilik bolalar birdaniga kvadratlarni qo'llariga oladilar. O'qituvchi ularni ogohlantirib: «Sanab chiqishni unutmadingizlarmi?»— deydi. 3 — 4 nafar bola ko'zini kvadratlardan olib, namunaga diqqat bilan qaraydi va sanay boshlaydi. Shundan so'ng o'qituvchi namunani olib qo'yadi. Ikkinchi marta navbat kelganda bolalar shakllarni birinchisiga qaraganda tezroq joylashtiradilar. O'yin uchinchi marta jonliroq o'tadi.

Shunday qilib, o'yin paytida bolalar sanashni, shakllarni bir chiziqqa joylashtirishni ham bilib oladilar. Buning natijasida shakl nomlari mustahkamlanadi va o'yin yaxshi o'zlashtiriladi. O'qituvchi esa o'yin natijasida bolalar xotirasi qanchalik rivojlanganligini aniqlab oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Jumayev.M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Fan va texnologiya 2005.
2. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasida interfaol metodlardan foydalanish. Ismoilova Habibaxon G'aniyevna. "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Issue 5

## **BIOLOGIYA FANINI O'RGATISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI O'RNI VA VAZIFALARI**

**Beknazarova Maktubaxon Muhiddin qizi.****O'zbekiston tumani 6-maktab o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada biologiya fanini o'rgatishda raqamli ta'lim manbalari, multimedia taqdimotlari, internet manbalari, elektron entsiklopediyalar, didaktik materiallar va video va audio materiallarni o'rni va vazifalari keltirilgan. Biologiya fanida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari foydalanish dars jarayonini samarali borishini taminlashi ko'ratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *biologiya, internet, multimediya, video, audio, didaktik materiallar*

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'gil-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug'zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz. Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi. O'quvchilar biologiya fanidan bilim ko'nikmalarini oshirish uchun darslarni zamonoviy shakllarda o'tish kerak.

Zamonaviy darsning namunasi nima bo'lishi kerak? Uning tuzilishi, shakli, metodologiyasi qanday bo'lishi kerak? U qanday talablarga javob berishi kerak? O'qituvchi ishi natijalari uning o'quvchilarining mahorati, o'quvchilarning darsdagi faolligi, o'quvchilarning mavzuga, o'qituvchiga, bir-biriga bo'lgan munosabati, dars davomida paydo bo'lgan shaxsning ta'limiy va rivojlanayotgan harakatchanligi bo'yicha baholanadi. Axborot texnologiyalarini o'qitish - bu axborot bilan ishlashda maxsus usullardan, dasturiy va texnik vositalardan (kino, audio va video, kompyuterlar, telekommunikatsiya tarmoqlari) foydalanadigan pedagogik texnologiya. Barcha metodlar singari, o'qitish usullari, o'quv qo'llanmalari, didaktik funktsiyalarning uchligini bajaradi, ular asosan har qanday fanga asoslangan o'qishda o'zgarishsiz qoladi va uch funktsiyani bajaradi: raqamli ta'lim resurslaridan (RTR) foydalanishni hisobga olgan holda fan bilan bog'liq faoliyat doirasida o'qitish, rivojlantirish, ta'lim. va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Biologiya darslarida AKTdan foydalanish fanni o'qitish sifatini yaxshilashi mumkin; vizualizatsiya tamoyilini vizual ravishda aks ettiradigan turli xil ob'ektlarning muhim tomonlarini aks ettirish; o'rganilayotgan ob'ektlar va tabiiy hodisalarning eng muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish. Maktabda biologiya fanini o'qitishni doimiy ravishda ko'rgazmali eksperiment bilan birga olib borish kerak.

Biroq, zamonaviy maktabda fan bo'yicha eksperimental mashg'ulotlar ko'pincha mashg'ulot vaqtining etishmasligi va zamonaviy moddiy texnik jihozlarning etishmasligi tufayli qiyinlashadi. Laboratoriya laboratoriyasi zarur asbob va materiallar bilan to'liq ta'minlangan bo'lsa ham, haqiqiy tajriba tayyorlash va o'tkazish uchun ham, ish natijalarini tahlil qilish uchun ham ko'proq vaqt talab etadi. Bundan tashqari, o'ziga xosligi sababli, haqiqiy tajriba ko'pincha o'zining asosiy maqsadini - bilim manbai bo'lib xizmat qilishni amalga oshirmaydi. Ko'pgina biologik jarayonlar murakkabdir. Tasavvurli fikrlash qobiliyatiga ega bolalar mavhum umumlashtirishni o'zlashtirishda qiynaladilar, rasmsiz ular

jarayonni tushunishga, hodisani o'rganishga qodir emaslar. Ularning mavhum tafakkuri rivojlanishi tasvirlar orqali sodir bo'ladi. Multimediya animatsion modellari talaba ongida biologik jarayonning ajralmas manzarasini shakllantirishga imkon beradi, interfaol modellar esa jarayonni mustaqil ravishda "qurish", xatolarini tuzatish va mustaqil ishlashga imkon beradi. Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklaridan biri bu faoliyatning yangiligi, kompyuter bilan ishlashga qiziqish tufayli o'quv sifatini oshirishdir. Darslarda kompyuterdan foydalanish o'quvchilarning faol va mazmunli ishlarini tashkil etishning yangi usuliga aylanib, darslarni yanada foydali va qiziqarli qiladi. Biologiya darsining turli bosqichlarida AKT texnologiyalarini qo'llash: I. Yangi materialni tushuntirishda (rangli rasmlar va fotosuratlar, slayd-shoular, videokliplar, 3D-rasmlar va modellar, qisqa animatsiyalar, syujet animatsiyalari, interfaol modellar, interfaol chizmalar, yordamchi materiallar) multimediya proektori yordamida namoyish etilgan interfaol rasm sifatida. II. O'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganish paytida talabalar dars davomida kompyuter tajribasini o'tkazish paytida o'qituvchi tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq (ish varaqasi yoki kompyuter sinovi shaklida), natijada o'rganilayotgan mavzu bo'yicha xulosa; III. Kompyuter va haqiqiy eksperiment bilan birgalikda laboratoriya ishlari shaklida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda. Shuni ta'kidlash kerakki, kompyuterdan foydalanganda talaba eksperimentlarni o'z-o'zini rejalashtirish, ularni amalga oshirish va natijalarni haqiqiy laboratoriya ishlari bilan taqqoslash uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi; IV. Takrorlash, tuzatish paytida (javobni tanlash bilan vazifalar, klaviaturadan raqamli yoki og'zaki javobni kiritish zaruriyati bo'lgan vazifalar, tematik to'plamlar, fotosuratlar, videolar va animatsiyalardan foydalangan holda topshiriqlar, javobga reaksiya bo'lgan vazifalar, interfaol topshiriqlar, yordamchi materiallar) va boshqarish tanib olish, tushunish va qo'llash darajasidagi bilimlar (avtomatik tekshirish, diagnostik testlar bilan test topshiriqlarining tematik to'plamlari). Darsning ushbu bosqichlarida

talabalar virtual laboratoriya ishlari va eksperimentlarni amalga oshirganda, o'quvchilarning motivatsiyasi kuchayadi - ular haqiqiy hayotda olingan bilimlar qanday yordam berishini ko'rishadi; Biologiya fanini o'qitish jarayonida quyidagi AKT dasturlari foydalanish mumkin. **NATIJALAR** Raqamli ta'lim manbalari: Raqamli ta'lim resurslaridan (RTR) tayyor elektron mahsulotlar sifatida foydalanish bizga o'qituvchilar va talabalar faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, mavzuni o'qitish sifatini oshirishga, vizualizatsiya printsiplarini vizual ravishda o'z ichiga olgan biologik ob'ektlarning muhim jihatlari aks ettirishga imkon beradi. Multimedia taqdimotlari: Multimediya prezentatsiyalaridan foydalanish o'quv materialini algoritmik tartibda to'liq struktura ma'lumotlari bilan to'ldirilgan yorqin namunali tasvirlar tizimi sifatida taqdim etish imkonini beradi. Bunday holda, idrok qilishning turli xil kanallari jalb qilinadi, bu sizga ma'lumotni nafaqat faktik, balki assotsiativ shaklda o'quvchilarning uzoq muddatli xotirasida joylashtirishga imkon beradi. Taqdimot - slaydlar ko'rinishidagi materiallarni taqdim etish shakli, unda jadvallar, diagrammalar, rasmlar, rasmlar, audio va video materiallar taqdim etilishi mumkin. Taqdimot xususiyatlari: • filmlar, animatsiyalar namoyishi; • tanlash (kerakli maydon); • giperhavolalar • qadamlar ketma-ketligi; • interaktivlik; • ob'ektlarning harakati; • modellashtirish. Taqdimotni yaratish uchun dars mavzusi va tushunchasini shakllantirish kerak. Internet manbalari: Internet ta'lim xizmatlarining ulkan imkoniyatlariga ega (elektron pochta, qidiruv tizimlari, elektron konferentsiyalar) va zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Tarmoqdan ta'limga oid muhim ma'lumotlarni olgandan so'ng, talabalar quyidagi ko'nikmalarni egallaydilar:[12] • belgilangan belgilar bo'yicha ma'lumotni maqsadli ravishda topish va tizimlashtirish; • ma'lumotni umuman emas, balki umuman ko'ring, axborot xabaridagi asosiy narsani ta'kidlang. Darsda Internet manbalaridan foydalanish yangi materialni o'rganishda darsni yanada qiziqarli qiladi, talabaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Internetda siz maktab kurslarining barcha mavzularidagi

tematik saytlarni, batafsil echimlar bilan topshiriq kitoblarini, testlar, insholar, turli xil eksperimentlar modellarini topishingiz mumkin. Zamonaviy maktab o'quvchilarining aksariyati adabiy manbalardan emas, balki Internet manbalaridan ma'lumot manbai sifatida foydalanishlari hech kimga sir emas. Bu katta afzalliklarga ega, hech bo'lmaganda, bolalar shaxsiy vaqtni tejashadi. O'qituvchining vazifasi talabalarni topilgan ma'lumot bilan to'g'ri ishlashga o'rgatish, uni tuza olish, mantiqiy doiralarni tuzish, savollar berish va asosiy narsani ajratib ko'rsatishdir. Masalan, "Tirik mavjudotning kelib chiqishi" mavzusini o'rganayotganda, bolalar Internetda ma'lumot qidirish uchun dastlabki topshiriq oladilar. Vazifalar tabiatda ham individual, ham guruh bo'lishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

1. O'.Pratov, A.To`xtayev, F.Azimova 5-sinf "Botanika", O`zbekiston 2015.
2. O'.Pratov, A.To`xtayev, F.Azimova, M. Umaraliyeva., 6-sinf "Biologiya", O`zbekiston .
3. O.Mavlonov., 7-sinf "Zoologiya", O`zbekiston milliy ensiklopediyasi 2017.
4. B.Aminov, T.Tilovov, O.Mavlonov., 8-sinf "Biologiya (odam va uning salomatligi)". O`qituvch 2019.
5. A.Zikiriyyayev, A.To`xtayev, I.Azimov, N.Sonin.,9-sinf "Biologiya (sitologiya va genetika asoslari)" "Yangiyo`l poligraf servis" 2019.
6. A. G.,afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O.Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova.,10-sinf "Biologiya" Sharq 2017.

## **COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH AT MILITARY ACADEMIC LYCEUMS**



**Fayyoza Dadaboyeva Xikmatullojeva**

**Teacher of Shakhrisabz “Temurbeklar maktabi” military academic-lyceum**

**Independent researcher**

**Tel: +998915973145**

**Abstract:** Since the main purpose of teaching foreign languages is to enable pupils to communicate, communicative competence plays a great role in teaching a new language. All education system including military education needs to develop and conduct proper communicative lessons for the learners, which is the most essential task.

**Key words:** Communicative competence, grammatical competence, discourse competence, strategic competence, sociolinguistic competence, military, vocabulary.

**Аннотация:** Поскольку основной целью обучения иностранным языкам является научить учащихся общаться, коммуникативная компетенция играет большую роль в обучении новому языку. Вся система образования, в том числе военного образования, должна разработать и провести надлежащие коммуникативные уроки для учащихся, что является наиболее важной задачей.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетентность, грамматическая компетентность, дискурсивная компетентность, стратегическая компетентность, социолингвистическая компетентность, военная, лексика.

**Annotatsiya:** Chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning muloqot ko'nikmasini oshirish bo'lganligi uchun, yangi tilni o'rgatishda kommunikativ kompetensiya muhim rol o'ynaydi. Barcha ta'lim tiizimida, shu jumladan harbiy ta'limda ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish juda muhim vazifa.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, grammatik kompetensiya, diskurs (nutq) kompetensiya, strategik kompetensiya, ijtimoiy-lingvistik kompetensiya, harbiy, lug'at.

As English is the third most spoken language in the world, both learning and teaching of the language perform one of the most essential role in educational system. Moreover, it is either the official language or one of the official languages in most countries. The role and influence of English can be noticed in Uzbekistan today. The language is widely taught for all level learners. The main purpose of learning and teaching the language in education is the same; being able to speak and communicate as a native speaker. Since the dominant position in the internet space is occupied by English language content, it is a strong motivation to learn English for those who wish to promote their global competence. The first President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov signed a decree “On measures to further improve foreign language learning system”. According to the decree, foreign languages, mainly English, gradually throughout the country would be taught from the first year of schooling in the form of lesson-games and speaking games. Nowadays, the improvement of language users can be seen everywhere. It has influenced not only in the specialized language schools, but also in military academic lyceums which are called “Temurbeklar maktabi”. “Temurbek Military Schools are militarized boarding schools for boys 14-18. They were founded by decree of President Shavkat Mirziyoyev, on 28 June 2019, in a resolution “On additional measures to improve the system of military-patriotic education of young men and training of a personnel reserve for the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and public service. In accordance with the presidential decree, the duration of study at the schools is two years with an annual admission quota of either 100 or 150 cadets. Graduates of the schools' campuses are generally granted admission into higher military educational institutions of the Armed Forces, where they begin their studies towards an officer's commission. Although these academic lyceums focus on military training and education, their other main aim is to teach their pupils foreign languages properly. Since communication plays the significant role in teaching a new language, it is advisable to focus on communicative

competence. As all learners have different level of English, it is not an easy task to conduct productive lessons. The worst problem is that some learners may have no basic knowledge of English. Language, according to many researchers, is a means of communication, and it comprises four main skills; viz, listening, speaking, reading and writing. To acquire these language skills, one needs not only to learn grammatical rules but also to practice such skills till he gets used to all of them. Whenever s/he acquires the skills of the language and manages to use them effectively and appropriately according to the context in which s/he is involved, we can say that s/he achieves the required level of the communicative competence. Communicative competence means having ‘a competence to communicate’. This competence can be oral, written or even nonverbal. It is an inclusive term that refers to possessing the knowledge of the language as well as the skill to use the language in real life situations for fulfilling communicative needs. [3.B-5]

yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o`rgatish;

barkamol avlodga xos odoblilik san`ati va madaniyatini o`rgatish;

o`zbek xalqining milliy urf-odat, an`ana va qadriyatlarini amalda qo`llash malakalarini shakllantirish;

insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma`naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-ahloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

marakaziy Osiyo mutafakkir va ma`rifatparvarlarning asarlaridagi xikmat, o`git va nasihatlarni o`rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

tabiatga to`g`ri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo`yicha bilimlar berish;

ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

o`z-o`zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va xurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma`naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo`lish, yaxshini-yomondan ajrata olish bilimiga ega bo`lishini tushuntirish;

ta`lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma`naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

o`quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o`rgatish;

darslarda ma`naviy, ma`rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

odob-axloqqa xos sifatlarni o`quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

o`quvchilarda mehnat ko`nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

axloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo`lishi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e`zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi. Bolalarni tarbiyalashda (o`quvchi) o`qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

tarbiyaning o`quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;

o`quvchilarning aqliy-ma`naviy munosabatlari ta`sirini o`rganish;

o`qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san`at va mahorati;

O`quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan`anaviy, suhbat, o`yin, tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyalarni qo`llashda o`qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik – ta`lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o`tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.

2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.

3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o`rganib borish.

4. Tarbiya jarayonida o`quvchi bilan o`quvchi faoliyatini optimal-lashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.

5. Ilmiylik – yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o`quvchilarni mustaqil fikrlash va o`zini anglashga o`rgatish.

6. Buning uchun bolalarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.

7. Ilg`or tajribalarga suyanish.

8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma`naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o`quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o`rinli foydalanish, o`yin teks savollari, ko`rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o`qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo`lishi kerak.

1-2-3-4 sinflarda darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim:

1. O`yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyli va zamonaviyligi bilan odob-ahloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.

2. O`quv mashg`ulotini rang-barang usullar: audio, video, ko`rgazmalilik, jonli so`z ta`sirida tashkil etilishi.

3. O`qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo`lishi va ijodkorligi.

Tarbiyaviy soatlarni maqsadiga ko`ra xilma-xil shakllarida tashkil etish:

1. Ijodiy dars.
2. Yertalik darsi.
3. Baxs.
4. Suhbat.
5. Sayohat darslari.
6. Uchrashuvli dars.

Yangi o`quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televideniye, ma`naviy o`yinlar, mushoiralar qo`llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi u yoki ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og`zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono, ma`rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. Shu asarlardan o`quvchilarni ma`naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyasi odoblighi, uning muomalasida namoyon bo`ladi.



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHDA AFSONA VA RIVOYATLARNING O'RNI**

**Xolikova Sayyoraxon Ilhomjon qizi**

**Andijon viloyati baliqchi tumani 8-maktabning boshlang'ich ta'lim  
o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda afsona va rivoyatlarning o'rni haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** Rivoyat, innovatsion metod, boshlang'ich ta'lim, to'rt pog'onali, Ibn Sino.

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarini afsona va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Afsona va rivoyatlar bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan poklik tuyg'ulariga orzuga bo'ladigan hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at predmetlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi kerak.

Afsona va rivoyatlar qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarni shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllanishga xizmat qiladi. Ayniqsa, darsda o'quvchilarni faolligini oshiradigan ruhiyatlarini shakllantiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr tabiatidan kelib chiqib rollarga bo'lib o'qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qish darslarida afsona va rivoyatlarni o'rganishdan maqsad tarbiyaviy vazifaning hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyatlar, mehnat o'tmish

o'zbek xalq qahramonlari bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim.

Shunga ko'ra afsona va rivoyatlar o'quvchilarni ruhiyatini o'stirishga xizmat qiladi Vatan haqidagi tasavvurlarini boyitib boradi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300, 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so'z o'rgatiladi va bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatilib boriladi. O'quvchilarni so'z boyligini oshirishda, uning ruhiyatini shakllanishida afsona va rivoyatlarning samarasi kuchli bo'ladi. O'quvchilar bilimni rivojlantirish va uning nufuzini oshirishda pedagogik, metodik va psixoplogik tamoyillarga amal qilib, har bir o'qituvchi o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi va tizimli ravishda bolalar ona tili o'qitishning eng maqul uslublarini qo'llash orqali ko'zda tutgan maqsadiga erishishi aniq. O'qituvchi bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish, nutqida tasviriy vositalarni ishlatishga o'rgatishni taminlash kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy talablardan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fiklashga o'rgatishdir.

Turli ta'lim ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang'ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog'i zarur. Yaponiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari afsona va rivoyatlarni ham o'zlashtiormog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o'rni beqiyosdir. Masalan, "Shiroq" afsonasida

Vatanparvarlik, jasurlik, insoniylik olg'a suriladi. Bu asosda bolalar ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o'rgatishda har xil ilg'or vositalar asosida dars jarayonini olib borsak maqsadga erishamiz.

Rivoyatlar har bir sinf kesimida o'rganiladi. 3-sinf o'qish darsligida yettita rivoyat kiritilgan bo'lib, shu rivoyatlarimizdan biri "Ibn Sinoning shogirdlari " rivoyatini quyidagi, "To'rt pog'onali" metod orqali dars jarayonini olib boramiz.

"To'rt pog'onali" metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

"Tushuntirish" bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga avval oddiy rivoyatni o'qib, tushuntirib beradi. "Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish" bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga topshiriqni qanday bajarish

kerakligini amalda ko'rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi, o'quvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o'qituvchi o'z fikrini bildirib, xatolarini to'g'rilab turadi.

"Mashq qilish" bosqichida ta'lim oluvchilarning hatti-harakati o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. O'quvchilar ish amallarini mukammal o'zlashtirganlaridan so'ng, uni mustaqil bajaradilar.

"To'rt pog'onali" metodning asosiy belgisi o'quvchilarning harakatlari O'qituvchi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

"To'rt pog'onali" metodning afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Ibn Sinoning shogirdlari bular quyidagilar:

- Tozalik
- Parhez

- Badantarbiya
- Bemor kayfiyati

Natijaviyligi:

- Ziyraklik oshadi;
- Mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi;
- Qiyosiy o'rganish rivojlanadi.
- So'z ajratish malakasi rivojlanadi.

Bunday interfaol darslarni tashkil etish o'quchilardan darsda faol ishtirok etishni, manbalardan foydalanib, mustaqil yakka holda guruhda jamoa bo'lib bilim olishni mavzu yuzasidan o'z mustaqil fikrini bildirishni talab etadi. Ilg'or pedagogik texnologiya usullari asosida tashkil etiladigan darslar muntazam o'tkazilib borilsa o'quvchida mustaqil bilim olish, olingan bilimlarni tahlil qilib, erkin fikr bildirish tajribasi boshlang'ich sinflardan oq shakllanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

4. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, N.M. Tojiboyeva Pedagogik jaaryonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. -Toshkent : "Sano -standart", 2012.
5. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi seminar trening mteriallari.-T., 2002.
6. Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar Respublika ilmiy- amaliy konfrensiya materiallari Toshkent -2014.

## **BOSHLANG`ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O`QITISH MASALALARI**

**Juraboyeva Qizlarxon Adilovna**

**Andijon viloyati baliqchi tumani 8-maktab boshlang`ich ta`lim o`qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida boshlang`ich ta'limda olib borilayotgan chora- tadbirlar, o`quvchilarni o`qitishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari. Tabiatshunoslik fanini o`qitish bo`yicha tavsiyalar. Interfaol metodlardan namunalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** boshlang`ich ta'lim, tabiatshunoslik, interfaol ta'lim, tabiat, o`lka, "Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot" o'yini.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev o'zining "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli Tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar. Ulardan biri ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish sanaladi.

Umumta'lim maktablarida boshlang`ich ta'limda mavzularni o`qitishda interfaol texnologiyalarni joriy etish o`quvchilar qobiliyatini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilibgina qolmay balki, ularning rivojlanishlarini amalga oshiruvchi, ularni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil ish yuritishga, o'ziga va imkoniyatlariga ishonishlariga, yangiliklarni o'zlashtirishlariga va yaratuvchanlikka undaydi. Bu jarayonda o`quvchilar zerikmaydilar.

Tabiatshunoslik fanini o`qitishda o`quvchilarni jonli tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlar haqidagi tasavvurni shakllantirish orqali

o`quvchilarda go'zal diyorimizga xos jonli va jonsiz tabiat, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqida tasavvurlar shakllantirib borish borasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar tahlil etilgan. Bu orqali o`quvchilarni tabiat bilan tanishtirish, jonli mavjudotlarga qiziqtirish hamda ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni, ularni parvarish qilishda kattalarga yordam berishni o'rgatishdan iborat.

Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim;

-o`quvchilarni o'z o'lkasini sevrishga o'rgatish,

-tabiat bilan tanishtirish orqali o`quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish,

-o`quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish,

-o'zining , tengdoshlari va kattalarning meqnatini qadrlashga o'rgatish,

-tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, qayol, tasavvur, nutq, diqqat),

-o`quvchilarning hissiyotini irodasini rivojlantirish,

- tabiat in'om etgan nematlarni avaylab asrashga o'rgatish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan qolda, o`quvchilarni qar tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali - aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, meqnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Tabiat bilan tanishtirish davomida o`qituvchilar rivojlantiruvchi muhit asosida tajriba ishlarini ham tashkil etish orqali o`quvchilar bilan tabiat hodisalarini kuzatish, qanday? qanday qilib ? nega unaqa ? kabi savollarni o`quvchilar tahlil eta olishiga ko'maklashadilar.

O`quvchilarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida noan'anaviy ta'limiy o'yinlardan foydalanish ham mumkin.

"Qush, hayvon, gul, daraxt, meva, sabzavot" o'yini

Maqsad: Jonivorlar, parrandalar, gullar, sabzovotlarning nomlarini

topib aytishga o'rgatish. Borishi: O`qituvchi o`quvchilarga koptokni otadi, "Qush" desa, o`quvchi-"Bedana" deb javob beradi.

O`qituvchi "Hayvon" desa, o`quvchi "bo'ri", "Gul" desa, o`quvchi "Atirgul" deb javob beradi, "Daraxt" desa, o`quvchi "Chinor" deb javob beradi, "Meva" desa, o`quvchi "Olma" deb javob beradi, "Sabzovot" desa, o`quvchi "Sabzi" deb javob beradi. O'yinda barcha o`quvchilar faol ishtirok etadilar.

"Sevimli jonivorlar" Har bir o`quvchi, agar iloji topilganda, qanday jonivorga aylanib qolishini hohlashini aytadi. Hayvonning nomi unga xos bo'lgan harakatlar bilan ko'rsatiladi.

O`quvchilarning fikrlashi va hissiyotining yuqoriligi ularda birgalikda qayg'urish, kechayotgan hodisalarga mansublik hissini keltirib chiqaradi. SHu sababli o`quvchilarda atrof-muhit hodisalari va odamlarning hatti-harakatlariga qiziqishni ilk o`quvchilik davridan uyg'otish va ularga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Tabiatning rang-barangligi, foydali va zararli tomonlarini tanishtirib borishda interfaol usullardan foydalanish orqali o`quvchini ijodiy izlash, o'z fikrini bayon etishga o'rgatish bilan birga, tabiatni asrab-avaylash, rivojlantirish, boyitish lozimligini o'rgatib boramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni
8. M.Inoyatova, A. Nosirov, M. Diyanova, G.Boymurodova "Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash"
9. "Boshlang'ich ta'lim" jurnal 7-son, 2011.

## **BALIQCILIKNI RIVOJLANTIRISHDA MINERAL OZIQA MODDALARNING ROLI**

**Toshpulatova Nilufar Jurakulovna**

**Samarqand viloyati Ishtixon tumani 8-maktab biologiya fani o`qituvchisi;**

**Bazarova Zarifa Vaydullayevna**

**Samarqand viloyati Ishtixon tumani 56-maktab biologiya fani o`qituvchisi;**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekiston hududida baliqchilikni rivojlantirish chora tadbirlari haqida ma`lumot berilgan bo`lib, baliqchilik xo`jaligini rivojlantirish uchun ularni sifatli oziqa bilan ta`minlash haqida ma`lumotlar keltirilgan. Su bilan bir qatorda o`quvchilar ongida iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish borasida ham so`z borgan bo`lib biologiya darslarida qo`llash uchun foydali sanaladi. O`quvchilarda foyda olish va tabiatni asrash ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: ovlanadigan baliqlar, foydali xususiyat, baliq ikراسi, oziqa turlari, fosfat tuzlari, sho`rlangan suvlar, muhitni belgilovchi omillar, metil zarg`aldog`i, etxo`r baliqlar, o`txo`r baliqlar, baliq chavaqlari, karp turkumi baliqlari, baliqchilikni rivojlantirish, zamonaviy metodlar.

Insoniyat soni yer yuzida ko`paygan sari uning oziq moddalarga bo`lgan talabi ham oshib bormoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari orasida baliq mahsulotlarining o`rni ham beqiyos, chunki baliq mahsulotlari sifatli oqsil bo`lishi bilan bir qatorda undagi vitaminlar inson organizmi uchun foydali va tez singish xususiyatiga ega hisoblanadi. Mamlakatimizda baliqchilik sanoatini rivojlantirish baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy innovatsion usullarini ishlab chiqish va ularning hajmini oshirish va sifatli baliq mahsulotlari bilan taminlash borasida qator chora tadbirlar va loyhalar amalga oshirilmoqda. Buning yorqin misoli sifatida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog`ini boshqarish tizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2939-son qaroriga muvofiq turli ishlar olib borilmoqda bulardan



biri, sifatli baliq mahsulotlarini yetishtirishda ularni oziqlantirish usullari hisoblanadi. [1]

Baliqlarni oziqa mahsulotlari bilan ta`minlashda ularning tarkibida organik oziq moddalar bilan bir qatorda mineral tuzlar ham muhim ahamiyatga ega. Oziqa tarkibidagi mineral tuzlar bugungi kunda faqat suniy oziqalari bilan beribgina qolmay turli baliqlar yetishtiriladigan mikro va makro hovuzlarga suviga eritish orqali ham minerallar bilan oziqlantirish va go`sht sifatini oshish va xushta`m qilish imkonini beradi. [2]

Quydagi jadval asosida turli muhitdagi suv havzalarida solinishi kerak bo`lgan mikro mineral tuz miqdori berilgan.

Kation turi	Suv turlari va tuzning miqdori mg % da			
	Sholipoya oqava suvi	Oqmaydigan suv	Loyqa sho`rtob suv	Chiqindili sizot suv
Ca <sup>+2</sup>	500-720 mg% /m <sup>3</sup>	300-360mg%/m <sup>3</sup>	-	-
Mg <sup>+2</sup>	400-410 mg%/m <sup>3</sup>	100-130 mg%/m <sup>3</sup>	30-40 mg%/m <sup>3</sup>	20-30 mg%/m <sup>3</sup>
Na <sup>+</sup>	150-160 mg%/m <sup>3</sup>	100-110mg%/m <sup>3</sup>	75-85 mg%/m <sup>3</sup>	75-85 mg%/m <sup>3</sup>
K <sup>+</sup>	150-160 mg%/m <sup>3</sup>	100-110mg%/m <sup>3</sup>	75-85 mg%/m <sup>3</sup>	75-85 mg%/m <sup>3</sup>

Yuqoridagi jadval asosida ham ko`rinib turibdiki baliqlarning oziqlanishida mineral tuzlarning o`rni qay darajada muhimligi.

Produtsentlar tomonidan hosil qilingan organik modda baliqchilik havzalarida trofik pog`onalar bo`lib o`zgaradi. Birinchi pog`ona - suv muhitidagi o`simlikxo`rdir. Ikkinchi pog`ona – etxo`rlardir bu ikki tur baliqlar uchun ham albatta suvning mineral tarkibi muhim ahamiyatga ega. Baliqlar yashayotgan muhitda mineral moddalar ko`p bo`lsa ham kam bo`lsa ham ziyon. Shu sababli turli indekatorlar orqali (metil zarg`aldog`i, fenolftalin) muhit doimo o`rganilib turildi. E`tibor berib qaraydigan bo`lsak sho`rlangan muhitdagi va oqava suv

havzalaridan ovlangan baliqlarning mahsulotlari mazali hisoblanadi shu bilan bir qatorda bunday sharoitda baliqlarning ko'payishi sust bo'lganligi sababli baliq chavoqlari olib keltiriladi. Buning asosiy sababi sho'rli suvga chuchuk suv baliqlarining chidamliligi past bo'ladi.

Bundan tashqari baliqlarni oziqlantirishda makro mineral o'g'itlardan ham foydalanadi. Bunday mineral o'g'itlarning asosiy qismini posforli va azotli o'g'itlar tashkil qiladi.[3]

Posforli o'g'itlar	Azotli o'g'itlar
Oddiy superfosfat 70 kg/ga	Ammiakli selitra 55-60 kg/ga
Ikki hissali superfosfat 25 kg/ga	Ammoniy sulfat 30-35 kg/ga
Granulalangan superfosfat 60 kg/ga	

Bunday oziqa bilan oziqlantirilganda ikki baravardan besh baravargacha ortgani malum bo'lgan shu bilan bir qatorda aholi sifati oziqa moddalar bilan taminlanishining ham samarali tarzda amalga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, baliqchilik sanoatini rivojlantirishda baliqlarning mineral oziqlantirish uchun faqat suvlarni oziqlantirish emas balki o'g'itlangan maydonlardan oqib chiqayotgan chiqindi minerallasgan suvdan ham samarali foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa sifatli o'simlik mahsulotlari va oziqbop baliqlarni yetishtirish uchun asosiy omil bo'ladi.

Foydalangan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. I.M. Maxmudova, T.A.Axmedova. Tabiiy va oqava suvlar sifatini baholash va tozalash asoslari. O'quv qo'llanma Toshkent. 2008-158b
3. B.G.Kamilov, F.U.Kengerlinskiy Karp turdagi baliqlarni polikultura usulida yetishtirish asoslari. Toshkent 2017-7b.

**Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida zamonaviy metodlardan foydalanish.**

**Dilfuza Jalgashova Ashirbay qizi (Ashirbaevna)**

**Qoraqolpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani 6-sonli maktab**

**Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi .**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy metodlar, axborot texnologiyalari, pedagogik mahorat, ijodkorlik, ijodiy fikrlash.

Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish.

Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar

shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat -dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media - ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim - tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa

yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. - ishtirokchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki arlash guruhlar uchun o'yinlar:

- ishtirokchilarning soni bo'yicha -yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o'yinlar:

- o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

- vaqt me'yori bo'yicha -dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlardan foydalaniladi.

Bugun barchamizga ma'lumki, axborot kommunikatsiya tizimi jahon miqyosida yuqori darajada rivojlanib bormoqda va bu boshqa sohalar qatori ta'lim jarayoniga ham kirib kelgan va uning yanada sifatli tashkil etilishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy tomonlari doimiy ravishda yangilanib borishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat alohida va murakkab ish turi sifatida istisno emas. Pedagoglar o'z faoliyatida kafolatlangan natijalarga erishishga harakat qilmoqda. XXI asr olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri sifatida e'tirof etilayotgani, pedagogik va axborot texnologiyalari barcha jabhalarda, jumladan, ta'lim-tarbiya sohasida kundan-kun rivojlanib borayotgani, yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviydir. Samarali va boshqa o'qitish usullariga qaraganda yuqori natijalarga olib keladi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da nazarda tutilganidek, pedagogik

va axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari asosida ta'lim jarayonini yangi axborot bilan ta'minlash rivojlanmoqda. Boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, komil inson kamolotining mustahkam poydevoridir. Boshlang'ich ta'lim standartida o'quvchilarning o'qish malakasi va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini nazorat qila olish, nutq madaniyatini puxta egallay olish, yozish va yozish ko'nikmalarini zavq bilan egallash sifatleri alohida qayd etilgan. Ta'lim mazmuniga alohida e'tibor berib, DTS ta'lim dasturlarining yangi talqinlari tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. [1]Boshlang'ich sinfda "o'qish" fani o'quvchilarning fikrlash faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlash, o'z g'ayri fikrini tushunish, o'z fikrini yozma ravishda ravon bayon etish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishga qaratilgan bo'lib xizmat qiladi. Sinfda o'qish darslari uchun qo'yilgan vazifalar:

1. O'qish malakalarini oshirish. O'quvchilarda mukammallik darajasining sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga mehr uyg'otish, kitobdan foydalanishga o'rgatish, undan kerakli bilimlarni olish, ya'ni chuqur tafakkurli, tafakkurli kitobni sevuvchi, kitob bilan ishlashni biladigan kitobxonlarni tarbiyalash.
3. Talabalarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash.
5. O'quvchilar nutqini (asosan og'zaki nutq) va tafakkurini rivojlantirish.
6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining mazmuni:

1. Ta'lim usullarini to'g'ri tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish – ta'lim samaradorligini ta'minlashga yordam beradi.

2. Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

3. O'qitish usuli deganda o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonida kutilayotgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish metodikasi o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatini, o'quv jarayonini qanday tashkil etish va o'tkazishni belgilaydi.

Har ikkala faoliyat uchun o'qitish usullari:

a) o'qituvchi tomonidan talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) o'quvchilar tomonidan berilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.[2]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oson o'zlashtirishlari uchun pedagogik texnologiyalarning metodlari, vositalari va shakllarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'plab usullari qo'llaniladi. Bolalar bog'chasidan keyingi maktabning birinchi davrlari bolaning hayotida muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davr hisoblanadi. Bu vaqtda bolaning savodxonligi bilan birga uning dunyoqarashi shakllanadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Bu davrda bola ongini rivojlantirishga qaratilgan har bir faoliyat bola ongining tarkibi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, bu davrda eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish, motiv yaratish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur. Chunki bu davr bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni tarbiyaviy faoliyatga o'tishi bilan tavsiflanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar o'yin orqali bilimlarini mukammallashtiradilar va chuqur o'rganadilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir[3]. Didaktik o'yinlar o'quv jarayonining

samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning faolligini rivojlantiradi va o'quv jarayonida o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qish motivlari muhim o'rin tutadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'lim mazmunini aniqlash, ta'limning shakl va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng o'zlashtirish va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga qaratilgan vazifalar tizimini ishlab chiqish, ta'lim natijasi va o'zlashtirish darajasini belgilaydi; ularni xolisona baholash uchun test topshiriqlarini tayyorlash kabi tashkil qiladi.[4]

### **Xulosa:**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasini samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, o'qitishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanish usullari, kafolatlangan natijaga erishish uchun ta'lim sohasida olib borilayotgan yangiliklar. 'o'rganish, amaliyotda qo'llash ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lgani uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchining faolligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy va uslubiy jihatdan mukammalligiga bog'liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1. O'qish kitobi. 2-sinf (2010, Q.Abdullayeva, M.Yusupov, S.Rahmonbekova). [1]**
- 2. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008[2].**
- 3. O'qish kitobi. 4-sinf (2017 yil, S. Matchonov, A. Shojalilov)[3]**
- 4.www.edu.uz[4]**



## INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

**Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 38-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi informatika fani o'qituvchisi**

**Abdullayeva Umidaxon**

**Farg'ona viloyati Dang'ara tumani**

**38-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchilari**

**Ubaydullayeva Qizlarxon va**

**Ne'matova Shahnozaxon**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Informatika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar mavzusida so'z boradi. Hamda informatika fani va bu fanning nechog'lik kerakli fan ekanligi haqida yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Informatika, innovatsion yangilik, o'quvchi, mavzu, qiziquvchanlik, O'quv jarayonini.*

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 4-bo'limida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Ushbu me'yoriy xujjatlardi ijrosini ta'minlash maqsadida ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasi sifatida keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Hozirgi vaqtda «innovatsiya» tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. Innovasiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, innovatsion yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovasiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiymadaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga

yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Innovasiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin: – faoliyat yo'nalishiga qarab; – kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra; – kelib chiqish manbaiga ko'ra. Ta'lim jarayonida, shu jumladan informatika fanini o'qitish jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib borishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanga ta'lim jarayoniga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi va bunda talaba asosiy bo'g'inga aylanadi. Innovatsion texnologiyalar informatika fanini o'qitish jarayoniga hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interfaol usullardan to'liq foydalaniladi. Interfaol usullar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Informatika fanini o'qitishni tashkil etishda innovatsion texnolo-

giyalarining asosiy bosqichini texnologik xarita tuzish tashkil etadi Bunda o'tiladigan mavzu yuzasidan vazifalar: – o'quvchilarga mavzu bo'yicha to'g'risida to'liq ma'lumotlar berish. – O'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish, tartibli bardavomlikka mulohazakorlikka mayl uyg'otish. – o'quvchilarda mavzuga doir mashqlarni yechishda darslik bilan mustaqil ishlash, masalalarni o'quvchilarning o'zlariga tuzdirish orqali informatikaga qiziquvchanligini oshirish, zukkolik va ziyrak tuyg'ularini rivojlantirish. – mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat- munozara orqali tarqatma materiallaridagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini oshirish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quv jarayonining mazmuni: o'quvchilarga aqliy hujum, bahsmunozara uyg'unligidagi mavzuni tushuntirish davomida mavzu bo'yicha kerakli tushunchalarni bayon etish, masalalarni masalani yechish qoidalarini o'rgatish, shu qoidalar ustida ishlashni o'rgatish, savol-javob va musobaqa shakldagi topshiriqlarni bajarish ustida ishlash orqali yangi mavzuni mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasida esa aqliy hujum, bahsmunozara, musobaqa, amaliy mashg'ulot kichik guruhlarda, jamoada va individual ishlash, plakatlar, tarqatma materiallar, o'quvchilar tomonidan tuzilgan mavzuga oid misollar tayyor yozma materiallar, chizmalar plakatlar asosida tushuntiriladi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimi og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z – o'zini, o'quvchilarning bir – birlarini nazorat qilishi orqali tekshirilib, 5 ballik tizim asosida baholanadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. “2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Prezidenti farmoni. 7-fevral 2017 yil.
2. Уваров А. Информатика в школе: вчера, сегодня, завтра // Информатика и образование, 1990, №4.
3. Иванов М. Пути совершенствования методов преподавания в высшей школе// Совр.высш.школа, 1982. №3.

# MUNDARIJA

<b>Maqola mavzusi</b>	<b>Sahifasi</b>
<b>Qonun ustivorligi-taraqqiyot asosi</b>	2-5
<b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA TAFAKKURNING O'SISHIDA AFSONA VA RIVOYATLARNING O'RNI</b>	6-11
<b>Современные технологии в развитии креативных способностей детей дошкольного возраста</b>	12-16
<b>Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy tarbiyalash omillari</b>	17-21
<b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI</b>	22-27
<b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITUVCHILARIDA KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI</b>	28-37
<b>Fizika</b>	38-51
<b>KOMPYUTER TEXNOLOGIYASI LARINING TALIM MUAMMOLARI</b>	52-56
<b>Современные технологии в развитии креативных способностей детей дошкольного возраста</b>	57-61
<b>Recent developments of syllabus and curriculum design in foreign language instruction</b>	62-69
<b>ELEKTR XIMOYA QOPLAMI XOLATINI MODERNIZATSIYA QILISH</b>	70-73
<b>O'ZBEKISTONLIK EKANLIGIMDAN FAXRLANAMAN</b>	74-78
<b>PIRLS TIZIMINI BOSHLANG'ICH SINFLARDA QO'LLASHNING AHAMIYATI</b>	79-83
<b>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAVODXONLIGI BO'YICHA PISA DASTURINI QO'LLASH SAMARADORLIGI</b>	84-87
<b>HOZIRGI BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH JARAYONIGA QOYILADIGAN TALABLAR</b>	88-91
<b>ENGLISH IS FUN (WITH GAMES)</b>	92-95
<b>Basketbol o'yini texnikasi hamda basketbol o'yinida foydalaniladigan taktikalar.</b>	96-100
<b>Python dasturlash tilini o'rganish.</b>	101-104
<b>KOMIL INSON TARBIYASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING AHAMIYATI</b>	105-107
<b>TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKDAN FOYDALANISH</b>	108-113
<b>Maqol ibratning kalitidir</b>	114-115
<b>Tarix darslarida axborot texnologiyalari va zamonaviy usullarni qo'llashning samarasi</b>	116-126
<b>TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA NAZARIY-AMALIY YONDASHUVLAR</b>	127-132